

11 1304

GAYUBOVA KOMILA ANVAROVNA
YULANOVA NARGIZA DAVLATOVNA

AKADEMIK YOZUV



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

**GAYUBOVA KOMILA ANVAROVNA
YULANOVA NARGIZA DAVLATOVNA**

AKADEMIK YOZUV

O‘quv qo‘llanma

60310500	Raqamli iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha)
60320400	Kutubxona-ahborot faoliyati (faoliyat turlari bo‘yicha)
60412800	Elektron tijorat
60610300	Axborot havfsizligi (sohalar bo‘yicha)
60610500	Kompyuter injiniringi (“Kompyuter injiniringi”, “AT-servisi”, “Multimedia tehnologiyalari ”)
60610600	Dasturiy injiniring
60610700	Sun’iy intellekt
60610700	Sun’iy intellekt (qo‘shma dastur)
60610800	Ahborottehnologiyalariningdasturiya’mnoti (?o‘shma dastur)
60610900	Dasturlanuvchimobiltizimlar (qo‘shma dastur)
60611000	Telekommunikatsiya tehnologiyalari (“Telekommunikatsiyalar”, “Teleradioeshittirish”, “Mobiltizimlar”)
60611100	Televiziontexnologiyalar (“Audiovizual tehnologiyalar”, “Telestudiya tizimlari va ilovalari”)
60611200	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida iqtisodiyot va menejment
60611300	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida kasb ta’limi
60611400	Pochta aloqasi texnologiyasi
60612000	Infokommunikatsiya injiniringi
60612100	Kiber xavfsizlik injiniringi
60711500	Mexatronika va robototexnika

1 bosqich bakalavriat bo‘limi talabalari uchun

Toshkent 2022

УДК

**TATU ilmiy kengash muhokamasida tasdiqlangan (2022 yil 7 aprel,
8(721)-son bayonnomma)**

Tuzuvchilar: K.A.Gayubova

N.D.Yulanova

Taqrizchilar:

Alisher Navoiy nomidagi TDO'TAU proffesori, p.f.d. R.X.Niyozmetova

Nizomiy nomidagi TDPU dotsenti, f.f.n. G.A.Narimona

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU dotsenti, PhD. S.X.Abdullayeva

**Akademik yozuv (1 bosqich bakalavriat bo‘limi talabalari uchun o‘quv
qo‘llanma) – Toshkent: TATU. 2022. - 263 bet**

O‘quv qo‘llanma 1 bosqich talabalari uchun akademik yozuv fani o‘quv dasturi asosida tuzilgan (26.08.2021y_).

Maskur qo‘llanma bakalavriatning barcha yo‘nalishlari bo‘yicha ta’lim oladigan guruhlari uchun tuzilgan bo‘lib, akademik nutqning asosan yozma turini qamrab oladi. Qo‘llanma talabalarga ilmiy va ommabop uslubga doir materiallar, ya’ni matnlar, ularning turlari, har bir matnda aks etishi lozim bo‘lgan ma’lumotlar, axborotlar, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma’naviy hayotimizga oid hamda o‘rganayotgan mutaxassisliklariga doir terminlar, ularni tanlashdagi o‘ziga xos xususiyatlarni o‘rgatish uchun mo‘ljallangan.

Mavzularda berilgan nazariy ma’lumotlar topshiriq va mashqlar bilan mustahkamlanadi. Qo‘llanmada talabalarning kasbiy lingvistik dunyoqarashini kengaytirishga hamda nutqiy mahoratini oshirishga yo‘naltiruvchi materiallar berilgan.

**TATU ilmiy – uslubiy kengash muhokamasida tasdiqlangan (2022 yil
23 fevral, 7(153)-son bayonnomma)**

MUNDARIJA

Kirish.....	5
1-mavzu. Akademik yozuv va axborot ..	8
2-mavzu. Axborotning turlari va xususiyatlari..	17
3- mavzu. Matn va uning turlari.....	36
4- mavzu. Matn hosil qiluvchi vositalari..	44
5- mavzu. Matnni ma’noviy qismlarga bo‘lish tamoyillari.	50
6- mavzu. Reja. Rejaning turlari..	57
7- mavzu. Konspekt. Konspekt turlari..	69
8- mavzu. Nutq uslublari.....	77
9- mavzu. Ilmiy uslub va rasmiy- idoraviy uslublarning leksik-grammatik xususiyatlari.....	85
10- mavzu. Publitsistik uslub va og’zaki uslublarning leksik-grammatik xususiyatlari.	94
11- mavzu. Annotatsiya yozish.	103
12- mavzu. Esse haqida tushuncha.	120
13- mavzu. Esse turlari.....	131
14- mavzu. Referat. Referat turlari.	138
15- mavzu. Referat tarkibidagi klishelangan jumlalar.	147
16- mavzu. Ilmiy uslub janrlari. Ilmiy sharh..	156
17- mavzu. Ilmiy uslub janrlari. Kurs ishi..	164
18- mavzu. Doklad. Doklad tuzilmasi..	170
19- 20- mavzu. Loyiha. Loyiha tavsifi	185
21- 22- mavzu. Tezislар. Tezis turlari. Tezislар yozish uslubi.....	191
23- 24-mavzu. Taqriz matni. Taqrizning turlari	201
25- mavzu. Taqrizning tuzilishi.	207
26- 27-mavzu. Taqdimot nutqi.Taqdimotning tarkibi	215
28- 29-mavzu. Ilmiy tadqiqot matnini yaratish. Iqtibos keltirish. Parafraza....	233

30- mavzu. Ilmiy matnda dalillar, obyektlar, jarayonlar va xulosalarning berilishi.....	242
Glossariy.....	250
Foydalanilgan adabiyotlar.....	260

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishib, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo‘lidan borayotgan bugungi kunda dunyo andozalari darajasidagi bilimdon, zukko, har tomonlama etuk mutaxassis kadrlarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur fan talabalarga matnlar, ularning turlari, har bir matnda aks etishi lozim bo‘lgan ma’lumotlar, axborotlar, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma’naviy hayotimizga oid hamda o‘rganayotgan mutaxassisliklariga doir terminlar, ularni tanlashdagi o‘ziga xos xususiyatlarni o‘rgatish uchun mo‘ljallangan.

Bu esa ta’lim andozalariga yangi, zamонавиу fanlarni kiritish orqali amalga oshiriladi. Endilikda respublikamizdagи barcha korxonalarda yuritiladigan hujjatlarni o‘zbek tili qonun-qoidalariga mos ravishda rasmiylashtirilishiga erishishdek ulkan vazifa hammamizning oldimizda turibdi.

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” va “Ta’lim to‘g’risida”gi qonun talablaridan kelib chiqqan holda Toshkent axborot texnologiyalari universiteti bakalavrlariga “Akademik yozuv” fani kiritildi.

Bu fanni o‘qitishdan maqsad bakalavrda mutaxassislik tili, mutaxassislik terminologiyasi, mutaxassislik matni, mutaxassislik nutqi asoslarini shakllantirishdan iboratdir.

Shunga ko‘ra universitet talabalari uchun “Akademik yozuv” kursining kiritilishi maqsadga muvofiq ish bo‘ldi.

“Akademik yozuv” fani nutq madaniyati va o‘zbek tilining boshqa sohalari bilan chambarchas bog’liqdir. Bakalavr o‘z mutaxassislik fanlari bilan bir qatorda mutaxassislik tili va uslubi, mutaxassislik terminologiyasi va atamashunoslik, ish yuritish va hujjatchilik to‘g’risida mukammal bilimga ega bo‘lmasdan turib, o‘z fikrinimutaxassislik sohasiga qo‘yiladigan talablar asosida aniq va ravshan ifoda eta olmaydi. Shunga ko‘ra, bo‘lajak mutaxassislar fan va texnika tilining o‘ziga xos xususiyatlaridan puxta xabardor bo‘lmog’i lozim.

Bakalavrlar o‘z ixtisosligidan kelib chiqqan holda, respublikamiz iqtisodini yuksaltirishga, uni jahonda munosib o‘rin egallashiga hissa qo‘sadi, chet

mamlakatlarda va yurtimizda davlatimiz manfaatini himoya qiladi, kuch-qudratini namoyish etadi. Shunga ko‘ra, bo‘lajak mutaxassislar davlat tili – o‘zbek tilini mukammal, aniq va ravshan egallashlari shart. Shuning uchun dasturda mutaxassislik tili bilimlariga alohida urg‘u berildi.

Hozirgi kunda o‘zbek tilining ijtimoiy mavqei tobora ortib borayotganligi, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi va imlo qoidalarining joriy etilganligi, ish yuritishda to‘liq davlat tiliga o‘tilganligi barcha mutaxassislarning millatidan qat’iy nazar, o‘zbek tilini puxta egallashlarini taqozo etmoqda.

Shu bois, mazkur o‘quv kursining o‘qitilishi muayyan amaliy yo‘nalishga ega bo‘lib, bakalavr mutaxassislik tili bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni, o‘z sohasiga oid so‘z va terminlarni, hujjatlarni to‘g’ri yozish malakasini hosil qilishni ko‘zda tutadi.

Bo‘lajak mutaxassisning kasbiy layoqati va mahorati hozirgi davrda o‘z kasbining madaniyati asoslari hamda notiqlik me’yorlarini ham bilishni taqozo etmoqda.

Fanni o‘qitish tamoyillari, mazmuni va uslubini o‘zgartirib, talabalarning yozma nutqiy ko‘nikmalarni takomillashtirish, o‘zbek tilining boy imkoniyatlaridan o‘z mutaxassisligi bo‘yicha foydalanish, fikrini to‘g’ri, aniq, mantiqli ifoda etishga o‘rganishni ko‘zda tutadi. Shularni nazarda tutib, o‘quv qo‘llanma nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan kommunikativ tamoyilga asoslanib tuzildi. Nazariy bilimlar fikr ifodalash vositasi bo‘lib, asosiy maqsadning amalga oshishiga xizmat qiladi.

Qo‘llanmada nutq uslublariga, jumladan, ilmiy, publitsistik, ilmiy-ommabop va rasmiy-idoraviy uslublarga keng o‘rin ajratilib, talabaning o‘z mutaxassisligi sohasi bo‘yicha ulardan foydalanib, matn yaratish ko‘nikmasi hosil qilinadi.


Qo‘llanmada talaba oldiga ilmiy, publitsistik, badiiy adabiyotlarni o‘qib tahlil qilish, mutaxassislik sohasida matn yaratish, matnni tarjima qilish, uni shakl va mazmun jihatdan yangilash kabi talablar qo‘yildi.

Nazariy ma’lumotlar ixcham shaklda berilib, eng muhim jihatlarigina keltiriladi. Mavzuni mustahkamlash bo‘yicha topshiriqlar va mashqlar ishlab

chiqildi. Nutqiy mavzularni hamda nazariy ma'lumotlarni mustahkamlash uchun savollar, mashqlar va klaster, sinkveyn, Venn diagrammasi, T-sxema, konseptual jadval singari ijodiy topshiriqlar berildi. Shuningdek, davlat tilida ish yuritish, suhbat, bahslashuv orqali mustaqil yozma ishlarni uyushtirish, matn tuzdirish talabalarning ixtisosligiga ko'ra belgilanadi.

O'quv qo'llanmada talabalar mustaqil ta'lim olishlari uchun qo'shimcha materiallar berilgan.

1- mavzu. Akademik yozuv va axborot. Axborot turlari



Nazariy ma'lumot.

Akademik yozuv – bu qisqa va ishonchli ilmiy matn yordamida o‘z fikrini bayon qilish hamda asoslay olish qobiliyati. Bu oliv ta’limda muvoffaqiyatli bilim berishning hamda keyingi ilmiy-tadqiqot faoliyati, shuningdek xalqaro miqyosda ham muhim aspektlaridan biri hisoblanadi. Akademik yozuv yordamida oxirgi o‘n yilliklar ichida turli mamlakatlar orasida ilmiy va ta’limiy kommunikatsiya amalga oshirilib kelinmoqda. Uning tamoyillariga butun dunyodagi eng kompetentli ilmiy nashrlar redaktorlari amal qiladilar, shuning uchun hamma istalgan fan bo‘yicha ma'lum bir yutuqlarga erishmoqchi bo‘lsa, bularni egallashi lozim.

Akademik yozuv – bu ilmiy ishlarni bayon qilish uslubi. U ilmiy ishlarda fikrlarni qisqa va tushunarli shaklda bayon qilish qobiliyatini aks ettiradi. Bu uslubda quyidagilarni farqlash mumkin:

- matnning tuzilishi va uni rasmiylashtirishga qo‘yiladigan talablarning mavjudligi;
- ilmiy va publitsistik bayon qilish uslubini qo‘llash;
- dalillar keltirish va jumlalarni o‘zgartirib ifodalash;
- havolalarni to‘g’ri joylash va adabiyotlar ro‘yxatini to‘g’ri shakllantirish qobiliyati.

Akademik yozuv uchun shaxsiy fikrni bildirish emas, balki keltirilgan muammoga e’tiborni qaratish xarakterli (o‘ziga xos). Birinchi shaxs o‘rniga uchinchi shaxsni qo‘llash, og’zaki nutqni, qisqartmalarni, iboralarni qo‘llamaslik afzalroqdir. Boshqa uslublardan farqli o‘laroq, materialni yaxshi o‘zlashtirish maqsadida bir so‘zni bir necha bor qaytarish mumkin, sinonimlarni kamroq ishlatish kerak.

Bayon qilishning akademik uslubi oliy ta'lim muassasalarida davlatlar o'rtasida ta'limiy va ilmiy aloqalarni olib borishda qo'llaniladi. Uning yordamida talabalar, aspirantlar va malakali olimlar doklad, kurs ishi yozadilar hamda o'zga davlatlarda ilmiy-tadqiqot faoliyatini olib boradilar.

Xalqaro ilmiy jurnallar redaktorlari bu uslub tamoyillariga tayanadilar, shuning uchun ilm dunyosida muvoffaqiyatga erishmoqchi bo'lgan hamda chet ellarda ilmiy ishlarini chop etmoqchi bo'lgan harbir olim bu uslubni egallashi lozim.

Chet eldag'i davlatlarda tadqiqotchilar uzoq yillardan beri akademik yozuvdan foydalanadilar. Bundan tashqari, ingliz tilida so'zlashuvchi olimlar uning rivojiga hissa qo'shib kelmoqdalar. Bizning mamlakatimizda akademik uslub bo'yicha bilimlar keng tarqalmagan, vaholanki bu muammoning yechimi bilan bir qator olimlar – filologlar, lingvistlar, sotsiopsixologlar, axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassislar shug'ullanadilar.

Axborot haqida tushuncha

«Axborot» so'zi lotincha informatio so'zidan kelib chiqqan bo'lib, ma'lumot, tushuntirish, tanishtirish kabi ma'nolarni anglatadi. "Axborot" tushunchasiga bir nechta ta'riflar berilgan. "Axborot" atamasi lotincha "informatio" dan kelib chiqqan bo'lib, tarjimada "bayon qilish, tushuntirish, mulohaza qilish" degan ma'noni anglatadi. "Axborot" atamasi lotincha "informatio" dan keladi, ya'ni ma'no - bayonot , tushuntirish, mulohaza yuritish.

Sanoat inqilobi boshlanishidan avval axborot so'zi faylasuflar tomonidan qo'llanilgan. XX asrda axborot nazariyasi masalalari bilan kibernetika va informatika shug'ullana boshlagan.

Hozirgi vaqtida axborotning ilmiy termin sifatida yagona ta'rifi mavjud emas. Turli bilim sohalarida ushbu tushuncha o'zining maxsus belgilari orqali ifoda etiladi. Masalan, «axborot» tushunchasi informatika kursida bazaviy hisoblanadi, unga “oddiy” tushunchalar orqali ta'rif berib bo'lmaydi (shuningdek, geometriyada, masalan, «nuqta», «o'q», «tekislik» kabi bazaviy tushunchalarni sodda tushunchalar orqali mazmunini berib bo'lmaydi). Barcha fanlarda asosiy,

bazaviy tushunchalar mazmuni misollar orqali berilishi yoki boshqa tushunchalar bilan qiyoslash orqali aniqlanishi lozim. «Axborot» tushunchasi umumilmay tushuncha bo‘lganligi sababli, unga ta’rif berish murakkabdir. Ushbu tushuncha turli fanlarda qo‘llaniladi (informatikada, kibernetikada, biologiyada, fizikada va b.).

Axborot deb inson sezgi organlari orqali qabul qiladigan barcha ma’lumotlarga aytildi. Inson sezish a’zolari, texnikada turli asboblar va hokazolar yordamida qayd etiladigan tashqi dunyo dalillari **ma’lumotlar** deb ataladi. Ma’lumotlar aniq vazifalarni hal etishda zarur va foydali deb topilsa axborotga aylanadi.

Axborot deganda atrof-muhitdan (tabiatdan yoki jamiyatdan), sezgi a’zolarimiz (ko‘z, qulqoq, burun, og’iz, teri) orqali qabul qilib, anglab oladigan har qanday ma’lumotni tushunamiz .

Ma’lumot xabar shaklida uzatiladi Axborot xabar shaklida uzatiladi. Xabar - bu har qanday ma’lumotning nutq, matn, rasm, raqamli ma’lumotlar, grafikalar, jadvallar va boshqalar ko‘rinishidagi shakli. Xabar-bu har qanday ma’lumotlarning nutq, matn, rasm, raqamli ma’lumotlar, grafikalar, jadvallar va boshqalar.

Ma’lumotlarning axborotdan farqi nimada? Ma’lumotlar - bu ba’zi bir sabablarga ko‘ra ishlatilmaydigan, faqat saqlanadigan narsalar va hodisalarini kuzatish natijalari. Ma’lumotlar har qanday amaliy maqsadlarda ishlatila boshlanishi bilanoq, ular ma’lumotga aylanadi. Axborot - bu ishlatilgan ma’lumotlar.

Axborot va ma’lumotlarga misollar. Oliy matematika qo‘llanmasi - bu kitob matematika uchun ma’lumot manbai, ammo biolog yoki filolog uchun tushunarsiz bo‘ladi, shuning uchun unda yozilganlarning barchasi ushbu mutaxassislar uchun ma’lumot bo‘ladi.

Savollar:

Ma’lumotlarga misollar keltiring va ularning axborotga aylanish shartlari;
Ma’lumotlar va axborotlar o‘rtasidagi farqlarni ko‘rsatadigan misollar keltiring;

Turli xil shakllarda taqdim etilgan bir xil ma'lumotlarga misollar keltiring; Kundalik hayotda uchraydigan kerakli va foydali ma'lumotlarga misollar keltiring. Axborotning xususiyatlari uni oladigan kishiga bog'liqmi. Javobingizni tushuntiring.

Informatika atamasi 1960 yillarda fransuz olimlari tomonidan kiritilgan.

Informatika atamasi lotincha Informatic so'zidan kelib chiqqan bo'lib, tushuntirish, xabar qilish, bayon etish ma'nosini anglatadi. Ingliz tilida bu atamaga Computer sciience (kompyuter haqidagi fan) sinonimi mos keladi.

Informatika kompyuter texnikasining rivojlanishi tufayli yuzaga keldi, unga asoslanadi, usiz mavjud bo'la olmaydi va o'z navbatida uning rivojiga, yangilanishiga o'z hissasini qo'shami.

Informatika – axborot texnologiyalari vositalari yordamida axborotni taqdim etish, qabul qilish, saqlash, unga ishlov berish, uzatish usullarini, ya'ni axboriy jarayonlarni va axborot texnologiyalari vositarining faoliyat ko'rsatish tamoyillarini, ularni boshqarish usullarini sistemali ravishda o'rganuvchi fandir.

Informatikada analog (uzluk-siz) va raqamlı (diskret) axborotlar ishlataladi. Inson sezgi a'zolari analog (uzluksiz) axborot bilan ish ko'rishga moslashgan bo'lsa, hisoblash texnikasi esa raqamlı (diskret) axborot bilan ishlaydi.



Matn yuzasidan savol va topshiriqlar

1-topshiriq. Matn bilan ishlang.

Nutq odobi



Nutq, nutq odobi insonning ma’naviyatini-ma’rifatini belgilovchi asosiy mezondir.

Demak, kishining odobi, eng avvalo, uning nutqida ko‘rinadi.

Nutq odobi nima?

Nutq odobi deganda, aytilishi zarur bo‘lgan xabarlarni, tinglovchini hurmat qilgan holda, uning ko‘ngliga mos holda adabiy me’yordagi ifodalar bilan yetkazishdir. Xunuk xabarni ham tinglovchiga beozor yetkazish mumkin. Buning uchun so‘zlovchi tilni mukammal bilishi kerak. Muloyim, yoqimli, odobli so‘zlash ham o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Unga yoshlikdan ibratli kishilarga taqlid qilish, ulardan o‘rganish orqali erishiladi. O‘quvchi uchun esa eng yaxshi namuna o‘qituvchidir. Buni o‘qituvchi har doim his qilib turishi kerak.

Nutq odobi salomlashishdan boshlanadi. Salomlashishdagi xushmuomalalik undan keyingi yaxshi suhbatga debocha bo‘ladi, tinglovchida yaxshi kayfiyat paydo qiladi. Salomlashishning ahamiyati haqida hindlarda shunday naql bor: «Bitta salom bilan beshta narsaga - o‘zini yengil sezish, shon-shuhrat topish, qutbarakali, ilmli bo‘lish va nihoyat uzoq umr ko‘rishga erishiladi».

Ha, salomda gap ko‘p, salomlashish, salom berishning ham o‘ziga yarasha qonun-qoidalari bor. Afsuski, o‘zimizning sharqona salomlashish odobimizga yetarli darajada e’tibor bermayapmiz.

Avvalo, har bir kishi salomlashish ham farz, ham qarz ekanligini yaxshi anglab yetmog’i lozim. Chunki «So‘z boshi - salom», deganlaridek, suhbatdoshlar muloqoti «assalomu alaykum», «vaalaykum assalom» jumlalari bilan boshlanadi. Bu suhbatdoshlarning tanish yoki notanishligidan qat’iy nazar o‘zaro hurmat va ehtirom belgisi hisoblanadi. Ammo keyingi paytlarda biror joyga kirib borayotgan, telefonda suhbat boshlayotgan kishilarning salomlashishni unutib borayotganligiga tez-tez guvoh bo‘lib qolmoqdamiz.

Xalq tilida salomlashish uchun ham, xayrlashish uchun ham alohida nutqiy vositalar mavjud. O‘qituvchi ularni o‘z o‘rnida ishlatishda hamma uchun va o‘z shogirdlari uchun o‘rnakdir.

Madaniyatli kishi o‘z aybini bo‘yniga ola bilishi, aybi uchun kechirim so‘rashni ham bilishi lozim. O‘z aybi uchun uzr so‘rash o‘z g’ururini yerga urish emas, balki odoblilik, xushmuomalalik alomatidir.

Yetuk kishiga xos fazilatlardan yana biri xayrlashuv odobidir. Tilimizda xayrlashganda ishlataladigan «xayr, sog’ bo‘ling», «xayr, ko‘rishguncha», «xayr, omonlikda ko‘rishaylik» kabi ta’sirchan iboralar mavjud. O‘qituvchi sinfdan chiqayotganda «xayr, sog’ bo‘linglar», «xayr, yaxshi qolinglar» iboralarini ishlatsa, o‘rinli bo‘ladi.

Bolaga yaxshilik qilgan, aytilgan yumushni, iltimosni bajargan kishilarga o‘z vaqtida minnatdorchilik bildirish odobini ham o‘rgatib borish lozim. Tilimizda rag’batlantirishni, minnatdorchilikni anglatadigan chiroyli ifodalar bor. Ularni kundalik muomalaga kiritish, o‘z o‘rnida ishlatish kishi xulqini naqadar bezaydi. O‘qituvchi topshiriqni yaxshi bajargan o‘quvchilar-ni «ofarin», «barakalla», «rahmat», «otangizga rahmat», «minnatdorman» kabi so‘zlar bilan rag’batlantirishi lozim.

«Har bir kishining madaniylik darajasi, o‘qib qanchalik tarbiya ko‘rganligi uning yozma va og’zaki nutqidan bilinadi» (S.Ibrohimov).


Tilning dunyoni bilish, bilimlarni to‘plash, saqlash, keyingi avlodlarga yetkazish, ruhiy munosabatlarni aks ettirish, go‘zallik kategoriylarini voqelantirish kabi qator vazifalarni bajarishiga qaramasdan, uning asosiy funksiyasi kishilar o‘rtasidagi aloqani ta’minlashdir.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar

1. *Matnni o‘qing. Matndan nutq odobiga doir atamalarni ko‘chirib yozing.*
2. *Matndagi fikrlarga o‘z munosabatingizni bildirib mazmunini so‘zlab bering.*
3. *Kasbiy faoliyatda nutq madaniyatining ahamiyati haqida gapirib bering.*

2- topshiriq. *FSMU jadvalini tuzing.*

Bunda beqiyos odob namunasi bu, avvalo, o'qituvchining go'zal nutqida o'z ifodasini topadi, - degan fikrga asoslaning.



3-topshiriq. Quyidagi so'z va so'z birikmalarining ma'nolarini izohlang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Axborot bermoq, bayonna, so'zga chiqmoq, so'z olmoq, so'z bermoq, ovoz bermoq, muhokama qilmoq, tavsiya etmoq, tayinlamoq, tasdiqlamoq, muhokamada chiqmoq, faol qatnashmoq, hay'at saylamoq, zimmasiga yuklamoq, topshirmoq, ta'sis etmoq, qaror qilmoq, ma'ruza qilmoq, fikrmulohaza bildirmoq.

4 - topshiriq.



Ekologik muammolar

Aholi sonining yildan yilga oshib borishi sanoat va transportning rivojlanishi, fan-texnikaning taraqqiy etishi insonning biosferaga ko'rsatayotgan ta'sir doirasini kengaytirib bormoqda. Bu esa o'z navbatida u yoki bu ekologik muommolarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Ekologik muammo deganda insonning tabiatga ko'rsatayotgan ta'siri bilan bog'liq holda tabiatning insonga aks ta'siri, ya'ni uning iqtisodiyotiga, hayotida xo'jalik ahamiyatiga molik bo'lgan jarayonlar, tabiiy hodisalar bilan bog'liq (stixiyali talofatlar, iqlimning o'zgarishi, hayvonlarning yalpi ko'chib ketishi va boshqalar) har qanday hodisa tushuniladi. Ekologik muammolar 3 guruhga bo'linadi.

1. Umumbashariy (global)
2. Mintaqaviy (regional)
3. Mahalliy (lokal)

Dunyo bo'yicha kuzatiladigan tabiiy, tabiiy antropogen yoki sof antropogen hodisalar umumbashariy muammolar deb qaraladi. Ana shunday umumbashariy muammolarga ba'zi bir misolar keltirish mumkin:

Ozon qatlaming siyraklanishi. Ozon qatlami atmosferaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi, u iqlimga va yer yuzasidagi barcha tirik organizmlarni nurlanishdan saqlab turadi. Ozon quyosh nurlari ta'sirida kislorod, azot oksidi va boshqa gazlar ishtirokida hosil bo'ladi. Ozon kuchli ultrabinafsha nurlarni yutib olib, yer yuzidagi tirik organizmlarni himoya qiladi. Ultrabinafsha nurlarning ortishi tirik organizmlarga salbiy ta'sir etadi. Ultrabinafsha nurlar ta'sirida nurlanish odamlarda terining kuyishiga olib keladi. Bugungi kunda teri raki bilan kasallanish ushbu nurlar ta'sirida kelib chiqayotganligi aniqlangan.

Chuchuk suv muammosi. Chuchuk suvning biosferadagi roli juda katta. Gidrosferada chuchuk suv miqdori juda oz bo'lib, u 2,8 % ni tashkil etadi. Chuchuk suv zahirasi asosan qutblardagi muzliklardir.

Jamiyatning rivojlanishi bilan aholining chuchuk suvgaga bo'lgan talabi ortib bormoqda. Bizning asrimizda chuchuk suvdan foydalanish 7 marta ortgan. Yiliga 3 – 3,5 km³ suv sarflanmoqda. XXI asrga borib ushbu ko'rsatkich 1,5 – 2 marta ortish imkoniga ega. Daryolarning umumiy yillik oqimi yer yuzi bo'yicha 50 ming km³. Ammo bunday foydalanishda chuchuk suv yetishmasligi aniq.

Qurg'oqchil mintaqalarda daryolardan to'liq foydalanilganda ularning suvi yetmay qolmoqda. 1980 yillarda bunday holat Afrika, Avstraliya, Italiya, Ispaniya, Meksika davlatlari, Nil, Sirdaryo, Amudaryo va ba'zi bir boshqa daryolarda kuzatila boshlandi. Daryolarning sanoat va maishiy zaharli moddalar bilan ifloslanishi o'sib bormoqda. Sanoat yiliga 160 km³ sanoat oqova suvlarini daryolarga tashlaydi. Bu ko'rsatkich daryolarning umumiy suv miqdorining 10% ni, ba'zi rivojlangan mamlakatlarda 30% ni tashkil etadi. Daryo toza suvlarida yildan yilga har xil erigan moddalar, zaharli kimyoviy moddalar va bakteriyalarning miqdori ortib bormoqda.

Tirik tabiatdagi o'simlik va hayvon turlari sonining qisqarishi muammosi. Yer yuzidagi hayotni ta'minlashda o'simliklar dunyosi, ayniqsa, o'rmonlarning ahamiyati beqiyosdir. Hozirgi vaqtida yer yuzi quruqligining 25 % ni o'rmonlar tashkil etadi. Ular shimoliy yarim sharda va tropik mintaqalarda tarqalgan. Biroq hozirgi kunda o'rmonlarning holatini yaxshi deb bo'lmaydi. Chunki, har yili 3 mlrd.m³ hajmda o'rmonlar qirqilmoqda. FAO ma'lumotlariga ko'ra bu ko'rsatkich yaqin yillar orasida 1,5 martaga ortishi mumkin.

Insoniyatni, ayniqsa, tropik va subtropik o'rmonlar muammosi tashvishiga solmoqda. U yerdarda yiliga dunyo miqyosidagi qirqilishi kerak bo'lgan o'rmonlarning yarmidan ko'pi kesib tashlanmoqda. 160 mln.gektar tropik o'rmonlar vayron bo'lgan, atiga yiliga 11 mln. gektar maydon tiklanmoqda. Floraning kamayib ketishi «Qizil kitob» yaratilishiga sabab bo'ldi.

Matn yuzasidan savollar:

1. Matn sxemasini tuzig.

- *bosh axborot*
- *ikkinchi darajali axborot*

2. Ekologik muammolarning qanday guruhlarini bilasiz?

3. O'zbekiston hududida ularning qaysi turlari kuzatiladi?

4. Tabiat haqida xalq maqollaridan namunalar yozing.

5- topshiriq. Matn bo‘yicha Insert jadvalini to‘ldiring.

V	+	-	?


V – ma’lum bo‘lgan axborot

+ - yangi axborot

- - biganlarimga zid

? – to‘ldirish kerak

2-mavzu. Axborotning turlari va xususiyatlari




Nazariy ma’lumot.

Axborotni klassifikatsiyalash (tasniflash)

Axborotlarni turli mezonlar bo‘yicha turlarga bo‘lish mumkin:

O‘zlashtirish usuli bo‘yicha:

<i>Ko‘rish orqali</i>	→	ko‘rish organlari orqali qabul qilish.
<i>Eshitish orqali</i>	→	eshitish organlari orqali qabul qilish.
<i>Sezish orqali</i>	→	tashqi sezish retseptorlari orqali qabul qilish.
<i>Hid bilish orqali orqali</i>	→	hid bilish retseptorlari orqali qabul qilish.
<i>Maza bilish oraali</i>	→	maza bilish retseptorlari orqali qabul qilish.



Taqdim etish shakli bo'yicha:



Vazifasi bo'yicha:

Ommavi

- xalqning katta qismiga tushunarli bo'lgan tushunchalar va bema'ni ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Maxsus

- maxsus tushunchalarni o'z ichiga oladi, ularni qo'llashda shunday ma'lumotlar ishlatalidiki, ular keng ommaga tushunarli bo'lmasa ham, ushbu axborot qo'llaniladigan tor doiradagi

Maxfiy

-tor doiradagi shaxslarga yopiq (himoya qilingan) kanallar orqali uzatiluvchi.

Shaxsiy

- biron-bir shaxs haqida ma'lumotlar yig'indisi, ijtimoiy mavqeini va ijtimoiy munosabatlarni anglatadi.

Ahamiyati bo'yicha:

Dolzarb

**ushbu vaqtida qimmatli bo'lgan
axborot.**

Ishonchli

xatolarsiz olingan axborot.

Tushunarli

**yo'naltirilgan insonga tushunarli
bo'lgan tilda berilgan axborot.**

To'liq

**to'g'ri yechim qabul qilish uchun yoki
tushunish uchun yetarli bo'lgan**

Foydali

**qo'llanilish imkoniyatlarining hajmiga
bog'liq axborotni olgan sub'ekt orqali**

Axborot izlash

Zamonaviylik cheksiz ma'lumotlar ummoniga o'xshaydi, unda bizning talablarimizni qondiruvchi axborotlarni topish talab etiladi. Axborotni izlash jarayonini strukturalash maqsadida hatto alohida fan yaratilgan. Uning otasi Kelvin Mauyers hisoblanadi. Axborot izlash, tadqiqotchining fikriga ko'ra, zarur ma'lumotlarga ega, bizning axborotga bo'lgan ehtiyojlarimizni qondira oladigan cheksiz miqdordagi hujjatlarni aniqlash jarayonidir.


Harakatlar algoritmi so'ralgan ma'lumotlarni toplash, qayta ishslash, va taqdim qilish bo'yicha operatsiyalarni o'z ichiga oladi. Axborotni samarali izlash uchun quyidagi rejaga amal qilish kerak:

- *so'rovni shakllantirish (topmoqchi bo'lgan ma'lumotlarni);*
- *zarur ma'lumotlarning manbalarini topish;*
- *kerakli materiallarni tanlash;*
- *olingan bilimlar bilan tanishib chiqish va bajarilgan ishni baholash.*

Ushbu algoritm ta'lim jarayoni va ilmiy maqola yozishga tayyorgarlikni yengillashtiradi. U axborot – atrofimizdagi cheksiz borliq ekanligini anglash orqali yaratilgan.

Quyidagi harakatlarga alohida e'tibor qaratiladi: kerakli axborotni ajratib olish, asosiy va ikkinchi darajali axborotlarni aniqlash. Ta'kidlash joizki, bilim ko'rinishidagi istalgan axborotni olish tanishdan notanishga (yangiga), oddiydan murakkabga tomon borishi kerak.

YODDA TUTING



Axborotni ma'lum bir model asosida uzatish lozim:

1. *Berilgan axborotning maqsadi.*
2. *Kimga mo'ljallangan*
3. *Axborotning hajmi*
4. *Axborotning mazmuni(og'zaki, yozma)*

Axborot mazmun va tasavvur qilish shakliga ega.

Axborotda eng asosiysi – bu uning ma'nosi, **mazmuni**. Axborotning mazmuni qanday maqsadlar uchun va qanday yo'l bilan axborot qo'llanilishini aniqlab beradi. Axborot olgan kishi mazmuniga qarab yangiligi, mazmundorligi, qisqaligi, tushunarligi, o'zgaruvchanligi kabi axborot xususiyatlariga baho beradi. Axborotning har bir xususiyatini baholash mumkin. Agar axborotning o'zgaruvchanlik xususiyati haqida gapiradigan bo'lsak, axborot turg'un (doimiy, o'zgarmas) va dinamik (o'zgaruvchan) bo'lishi mumkin.

Axborot bir necha *xususiyatlarga* ega.

Agar axborot ishning haqqoniy holatini aks etsa, u **ishonchli** hisoblanadi. Ishonchsiz axborot esa noto'g'ri xulosa chiqarishga olib keladi. Masalan, Internet tarmog'ida biron-bir mahsulotga xos bo'lgan xususiyatlar haqida noto'g'ri xabar berilsa, unga ishonib xaridor ushbu mahsulotni xarid qilib behuda pul sarflashi mumkin.

Agar axborot kimningdir fikri yoki mulohazasiga bog'liq bo'lmasa, bu axborot **obyektiv** hisoblanadi. Obyektiv axborotni, masalan, to'g'ri ishlaydigan o'lchov asboblaridan olish mumkin. «Avtomobil katta tezlikda harakatlanayotgan edi» kabi xabar subyektiv axborot ega. «Avtomobil 100 km/s tezlik bilan harakatlanayotgan edi» kabi xabar to'g'ri ishlaydigan spidometrda o'lchansa, obyektiv axborot bo'ladi.

Agar axborot xulosa qilishga yetarli bo‘lsa, u *to‘liq* bo‘ladi. To‘liq bo‘lmasan axborot xato xulosa va harakatlarni keltirib chiqaradi. Masalan, «*Ko ‘chada temperatura 10 daraja*» kabi xabarda *issiq* yoki *sovuqligi* aytilmasa, inson ustki kiyimni noto‘g’ri tanlashiga olib keladi.

Agar axborot hozirgi paytda zarur bo‘lsa, u *dolzarb* bo‘ladi. Masalan, do‘sstlar kelishi haqidagi telegramma o‘z vaqtida ularni kutib olish imkonini beradi. Eskirgan, bevaqt yoki ahamiyatsiz axborot inson uchun dolzarb bo‘lmaydi.

Inson tushunarli bo‘lgan tilda bayon etilsa, axborot *tushunarli* bo‘ladi. Masalan, ispan tilini bilmagan insonga ispan tilida xat yozilsa, bu *tushunarsiz* bo‘ladi.

Olish imkoniyati bo‘lganda axborot ochiq bo‘ladi. Turli to‘siqlar axborotni yopiqqa aylantirishi mumkin. Masalan, arxivdagi maxfiy hujjatlarni bu arxivga kirish huquqi bo‘lmasan kishilar ololmaydi. Shu sababli bu kishilar uchun arxivdagi hujjatlar yopiq hisoblanadi.

Har bir inson o‘zi uchun olingan axborot foydali va muhim ekanligi haqida hukm chiqaradi. Axborotning asosiy xususiyatlarini bilish insonga olingan axborotni to‘g’ri baholash hamda to‘g’ri qaror qabul qilishga yordam beradi.

Inson doimiy ravish atrof muhitdan axborot oladi, uning xususiyatlarini tahlil qiladi, muhim qonuniyatlarni aniqlaydi va buning ortidan dunyoni bilib oladi. Axborotni tushunish, uni tahlil qilish va amaliyotda qo‘llash orqali insonda bilimlar shakllanadi. Bir axborot turli insonlarda turlicha bilimlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shakllangan bilimlarni inson o‘z faoliyatida qo‘llaydi. Ayni damda inson faoliyati uning atrof muhit haqidagi bilimlarining ko‘payib borishiga yordam beradi.

Axborot bilan inson tug’ilishi bilanoq to‘qnashadi.

Axborot insonga quyidagilar uchun kerak:

- ***Yechim qabul qilish uchun*** (biron-bir ishni qilishdan avval inson nimani va qanday qilishini aniqlab olishi kerak);
- ***Rivojlanish uchun*** (axborotni qabul qilib va u bilan ishlab inson xotira va aqlni rivojlantiradi);
- ***Ehtiyojlarini qondirish uchun*** (insonga qiziqarli kitob, chiroyli musiqa, rasm, sportchilarning hayajonli janglari kerak).

Inson miyasi doim ishlaydi – kunduzi hissiyot organlaridan olgan signallarni qabul qiladi va qayta ishlaydi, kechqurun esa miya faoliyati natijasida tushlar paydo bo‘ladi. Inson uchun eng xavfisi – bu axborot bo‘lmasligi.

- Axborot nafaqat inson hayotida, balki butun insoniyat jamiyatni hayotida muhim o‘ringa ega. Jamiyat mavjudligining asosi axborot almashinishdan iborat.
- Axborot almashinish tufayli jamiyat alohida jamiyat a’zolarini birlashtira oladi. Agar insoniyat jamiyatini nazarda tutsak, ijtimoiy jamoa tuzumidagi odamlarning birgalikda ovga chiqishlari bir-birlari bilan axborot almashishlari orqali amalga oshgan. Axborotning birlashtiruvchilik roli hozirgi kunda ham o‘zgargani yo‘q – insonlarning katta jamoasini maqsad sari yo‘naltirishning boshqa usuli yo‘q (axborot almashishdan tashqari).
- Axborot jamiyat hayotida boshqarish uchun qo‘llaniladi. Jamiyat hayotining turli tomonlarini boshqarish uchun bir necha axborot vositalari (qurilmalari) yaratilgan. Oddiy misol – yo‘l svetofori – harakat qatnashchilariga avtomatik tarzda ma’lum bir rangdagi signallarni yuborib yo‘l harakatini boshqaradi.
 - Insoniyat jamiyatiga xos xususiyatlardan biri – avloddan avlodga axborotlarni *uzatish va to‘plashdan* iborat. Zamonaviy ilm-fandan

olingan ma'lumotlarga qaraganda, jamiyat darajasi jamiyatda to'plangan va qo'llaniladigan axborot miqdori bilan aniqlanadi. Shunday qilib, axborot jamiyatni tashkil qiladi, boshqaradi va rivojlantiradi. Ta'kidlash joizki, axborot tabiatdagi barcha tirik organizmlar hayotida muhim rol o'yaydi.

Axborot insoniyat jamiyatida axborot resurslari shaklida mavjud.

Axborot resurslari – bu insoniyat g'oyalari va ularni amalga oshirish mumkin bo'lgan shakldagi ko'rsatmalar

AXBOROT RESURSLARI - bilimlarni (fanda, ta'limda, iqtisodiyotda) qo'llash bilan bog'liq faoliyat olib boruvchi foydalanuvchilarga saqlash (elektron va qog'ozli hujjatlar, kitoblar, filmlar va b.), toplash, qayta ishslash va taqdim qilishga mo'ljallangan shakldagi axborot (mattnli, grafikli, audio, video va b.)

Axborot resurslari, uni yaratganlar ishtirokisiz, bir necha marotaba qo'llanilishi mumkin. Bilimlarni saqlash obyekti bo'la turib, axborot resurslari bir vaqtda yangi bilimlarni egallahda boshlang'ich manba vazifasini o'tashi mumkin, o'z navbatida, ular axborot resurslari shaklida taqdim etilishi mumkin. Axborot resurslarini qo'llash yoki inson tomonidan yoki kompyuter dasturlari tomonidan talqin qilinishi mumkin. Axborot resurslari elektron shaklda (masalan, elektron hujjat fayllari) va boshqa shakllarda (qog'oz shaklidagi kataloglangan matnlar va tasvirlar, kinoplyonkadagi kinofilmlar) mavjud. Axborot resurslari davlat va boshqa hujjat arxivlarida, kutubxonalarda (elektron shaklda ham), axborot tizimlari serverlarida saqlanadi. Har bir axborot resursi uning joyi, qo'llanish sohasi va boshqa ma'lumotlarga ega tasnifi bilan beriladi. Masalan, XX asr o'rtalarida kutubxonalarda bunday tasniflash katalog yashiklarida joylashtirilgan kartochkalarda aks etgan. Zamonaviy kutubxonalarda, arxivlarda, odatda, elektron kataloglar va qidiruv tizimlari qo'llaniladi. Elektron axborot resurslarini saqlashda qattiq disklar, optik disklardan foydalilanadi. Elektron axborot resurslari

kompyuter axborot tizimlarida qo'llash uchun mo'ljallangan. Elektron to'plagichlarning ixchamligi, katta hajmdagi ma'lumotlarni saqlay olishi, tez ishlashi hamda u bilan ishslashning qulayligi turli axborot resurslarini elektron shaklga (hujjatlarni va kitoblarni skanerlash, foto-, videokameralar yordamida tasvirga olish) o'tkazishni taqozo etdi. Elektron shakldagi axborot resurslari (elektron ensiklopediyalar, elektron kitoblar) tezlik bilan an'anaviy ko'rinishdagilarni siqib chiqarmoqda. XX asr oxiri XXI asr boshlarida axborot resurslari ahamiyati jihatidan davlatning mehnat, energetik resurslaridan kam emas hamda milliy boylik sifatida qaraladi.

Axborot bilan ishslash

Birinchi bosqich – boshlang'ich

qiziqtirgan muammo bo'yicha barcha bilimlar faollashtiriladi. Axborotda ularni shakllantirish imkoniyati hosil bo'ladi.

Ikkinci bosqich – anglash

Axborot qilinadi, ya'ni alohida qismlardan uning umumiyligi mazmuni kelib chiqadi. Olingan axborotdan mazmunini airatib olish.

Uchinchi bosqich - refleksiv - (o'z faolligi ma'suliga e'tibor qaratish, shuningdek ularni tushunish, emocional ta'sirlanish. Yangi tajriba, yangi bilimlar shahsiy maqsadlar tizimiga birlashib, inson uchun o'z hususiyati bo'lib qoladi.

Mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar

1- topshiriq. Matnlar bilan tarnishing.

Sun’iy intellekt



Odatda, robotlar deganda, ko‘pchilikning ko‘z oldiga insonlardek gaplasha oladigan, ularning o‘rniga barcha yumushlarni bajara oladigan yordamchilar keladi. Ammo bu nisbatan kengroq tushuncha. Aslida, mobil qurilmangizdagi dasturlar: google-tarjimon, lug’atlar, turli xil o‘yinlar va hokazolar ham sun’iy intellektga yaqqol misol bo‘la oladi. Faqat ularning qamrovi kichikroq bo‘lib, ma’lum bir yo‘nalishdagina sizga yordam bera oladi. Ya’ni, bajarmoqchi bo‘lgan amallaringiz turiga qarab tegishli dasturdan foydalanasiz.

Sun’iy intellekt o‘zi nima?



Sun’iy intellekt — informatikaning alohida sohasi bo‘lib, odatda inson ongi bilan bog’liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o‘rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima va shu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug’ullanadi.

Hozirda SI turli amallarni bajarishga mo‘ljallangan algoritm hamda dasturiy tizimlardan iborat va u inson ongi bajarishi mumkin bo‘lgan bir qancha vazifalarning uddasidan chiqa oladi. 1990 yillarda SI taraqqiyotida yangi sahifa ochildi. 1997 yilda Deyep Bluye nomli IBM kompyuteri shaxmat bo‘yicha jahon championi Garri Kasparovni yenggan tarixdagi ilk kompyuter bo‘ldi.



SIning yorqin namunalaridan yana biri – IBM Watson superkompyuteri bo‘lib, u o‘z bazasidan kelib chiqib muayyan tilda berilgan savollarga javob beradi. Shuningdek, ko‘pchilikning doimiy hamrohiga aylanib ulgurgan mobil yordamchi Siri, fotosuratlarni qayta ishlovchi Prisma kabi dasturlarni SIning yutuqlaridan biri sifatida qayd etish mumkin. Hozirga kelib sun’iy intellekt keng ko‘lamda ommalashib kundalik turmush tarzimizning deyarli barcha jabhalarini qamrab olmoqda. Masalan, Xitoydagи Inchuan shahri aholisiga bank kartalarining keragi yo‘q. Hisob-kitoblar bilan bog’liq barcha jarayonlar sun’iy intellekt tomonidan insonning yuz qiyofasini aniqlashtirish orqali amalga oshiriladi.

Foydami yoki zarar?

SI haqidagi bahs-munozaralar qariyb 50 yildan beri davom etib kelmoqda. Mutaxassislar hanuzgacha bir to‘xtamga kelishgani yo‘q. Ba’zilar ularning ommalashib odamlar o‘rnini egallab borayotgani natijasida ommaviy ishsizlik ko‘rsatkichlari oshib ketishi mumkinligidan tashvishdalar. Mutaxassislarning boshqa bir guruhi esa SIga ijobiy munosabatda bo‘lish kerakligini uqtirishmoqda. Hatto IT- sohasidagi milliarderlar orasida ham turli qarashlar mavjud.

Jumladan, SpaceX asoschisi Ilon Mask SIning butun boshli sivilizatsiyani barbos qilishiga ishonchi komil.

Maskning fikricha, “SI insoniyat sivilizatsiyasi uchun asosiy xavfdir. SI mehnat bilan bog’liq ommaviy muammolarni keltirib chiqaradi. Sababi, robotlar hamma ishni bizdan ko‘ra yaxshiroq bajara olishadi. Ilg’or texnologiyalar ortidan quvish natijasida, kompaniyalar sun’iy intellekt ortidan kelib chiqadigan xavf-xatarni ko‘rmay qolishlari mumkin”. Shuningdek, Microsoft rahbari Bill Geyts ham uning zarariga to‘xtalib o‘tadi. “Bir necha o‘n yildan so‘ng, robotlar ishning katta qismini bajara boshlagach, SI shu qadar kuchayib ketadiki, yakunda u bizni xavotirga sola boshlaydi.

Bu borada Ilon Maskning fikriga qo‘shilaman. Ammo nega bu savol boshqalarni tashvishlantirmayotganiga hech tushunolmayman”, – deydi Geyts. “Boshqalar” deganda Geyts Facebook egasi Mark Sukerbergni nazarda tutgan bo‘lsa, ajab emas. Chunki, Mark SIga nisbatan ijobiy munosabatda ekanligini bildirar ekan: “Yangi texnologiyalar har doim ham yaxshilik yoki yomonlik qilish maqsadida yaratilishi mumkin. SIning keng tarqalishi ortidan keladigan ijobiy natijani esa, yaqin 5-10 yil ichida ko‘ramiz”, deya Ilon Maskning fikriga e’tiroz bildirgan edi. Bugungi kunda ayrim davlatlarda robot-hamshiralalar, xaydovchisiz transport vositalari, buyurtmani yetkazib beruvchi dronlar xizmatidan foydalanish yo‘lga qo‘yilgan. Hatto politsiya xodimlarining ba’zi vazifalarini ham maxsus robotlar bajarishyapti. Olimlar ularning tashqi ko‘rinishini imkon qadar odamlarnikiga o‘xshatishga urinishmoqda.

Bundan tashqari, SI jurnalistlarning doimiy ko‘makchisiga aylanib ulgurgan. Masalan, Associated Pressda “ishlayotgan” robotlar moliyaviy hisobotlarni yozib boradi. SIning qo‘llanilishi ushbu nashrda har chorakda beriladigan yangiliklarni 300 tadan 4400 taga oshirdi.

Swiss Re sug’urta kompaniyasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2020 yilga kelib 4,7 mln aholi ishsiz qolishi mumkin. Shuningdek, ishsizlik g’aznachilar, pochta xodimlari, hisobchilar va idora xizmatchilariga xavf solishi mumkinligi aytilgan. SI ularning vazifasini bemalol bajara oladi.

Savol va topshiriqlar

1. Yangi axborot berilgan qismni ajrating.
2. Matn yuzasidan savollar tuzing va yozma javob bering.
3. Ahamiyatiga ko‘ra axborotlarni ajrating:
 - *dolzarb*
 - *ishonchli*
 - *tushunarli*
 - *to‘liq*
 - *foydali*

2-topshiriq. “Termin” so‘zi namunasiga ko‘ra “intellekt”, “mutaxassis”, so‘zlariga sinkveyn tuzing.

“Sinkveyn” (5-qator) texnikasi:

- 1-qator - tushuncha - ot
2-qator - 2 so‘zdan iborat sifat
3-qator - 3 so‘zdan iborat fe’l
4-qator - 4 so‘zdan iborat munosabat
5-qator - 1 so‘zdan iborat sinonim

Namuna:

1.Termin

- 2.Iqtisodiy, sohaviy*
3.Anglatadi, ishlataladi, aniqlaydi
4.Birgina ma’noga ega bo‘lgan so‘z.
5.Atama.

3- topshiriq. Rasmlarga ta'rif bering.

Kompyuter



Park



Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatri



Bu predmetlarning hidi haqida nimani ayta olasiz




Qovun hidi



Palov hidi

Yangi kitobning hidi



Yangi uy jihozining hidi



Bu predmetlarning ta'mi haqida nima deyish mumkin

Choy ta'mi



Muzqaymoq ta'mi



Non ta'mi



Sumalak ta'mi



Taktil kontaktdagi o'z hissiyotlaringizni tasvirlab bering.

gullarni hidlash



limon yeish



itni silash




Basseynda suzish



Shag'al ustida yurish

4- topshiriq.

O‘zbek tili –Davlat tili



O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yilgan. Shu tariqa o‘zbek tili mustaqil davlatimizning Bayrog‘i, Gerbi, Madhiyasi qatorida turadigan, qonun yo‘li bilan himoya qilinadigan muqaddas davlat ramziga

aylandi. Ona tilimiz — o‘zbek tiliga 1989 yil 21 oktyabrdan davlat tili maqomi berildi. Bu mamlakatimiz, yurtdoshlarimiz hayotidagi unutilmas, tarixiy voqeaga aylandi. Har yili 21 oktyabr yurtimizda o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun sifatida keng nishonlanadi. Ushbu sanaga bag’ishlangan tadbirlarda “Davlat tili haqida”gi Qonunning ijrosi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar atroflicha tahlil etilib, galdegisi vazifalar belgilab olinishi yaxshi an’ana aylangan.


O‘zbek adabiy tili turkiy tillar guruhiga mansub bo‘lib, u mustaqil til sifatida XI asrdan boshlab shakllana boshladi va to hozirgi kunimizgacha bu tilda ko‘plab ilmiy va badiiy asarlar yaratildi. Xususan, Mahmud Qoshg’ariyning “Devonu lug’otit-turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig”, Xorazmiyning “Muhabbatnama”, shuningdek, Atoiy, Sakkokiy, Sayfi Saroiy, Mavlono, Lutfiy, Alisher Navoiylarning yaratgan boy ilmiy-adabiy meroslarini tilga olish mumkin.

Til — millatimiz faxri, g’ururidir. Shunday ekan, ona tilimizga doimo hurmat va e’tiborda bo‘lib, uning jamiyatimizdagi mavqeini yuksaltirishga har birimiz o‘z hissamizni qo‘shaylik. Zero, til bor ekan millat barhayot, uning istiqboli nurli va charog’ondir.

Matn yuzasidan topshiriq.

1. *Matnga savollar tuzing.*

2. *Turkiy tillar guruhiga kiruvchi tillar bo‘yicha klaster tuzing.*



5- topshiriq. Mutafakkirlarning til haqidagi fikrlaridan namunalar keltiring.



Nazorat savollari

1. Axborot – bu
2. Akademik yozuv fani nimani o‘rgatadi?
3. Axborotning xususiyatlarini aytib bering.
4. Axborot qanday tasniflanadi?
5. Axborot resurslari deganda nimani tushunasiz?

3-mavzu. Matn va uning turlari



Nazariy ma’lumot.

Matn va uning ko‘rinishlari

Ma’lum bir shaxs tomonidan ayrim voqea-hodisa, narsa-buyumning izchil tasviri va tavsifi uchun tuzilgan gaplar sirasi matn deyiladi.

Matn ko‘rinishlari 2 xil bo‘lib, ular mikromatn va makromatndir.

Bir necha gaplarning o‘zaro grammatik va mazmuniy bog’lanishidan tashkil topgan, mazmuniy yaxlitlikga ega bo‘lgan qo‘shma gaplarga nisbatan yirikroq yozma va og’zaki nutq parchasi mikromatn deyiladi.

Bir umumiyl mavzu ostida birlashgan bir necha mikromatnlardan tashkil topuvchi yaxlit asarga makromatn deyiladi.

Matnning turlari ham 2 xil: ma’lumotnomal matni va ijodiy-tavsifiy matn.

Ma’lumotnomal matnida bo‘lib o‘tgan voqea-hodisa yoki mavjud holat haqida oddiy axborot beriladi.

Ijodiy-tavsifiy matn so‘zlovchi yoki yozuvchi tomonidan ijodiy ravishda bayon etilgan voqea-hodisa, narsa yoki shaxsning tasviri yoki xabar, ma’lumotning

ijodiy-tavsifiy bayonidir. Ilmiy, publitistik va badiiy uslublar, shuningdek, insho ham ijodiy-tavsifiy matnning ko‘rinishlaridir.

Dialogik matnning ma’no munosabatiga ko‘ra turlari.

Dialog (yun. dialogos – gaplashish, suhbat) -

- 1) ikki yoki undan ortiq kishining nutqiy muloqoti, suhbat;
- 2) adabiy – badiiy matn komponenti, asardagi personajlarning nutqiy muloqoti berilgan o‘rinlar. Hozirgi zamon prozasi rivoya, tavsif va dialogdan tarkib topadi; zamonaviy epik asarlarda dialog salmog’ining ortishi kuzatiladiki, bunga turlararo sintezlashuv, badiiy adabiyotning boshqa san’atlar bilan o‘zaro aloqasi natijasi sifatida qarash mumkin;
- 3) falsafiy – publisistik mazmun yo‘nalishidagi janr, unda qo‘yilgan masala bir necha kishining suhbati shaklida muhokama etiladi. Dialog janriga antik davrning Suqrot, Aflatun singari mutafakkirlari asos solganlar. Keyinchalik o‘rta asrlar, Uyg’onish davri va Yevropa ma’rifatchilik adabiyotida ham dialog janri ancha faol bo‘lgan. O‘zbek adabiyotida dialog - ning ildizlari munozara janriga borib taqaladi. XX asr boshlari o‘zbek adabiyotida dialog janri, unga xos unsurlardan ma’rifatchilik g’oyalarini ommalashtirishda samarali foydalanildi. Jumladan, Fitratning “Munozara”, “Bedil” asarlarini dialog janri namunasi sanash mumkin.

Monologik matn. Monologik matnda mazmun izchilligi va ohang.

Monolog (yunon. monos – yakka, logos – so‘z) - yakka shaxsning ayni paytda javob berilishini talab qilmaydigan, o‘zgalar replikalari bilan bo‘linmagan nutqi. Monolog og’zaki shaklda (turli yig’inlardagi nutq, ma’ruza, hisobotlar) ham, yozma shaklda (publitsistika, memuarlar va h.) ham keng qo‘llanadi. Badiiy adabiyotda monologlardan turli maqsadlarda foydalilanildi. Ayniqsa, dramatik asarlarda monologlarning badiiy – estetik vazifalar doirasi ancha keng. Jumladan,

Monolog – dramatik personajning ruhiy holati, uning ongiyu qalbida kechayotgan jarayonlarni tasvirlashning asosiy shakli. Ayni chog’da, shartli ravishda tasvirlanuvchi bunday ruhiy jarayonlar voqealarga g’oyaviy – hissiy

munosabatni ifodalash, ayrim muhim tafsilotlarni berish, syujet rivojini asoslash kabi qator muhim funksiyalarni ham bajaradi. Monolog lirikaning ustuvor nutq shakli, lirk qahramon kechinmalar, asosan, uning monologi orqali ifodalanadi. Bu narsa ijroviy lirika namunalarida, ayniqsa, yaqqol ko‘zga tashlanadi, shuning uchun amaliyotda bunday she’rlar monolog deb ham yuritiladi (A. Oripov. “ Hamza”; X. Davron. “Abulhay so‘zi”). Sifat jihatidan monologning turli ko‘rinishlari mavjud (q. badiiy nutq, ichki monolog).

Matn tahlili va tahriri.

Matn tahlili - bunda xilma-xil vazifalar bajariladi. Chunki bu tahlildan kuzatiladigan maqsad asarning xususiyatlarini o‘rganishdir. Matndagi voqealarda davrning siyosiy, ijtimoiy, madaniy va ahloqiy hayoti o‘z aksini topadi.

- Matnning adabiy tahlilida quyidagi maslalarga alohida e’tibor berilishi lozim:
1. Matn tahlilida tasvirlangan voqelik va shu voqelikka muallifning munosabati aniqlanadi. Masalan: Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostonida oljanob fazilatlarini ulug’lash,adolat va xalqparvarlik, do’stlik va qahramonlik, muhabbat erkinligi va unga sadoqati asarni g’oyaviy mazmunini tashkil qiladi. Asarda Xisrav, Yosumon kabi yovuz kuchlar bilan Farhod, Shirin, Mehnbonular o‘rtasidagi kurash ko‘rsatiladi. Shoir Farhod, Mehnbonu, Shirinlarning barcha harakatlariga xayrixohlik bildiradi. Shohniadolatli bo‘lishiga undash g’oyasini ilgari suradi.
 2. Tahlilda asarning mazmuniga ham shakliga ham e’tibor berish va mazmunning yetakchi rolini ta’kidlab o‘tish zarur.
 3. Matn tahlilida tahlilning yuqorida u yoki bu turidan foydalaniladi. Matnni sharhlash so‘z va so‘z shakllari badiiy tasvir vositlarining asar g’oyaviy va estetik mazmunini oshirishdagi roli izohlanadi. Matnni sharxlashda lingvistik aspekt asosiy o‘rinni egallaydi. U traditsion adabiy tahlilda ham yetakchi sanaladi, chunki u matnning estetik strukturasi va badiiy tasvir vositlarini o‘rganishga ko‘maklashadi.

Mavzu yuzasidan mashq va topshiriqlar

1-topshiriq. Matnni o‘qing.

ELEKTR

Ko‘zni qamashtiradigan chaqnash, chaqmoqlarning osmondagи оловли ilon izi yo‘llari, momaqaldiroqning guldirashi...



Ko‘zni qamashtiradigan chaqnash, chaqmoqlarning osmondagи оловли ilon izi yo‘llari, momaqaldiroqning guldirashi... Kishilar tabiatning bu dahshatli hodisalarini bir necha ming yillab kuzatishgan, lekin sabablarini bilisholmagan, shuning uchun ulardan qo‘rqishgan. Chaqmoqni o‘rganish yo‘lidagi urinishlar ko‘pincha fofia bilan tugagan. Masalan, 1753-yili tajriba vaqtida rus fizigi G. V. Rixman yashin urib halok bo‘lgan.

Bundan yuz yildan ko‘proq vaqt ilgari odamlar tabiatning elektr kuchidan foydalanishni o‘rgandilar, elektrni o‘zlariga bo‘ysundirdilar. Xo‘sish, odamlar elektr haqida nimalarni bildilar?

Jismlarning bir-biriga ishqalanishi natijasida ularning tortishish xususiyatini kasb etishi qadimgi olimlarga ma’lum edi. Yunon olimlari ebonit tayoqchasini ishqalaganda u o‘ziga yengil jismlarni tortishini aniqlaganlar. 1600-yilda ingлиз fizigi U. Gilbert ebonitdan tashqari olmos, billur va boshqa jismlar elektr xususiyatiga ega ekanligini aniqlaganlar. 1729-yilda ingлиз olimi S. Grey ayrim jismlarning elektr o‘tkazuvchanlik xususiyatini ochib, tabiatdagi jismlarni o‘tkazgich va izolatorlarga ajratdi. 1734-yilda fransuz fizigi Sh. Dyufe, amerikalik

olim B. Franklin ikki turdag'i elektr zaryadlarning mavjudligini aniqlab, ulardan bir turi shisha, tog' billuri, qimmatbaho toshlar, jun va boshqa jismlarda, ikkinchisi esa ebonit, shoyi, qog'oz va shu kabi jismlarda hosil bo'lishini, bu ikki tur zaryadlar tortishish yoki itarishish xususiyatiga ega ekanligini ham aniqladilar. Bir xil ishorali elektr zaryadlar o'zaro itarishishadi, turli ishoralilari esa o'zaro tortishishadi. Bu zaryad turlarining ebonitda hosil bo'lgani manfiy, shishada hosil bo'lgani esa musbat ishorali deb olingan.

19-asr oxirlarida elektr ta'limoti rivojlanishining yangi davri boshlandi. Atomlar tarkibida elektrlangan zarralar mavjudligi haqidagi fikrga asoslangan modda tuzilishining elektr ta'limoti — elektronlar nazariyasi rivoj topdi. Bu ta'limot golland fizigi X. A. Lorens, ingлиз fizigi J. J. Tomson, fransuz fizigi va matematigi J. A. Puankare, nemis fizigi G. Gelmgols nomi bilan uzviy bog'liq.

Tabiatda zaryadlangan juda mayda zarralar mavjud. Zarralarning ba'zilari musbat, ba'zilari manfiy zaryadlangan. Manfiy zaryadli eng kichik zarralar elektronlardir. Elektronlar (yunoncha elektron — ebonit) metall o'tkazgichlarning ichida harakatlana oladi. Zaryadlangan zarralarning bir tomonga yo'nalgan oqimini olimlar elektr toki deb atadilar.



Siz uyg'a kelib, yoqib-o'chirgich tugmasini bossangiz, elektr lampochka charaqlab yonadi. Nima uchun? Tugmani bosganingizda siz o'tkazgichlarni ulaysiz, o'tkazgichlar orqali esa lampochka tomon shitob bilan elektronlar oqimi yo'naladi.

Lampochkaning ichida ingichka simoyoqlarga maxsus metall — volframdan tayyorlangan spiral osilgan. Bu spiral (lampochka tolasi) alohida xususiyatga ega: elektronlarning undan o'tishi juda qiyin. Spiral orqali elektronlar oqimi o'tkazilganida, ular tola metallning atomlarini u yon-bu yon «turtib» boradi, natijada tola bir zumda qizib, nurlana boshlaydi. Elektronlar oqimi qancha kuchli bo'lsa, lampochkaning tolasi ham shuncha kuchli qizib, ravshanroq yonadi. Yo'g'onroq simlardan tayyorlangan xuddi shunday spirallar elektr dazmol va plitkalarni qizdiradi. Bu hodisa (elektr tokidan qizish hodisasi) dan, masalan,

zavodlarning elektr pechlarida metallarni eritish uchun foydalaniladi. Faqat bunday pechlardagi spirallar barmoqlar yo‘g’onligidagi simlardan ishlanadi.

Kishilar elektrni yana bir «kasbga» — mashinalarni harakatga keltirishga o‘rgatdilar. Mashinist maxsus ulab-uzgich dastasini buraydi. Quvvatli elektr dvigatellar elektrovoz g’ildiraklarini harakatga keltiradi va poyezd asta-sekin relslarda yura boshlaydi.

Bunday quvvatni dvigatel qayerdan oladi? Olimlar ikkita parallel joylashgan sim orqali tok bir yo‘nalishda o‘tsa, simlar bir-birini tortishini, qarama-qarshi yo‘nalishda o‘tganda esa bir-birini itarishini payqadilar. Tok o‘tayotgan simlarning ana shunday o‘zaro ta’sir kuchi elektr dvigatellarni aylantiradi.

Siz elektr o‘yinchoqlardagi jajji motorlarni ko‘rgansiz, albatta. Bunday motorlarning ishlashi uchun bitta elektr batareya toki etarli. Lekin million-million elektr lampochkalarni elektr bilan ta’minalash, stanok va mashinalarni harakatga keltiruvchi, tramvay va elektr poyezdlar g’ildiraklarini aylantiruvchi dvigatellarga tok yetkazib berib turish uchun juda ko‘p elektr energiyasi kerak. Bunday energiya elektr stansiyalarida hosil qilinadi hamda elektr uzatish liniyalari orqali shahar va qishloqlarga yetkazib beriladi.

O‘tgan asrda qaysi kashfiyat olimlarni ko‘proq hayratga solganligini bilasizmi? Bu — elektr energiyasining bo‘shliqda tarqalishini isbotlagan kashfiyat. Elektr energiyasi hech narsa, hatto hech qanday zarra bo‘lmagan mutlaqo bo‘sh joyda ham uzatilar ekan. Bunday bo‘shliqda elektr magnit maydon — energiya eltuvchi elektr magnit to‘lqinlari bo‘larkan. Radio ham, telefon ham, telegraf ham elektr bilan ishlaydi.

Elektr yordamida metall buyumlar sirtiga yupqa himoya qatlami yugurtiriladi, masalan, konkilarining sirti yupqa xrom qatlami bilan qoplanadi. Texnikaning elektrdan foydalaniladigan barcha tarmoqlarini sanab chiqish qiyin. Bu tarmoqlar esa tobora ko‘payib bormoqda.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. Matnn o‘qing.

2. Matn yuzasidan reja tuzing.

3. Matndan ilmiy uslubga xos terminlarni aniqlang.

4. Berilgan matn qaysi turiga xos?

- mikromatn
- makromatn

2 -topshiriq. Matn asosida BBB jadvalini to‘ldiring.

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

3-topshiriq. Quyida berilgan so‘zlardan terminlarni ajratib yozing va ularni qaysi sohaga tegishli ekanligini aniqlang.

Mashg’ulot, dialog, matn, kesim, dastur, tenglama, fonema, unli, undosh, ko‘p qirrali, kredit, kitob, televizor, internet, uchburchak, vaziyat, pul, narx, qiymat, cheksizlik, kompyuter, magniy, integral, kislorod, algoritm, jadval, o‘lcham, suyuqlik, qirra, texnika, modda, natija.

4 -topshiriq.

Amir Temurning iqtisodiy siyosati



Sharq iqtisodiy tafakkurining rivojlanishida ulug’ bobokalonimiz,

sohibqiron, buyuk sarkarda Amir Temurning iqtisodiy g’oyalari, u ishlab chiqqan va amalda yuritgan iqtisodiy siyosati mislsiz ahamiyatga ega. Amir Temur iqtisodiy g’oyalarining o‘ziga xos ulug’vorligi shundaki, ular hayoliy emas, balki aniq hayotdan kelib chiqqan va unda o‘z ifodasini topgan.

Amir Temurning iqtisodiy g’oyalari “Temur tuzuklari” asarida bayon etilgan. Uning iqtisodiy g’oyalari va siyosati zamirida inson, uning manfaati, farovon va tinch hayot kechirishi tashvishlari yotadi. U odamlarga kasb-hunar berish, ish bilan ta’minalash, tadbirkorlik faoliyati va tijorat ishlari bilan mashg’ul bo‘lish uchun yetarli sarmoya berish, yetatli uy – joylar qurib berish haqida qayg’uradi.

Sohibqironning iqtisodiy qarashlari va yuritgan yangicha iqtisodiy tarbiyani yo‘lga qo‘yish ishlarida biz uchun muhim dasurulamal tarixiy yo‘l – yo‘riq bo‘lib xizmat qiladi. Bunday iqtisodiy qoidalarga G’arbdan 300-400 yil ilgari amal qilindi, ular hayotiy tajribadan o‘tdi.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. Matnn o‘qing va mazmunini kengaytirib so‘zlab bering.

2. Matn yuzasidan savollar tuzing.

3. Matndan badiiy uslubga xos terminlarni aniqlang.

4. Berilgan matn qaysi turiga xos?

- *ma’lumotnomma matni*
- *ijodiy-tavsify matn.*

5 -topshiriq. Buyuk sarkardalardan kimlarni bilasiz? Ular haqida ma’lumotnomma matni tuzing.

4-mavzu. Matn hosil qiluvchi vositalari



Nazariy ma'lumot.

Aloqaning mantiqiy vositalari

Matn tuzilishidagi asosiy qoidalar

Matn yaxlit nutqiy asar bo'lib, boshlanish, fikrlarni ochib berish tuzilmasi va tugallanishlarga ega.

1. Yaxlitlik matnning xususiyati sifatida berilgan birlikda yagona mavzudagi hikoya bo'lishini nazarda tutadi. Bu mavzu sarlavha sifatida berilishi mumkin. Matnga sarlavha qo'yish murakkab, chunki u bir tomondan butun matnnning mazmunini aks ettirishi, ikkinchi tomondan adresatga tushunarli bo'lishi kerak.

2. Matn albatta kompozitsiyaga ega bo'lishi kerak, uch qismdan iborat reja asosida – bosh qism, o'rta qism (fikrni ochish) va xotima qismlaridan tuzilgan bo'lishi kerak.

- **Bosh qism** o'quvchi, eshituvchini bevosita matnning asosiy mazmunini qabul qilishga tayyorlaydi. Unda hikoya mavzusi shakllanadi. O'rta qismda bu mavzu rivojlanib boradi. Xotima qismi mazzuni ochib berishga yakun yasaydi.
- Kompozitsyaning har uchchala qismi o'ziga xos xususiyatlarga ega hamda maxsus til vositalari yordamida aks etadi. Fikrning boshlanishi, bir fikrdan boshqasiga o'tish, mavzuning yakuni kabilarning ma'lum bir shakllari mavjud. Ular boshlanish va xotima qismlarida barqaror bo'ladi.
- Maktablardagi insholarda boshlanish va xotima funksiyasini, odatda, zaruriy bo'lgan kirish va xulosa qismlari bajaradi. Maktablardagi insholarning asosiy xatoliklaridan biri yo boshlanish va xotimaning yo'qligi yoki kompozitsyaning bu elementlari bilan matnning asosiy mazmunidagi bog'liqlikning yo'qligi.

- Fikrni ohib berish ma'lum bir mantiqiy sxema asosida quriladi. Unga tezis (muallif o'quvchiga yetkazmoqchi bo'lgan asosiy g'oya) va dalillar (muallif tezisini tasdiqlovchi isbotlar, misollar, illyustratsiyalar) kiradi.

3. Katta va murakkab matnlar ichida tarkibidagi komponentlarini ajratib ko'rsatish mumkin – murakkab sintaktik butunlik (katta matnda boblar, paragraflar va b.). Bu matnda mikromatnni ohib beruvchi bir guruhi gaplar bo'lib, boshlanish, fikrlar rivoji va xotimalarga ega bo'ladi. Bir murakkab sintaktik butunlik doirasida har bir keyingi gap avvalgi gapdan kelib chiqqan savolga javob beradi. Keyingi gapga savol berib bo'lmashlik murakkab sintaktik butunlik tugaganini anglatadi.

4. Matnda hamma narsa o'zaro bog'langan, hattoki murakkab sintaktik butunlik va undagi alohida gaplar ham. Jumlalararo aloqaning turli vositalari mavjud. Asosiyalarini sanab o'tamiz:

- **predmetli aloqa** (matndagi alohida qismlar insonlar ismi, predmetlarning nomi bilan birlashadi);
- **vaqtli aloqa** (matnda yagona vaqt makoni mavjudligi). Vaqtdagi birligining grammatik va leksik ifodalanadi: *1961yilda, avval-keyin; ertalab–kechqurun va b..* vaqtning grammatik birligiga alohida e'tibor bering. Vaqtning almashtirish doim o'rinni bo'lishi kerak. Maktabdagi insholarda eng ko'p uchraydigan xatolik hozirgi zamondan o'tgan zamonga asossiz o'tib ketishdir: *Kecha birinchi kanal bo'yicha mening sevimli filmom «Krepkiy oreshek» namoyish qilindi. Men uni yettinchi marta ko'rmoqdaman;*
- **makonli aloqa** (*shahrimizda,u yerda,bu yerda va b.);*
- **so'zlar tartibi.**

Yozma hikoya matnida gaplar, odatda, mavzudan, xabar predmetidan, biron-bir tanish narsadan (avvalgi hikoyadan) yoki mazmun jihatidan kamroq ahamiyatga ega narsadan boshlanadi. Gap yakunida, odatda, gap yangi, ushbu kontekst va vaziyatda ahamiyatliroq bo'lgan axborot beriladi. Tanish va yangi, kamroq va ko'proqqa bo'lish butun matnga bog'liq. Eng keng tarqalgan so'zlar tartibi. Yangi, ahamiyatli va avvalgi gapni oxirida kelgan axborot keyingi gapda

tanish, kamroq ahamiyatga ega bo‘lib qoladi va shuning uchun boshiga ko‘chib o‘tadi.

Fikr bildirish orqali berilgan axborot tushunarli bo‘lishi uchun gap ikki qismdan iborat bo‘lishi kerak. Birinchi qism «berilgan» deb ataladi; u tanish dalillarni o‘z ichiga oladi va odatda gapning boshida keladi. Ikkinci qism «yangi» deb ataladi, tanish bo‘lmagan axborotdan iborat bo‘ladi. «Yangi» keyingi gapda «berilgan» bo‘lib qoladi, undan keyin navbatdagi «yangi» keladi.


Aloqaning mantiqiy vositalariga qo‘yidagilar kiradi:

- 1) *fikrlar, voqealar, dalillarni bayon qilishda ketma-ketlik*
- 2) *sabab-oqibat va shart-oqibat aloqalariga rioya qilish (so‘zlarni qo‘llash: shuning uchun, natijada, demak, shu bilan bog’liq, shu bilan birga va b.),*
- 3) *fikr bildirish tartibini tashkil qiluvchi kirish so‘zlarni qo‘llash (masalan, birinchidan, ikkinchidan, bir tomondan, boshqa tomondan, bundan tashqari, umuman olganda),*
- 4) *yakunlovchi so‘zlarni qo‘llash (nihoyat, shunday qilib, oxirida, yakun yasaymiz).*

Mavzu yuzasidan mashq va topshiriqlar

1-topshiriq. Berilgan matn qismlarini mazmun jihatidan bir-biriga bog’lab, maqolani to‘g’rilab qayta yozing.

Abu Rayhon Beruniy



(973-1048)


- Beruniy ona tilidan tashqari yana bir qancha tillarni: arab, sug`diy, fors, suryoniy, yunon va qadimgi yaxudiy tillarini, keyinchalik Hindistonda sanskrit tilini o`rganadi.
- U 22 yoshida vatanini tashlab chiqib ketishga majbur bo`ldi va bir qancha vaqt Kaspiy dengizining janubi-sharqiy sohilidagi Jurjon shahrida muhojirlikda yashadi. So`ng qadimgi Ray shahriga bordi, 998 yildan keyin yana Jurjonga keldi va bu erda o`zining ikkinchi ustozи tabib, astronom, faylasuf Abu Sahl Iso al-Masihiy bilan tanishib, undan ta`lim oldi. Beruniy “Osor al-boqiya an alqurun al-xoliya” (“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”) asarini Jurjonda muhojirlik davrida yoza boshlagan va 1000 yilda tamomlagan. “Osor al-boqiya” Beruniyga juda katta shuhrat keltirdi, uni fanning hamma sohasiga qiziquvchi buyuk olim ekanini ko`rsatdi. Bundan tashqari Beruniy Jurjonda astronomiya, netrologiya tarixiga oid 10 dan ortiq asar yozdi.
- O`rta asrning buyuk qomusiy olimi Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad ak-Beruniy zamonasining qator fanlari: astronomiya, fizika, matematika, geodeziya, mineralogiya, geologiya, tarix kabilarni chuqur o`rgandi. U Xorazmning qadimgi poytaxti Kot shahrida tug`ildi va yoshligidanoq ilm-fanga qiziqlishi orta bordi. Beruniy keyinchalik mashhur olim Abu Nasr Mansur ibn Iroq ko`lida ta`lim oldi. Ibn Iroq astronomiya, geometriya, matematikaga oid bir qancha asarlar yozib, shulardan 12 tasini Beruniyga bag`ishlaydi.
- Beruniy shoh Mahmud G`aznaviy II ning eng yaqin maslahatchisi sifatida mamlakatning siyosiy ishlarida ham faol qatnashdi.
- Beruniy o`z asarlari ro`yxatini tuzgandan keyin yana ikkita muhim kitobini yozgan. Bulardan biri “Mineralogiya”dir. Bu risola o`z ma`nosi uchun Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq, hatto Ovro`pada ham mineralogiya sohasida eng yaxshi, tengi yo`q asar hisoblanadi. Beruniyning oxirgi asari – “Dorivor

o'simliklar haqida kitob"ining qo'lyozmasi XX asrning 30-yillarda Turkiyada topildi. Asar "Saydona" nomi bilan mashhur, unda Beruniy Sharq, ayniqsa Markaziy Osiyoda o'sadigan dorivor o'simliklarning to`la tavsifini beradi.

- Xorazmnинг Mahmud G'aznaviy томонидан босиб олиниши Beruniy hayotini xavf ostiga qo`ydi. U Xorazmshoh saroyidagi barcha olimlar bilan birga G`azna shahriga asr qilib olib ketiladi. Beruniyning 1017 – 1048 yillarda G`aznada kechirgan hayoti, bir tomondan nihoyat og`ir kechgan bo`lsa, ikkinchi tomondan, uning ilmiy faoliyati uchun eng mahsuldor davr bo`ldi. Beruniyning "Xorazmnинг mashhur kishilari" asari ham shu davrda yaratilgan. Uning muhim astronomic-geografik asari "Tahdid nihoyot al-amoniya li tasxidi masofat al-masokin" ("Turar joylar orasidagi masofani tekshirish uchun joylarning oxirgi chegaralarini aniqlash" – "Geodeziya") 1025 yilda yozib tugatilgan.

2- topshiriq. "Nima uchun?" texnologiyasi

Nima uchun hozirgi kunda kitob o'qishga qiziqish kamayib bormoqda? Fikrlaringizni quyidagi sxemada aks ettiring.



3- topshiriq. *Matnga tinish belgilarini qo‘ying.*

O‘rta Osiyoda ahloqiy tarbiya o‘z an’analariga ega bu boradagi fikrlar qadimgi turkiy yodnomalar buyuk allomalarning asarlari va boshqa yozma yodgorliklar orqali bizgacha etib kelgan inson odobi eng avvalo uning nutqida namoyon bo‘ladi

Zero nutq odobi insonning ahloqini belgilovchi mezondir ahloq fan sifatida o‘rta asrlarda yuzaga keldi nutq odobi haqidagi fan ritorika esa eramizdan avvalgi asrlarda rivojlangan bunga misol qilib Ciceronning “Ritorika haqida” asarini keltirishimiz mumkin.

4- topshiriq. *Berilgan matnga tushirib qoldirgan abzatsni yozib, maqolani tiklang.*

Nyutonning mexanika qonunlari

Nyutonning mexanika qonunlari — klassik mexanika asosini tashkil qiladigan uchta qonun. I. Nyuton tomonidan ta’riflangan (1687).

Birinchi qonun —


Ikkinci qonun —

Uchinchi qonun —

Nyutonning mexanika qonunlari G.Galiley, X.Guygens hamda I.Nyutonning o‘zi o‘tkazgan ko‘plab kuzatishlar, tajribalar va nazariy tadqiqotlar natijasida paydo bo‘lgan. Nyutonning mexanika qonunlari elementar zarralar va tezligi yorug’lik tezligiga yaqin moddalar uchun o‘rinli emas.

5- topshiriq. *Ilm-fan rivojiga ulkan hissa qo‘shgan yana qaysi olimlarni bilasiz? Mikromatn tayyorlang.*

5-mavzu. Matnni ma’noviy qismlarga bo‘lish tamoyillari



Nazariy ma’lumot.

Matnni bo‘limlarga bo‘lish deganda uni mantiqiy mustaqil tarkibiy qismlarga bo‘lish tushuniladi. Ilmiy ishni bo‘limlarga bo‘lish mavzuni optimal ochib berishga xizmat qiladi. Kirish va xulosa qismlari butun ko‘rinishda bo‘lib, asosiy qism bob va paragraflarga bo‘linadi. Bu ish raqamlash va sarlavhalarni shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Bob va paragraflarning sarlavhalari berilgan matn kesimida keyingi bayon qilishni belgilab beradi. Har bir sarlavha keyingi matn mazmuniga mos keladi. Bunda har bir bob mazmuni paragraflar mazmunining mantiqiy yig’indisiga teng.

Matnni bo‘limlarga bo‘lish tamoyillari

- 1) matnni tarkibiy qismlarga bo‘lish, bir qismni boshqasidan ajratish;
- 2) sarlavha va raqamlashni qo‘llash.

Ilmiy asarda qismlarga bo‘lish ilmiy tadqiqotning mantiqini aks ettirishi kerak. Eng oddiy bo‘lim abzats hisoblanadi (matdagi har bir qism birinchi qatorini o‘ng tomonga surish); abzats bir fikr yoki mavzudan boshqasiga o‘tilishini anglatadi. Abzats bilan matnni bo‘limlarga bo‘lish raqamlanishi mumkin – matn qismlarining ketma-ket joylanishi son yoki harf bilan belgilanadi.

Eng ko‘p qo‘llaniladigan raqamlanish tizimi.

1. Turli xildagi belgilarni qo‘llash: rim va arab raqamlari, bosh harflar va kichik harflar, xat boshi.

Bunday yondashuvda belgilash tizimi pasayib borish tartibida joylashadi:

A... B... V... - I... II... III... - 1... 2... 3... - 1)... 2)... 3)... - a)... b)... v)...

Bunda quyidagi tartibga rioya qilinadi:

- a) qismlarning tartib raqami so‘z bilan ifodalanadi (birinchi qism);

- b) bo‘limlarning raqami bosh harflar bilan ko‘rsatiladi (masalan: A bo‘lim);
- v) boblarning raqami - rim sonlari bilan (I bob);
- g) paragraflar raqami – arab sonlari bilan (§ 1)

2. Muayyan birikmalarda faqat arab sonlarini qo‘llash.

Bunday bo‘limlarga bo‘lish tizimida ilmiy asarning eng yirik qismlari raqami bir sondan, tarkibidagi qismlar – ikki sondan, uchinchi bosqichdagi bo‘linishi – uch sondan iborat bo‘ladi. Masalan, 1. 2. 3. (1 – bo‘lim raqami, 2 – bob raqami, 3 – paragraf raqami).

Bunday raqamlash tizimini qo‘llashda *qism, bo‘lim, bob, paragraf* so‘zlarini ishlatmasa ham bo‘ladi.



Muhim eslatma:

- ro‘yxatda harf, raqamlar nuqtalar bilan berilgan bo‘limlarda matn katta harf bilan boshlanadi: 1. *Til*; 2. *Nutq*;
- harflar, raqamlar qavs bilan berilgan bo‘limlarda kichik harflar qo‘llaniladi: 1) *yangi va eski*; 2) *eski va yangi*.

3. Matn sarlavhasini rasmiylashtirish

Ilmiy matnni bo‘limlarga bo‘lishda uchinchi muhim vosita –sarlavha va sarlavhaostilarning qo‘llanilishi. Sarlavha - bu matnning strukturali elementi. U qisqa shaklda ilmiy ishning mavzusini, ba’zida asosiy mazmunini aks ettiradi. Sarlavha mazmunga mos, qisqa bo‘lishi, ikki xil ma’noli bo‘lmasligi, qaramaqarshi ma’noli bo‘lmasligi kerak. Axborotli sarlavha – bu bo‘lim, bob, paragraf mazmunining eng qisqa bayoni.

Bo‘limlarga bo‘lish qat’iy sxema asosida amalga oshirilmaydi, bo‘limlarga bo‘lish ishning mazmuni va janriga, ilmiy tadqiqotning mantiqiga, an’analarga va muallifning shaxsiy qarashlarga bog’liq bo‘ladi.

Sahifalarni turli usullar bilan sahifalash mumkin, ammo birinchi navbatda ularni simmetrik shaklda yoki asimetrik shaklda qilish haqida aniqlik kiritib olish

lozim. Simmetrik sarlavha o‘rtada joylashgan bo‘ladi. Asimmetrik sarlavha chapdagi chekka bo‘lim shaklini oladi. Ba’zi kontekstlarda o‘ng tomondagi chekka bo‘limlar yaxshiroq ko‘rinadi. Ular asosan asosiy sarlavha sifatida beriladi. O‘ng tomonda berilgan bir qatorli qisqa sarlavhani o‘quvchi o‘tkazib yubormasligi uchun katta keglda yoki to‘q rangda berilishi lozim.

Mavzu yuzasidan mashq va topshiriqlar

1-topshiriq.

Aloqa yo‘ldoshlari nima?



Aloqaning kabelli liniyalarini o‘tkazishning iloji bo‘lmagan yoki buning uchun yirik mablag’lar talab etiladigan joylarda radioto‘lqinlar yordamida aloqa o‘rnataladi. Buningdek to‘lqinlarning tarqalishi yorug’likning tarqalishiga o‘xshaydi va bamisolli yorug’lik singari aks etadi. Aloqa yo‘ldoshlarining ishi ham radioto‘lqinlarning ana shu xossasiga asoslanadi.

“Aks-sado-1”degan birinchi aloqa yo‘ldoshi xuddi sharga o‘xshaydi, U yupqa alyuminiy tunuka bilan qoplangan. Bu aloqa yo‘ldoshi Yer kurrasi atrofida 2000 kilometrga yaqin balandlikda aylanib yuradi.

Yerdan yuborilgan radioto‘lqinlar uning sirtiga tegib, orqaga qaytadi. Xuddi shu yo‘ldosh tufayli televizion ko‘rsatuvlarni ilk marta butun dunyo miqyosida olib ko‘rsatish imkoniyati tug’ildi.

Undan keyin yanada mukammalroq “Tellstar” va “Reldi” aloqa yo‘ldoshlari uchirildi. Ular Yerdan 5000 kilometrdan ortiqroq balandlikda joylashgan. Bu yo‘ldoshlar ma’lumotlarni qabul qiladi, magnit tasmalariga yozib oladi, tasvirni kuchaytiradi va qayta ishlab tag’in Yerga qaytaradi. Biroq bu yo‘ldoshlarning


kamchiligi shundaki, ular Yer atrofida sekin aylanar edi, shu sababli radiosingallarni ishonch bilan qabul qilish hududi u qadar katta emas edi.

“Sinkom” va “Saharxez qushcha” deb atalgan navbatdagi aloqa yo‘ldoshlari ancha takomillashgan edi. Ularning tezligi va aylanish yo‘nalishi Yer aylanishining tezligi va aylanish yo‘nalishi aniq mos keldi. Xuddi shu sababli bir vaqtning o‘zida 12 ta teledastur va 6000 telefon gaplashuvlarini yo‘ldoshlar orqali qabul qilish imkoniyati paydo bo‘ldi. Hyozirgi paytda Yer atrofidagi orbitalarda turli mamlakatlar tomonidan uchirilgan o‘ndan ortiq aloqa yo‘ldoshlari ishlab turibdi.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar

1. *Matnni o‘qing. Matndan ilmiy uslubga doir atamalarni ko‘chirib yozing.*
2. *Matndagi fikrlarga o‘z munosabatingizni bildirib mazmunini so‘zlab bering.*

2-topshiriq. *Venn diagrammasidan foydalanib, ilmiy va publitsistik matnlarni solishtiring*



3-topshiriq. *Quyidagi so‘z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing, so‘ngra ularni rasmiy yoki shaxsiy munosabatini ifodalashiga ko‘ra guruhlang, ular o‘rtasidagi farqni izohlang.*

O‘qishga kirmoq, vazifasidan ozod etilmoq, salom etkazmoq, belgilangan jadvalga muvofiq, ko‘ngilni ko‘tarmoq, ko‘rishganimizda aytib bermoq, zimmasiga yuklamoq, <<Kamolot>> yoshlar harakatiga qo‘silmoq, vaqt topolmaslik, o‘qituvchi bo‘lib ishlamoq, harorat pasayishi oqibatida, xushxabar eshitganidan keyin.

4-topshiriq.

Jahon ozon qatlami himoyaga muhtoj



Atmosferaning ozon qatlami quyoshning ultrabinafsha nurlarini ushlab qoladigan qalqon hisoblanadi. Afsuski, sayyoramizda tabiiy muvozanat buzilishi natijasida ozon qatlaming yemirilishi bilan bog'liq ekologik xavf paydo bo'ldi. Bu esa

kelajakda iqlimning bashorat qilib bo'lmaydigan o'zgarishlariga, ya'ni inson organizmi immun tizimining zaiflashishiga, onkologik kasalliklar sonining oshishiga, o'simliklarning sekin o'sishiga olib kelishi mumkin.

Olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, ozon qatlaming yemirilishiga sovitish texnikalari, yong'in o'chirish vositalari, tarkibida galogenlar (xlor, ftor va brom) bo'lgan kimyoviy moddalarning sanoat va qurilish sohasida keng qo'llanilishi asosiy sabab sanaladi. Ekologik xavfning oldini olish maqsadida 1985-yilda dunyoning 147 mamlakati ishtirokida Ozon qatlmini muhofaza qilish to'g'risidagi Vena konvensiyasi qabul qilindi. Oradan ikki yil o'tgach, 1987-yilning 16-sentyabrida ozon qatlmini yemiruvchi moddalar bo'yicha Montreal protokoli imzolandi. Shu kundan e'tiboran ushbu sana ozon qatlmini himoya qilish xalqaro kuni sifatida nishonlanadi.

Ozon — (yunonchadan ozon – anqiydigan) ozon molekulalari (O_3) dan hosil bo'lgan, har biri kislороднинг учта atomlaridan iborat gaz. Garchi, hozirda atmosfera havosidagi ozon juda oz qismni tashkil etsa – da, uning ahamiyati benihoya kattadir. U oqsil va nukleinli kislotalarni yemiruvchi qat'iy ultrabinafsha nurlanishni ushlab qoladi. Ta'kidlash lozimki, stratosfera ozoni – ob- havoning qisqa muddatli va lokal o'zgarishlarini belgilaydigan muhim iqlimi omildir. Quyosh nurlanishini yuta turib va energiyani boshqa gazlarga uzata turib, ozon stratosferani isitadi va bu bilan butun atmosferada sayyoraviy issiqlik va sirkulyar jarayonlarning xususiyatlarini tartibga soladi. Ozonning o'zgaruvchan molekulalari

tabiiy sharoitlarda, jonli va jonsiz tabiatning turli omillari ta'sirida hosil bo'ladi va parchalanadi, uzoq tadrijiy rivojlanish davomida ushbu jarayon birmuncha dinamik muvozanatga keldi.

Ozon qatlamini olimlar “biologik qalqon” deb ham ataydilar. Taassufki, bu qalqonnинг yemirilishiga inson omili katta rol o'ynayapti. Kosmik parvozlar, reaktiv samolyotlar parvozi, avtomobillar va boshqa manbalardan chiqayotgan gazlar, ayniqsa, sovitish tizimlaridagi freon gazi bu qatlam holatiga aks ta'sir ko'rsatmoqda. Keyingi yillarda yurtimiz aholisi, ayniqsa, yoshlarga ekologik bilim berish borasida ko'pgina ijobiy ishlar qilinmoqda. O'rta va oliv o'quv yurtlarida talabalarga ekologiya fani bo'yicha bilim berilmoqda. Bundan tashqari, gazeta va jurnallar, radio televizorlar orqali ekologiyaning dolzarb masalalariga oid, maqolalar berilyapti, ko'rsatuvarlar uyushtirilyapti. Shunga qaramay, biz yosh avlodga qoniqarli darajada ekologik tarbiya beryapmiz deb ayta olmaymiz. Xususan, soha uchun kadrlar tayyorlash borasida qilinadigan ishlar ko'p. To'g'ri, mustaqillik sharofati bilan mahalliy olimlar, soha mutaxassislari yangi darsliklar, o'quv qo'llanmalari yaratishdi. Bu darsliklarda respublikamiz iqlimi sharoitlari, unda mavjud o'simliklar va hayvonot dunyosi, uchrab turgan ekologik muammolar o'z aksini topgan. Ular yoshlarga ekologik tarbiya berishda yaqindan ko'makchi bo'lishi mumkin.



Mutaxassislar malakasini oshirish borasida esa ayrim xorijiy mamlakatlarning tajribalarini namuna tariqasida o'rgansak foydadan xoli emas. Masalan, Germaniyadagi tabiat go'zal maskanlarda maxsus ekologik tarbiya berish joylari tashkil etilgan. Ularda yoz oylarida mutaxassis o'qituvchilar ekologiya bo'yicha o'z malakalarini oshiradilar, mакtabга qaytgach ,olgan

bilimlarini,tajribalarini amalda qo'llaydilar. Zero, bolalarni tabiatga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalash shunchaki bir ermak uchun qilinadigan ish emas. Bu davlat ahamiyatiga ega dolzarb masaladir. Biz sog'lom, mehnatsevar, dunyoqarashi keng yoshlarni tarbiyalab, voyaga yetkazsakgina kelajagimiz nurli bo'ladi. Shu o'rinda respublikamiz, jumladan, Buxoro viloyatida ham atmosfera havosini muhofaza qilish sohasida bir talay ishlar amalga oshirilganini ta'kidlamoqchimiz. Viloyat hududidagi bir qancha korxona va tashkilotlarga zamonaviy usuldagagi chang-gaz tozalash qurilmalari o'rnatildi. Shuningdek, "Toza havo" tadbiri doirasida 20 mingdan ortiq avtotransport vositasi ko'rikdan o'tkazildi. 1200ta avtotransport vositasi me'yordan oshiq CO₂ ajratayotganligi aniqlandi va joyida sozlandi. Natijada atmosfera havosiga 1.1 tonna zararli tashlanmalar chiqishi oldi olindi. Bu tadbir doimiy tarzda o'tkazilmoqda.

Atmosfera havosini musaffoligini saqlash uchun, avvalambor, barcha insonlarga ekologik ta'lim-tarbiya berilishini yo'lga qo'yish, korxonalarda ekologik jihatdan sog'lom texnologiya yaratish, transport vositalarining chiqindisiz ishlashini ta'minlash, oyida bir marotaba bo'lsa-da, "avtomobilsiz kunni" tashkil qilish, sovitish texnikalari va yong'in o'chirish vositalaridan havoga chiqariladigan galogenlarni atmosferani ya'ni ozon qatlarni siyraklashmasligiga olib kelmaydigan elementlar bilan almashtirish chora- tadbirlarini ko'rish, shahar va qishloq ko'chalarida, korxonalar atroflarida yashil iqtisodiyotni ya'ni ko'kalamzorlashtirishni yana-da kuchaytirish lozim.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. Matnni o'qing va undagi termin hamda iboralarni izohlang.

2. Matnga reja tuzing va tuzgan rejangiz asosida mazmunini so'zlab

bering.

3. Matn sxemasini tuzing:

- *bosh axborot*
- *ikkinci darajali axborot*


5-topshiriq. «Ekologik muammolar» mavzusida matn tuzing.



Nazorat savollari

1. Matn – bu
2. Matn necha turga bo‘linadi?
3. Matn tuzilishidagi asosiy qoidalarni aytib bering.
4. Aloqaning mantiqiy vositalari nimalardan iborat?
5. Matnni bo‘limlarga bo‘lish tamoyillarini aytib bering.

6-mavzu. Reja. Rejaning turlari



Nazariy ma'lumot.

Insho rejasini tuzish va tezis sifatida shakllantirish

Insho mavzusi aniqlab olingach, mazkur mavzu asosida insho rejasini tuziladi. Reja – ish-faoliyatini tartibga solish, amalga oshirish rejimidir. Reja forscha-tojikcha “kir yoyiladigan ip” , “arqon”, “saf”, “qator” ma`nosidagi so‘z bo‘lib, biror kishini tartibi bilan va o‘z vaqtida bajarish uchun oldindan belgilab olingan aniq yoki taxminiy mo‘ljal, belgili tartib, qoida, o‘lchovni bildiradi (O‘TIL, Sh, 369).

Tuziladigan reja insho mazmunini o‘zida to‘la-to‘kis namoyon qilib turmog’i, izchillik asososida mavzudan chetga chiqmagan holda tuzilmog’i darkor.

Reja inshoning tarkibi qismlaridan biri sanaladi. Yaxshi tuzilgan reja inshoning izchilligini ta`minlaydi, o‘quvchi reja asosida qayd etilgan fikrdan keyin nima haqida bayon qilishni aniq his qilib turadi. Insho rejasini ikki xil: soda va murakkab ko‘rinishda bo‘ladi.

Odatda, erkin va ijodiy mavzudalardagi insholar yozilayotganida yoki aniq bir yozuvchining ijodiga baho berilayotganda sodda shakildagi insho rejalaridan foydalaniladi. Bunda rejadagi har bir band qisqa va sodda gaplardan iborat bo`ladi. Sodda shakildagi insho rejasi tuzilayotganda mavzuga har tomonlama mos keladigan materiallardan, xalq maqollaridan va ibratli gaplardan, hikmatli so‘zlardan foydalanish maqsadga muvofikdir.

O‘zida insho mavzusining barcha jihatlarini yaqqol aks ettirib turgan reja namunalari insho mazmuning ixchamlashtirilgan shakillaridir. Yaxshi tuzilgan rejalar inshoning yo‘nalishi, tarkibiy qismlari, mavzuning izchinligi haqida aniq bir tasavvur beradi. Bunday tipdagи insho rejalaridagi tartib arab raqamlari bilan belgilanadi va reja bandlari oxirida nuqta qo‘yiladi.

Sodda ko‘rinishdagi rejalar

Sodda ko‘rinishdagi insho rejalar tuzilayotganda, undagi gaplar tarkibini 1),2),3)... shaklidagi arabcha raqamlar bilan belgilash va ulardan keyin yarim qavs qo‘yish, shuningdek , ularni a), b), d), tarzida belgilash tavsiya etilmaydi. Tartibni belgilashning eng maqbul usuli arab raqamlarini qo‘yib, ulardan so‘ng nuqta ishlatilishidir.

“Izoh ma’nosidagi so‘zlardan keyin ikki nuqta qo‘yiladi”, degan qoidaga asosan rejadan keyin ikki nuqta qo‘yiladi. Har qanday umulashtiruvchi so‘z, tarkibidagi gaplar esa rejaning izohi, uning maqsadiga yo‘naltirilgan mantiqiy davomidir.

Sodda ko‘rinishdagi reja namunaları

Mavzu: “Do‘st bilan obod uying...”

Reja:

1. “Do‘st bilan obod uying, gar bo‘lsa u vayrona ham...”.
2. Do‘st boshga kulfat tushganda bilinadi.
3. Do‘stlik rishtalarini mustahkamlovchi omillar.
4. “Do‘st bo‘lsang yonimda tur...”.

Mavzu: Mustaqillik – xalqimizning asriy orzusi

Reja:

1. Ozodlik va erk uchun kurash – ona xalqimiz jasorati.
2. Mustaqillik muborak, ona O‘zbekistonim!
3. Istiqlol va Istiqbol – mushtarak tushunchalar.

Mavzu: Boburnoma – jahon memuarining nodir namunasi

Reja:

1. “Boburnoma”ning qomusiy tabiat.
2. Asardagi tarixiy joylar tasviri.
3. “Boburnoma”da shaxslar surati va siyrati tasviri.
4. Asarda moziyga aloqador faktlarning bayon etilishi.
5. “Boburnoma” matnining uslubiy xususiyatlari.

Mavzu: Muhammad Yusuf lirkasida ona – Vatan madhi

Reja:

1. Muhammad Yusuf lirkasining g’oyaviy yo‘nalishlari haqida.
2. Muhammad Yusuf she’rlarida go‘zal tabiat tarannumi.
3. Shoir she’riyatida vatandoshlarimizga hos bo‘lgan sifatlar ifodasi.
4. Muhammad Yusuf ijodida milliy qadriyatlarining ulug’lanishi.

Murakkab ko‘rinishdagi rejalar

Insho yozishda sodda ko‘rinishdagi rejalar bilan bir qatorda, mavzuning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda murakkab ko‘rinishdagi insho rejalarini tuzish mumkin. Murakkab ko‘rinishdagi reja namunalari sodda rejalardan o‘zining <Kirish>, <Asosiy qism>, <Xulosa> tarzida tarkibiy bo‘limlarga ajratilishi bilan keskin farqlanib turadi. Bundan tashqari, har bir qisimning o‘zi alohida bandlarga bo‘linadi.

Reja mavzuga mos bo‘lishi va maqsadga muvofiq tuzilishi kerak. Masalan, “**Alisher Navoiy she’riyatining badiiy xususiyatlari**” mavzusidagi insho quyidagi murakkab reja asosida yozilishi mumkin:

Reja:

I.Kirish. Alisher Navoiy lirkasining badiiy xususiyatlari.

II.Asosiy qism:

1. Alisher Navoiy g’azallaridagi badiiy san’atlar.
2. Alisher Navoiy ruboiylarida badiiy tasvir.
3. Alisher Navoiy qit’alari va tuyuqlarida majoz haqiqati.

III.Xulosa. Alisher Navoiy she’riyatidan olgan taassurotlarim.

Adabiy mavzusidagi insholarni murakkab, erkn mavzularni sodda reja asosida yoritish maqsadga muvofiq.

Mavzu: Boburnoma – jahon memuarining nodir namunasi

I. Kirish. Zahiriddin Muhammed Bobur – mahoratli ijodkor.

II. Asosiy qism:

1. “Boburnoma” – qomusiy asar.
2. “Boburnoma” da shaxs sur’ati va siyratining haqqoniy ifodasi.
3. “Boburnoma” da madaniy munosabatlar tavsifi.

III. Xulosa. “Boburnoma” – voqeylek esdaliklar tarzida yoritilgan asar.

Bunday tipdagi reja tuzilayotganda o‘quvchilar insho mavzulariga alohida diqqat-e’tibor bilan yondashmoqlari lozim , chunki adabiy xarakterdagi insholarning aksariyati voqealarga boy, rang-barang timsollar galereyasiga ega bo‘lgan, go‘yaviy hamda badiiy jihatdan mukammal asarlarning mazmuniga asoslangan bo‘ladi. Bu esa murakkab insho rejasini tuzishda o‘ziga hos yondashuvni talab etadi.

Ko‘rinib turibdiki, yuqoridagi insho rejalarida tinish belgilarining ishlatilishi sodda ko‘rinishdagi rejalarga qaraganda qiyinroq. Murakkab rejalarda tinish belgilarining qo‘llanishiga ham e’tibor qilish kerak. Bunda “Reja”, “Asosiy qism” dan keyin ikki nuqta , “Kirish”, “ Xulosa” dan keyin nuqta qo‘yiladi. “ Asosiy qism” uch va undan ortiq, “Kirish”, “Xulosa” qismlari bir band asosida yoritiladi.

Murakkab ko‘rinishdagi reja namunalari

Mavzu: <<Alisher Navoiy lirkasida insonparvarlik va adolatning ulug’lanishi>>

Reja:

I. **Kirish.** Alisher Navoiy lirkasining umumiyl tavsifi.

II. Asosiy qism:

1. Alisher Navoiy lirkasida insoniy fazilatlarning ulug’lanishi.
2. Alisher Navoiy she’rlaridagi insonparvarlik aks etgan misralar sharhri.
3. Alisher Navoiy lirkasida adolat g’oylari tarannumi.

III. Xulosa. Buyuk mutafakkir qarashlarining bugungi kundagi ahamiyati.

Mavzu: << Mehrodan chayon >> romanidagi Anvar obraziga tavsif >>

Reja:

I. **Kirish.** Abdulla Qodiriy – dastlabki o‘zbek romannavisi.

II. Asosiy qism:

1. Anvar timsolida ilm-ma’rifatining ulug’lanishi.
2. Anvar – o‘z so‘zida sobit turadigan sadoqatli do‘st.
3. Anvar timsolida vafodorlik va poklik tuyg’ularining ulug’lanishi.
4. Anvar timsoli orqali ijtimoiy tuzumdan norozilik kayfiyatlarining ifodalananishi.

III. Xulosa. Anvar obrazining ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati.

Mavzu: **Abdulla Oripov she’riyati va zamonamiz**

Reja:

I. **Kirish.** Abdulla Oripov she’riyati haqida ma’lumot.

II. Asosiy qism:

1. Abdulla Oripov she’rlarida ona O‘zbekiston go‘zalliklarining ulug’lanishi.
2. Shoir she’riyatida zamondoshlarimiz obrazi.
3. Abdulla Oripov she’rlarida istiqlol mavzusining yoritilishi.

III. Xulosa. Abdulla Oripov she’riyatidagi umuminsoniy qadriyatlar.

<<Asosiy qism>>dagi bandlarning tartibi 1, 2, 3 singari arab raqamlari bilan belgilanadi, ulardan keyin nuqta qo‘yiladi. Bundan tashqari, insho rejalari matn mohiyatini to‘laroq aks ettirishi uchun “Asosiy qism”dagi arab raqamlari bilan belgilangan har bir band o‘z ichida mayda qismlarga bo‘linishi mumkin. Agar bandlar yana bo‘limlarga ajratilsa, raqamlar: 1), 2), 3) yoki a), b), d) kabi harfiy shakllar bilan belgilanib, ulardan keyin yarim qavs, shunga muvofiq ravishda gaplarning oxiriga nuqtali vergul qo‘yiladi. Oxirgi bandda kelgan gapdan keyin nuqta qo‘yiladi.

Mavzu:<< Nodira ijodiga tavsif>>

Reja:

I.Kirish. Nodiraning abadiy merosi haqida qisqacha ma’lumot.

II.Asosiy qism:

1. Nodira ijodida insoniy fazilatlarning ifodalanishi.
 - a) shoira ijodida insoniy mehr ifodasi;
 - b) Nodira she’riyatida adolatning ulug’lanishi;
 - d) ishq-muhabbat -shoira she’rlarining asosiy mavzusi sifatida.
2. Shoira she’rlarida xalqparvarlik g’oyalarining aks ettirilishi.
3. Nodira –vafodor yor va sevimli ona.

III.Xulosa. Nodira she’riyatining tarbiyaviy ahamiyati.

Sxemasi:

Mavzu: <<_____>>

Reja:

I.Kirish._____.

II.Asosiy qism:

1. _____:
 - a) _____;

b) _____;

d) _____.

2. _____:

a) _____;

b) _____;

d) _____.

III.Xulosa._____.

Reja bandlarining belgilanish tartibini quyidagicha modellashtirish mumkin:**I>1.>1);//a);**

Ba'zan, o'quvchilar she'riy yo'l bilan reja tuzishga harakat qilishadi. Bunday rejalarini tuzish oson emas, albatta. Lekin har bir reja bandining she'riy tarzda berilishi aniqlikka, maqsadning to'g'ri ifodalanishiga monelik qiladi. Reja bandlaridan bir-ikkitasinigina mavzuga mos she'riy misralar orqali ifodalash mumkin.


Mavzuga mos holda tuzilgan reja insho matnini mantiqiy izchillikda bayon etishga yordam beradi, insho qismlarining mutanosibligini ta'minlaydi. Shuningdek, ortiqcha takrorlar, mavzudan chetga chiqish hollariga yo'l qo'yaydi. Rejaning har bir bandiga javob yozishda mavzuni yoritish uchun misollar va sitatalar keltirish o'rinci bo'ladi. Sitatalar insho matnida o'rta ga tashlangan fikrni dalillaydi.

Xulosa qilib aytganda, insho rejasini tuzishda mavzu mohiyatini anglagan hamda o'zbek tilining imlo qoidalariiga rioya qilgan holda ish tutish lozim.

Mavzu yuzasidan mashq va topshiriqlar

1-topshiriq.

POCHTA TARIXI



Pochta nemischa "Post", italyancha "pochta" so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, kech lotincha "Posito" so'zidan kelib

chiqqan bo‘lib, "o‘zgaruvchan otlar bilan stantsiya, nuqta nuqtasi" degan ma’noni anglatadi. Pochta aloqasi haqidagi dastlabki ma’lumotlar Ossuriya va Bobilga tegishli. Bu qadimgi mamlakatlarda yashagan odamlar loydan yasalgan lavhalarga mixxat yozishgan. Har bir talaba bu ma’lumotni biladi. Biroq, ossuriyaliklar, miloddan avvalgi III ming yillikda, konvertning o‘tmishi deb atash mumkin bo‘lgan narsadan foydalanishgan. Xat matni yozilgan blyashka yondirilgandan so‘ng, u loy qatlami bilan qoplangan, unga oluvchining manzili yozilgan. Keyin planshetlar yana yoqib yuborildi. Qayta otish paytida suv bug’ining chiqishi natijasida "harf" plastinkasi va "konvert" plastinkasi bitta bo‘lakka aylanmadidi. Ular "konvertni" sindirib, "maktubni" o‘qishdi. Shunday ikkita maktub shu kungacha saqlanib qolgan. Ular Luvrdagи "konvertlar" bilan birga saqlanadi. 000 yil oldin, noma’lum misrlik rassom, Fir’avn Numxoten dafn qilingan g’orining devorlaridan birida, qo‘lida o‘ram, ikkinchi qo‘lida ochiq xat bargini ushlab turgan jangchini chizib, boshlig’iga beradi.

Uzoq vaqtarda pochtaning mavjudligini ko‘rsatuvchi moddiy dalillar bizga shunday etib kelgan. Bizda qadimiy madaniyat yodgorliklari qatorida pochta xabarlari haqida hujjatli materiallar mavjud.

Xabarni buzishdan qo‘rmasdan yozma xabar bir xabarchidan boshqasiga o‘tishi mumkin edi. Maktublarni tashishda kabutarlar ham ishlatilgan.

Forsda Kir va Doro davrida (miloddan avvalgi 558 - 486 yillar) pochta aloqasi juda yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Fors postining bekatlarida xabarchilar va egarli otlar har doim tayyor edi. Pochta xabarchilar bir -biridan uzatilgan. Bu o‘rni pochta deb nomlangan.

Qadimgi Rim pochta bo‘limi ham mashhur bo‘lgan. U ulkan Rim imperiyasini boshqarishda katta rol o‘ynagan. Imperianing eng muhim markazlarida ot kurerlari bilan jihozlangan maxsus bekatlar saqlangan. Rimliklar "Statio posita in ..." (Stantsiya ... da joylashgan) deb aytgan. Mutaxassislarning fikricha, aynan shu so‘zlearning qisqartmasidan POST ("Posta") so‘zi paydo bo‘lgan.


Xitoyda pochta kelib chiqishi haqidagi hujjatlashtirilgan ma'lumotlar juda uzoq vaqtarga to'g'ri keladi. Xitoyning davlat pochtasi Chjou sulolası davrida (miloddan avvalgi 1027 - 249) mavjud bo'lgan. Uning ixtiyorida piyoda va ot xabarchilari bor edi. Tan sulolası imperatorlari (miloddan avvalgi 618 - 907 yillar) allaqachon postmaster generallarini tayinlashgan edi.

Xitoyning estafeta pochtasi imperatorning buyruqlari va xabarlarini g'ayrioddiy tezlik bilan etkazib berdi. Qadimgi Xitoy gravyurasida biz xitoylik oyoqli pochta xabarchisi qanday ko'rinishini ko'rishimiz mumkin. Ish oson bo'lmasa -da, sevimli soyabon xabarchi uchun uzoq safar qiyinchiliklarini yoritishi kerak.

Arab xalifaligida, 750 yilga kelib, butun shtat yo'lcilar tarmog'i bilan qoplangan edi, ular bo'y lab xabarchilar sayohat qilishardi - piyoda va otda, tuyalarda va xachirlarda. Ular umumiylar va shaxsiy pochta xabarlarini etkazib berishdi. Davlatning pochta xizmatining katta ahamiyatini Bag'dodga asos solgan xalifa Mansurning mashhur bayonoti (762) tasdiqlaydi.

"Mening taxtim to'rtta ustunga, mening kuchim esa to'rt kishiga bog'liq: bu benuqson qadi (sudya), baquvvat politsiya boshlig'i, faol moliya vaziri va menga hamma narsa haqida xabar beradigan dono pochtachi".

Qisqa misollardan ko'rinib turibdiki, turli mamlakatlarda pochtaning rivojlanishi juda ko'p farqlarga ega edi, lekin, asosan, turli mamlakatlarda pochta evolyutsiyasi juda o'xshash yo'lni bosib o'tdi. Bu dunyoning qudratli kishilarining xabarlari va buyruqlarini etkazishdan boshlandi, bir payt u boshqa odamlarning ehtiyojlarini qondira boshladi. Va qurilish tamoyillari juda o'xshash. Pochta tarixi yanada rivojlanadi. Pochta xodimlari uchun forma paydo bo'ladi. Pochta belgilari va kollektorlar paydo bo'ladi. Ma'lumotni qiziquvchan ko'zlardan etkazish va himoya qilish usullari takomillashtirilmoqda. Butunjahon pochta ittifoqi tuzildi. Borgan sari yangi aloqa vositalari paydo bo'ladi.



1677 yilda Rossiyada xalqaro pochta xizmati ish boshladi. Hammaga ochiq bo‘lgan pochta jo‘natmalarining birinchi qatorlari Rossiya davlatining chegaralaridan chiqib, "nemis" mamlakatlariga o‘tdi - rus xalqi shunday gapirgan erlarni ajdodlarimiz tushunmaydigan "soqov" tillar bilan atashgan. Ga qo‘sishimcha sifatida xalqaro yuklar, "Germaniya pochtasi" Rossiya bo‘ylab savdo xatlari va hukumat hujjatlarini ham etkazib berdi. "Germaniya pochtasi" tufayli pochta xizmati yozishmalar almashish punktlarini o‘rnatdi va pochta jo‘natmalarining muntazamligini ta’minalash qoidalarini joriy etdi. Shunisi e’tiborga loyiqliki, G’arbiy Evropadan kelgan "nemis posti" davlat muassasasi bo‘lganligi bilan ajralib turardi, G’arbda maktublar asosan xususiy korxonalar tomonidan etkazib berilardi.

Biz odatlangan pochta qutisining prototipi Florentsiya tamburlari edi - cherkovlar va soborlar devorlari yoniga o‘rnatilgan hamma uchun ochiq bo‘lgan qutilar, birinchi pochta qutisi 17 -asrda Frantsiyada o‘rnatilgan.

Rossiyada birinchi pochta qutisi 1848 yil 13 dekabrda Sankt -Peterburgda paydo bo‘lgan. U ko‘k rangda, dyuymli taxtalardan yasalgan va temir bilan qoplangan, uni ishlatish noqulay va sindirish oson edi, shuning uchun u pochta o‘g’rilari uchun haqiqiy ne’matga aylandi. Pochta o‘g’irlanishining oldini olish uchun hokimiyat yog’och qutilarini qirq kilogrammdan ortiq quyma temir qutilarga almashtirdi. Va faqat 1910 yilda dizayner P.N. Shabarov quiyi eshigi mexanik ochiladigan temir pochta qutisini ishlab chiqdi, uni biz hozirgacha ishlatamiz.


Odamlar doimo ma’lumot almashishga muhtoj edilar. Shuning uchun pochta tarixi zamonaviy odamlarga tanish bo‘lgan yozuv va xatlar paydo bo‘lishidan ancha oldin boshlangan. Qadim zamonlarda ovozli xabarni uzatish uchun ishlatilgan. Bu usul ba’zi hududlarda o‘rta asrlarga qadar saqlanib qolgan.

Masalan, Inka imperiyasida ko‘p asrlar davomida poytaxtdan xabar tarqatuvchi xabarchilar bor edi, ular tarvaqaylab ketgan tog ‘yo‘llari tarmog’i yordamida mamlakat bo‘ylab harakatlanishardi. Keyinchalik ular axborot tashuvchisi vazifasini bajaradigan simlar va iplar ishlatila boshlandi.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. *Matnni o‘qing va unga murakkab reja tuzing.*
2. *Reja asosida matn mazmunini qisqartirib gapirib bering.*
3. *Matndagi terminlarni aniqlang. Ularni sohalari bo‘yicha guruhlarga ajrating.*

2-topshiriq. Venn diagrammasidan foydalanib, reja turlarini solishtiring.



3-topshiriq. “Tushunchalar asosida matn tuzish” metodi bo‘yicha matn tuzish “O‘rtta Osiyoning buyuk siymolari” mavzusi bo‘yicha quyida berilgan tayanch so‘z va birikmalardan foydalanib mustaqil tarzda mikromatnlar tuzing.

- 1) Xorazm, Bog’dod akademiyasi, rasadxona, o‘nlik tizim, to‘rt amal, algoritm, algebra;
- 2) Samarqand, sakkizta asar, «Samoviy jismlarning harakati va yulduzlar ilmi», astronomiyadan qo‘llanma;
- 3) Forob, Damashq, Misr, 160 dan ortiq asar;
- 4) Kat shahri, Ma’mun akademiyasi, xorijiy tillar, 200 ga yaqin ilmiy asar, globus, «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», G’azna;
- 5) Sayram, Yassi, 23 yosh, «Hikmatlar».

4- topshiriq.

Nima uchun barglar kuzda rangni o‘zgartiradi?



Barglar yashil rangda paydo bo‘lganda, ular xlorofilning ko‘pligi bilan bog’liq. Faol bargda juda ko‘p xlorofil bor, bu yashil niqoblar boshqa pigment ranglariga ega. Nur xlorofil ishlab chiqarishni tartibga soladi, shuning uchun kuz kunlari kun sayin kamayib boradi, kamroq xlorofil ishlab chiqariladi. Xlorofilning parchalanish tezligi barqaror bo‘lib qoladi, shuning uchun yashil rang barglardan pasayadi. Shu bilan birga, shakar konsentratsiyasining kuchayishi antosiyinan pigmentlarini ishlab chiqarishning oshishiga olib keladi. Avvalo antosiyaniqlarni o‘z ichiga olgan yaproqlar qizil rangga ega bo‘ladi. Karotenoidlar - ayrim barglarda topilgan pigmentlarning yana bir turidir. Karotenoid ishlab chiqarish nurga bog’liq emas, shuning uchun qisqartirilgan kunlar kamaymaydi. Karotenoidlar to‘q sariq, sariq yoki qizil bo‘lishi mumkin, lekin barglardagi bu pigmentlarning ko‘pchiligi sariq rangga ega. Ham antosiyaniqlar, ham karotenoidlar yaxshi miqdorda barglari to‘q sariq rangda paydo bo‘ladi. Karotenoidlar bilan barglar, ammo ozgina antosiyinan sariq rangda ko‘rinadi. Ushbu pigmentlar yo‘q bo‘lganda, boshqa o‘simlik kimyoviylari barg rangini ham ta’sir qilishi mumkin. Masalan, ba’zi eman barglari jigarrang rang uchun mas’ul bo‘lgan taninlar kiradi. Harorat, barglardagi kimyoviy reaksiyalar darajasiga ta’sir qiladi, shuning uchun barglar rangida ishtirok etadi. Biroq, asosan, engil ranglar yig’ilib ketadigan ranglar uchun javob beradi. Quyoshli kuz kunlari eng yorqin ranglar uchun kerak, chunki antosiyaniqlar nur talab qiladi. Bulutli kunlar ko‘proq sariq va jigarrang bo‘ladi.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. Matnni o‘qing va unga sodda reja tuzing.
2. Reja asosida matn mazmunini gapirib bering.

5- topshiriq. “Pochta tarixi” matnidan foydalanib BBB jadvalini to‘ldiring.


Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim



Nazorat savollari

1. Insho rejasini tuzish qanday amalga oshiriladi?
2. Sodda reja qanday bo‘ladi?
3. Murakkab reja qanday tuziladi?

7-mavzu. Konspekt. Konspekt turlari



Nazariy ma’lumot.

Tezis

Tezis yunoncha *thesis* – “qoida”, “isbot” ma’nolaridagi so‘z bo‘lib, “ilmiy asar, maqola, ma’ruza va sh.k.dagi asosiy g’oyalarning qisqa va lo‘nda bayoni”; “haqiqat ekanligi isbotlanishi lozim bo‘lgan hukm, mulohaza, fikr”ni anglatuvchi birlik sifatida qayd etilgan.

Tezis mavzuning yoki matnning asosiy mohiyatini aks ettiruvchi qisqa ifodalar bo‘lib, masalaning keng yoritilishini ta’minlovchi, yo‘naltiruvchi xarakterga ega bo‘lgan umumlashma fikrlardir.

Tezis maqsadga ko‘ra ikki xil bo‘ladi:

1. Matn mazmunini yorituvchi tezis (bunday tezislarning mohiyati “Qanday masalalar yoritilgan?” savoli mazmun-mohiyati bilan izohlanadi). Masalan, konferensiyadagi ma’ruza matnining qisqacha mazmuni shu tipdagи tezisga misol bo‘ladi.

2. Matn tuzishga yo‘naltiruvchi tezis (bunday tezislarning mohiyati “Qanday masalalar yoritiladi?” savoli mazmun-mohiyati bilan izohlanadi).

Insho tezisi ikkinchi turga mansub bo‘lib, muallif fikrini jamlash, aniq ifodalashga, izchillik maqsadiga xizmat qiladi. Insho tezisi reja bandlari asosida shakllantiriladi. Reja bandlari insho mazmuniga qanchalik mos bo‘lsa, tezis ham shu darajada mukammal bo‘ladi.

Tezislар butun insho mazmuniga yo‘naltiriladi, shu bilan bir qatorda yaxshi insho yozishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Fikrlar tezisi – bu inshoda siz isbotlashga urinayotgan munozarali nuqtayi nazarlardir.

Tezislarning aniq bo‘lishi talab etiladi. Masalan, “O‘lim ular uchun fojia emas, balki azobli hijrondan qutqarguvchi xaloskor, pirovard maqsadlari bo‘lmish Yaratganning vasliga noil qiluvchi vosita edi”.

Ba’zan tezisda fikrlar borasida ma’lumot berish kerak bo‘ladi va bu bilan birga o‘quvchi maqsadga yo‘naltiriladi: “Navoiy Laylining o‘limi, otasining qahrini va ikki oila o‘rtasidagi nizolar tasvirini keltirib, yurak va aql doim turlichа harakat qilishini namoyon qiladi”.

Demak, inshoning yuzga kelish jarayonini quyidagicha modellashtirish mumkin: *mavzu-reja-tezis-matn*.

Fikrni yozma bayon qilish bayon, saylanma bayon, konspekt, annotatsiya, referat, sharh, biografiya, avtobiografiya, tavsifnomा, intervyu, ma’ruza, leksiya, hisobot, maktub, kundalik kabi shakllardan iborat.

Konspekt. Konspekt bayonning ko‘rinishlaridan biridir. Konspekt uch xil bo‘ladi: to‘liq konspekt, qisqa konspekt, tezisli konspekt.

Biror asarni konspektlashtirilganda quyidagi tartibda ish ko‘riladi: avval asar sinchiklab o‘qib chiqiladi, mazmun anglab olinadi va ko‘chirma qilish mo‘ljallangan parchalarga belgilar qo‘yib chiqiladi (tagi chiziladi yoki boshqa bir belgi qo‘yiladi). Konspektlash boshlanganda: a) muallifning ismi sharifi (familiyasi, ismi, otasining ismi, taxallusi); b) asarning nomi, bosilgan shahri, yili; v) asarning mazmuni - konspekt beriladi; g) manbadan olingan parchalarning beti ko‘rsatiladi. Lozim topilganda muallifning ayrim fikrlariga munosabat bildiriladi.

To‘liq konspektda matnning mazmuni muallif fikrlariga ba’zan bir izohlovchi gaplar qo‘sish orqali keng bayon qilib beriladi. Ko‘p rejali asarlar konspekt qilinganda, unda bayon etilgan hamma fikrlar izchil ko‘rsatiladi. Bunday konspektni o‘qiganda asar haqida yetarli mu’lumotga ega bo‘lish mumkin.

Qisqa konspektda matndagi eng muhim deb hisoblangan fikrlar bayon etiladi. Voqealarning tafsilotlari berilmaydi. Muallif o‘z asarida, asosan nimalar ustida to‘xtalgaligi sanab o‘tiladi.

Tezisli konspekt manbaning asosiy qoidalari eng muhim fikrlarni ajratib olishdir. Tezis, odatda, ilmiy maqolalar, ma’ruzalarning siqiq mazmunidir. Tezisda fikrlar ko‘pincha raqamlab boriladi. Tezisning hajmi eng ko‘p deganda 1-4 varaqdan oshmaydi. Lekin bu qat’iy chegara emas. Ba’zi siyosiy masalalarga bag’ishlangan ma’ruzalarning tezisi kattaroq hajmda ham bo‘lishi mumkin.

Siqiq xulosa (rezyume). Siqiq xulosa ma’ruza yoki boshqa asarlarda keng va atroflichcha dalillar bilan bayon etilgan fikrlarning 3-4 gapli yakunidir. Muallif rezyumeda kuzatish va mushohadalaridan yuzaga kelgan to‘xtamlarning eng zarurlarini ko‘rsatadi.

1-topshiriq.

Aloqa tizimining ba'zi servis imkoniyatlari



Dasturlashtiriladigan klavishalar. Telefon apparatining qo'lli panelida uch xil rangli svetodiod indikatorli bevosita teriladigan 12 yoki 24 ta klavisha bor, ularning har birining bosilishi bilan 25 ta turli xil vazifalardan bittasi bajarilishi mumkin, chunonchi: nomerni tez terish, qoldirilgan axborotlarni eshitib ko'rish va b. Svetodiodli indikatorlar, masalan, yashil rangli klavisha bilan siz ilgari qo'ng'iroq qilgan abonent nomerlarini, sariq rang bilan siz qo'ng'iroq qilgan, lekin so'zlasha olmagan, qizil rang bilan siz hali qo'ng'iroq qilmagan abonent nomerlarini ko'rsatadi.

Intellektual display. Telefon apparatida mavjud bo'lган ikki satrli suyuq kristalli display kirayotgan va chiqayotgan qo'ng'iroqlar to'g'risida (shu jumladan, sizni boshqa abonent bilan so'zlashuv vaqtingizdagi kirish qo'ng'iroqlari va aniq bir vaqtga belgilangan chiqish qo'ng'iroqlari haqida) va qoldirilgan tovushli xabarlar haqida ko'pgina foydali ma'lumotlarni berib turadi.

Nomerni aniqlagich. Kirish nomerini aniqlagich displayda sizga qo'ng'iroq qilayotgan telefondagagi abonentning nomerini va familiyasini ko'rsatadi hamda siz boshqa abonent bilan so'zlashayotgan paytingizda qo'ng'iroq qilayotgan abonentning nomerini va familiyasini displayda aks ettiradi va maxsus gudok bilan sizga ma'lum qiladi. Bunda 250—500 familiyaga mo'ljallangan apparat ichidagi elektron telefon kitob ishlataladi. Qo'ng'iroq qilayotgan abonentning nomerini tizim xotirasiga bitta knopkani bosish bilan yozib qo'yish mumkin, so'zlashuv tugagach va liniya bo'shangandan keyin, yana eslab

qolingga nomer bo'yicha yana bitta knopkani bosib, abonentga qaytadan qo'ng'iroq qilish mumkin.

Tovushli terish. Abonent bilan ulanish uchun telefon apparatining trubkasini ko'tarish, maxsus knopkani bosish va siz so'zlashmoqchi bo'lган familiyani aytish yetarlidir. Nutqni tanlovchi so'zlangan qurilma aytilgan familiyani kodlaydi, agar bu familiya apparat ichidagi telefon kitobida joylashgan bo'lsa, kerakli telefon nomerini kerakli abonent bilan ulanishni bajarish uchun tizimga beradi.

Tez terish. Tez terish kerakli abonent nomeriga dasturlangan bitta klavishani bosish bilan yoki telefon kitobidan foydalanib, uning ichidagi ro'yxatni displayda ko'rib chiqish yo'li bilan abonent familiyasi bo'yicha kerakli nomerni tanlash (va yana bitta klavishani bosish bilan) amalga oshirilishi mumkin.

Tovushli pochta qutisi. DCS tizimi tashqi abonentlarga qo'ng'iroq paytida o'z joyida bo'lмаган ofis xodimlari uchun yetarli darajada uzun xabarlarni qoldirish imkonini beruvchi avtojavob beruvchi (tovushli pochta qutisi) elementiga ega. Qoldirilgan xabar to'g'risidagi ma'lumot tegishli apparatga uzatiladi; axborotni bitta knopkani bosish bilan eshitib ko'rish mumkin.

Konferens-aloqa. Tizim bir vaqtning o'zida 5 ta tashqi abonent yoki qo'shimcha ichki abonentlar bilan ixtiyoriy kombinatsiyada konferens-aloqani tashkil etish imkoniyatiga ega. Audio-konferensiya qatnashchilari, umumiylar guruhli ulanishni buzmagan holda ixtiyoriy vaqtida unga qo'shilishlari va undan chiqib ketishlari mumkin.

Avtokotib. Elektron avtokotib, siz telefonda so'zlashib turganingizda, istalgan miqdordagi kirish qo'ng'iroqlariga javob berish qobiliyatiga ega. Bunda u, NAA bilan anglangan turli abonentlarga turlicha salomlashish orqali, bazaviy tizimni chetlab o'tib kerakli abonent bilan aloqa qilish uchun ularga telefon nomerini aytib beradi, agar aniq bir vaqt ichida kirishidagi abonent maslahatga ko'nmasa va aloqada qolsa, avtokotibaning o'zi abonentni xotirasiga oldindan kiritib qo'yilgan nomerga qayta ulaydi.

Uy telefoni. Tizim uy telefoni va kirish eshigining qulfini ochuvchi mexanizm bilan jixozlangan, bular, qulfn mehmon shaxsini yana telefon bo'yicha aniqlagandan keyin, to'g'ridan-to'g'ri telefon apparatining klaviaturasidan ochish maqsadi uchun kerak.

Statistikani yig'ish. Tizim aniq bir vaqt oralig'i uchun ofisdag'i har bir xodimning so'zlashuvlari to'g'risida to'liq statistik hisobotni shakllantirishi mumkin: qo'ng'iroqlarning umumiy soni; liniya band bo'lган paytidagi qo'ng'iroqlar soni; qo'ng'iroqlarni o'rtacha davomiyligi; trubkani ko'tarmasdan oldin gudoklarning o'rtacha soni; kutishning o'rtacha va maksimal davomiyligi; so'zlashuvlarning umumiy bahosi.DCS tizimi quyidagi vazifalarni bajarishi mumkin: budilnik; o'zgarib turadigan ichki abonentlarni qayd qilish (uni,

masalan, mehmonxonada ishlatilganda); ichki abonentlarning shaharlararo va xalqaro so'zlashuvlari qiymatini hisoblash va hisobga olib borish; berilgan ichki nomerlar o'rtasidagi so'zlashuvlarni blokirovka qilish va b. Mohiyatiga ko'ra bu tizim ofis ATS lar uchun xos bo'lган ko'pchilik vazifalarni bajaradi.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. *Matnga tezisli konspekt tuzing.*
2. *Matn yuzasidan savollar tuzib, o'zaro suhbatlashing.*

2-topshiriq. “*Fikrlar majmuasi*” texnologiyasi bo'yicha quyida berilgan fikrlarni mazmuniga qarab alohida mavzularga birlashtiring.

- Olimlar 2020 yil 21 dekabrda quyosh botgandan keyin Jupiter va Saturn sayyoralari o'rta asrlar vaqtidan beri birinchi marta tungi osmonda bir-biriga minimal masofaga yaqinlashishini aytmoqda.
- Ma'lumotlarga ko'ra, robot-delfinning og'irligi 270 kilogrammga teng bo'lib, uning batareyasi 10 soatga etadi. Sho'r dengiz suvida qurilma 10 yilga yaqin ishlab bera oladi. U nafaqat haqiqiy delfinlarning harakatini takrorlaydi, balki mushak va skeletlari bilan ham mazkur sut emizuvchi jonzotdan farq qilmaydi. Robotning barcha harakatlari operator tomonidan boshqariladi va kelajakda uning avtonomligini ta'minlash uchun kamera, datchiklar va sun'iy intellekt tizimini o'rnatish kerak bo'ladi.
- Ikki gaz giganti har 20 yil bir-biriga yaqin masofaga keladi. Ammo ular bir-biriga kamdan kam holatda minimal masofaga yaqinlashadi. Oxirgi marta

bunday yaqinlashuv 1226 yil 4 martida yuz bergan. 16-25 dekabr kunlari Yupiter va Saturn o'rtasidagi masofa Yerdan turib kuzatilganda to'lin oyning beshdan bir qismiga teng bo'ladi va ikki sayyora go'yoki qo'sh sayyoradek ko'rindi.

- Internetdagi ko'plab foydalanuvchilar yangi yaratilgan robot-delfin haddan ortiq reallashtirilganini ta'kidlamoqda va hatto loyiha mualliflarini falsifikatsiyada gumonlayapti.
- Ekvator aholisi bu hodisani kuzatish uchun eng yaxshi sharoitga ega bo'ladi, ammo uni ob-havo sharoiti imkon bersa, dunyoning istalgan burchagidan kuzatish mumkin bo'ladi. Sayyoralar quyosh botgandan bir soat keyin osmonning g'arbida ko'rina boshlaydi. Kuzatuvchi qanchalik shimalroqda joylashgan bo'lsa, sayyoralar ufq ortiga ketmasidan unda ushbu hodisani kuzatish uchun shunchalik kamroq vaqt bo'ladi.
- Robot Xitoyda pandemiyaga qarshi kurash doirasida yovvoyi hayvonlar savdosiga taqiq qo'yilgani sabab mamlakatdagi akvariumlardan biri tomonidan buyurtma qilingan. Umuman olganda, loyiha mualliflari bu kabi robotlar pandemiyadan keyin ham ommalashishini prognoz qilmoqda.
- Mutaxassislarning ta'kidlashicha, sayyoralar keyingi safar 2080 yil 15 martda, so'ngra 2400 yilda yana bir-biriga yaqin keladi.

3-topshiriq. *Gaplarni diqqat bilan o'qing. Noto 'g'ri qo'llanilgan so'zlarni aniqlab, ma'nosiga ko'ra mos so'z bilan almashtirib, gaplarni ko'chiring.*


1. So'zlovchining o'z fikrini qisqa va batafsil ifodalab, tinglovchiga yetkazish ham o'ziga xos san'atdir. 2. So'zga Benazir kishi mayda bir maqsadni uzoq so'zlab bayon qiladi. 3. Nojo'ya so'z yurak ko'zgusini parchalashi, tag'in insonni vayron qilishi mumkin ekanligini yodda tuting. 4.

Nutqi asal kishining mehribon odamizoti ham ko‘p bo‘ladi. 5. Shirin so‘z, go‘zal til inson dilini qanchalik xushnud etsa, aksincha, achchiq so‘z, beso‘naqay gap insonni dilini shunchalik noxush qiladi, dil piyolasini parchalaydi. 6. Mashq sababli so‘zlash qobiliyatini, nutq madaniyatini, notiqlik san’atchiligini odamlar olqishlaydigan saviyada egallash mumkin. 7. Tilda uni nomlovchi suxan bo‘lmasa, bunday so‘zni hamsoya tildan olish mimkin. Ammo tilda turgan so‘zlar o‘rnida boshqa suxanni qo‘llash falokatdir.

4-topshiriq

Nyuton halqasi

Shisha plastinkaning yassi sirtiga tegib turgan yassi qavariq, linzadan o‘tayotgan yorug‘likning qaytishi (sinishi) dan hosil bo‘lgan interferension halqasimon yo‘llar. Birinchi marta 1675 yilda I. Nyuton kashf qilgan. Halqalar diametri kattalashgan sari ularning zichligi ortadi va halqalar polosasi kengligi, ya’ni ikki qo‘shni halqa orasidagi masofa kichiklashadi (1-rasm). Nyuton halqasi maxsus mikroskopda kuzatilgan.



Mikroskop stolida yassi shisha plastinka joylashgan, uning ustiga egriligi kichik qavariq linza qo‘yilgan. Mikroskopda shisha plastinka tekisligiga perpendikulyar yo‘nalishda kuzatish olib boriladi. Manba L dan chiqayotgan yorug‘lik shisha plastinka tekisligiga perpendikulyar tushishi uchun MM shisha plastinkani mikroskop o‘qiga 45° burchak ostida qo‘yiladi. Shunday qilib, interferension manzara shu shisha plastinkadan kuzatiladi. Plastinka Nyuton

halqasini kuzatishga xalaqit bermaydi, chunki undan yetarli darajada yorug'lik o'tadi. Nyuton halqasi sferik va yassi sirtlarning shaklini to'g'rilashni tekshirish va boshqalarda qo'llaniladi.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. *Matnga savollar tuzing. Uning mazmunini kengaytirib so'zlab bering.*
2. *Jahondagi qaysi buyuk olimlarni bilasiz? Ularning hayot yo'llari haqida konspekt yozing.*


5-topshiriq. *Terminologik lug'atdan foydalanib mutaxassisligingizga oid kichik atamalar lug'atini tuzing. Ularning ma'nosini izohlang.*



Nazorat savollari

1. Tezis – bu
2. Tezis necha xil bo'ladi?
3. Konspekt turlarini aytib bering.

8-mavzu. Nutq uslublari



Nazariy ma'lumot

Til birliklari va materialidan fikrni ifodalash maqsadida foydalanish jarayoni **nutq** sanaladi. Hayotning turli sohalari, turlichalik vaziyatlarida tildagi leksik, frazeologik, fonetik va grammatik vositalarni tanlash va ulardan foydalanish usullari ham har xil bo'ladi. Shunga ko'ra, nutqning quyidagi uslublari o'zaro farqlanadi: **so'zlashuv uslubi, rasmiy-idoraviy uslub, ilmiy uslub, publitsistik uslub va badiiy uslub.**

- 1. So‘zlashuv uslubi**
- 2. Ilmiy uslub**
- 3. Rasmiy-idoraviy uslub**
- 4. Ommabop (publitsistik) uslub**
- 5. Badiiy uslub**

Uslubiyat tilshunoslik fanining bir bo‘limi bo‘lib, nutq jarayonida til hodisalarining maqsadga, sharoitga va muhitga mos ravishda foydalanish qonuniyatlari bilan tanishtiradi. Uslubiyatda uslublar, til vositalarining nutqda qo‘llanish yo‘llari, fonetik, lug’aviy, frazeologik va grammatik birlıklarning qo‘llanish xususiyatlari o‘rganiladi.

Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi ma’lum bir sohada qo‘llanadigan ko‘rinishi adabiy til uslubi deyiladi.

Badiiy uslub

Badiiy uslub kishi hayotining hamma tomonlarini qamrab olishi, umuminsoniyatga xosligi, barchaga barobarligi, o‘quvchi yoki tinglovchiga hissiyestetik ta’sir etishga yo‘naltirilganligi bilan boshqa uslublardan ajralib turadi. Badiiy uslubda muallif asarning estetik ta’sirini kuchaytirish maqsadida tilning leksik va grammatik vositalardan ustalik bilan va ijodiy foydalanishi, turli ifodaviy vositalarni qo‘llashi yoki o‘zi yangilarini yaratishi mumkin bo‘ladi. Shuning uchun ham bu uslubda yozuvchilar mavjud so‘zlarni obrazli ishlatishdan tashqari o‘ziga xos so‘z va iboralar ham ijod etadilar. Badiiy nutqda til obraz, xarakter, manzara yaratishga, yuksak obrazlilikni namoyon qilishga xizmat qiladi. Bu uslubda har bir yozuvchining voqelikni badiiy idrok etish ko‘lami, ijod usuli, poetikmahorati badiiy nutqning janr xususiyatiga muvofiq tarzda bir-biridan farqlanadi. Shunga ko‘ra badiiy nutq uslubi nisbatan keng imkoniyatlarga ega o‘ta qamrovli va boy nutq ko‘rinishidir. Barcha turdagи san’at va adabiyot asarlari shu uslubda yaratiladi. Obrazlilik va estetik ta’sir etish badiiy uslubning muhim belgisidir.

Badiiy asarlar (nazm, nasr va dramatik asarlar) badiiy uslubda bo‘ladi. Badiiy asar kishiga ma’lumot berish bilan birga, timsollar (obrazlar) vositasida estetik ta’sir ham ko‘rsatadi: O‘lkamizda fasllar kelinchagi bo‘lmish bahor o‘z sepini yoymoqda. Badiiy uslubda qahramonlar nutqida oddiy nutq so‘zlari, sheva, vulgarizmlardan ham foydalaniladi.

Badiiy asarlar uslubi aralash uslub hisoblanadi. Unda so‘zlashuv uslubiga, kitobiy uslublarga xos o‘rinlar ham uchraydi.

Badiiy tasvir vositalari

So‘zlovchi yoki yozuvchi o‘zi bayon qilayotgan nutqni tinglovchiga ixcham, aniq, ta’sirchan va tushunarli qilib yetkazib berishga harakat qiladi. Ko‘pincha biror narsa belgi xususiyatini tinglovchi yoki o‘quvchiga tushunarli, aniq qilib tasvirlab berish uchun uzundan-uzoq va birdan ortiq gaplarga murojaat qilishga to‘g’ri keladi. Shunday vaqtarda so‘zlovchi yoki yozuvchi ayni shu fikrni bayon qilib berishda uzundan-uzoq gaplarni qatorlashtirishdan qochib, boshqa vositalardan foydalangan holda lo‘nda va aniq qilib tushuntirishga erisha oladi. Bunday vositalarni tilshunoslik va adabiyotshunoslikda ifoda-tasviriyl vositalar deyiladi.

Ifodalilik, ekspressivlik va anqlikni ta’minalash uchun biror narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko‘chirish, o‘xshatish yoki so‘zlarni shu maqsadda umuman ko‘chma ma’noda ishlatish troplar deyiladi.

1. E p i t e t - (gr.izohlash) - badiiy ifodalilikni kuchaytirish uchun ishlatiladi: oltin kuz, baxmal qir, po‘lat ot kabi.

2. O‘x sh a t i sh - narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to‘laroq, aniqroq, bo‘rttiribroq ko‘rsatib berish;

Yoqut piyola, suvgaga tushgan mushukday, xuddi shunday va hokazo.

3. M e t a f o r a - (gr.ko‘chim) - obrazlilik, ekspressiv bo‘yoq berish niyatida narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, so‘z yoki iboralarni ko‘chma ma’noda ishlatish.

a) sodda metafora: gumbaz, ilon, lochin...

b) kengaygan metafora; zangori kema, oq oltin, po‘lat qush kabi.

4. M e t o n i m i y a - (gr. boshqacha nom berish) tashqi va ichki tomondan bir-biriga aloqador narsa yoki hodisalarning nomi boshqa narsa yoki hodisaga ko‘chiriladi.

Metonimiya ko‘rinishlari quyidagicha:

narsa (idish) ichidagi narsaning ma’nosи o‘sha narsa (idishga) o‘tkaziladi:
Bir tovoq (palov) bir kosa (lag’mон), bir piyola (choy).

Muallifning nomi asarning nomi bilan qo‘llanadi: Hamzani o‘qimoq,
Cho‘lponni yodlamoq kabi.

Harakat yoki uning natijasi shu harakatni bajarishdagi vosita, quroл bilan almashtiriladi: A.Qahhor - qalami o‘tkir yozuvchi, uning qo‘li yengil.

Biror narsa u yasalgan material bilan almashtiriladi: Atlas kiydi, qog’ozini tekshirishdi va h.

Ma’lum mamlakatda, davlatda yoki ma’lum o‘rinda yashab turgan kishilar ma’nosи shu yerga, davlat yoki mamlakatga ko‘chiriladi: Majlisga butun qishloq yig’ildi va h.

Aniq tushuncha nomi o‘rnida mavhum ma’noli ot qo‘llaniladi: Majlis raisga qaradi: yig’ilish qaror qildi va h.

5. S i n e k d o x a - narsalarning son yoki butun qismlari orasidagi munosabatning nazarda tutilishi.

Sinekdoxaning quyidagi ko‘rinishlari mavjud:

butun o‘rnida qism qo‘llanadi.

Mo‘ylov kulib qo‘ydi.Uning, har qalay, yopig’i bor.

Qism o‘rnida butun qo‘llanadi:

Besh qo‘l baravar emas. Dasturxonga qarang.

Jins o‘rnida tur ishlatiladi: pushka-quroл, bedana-qush, sazan-baliq kabi.

A l le g o r i ya (gr. piching, kinoya) - mavhum tushunchalarni aniq narsa bilan almashtirish. Ko‘rpangga qarab oyoq uzat.

S i m v o l - hayotiy voqeа, tushuncha va narsalar ifodasi uchun shartli ravishda ko‘chma ma’noda ishlataladigan so‘z: tong - yoshlik, tun - baxtsizlik, qora - motam.

I r o n i ya (gr. kesatik) - biror shaxs yoki uning qilig’i, hodisa ustidan kulish: Kam bo‘lmang! Qayt! Bopladingiz!


A n t i f r a z a - biror shaxs yoki narsaga xos bo‘lgan u yoki bu xususiyat kulgili ohang bilan inkor qilinadi: shirin odam, nimjon ayol (semiz) kabi.

S a r k a z m - (gr. achchiq) shaxs, narsa yoki hodisaning salbiy tomonini ko‘rsatish: farishta ayol, bejirim nusxa, yoqimli ish kabi.

Mavzu yuzasidan mashq va topshiriqlar

1- topshiriq. Matnni o‘qing. Badiiy uslubga xos gaplarni toping va ularning uslubiy xususiyatlarini tushuntiring.

Kitob haqida qiziqarli faktlar



— Imom al-Buxoriy 600000 hadis to‘plab, shundan 100000 sahih, 200000 zaif hadisni yodlagan. Bu hadislarni to‘plashda 90000 dan oshiq kishining huzurida bo‘lib chiqqan.

- Ayollar erkaklarga qaraganda ko‘p (68 %) kitob sotib oladilar.
- Dunyoda sotiladigan kitoblarning yarmidan ko‘pini 45 yoshdan oshgan kishilar sotib oladilar.
- Bitta roman yozish uchun 500 soat ketadi.

— Jamoa bilan kitobni ovoz chiqarib o‘qish bo‘yicha eng uzoq davom etgan marafon 224 soat kechgan.

— Dunyodagi eng katta lug’at «Nemis lug’ati» («Deutsches Worterbuch») bo‘lib, u 1854 yili Yakob va Vilgelm Grimm tomonidan boshlangan. Bu ishga keyinchalik turli olimlar hissa qo‘sib, 1971 yili yakunlangan. 33 jildli ushbu lug’at 34519 betdan iborat.

— Barcha zamon va xalqlarning eng mashhur yozuvchisi Agata Kristidir. Uning detektiv hikoyalari 50 dan ortiq tilda hamon chop etilmoqda. Kristining nashr etilgan kitoblari nusxasi 2 milliarddan oshadi.

— Dunyodagi eng og’ir kitob Britaniya muzeyida saqlanuvchi XVII asrga oid geografik atlasdir. Uning bo‘yi 1,9 metr, og’irligi 320 kilogrammdir.


— Google dunyoda chop etilgan barcha badiiy, publitsistik, ilmiy asarlar sonini hisoblab chiqqan. Ularning soni 130 milliondan oshadi.

— Ma’lumki, qadimda kitob juda qimmat bo‘lgan. 18-asrgacha ba’zi kutubxonalarda kitoblar o‘g’irlanmasligi uchun zanjirga bog’lab qo‘yilgan.

— Kitobni sekin o‘qilganda 100 foiz matn tushunilmaydi, faqatgina 60 foiz anglanadi, aksincha, tez o‘qilganda matnning 80 foizi tushuniladi.

— Aksariyat o‘quvchilar kitobning 18-betidayoq unga qiziqishni yo‘qotadilar.

— Bolani o‘qishga o‘rgatish uchun eng qulay payt — 4-6 yoshlik paytidir. Bolani 7 yoshdan o‘qishga o‘rgatish biroz qiyin kechadi.



— Dunyodagi eng qimmat badiiy asar Leonardo da Vinci tomonidan ko‘chirilgan «Leychester kodeksi» kitobidir. Uni «Maykrosoft» asoschisi Bill Geyts 1994 yili Nyu-Yorkdagi «Sotbis» auksionidan 30,8 million dollarga sotib olgan.

— Dunyodagi eng katta kitob holida chop etilgan majmua Irlandiya universiteti tomonidan 1968-1972 yillarda chiqarilgan 1112 jildli «Britaniya parlamenti hujjatlari»dir. To‘liq majmua 3,3 tonnani tashkil etadi. Uni to‘liq o‘qib chiqish uchun 6 yil ketadi.


— Dunyodagi eng qadimiy kitob Priss papirusidir. U eramizdan avvalgi 3350 yili yozilgan.Ushbu qo‘lyozma uni 1839 yili Fivadan topgan Emil Priss sharafiga shunday nomlangan.Qo‘lyozma muallifi — fir‘avnning vaziri Pta-Gotep. U yoshlarning tarbiyasizligi, dangasa va axloqsizligidan noligan.

— Hozirgi paytda dunyodagi eng katta kitob — «Bu — Muhammad (s.a.v.)» deb nomlangan bo‘lib, og’irligi 1,5 tonnadir. Kitob 429 sahifadan iborat.Uni 9 oy davomida 50 kishi tayyorlagan. 2,7 million dollar sarflangan. Kitob Dubaydagi savdo markazida saqlanadi.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. *Matnni o‘qing va mazmunini kengaytirib so‘zlab bering.*
2. *Matn yuzasidan savollar tuzing.*
3. *Matndan badiiy uslubga xos terminlarni aniqlang.*
4. *Matnda qanday badiiy vositalar qo‘llanilgan? Misollar keltiring.*

2- topshiriq.“*Adabiyot janrlari*” bo‘yicha klasterni davom ettiring.



3- topshiriq.“*Tushunchalar asosida matn tuzish*” metodi bo‘yicha matn tuzish.

Quyida berilgan kalit so‘zlar yordamida matn yarating.

Kalit so‘zlar: Pifagor, tenglik, matematik, kasr sonlar, uchburchak, teorema, katet, gipotenuza, kvadrat, bo‘lish, ko‘paytirish, qo‘shish, ayirish, tub sonlar.

Abdulla Qodiriy



Abdulla Qodiriy 1894 yilda Toshkent shahrida dehqon oilasida tug’ildi.U avval

madrasada, keyin rus-tuzem mактабида о‘қиди.

Adibning ilk ijodi 1913-1914 yillarda boshlangan bo‘lib, dastlab u shoir sifatida qalam tebratgan. Uning “Ahvolimiz”, “Millatimga”, “To‘y”, “Fikr aylagil” (1914-1915) kabi she’rlari “Sadoi Turkiston” gazetasi va “Oina” jurnalida bosilgan. A.Qodiriy bu she’rlarida millatdoshlarini jaholat va hurofotga qarshi kurashga chaqirib, ma’rifatparvar shoir sifatida maydonga chiqqan. Bu yillarda u “Baxtsiz kuyov” (1915), “Hech kim bilmasin” kabi sahna asarlarini ham yozgan. Uning “Juvonboz” (1915), “Uloqda” (1916) kabi hikoyalarida o‘z xalqini savodli, bilimli, madaniyatli va ozod ko‘rish istagi sezilib turadi.

Adib dastlabki asarlarini turli taxalluslar ostida e’lon qilgan. Shu taxalluslardan biri va xalq o‘rtasida mashhur bo‘lgani Julqunboydir.

1924 yili Abdulla Qodiriy Moskvaga borib, Jurnalistlar institutida tahsil oldi. Moskvadan qaytib, “Mushtum” jurnalida ishlay boshladi. Qodiriy “Mushtum” jurnalining asoschilaridan sanaladi, u mazkur jurnal nashriyotida ancha yil mehnat qildi. Uning “Toshpo‘lat tajang nima deydi?” va “Kalvak mahzumning xotira daftaridan” turkumidagi hajviy hikoyalari shu jurnalda ilk bor bosildi.

1925 yilda bosilib chiqqan Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romani o‘zbek adabiyotidagi dastlabki yirik nasriy asarlaridan biridir. Asarda XIX asrning 1-yarmidagi xalqimiz hayoti aks etadi.

1928 yilda Qodiriyning yana bir romani “Mehrobdan chayon” nashr etildi. Muallif unda Turkistonning eng so‘nggi xonlaridan biri Xudoyorxon davri voqealarini aks ettirdi.

1934 yilga kelib, A.Qodiriy qishloq xo‘jalik mavzuiga bag’ishlanagan “Obid ketmon” qissasini yaratdi. Undan tashqari, u Gogolning “Uylanish” komediyasi va G’arb yozuvchilarining satirik hikoyalarini o‘zbek tiliga tarjima qildi.

Qodiriyning mazkur asarlari xalqimiz tomonidan hamon sevib o‘qib kelinadi.Ular asosida badiiy filmlar suratga olingan.Yoshlarimiz Qodiriyning Anvar, Ra’no, Otabek va Kumush kabi qahramonlariga o‘xshashni orzu qilishadi.

Sevimli yozuvchimiz qatag’onga uchrab, 1939 yilda vafot etgan.

Istiqlol yillarida adib xotirasi yanada e’zoz topdi. Endilikda Toshkent Davlat san’at instituti, metro bekati va boshqa ko‘plab muassasalar Qodiriy nomi bilan atalgan.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. Matnni o‘qing. Matn bo‘yicha savollar tuzing.

2. Matn mazmunini gapirib bering.


3. Yozuvchining birorta asari qahramonini ta’riflab bering.

5-topshiriq. *Badiiy asar tur va janrlari raqamlarini jadvalning javob raqamlar qismiga yozing.*

- 1) G’azal; 2) Komediya; 3) Ruboiy; 4) Qissa; 5) Fard; 6) Hikoya; 7)
Tragediya; 8) Roman; 9) Qo‘g’irchoqbozlik; 10) Qasida; 11) Drama; 12)
Ocherk

Badiiy asar tur va janrlari	Javob raqamlar
Epik asarlar	
Lirik asarlar	
Dramatik asar	

9-mavzu. Ilmiy uslub va rasmiy- idoraviy uslublarning leksik-grammatik xususiyatlari



Nazariy ma’lumot.

Ilmiy uslub

Ilmiy uslub tabiat va ijtimoiy hayotdagi barcha narsa hamda hodisalar to‘g’risida aniq, asoslangan, izchil ma’lumot berishda qo’llanadi. Unda narsa-

hodisa mohiyatini ta’riflash, tahlil qilish, sababini aniqlab, dalillar bilan isbotlash va asosli natijalarini bayon etish muhim hisoblanadi.

Fan-texnikaning turli tarmoqlariga doir ilmiy asarlar, darsliklar ilmiy uslubda yoziladi. Ilmiy uslub aniq ma'lumotlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalar (qoidalar, ta’riflar)ga boy bo‘lishi bilan boshqa uslublardan farq qiladi: Yomg’ir - suyuq tomchi holidagi atmosfera yog’ini. Tomchining diametri 0,5-0,6 mm bo‘ladi.

Ilmiy uslubda har bir fanning o‘ziga xos ilmiy atamalaridan foydalaniladi, bu uslubda so‘zlar o‘z ma’nosida qo’llanadi, qoida yoki ta’rifning mazmunini ochishga xizmat qiladigan ajratilgan bo‘laklar, kirish so‘zlar, kirish birikmalar, shuningdek, qo’shma gaplardan ko‘proq foydalaniladi.

Nutqning ilmiy uslubi ilmiy munosabat sohasida amalga oshiriladi. U bir necha uslubostilarga (kichik uslub) ega: shaxsiy - ilmiy (mutaxassislar munosabati uchun), ilmiy-ta’limiy (bo‘lajak mutaxassislarning munosabati uchun), ilmiy-ommabop (mutaxassis bo‘lmaganlar orasida ilmiy bilimlarni ommalashtirish uchun). Ilmiy uslub janrlari og’zaki shaklda ma’ruza, doklad, ilmiy munozarada aks etsa, yozma shaklda esa keyslar, taqrizlar, maqolalar, monografiya, dissertatsiyalarda namoyon bo‘ladi.

Ilmiy uslubning ba’zi belgilari: fikrning puxta tayyorlangan monologik xarakterda bo‘lishi, matn qismlari orasida aniq aloqaning mavjudligi, ilmiy tushunchalarni aniq ajratish, qisqalik va ifodalashning bir ma’noliligi. Ilmiy uslubning o‘ziga xos xususiyati terminlarning — ilmiy tushunchaga ega maxsus so‘zlarning mavjudligi hisoblanadi.

Maxsus atamalar bu uslubning leksikasini tashkil qiladi, unda adabiy me’yorga qat’iy rioya etilga holda majhul nisbatdagi fe’llar va murakkab qurilishli gaplar keng ishlatiladi. Ilmiy uslub bilimning turli sohalariga qarab, shuningdek, kimga mo‘ljallanganligiga nisbatan o‘zaro farqlanadi. Masalan, fan sohalari muayyan shartli belgilari, formulalar, bayon qilish materiali bilan ajralib turadi. Ilmiy uslubdagi kitoblar ilm-fanga oid ma'lumotlar berish bilan mutaxassislargagina mo‘ljallanishi yoki bunday ilmiy ma'lumotlar keng ommaga

qaratilgan bo‘lishi mumkin. Keng jamoatchilikka tushunarli bo‘lgan, tasvir bayonida emotSIONallik, obrazlilik mavjud bo‘lgan uslub ilmiy-ommabop uslub sanaladi. Ko‘pchilikka mo‘ljallangan ma’ruzalar, risola va darsliklar shu uslubning ko‘rinishlaridir.

Ilmiy-ommabop uslubda maxsus atamalar kam ishlataladi (ishlatilganda esa izohi beriladi), fikrlar qiziqarli tilda tushuntiriladi, bayonda obrazlilikni ta’minlovchi badiiy tasvir usullaridan foydalaniladi.

Rasmiy-idoraviy uslub

Rasmiy-idoraviy uslub idoraviy va ijtimoiy munosabatlarda qo‘llanadi. Davlat idoralari tomonidan chiqariladigan qarorlar, qonunlar, nizomlar, xalqaro hujjatlar rasmiy-idoraviy uslubda yoziladi. Ariza, tilxat, ma’lumotnoma, chaqiruv qog’ozi, taklifnoma, shartnoma, tarjimai hol, e’lon, tavsifnoma, dalolatnoma, hisobot kabilar ham shu uslubda yoziladi. Bunday uslubdagи hujjatlar qisqa, aniq, barcha uchun tushunarli qilib tuziladi. Bu uslubning asosiy belgisi: jumlalarning bir qolipda, bir xil shaklda bo‘lishi. Bu uslubda ham so‘zlar o‘z ma’nosida qo‘llanadi, ko‘pchilikka ma’lum bo‘lgan ayrim qisqartma so‘zlar ishlataladi, har bir sohaning o‘ziga xos atamalaridan foydalaniladi. Rasmiy-idoraviy uslubda ko‘pincha darak gaplardan, qaror, buyruq, ko‘rsatma kabilarda esa buyruq gaplardan ham foydalaniladi. Bu uslubda gap bo‘laklarining odatdagи tartibda bo‘lishiga rioya qilinadi: O‘z lavozimini suiiste’mol qilganligi uchun M.Ahmedovga hayfsan e’lon qilinsin.

Rasmiy-idoraviy nutq yozma shaklda (uning janrlari – qonunlar, shartnomalar, ma’lumotnoma, ishonchnoma, ariza) va og’zaki (janrlari – doklad, xabar, sud nutqi, telefonagi xizmat qo‘ng’iroqlari, kelishuvlar) shaklda berilishi mumkin. Rasmiy-idoraviy uslubda gaplar ixcham va aniq bo‘ladi. U har qanday tasviriy vositalardan, obrazlilikdan xoli bo‘ladi. Bunday uslubda tilning ikki vazifasi - axborot uzatish va da’vat etish, buyurish vazifasi amalga oshadi.

Rasmiy-idoraviy uslubning quyidagi belgilari mavjud: tuzilmaning bir

shaklga ega ekanligi, bayonning aniqligi va mukammalligi, emotSIONALLIKNING bo‘lmasligi, klishelangan til vositalarining mavjudligi. Bu uslubda qaror qilindi, inobatga olinsin, ijro uchun qabul qilinsin, tasdiqlanadi kabi qoliplashgan so‘zlar va so‘z birikmalari keng qo‘llaniladi.

Idoraviy munosabat va uning xususiyatlari

Idoraviy munosabatlar bugungi kunda jamiyat hayotining barcha sohalariga kirib bormaqda. Mulkchilikning barcha shakllaridagi korxonalar va xususiy shaxslar tijorat va tadbirkorlik munosabatlariga kirishadi.

Idoraviy munosabat doirasidagi kompetentlik har qanday sohada: ilm-fan, san’at, ishlab chiqarish, savdoda muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik bilan bevosita bog’liq. Menejerlar, tadbirkorlar, ishlab chiqarish tashkilotchilari, boshqaruv sohasida ishlaydigan odamlar haqida gap ketganda, ushbu kasblar vakillari uchun muloqot qobiliyati ularning professional ko‘rinishining eng muhim qismini ifodalaydi.

Idoraviy munosabatning o‘ziga xos xususiyati uning tartibga solinishi, ya’ni belgilangan qoidalar va cheklovlarga bo‘ysunishdir.

Ushbu qoidalar idoraviy munosabatning turi, uning shakli, rasmiyatchilik darajasi va muloqotga kirishuvchilar oldiga qo‘yilgan aniq maqsad va vazifalar bilan belgilanadi. Bu qoidalar milliy madaniy an'analar va ijtimoiy xulq-atvor me'yorlari bilan belgilanadi.

Ular qayd etiladi, protokol (idoraviy, diplomatik) shaklida tuziladi, ijtimoiy xulq-atvorning umumiy qabul qilingan me'yorlari shaklida, axloqiy talablar shaklida, aloqa vaqtidagi cheklovlardan shaklida mavjud.

Protokól (qad.-grek. πρωτόκολλον; ot πρώτος «birinchi» + κόλλα » «kley») boshlang’ich — biron-bir voqealari, dalil yoki kelishuvni belgilovchi hujjat.

Idoraviy protokol - ish dunyosidagi munosabatlarning muayyan ssenariyidir. Butun idoraviy protokol biznes dunyosida qabul qilingan qoidalar va shartlilik to‘plamidir.

Idoraviy protokol qoidalari mustahkam emas. Ular turli xalqlarning urf-odatlari va vaqt tendensiyalarini hisobga olgan holda doimo o‘zgarib turadi. Faqat bitta narsa o‘zgarmaydi: protokol ishtirokchilari o‘rtasida hurmat va do‘stona munosabat yotadi. Idoraviy protokoli qoidalari mustahkam emas. Unda tasodifiy va yuzma-yuz muloqot qilish ham mumkin. O‘zaro munosabatlardagi asosiy narsa suhbatdoshga samimiy, insoniy, iliq his-tuyg’ularni namoyon etish va har qanday vaziyatdan to‘g’ri chiqib ketishdir. Muloqot va e’tibor uchun minnatdorchilik bildirish, suhbatdoshlarning urf-odatlari va xalq an’analariga hurmat ko‘rsatish qobiliyati protokol me’yorlariga sovuq rioya qilishdan ko‘ra ancha yuqori baholanadi.

Rasmiy-idoraviy uslubining leksik va grammatik xususiyatlari quyidagilardir:

- antonimlarni taqqoslash: huquqlar-majburiyatlar, jamoat-xususiy, talab-taklif, chiqarib tashlash-tiklash;
- fe’ldan yasalgan otlardan foydalanish: *intizom buzilgan taqdirda, aybdorlar ishdan olinadi*;
- *murakkab ko‘makchilardan foydalanish: maqsadida, aloqasida, natijasida: Bankda ishlashni yaxshilash maqsadida haftalik psixologik treninglar o‘tkazish kerak*;
- *barqaror so‘z birikmalaridan foydalanish (klisheler): bir martalik nafaqa, yuqori tashkilotlar, ovozga qo‘yish.*
- *murakkab gaplardan foydalanish: Yangi adabiyotni buyurtma qilish shakli bilan xat olganimizni tasdiqlaymiz va sizning arizangiz joriy yilning birinchi choragida ko‘rib chiqilishini ma’lum qilamiz.*

Mavzu yuzasidan mashq va topshiriqlar

1-topshiriq.

TELEFON ALQOA



Telefon aloqa eng keng tarqalgan tezkor ma'muriy-boshqaruv aloqa turidir. Telefon aloqa tarmog'ining abonentlari ham jismoniy shaxs, ham xo'jaliklardir. Telefon aloqa firmalarda, ofislarda va sh.o'. muhim rol o'ynaydi. Demak, ko'pchilik firmalar uchun telefon o'ziga xos tashrif qog'ozi hisoblanadi, chunki buyurtmachilar va hamkorlar bilan birinchi muloqat telefon orqali amalga oshiriladi. Ulanish qulayligi va telefonning servis imkoniyatlari (ular esa ko'pincha ofis ATS bilan aniqlanadi) firmaning salobati to'g'risida birinchi tasavvurlarni shakllantiradi, bu esa juda muhimdir.

Lekin hamma ham telefon tizimlarining imkoniyatlari telefon aloqa tizimining o'z abonentlariga ko'rsatadigan va ko'rsata olishi mumkin bo'lgan servis xizmatlari to'g'risida bilavermaydi. Bu hamma servis xizmatlar hozirgi zamonda 600 nomdan ko'proq bo'lib ularni sanab o'tishning imkoni yo'q, lekin ularning ba'zi birlari bilan qisqacha tanishib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Telefon aloqa bunday bo'lish mumkin:

- umumiy foydalaniladigan telefon aloqa (shahar, xalqaro va b.);
- muassasa ichidagi telefon aloqa.

Radiotelefon aloqa, videotelefon aloqa telefon aloqaning alohida turlariga mansubdir.

Telefon aloqa tizimi telefon tarmog'idan va abonent terminallaridan tashkil topgan.

Umumiy holda telefon tarmog'i - bu kommutatsiya uzellari majmuidir, ularning rolini avtomatik telefon stansiyalar (ATS) va ularni birlashtiruvchi aloqa kanallari bajaradi.

Abonent terminallari (ularga abonentning telefon apparatlari, ofis ATSi yoki kompyuterlar misol bo'la oladi), odatda, tarmoqqa ikki juft sim - abonent liniyasi bilan ulanadi. Abonent liniyasi tarmoqda o'zning yagona nomeriga (abonent nomeriga) ega; uning uzunligi, odatda, 7-8 km dan oshmasligi kerak va u orqali ma'lumotlarni uzatish ko'pincha analog shaklda olib boriladi.

ATSlar bir-biri bilan ulovchi liniya deb ataladigan liniya orqali ulanadi - hozir deyarli barcha umumiyligi foydalanish tarmoqlarida 4 ta simli raqamli liniyalar qo'llaniladi (bir juft sim signallarni har bir yo'nalishda - bir ATS dan boshqasiga va teskarisiga — uzatish uchun qo'llaniladi).

Telefon tarmog'i iyeraxik strukturaga ega. Pastki darajada oxirgi ATS lar joylashgan, ularga abonent terminallari ulanadi; bunday ATS, abonent nomerining oldingi raqamlari bilan mos keladigan nomeraga ega bo'ladi (masalan, 2670202 nomeraga ega bo'lgan abonent 267-ATS ga ulangan; ATS ichida bu abonent 0202 nomeraga ega). Agar ATS 10000 tadan ortiq abonent kommutatsiya qilsa (masalan, 5ESS stansiyasi 350000 tagacha abonentga xizmat ko'rsatadi), u holda u o'zini alohida nomeriga ega bo'lgan bir nechta mantiqiy kichik stansiyalarga bo'linadi.

Biror geografik hududga xizmat ko'rsatadigan ATS lar majmui mamlakat ichida o'zining yagona nomeriga bo'lgan zonani tashkil etadi (masalan, Sankt-Peterburg - bu 812 zona, Moskva - 095 zona va b.). Zona orasidagi aloqa iyerarxiyaning yuqog'iroq darajasidagi ATS yordamida - shaharlararo ATS yordamida amalga oshiriladi. Shaharlararo ATS ikkita nomeraga ega bo'ladi: o'zini ichki ATS lari uchun nomer - 8, u Rassiyaning hamma ATS lari uchun bir xildir; Tashqi shaharlararo ATS uchun nomer - uning yagona nomeri (812, 095 va b.).

Shunday tamoyil bo'yicha shaharlararo ATS yuqori darajada turgan ATS ga - xalqaro ATSGa ulanadi. Rossiyada xalqaro ATS ga chiqish uchun uning mamlakat uchun yagona bo'lgan nomerini — 10 ni terish kerak, boshqa mamlakatning xalqaro ATS ga kirish uchun esa shu mamlakatning kodini terish kerak.

Shunday qilib, to'liq, umumjahon yagona abonentlik nomeri mamlakat kodidan, mamlakat ichidagi ATS nomeridan va ATS ichidagi abonent terminali nomeridan tashkil toptan. Agar abonent terminali ofis ATS ko'rinishiga ega bo'lsa, u holda abonentni identifikatsiya qilish uchun ofis ATS ichidagi qo'shimcha nomer talab qilinishi mumkin.

Zamonaviy ATS - bu raqamli signallar bilan ishlaydigan, dastur bilan boshqariladigan kommutatsiya tizimidir. Bu shuni bildiradiki, abonent liniyasidan kelayotgan analog signal ATS ga kirganda raqamli shaklga aylantiriladi va shu


shaklda telefon tarmog'i bo'yicha tarqaladi, keyin boshqa abonentning abonentlik liniyasiga tushganda yana analogli shaklga aylanadi.

Ichki abonent ATS ga murojaat qilganda unga aniq bir tashqi kanal ajratiladi: ATS da tashqi kanallar soni unga ulangan abonentlar sonidan ko'p marta kichikdir. ATS abonentlari sonining uning tashqi kanallari soniga nisbati konsentratsiya koeffitsiyenti deb ataladi. Bu koeffitsiyentning me'yordagi qiymatlari 8:1—10:1 tartibli kattaliklar hisoblanadi (8:1 koeffitsiyent shuni bildiradiki, agar hamma abonentlar birdaniga ATS dan ulanishini so'rashsa, u holda u ularning faqat 12,5 % so'rovini qondirishi mumkin; lekin bir vaqtning o'zida 10000 abonentdan 1250 tasining murojaat qilish ehtimolligi, bitga abonentlik kanalining statistik o'rtacha yuklanganligi darajasidan yuqori emas, shuning uchun yuqorida keltirilgan konsentratsiya koeffitsiyentlari to'la qoniqarlidir). Telefon apparatlari va ofis ATS larning turlari va servis imkoniyatlari to'g'risida birmuncha batafsilroq to'xtalib o'tamiz.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. Matnni o'qing. Matn bo'yicha savollar tuzing.
2. Matn mazmunini gapirib bering.
3. Yozuvchining birorta asari qahramonini ta'riflab bering.

2-topshiriq. Klaster usulidan foydalanib, ilmiy uslubning xususiyatlarini ochib bering.




3-topshiriq. *Quyidagi so‘z, atama va so‘z birikmalarining qaysi uslubga xosligini aniqlang. Rasmiy-idoraviy uslubga xos bo‘lganlari ishtirokida gaplar tuzing.*

Xalq sayli, bo‘linmas fond, kirim, zarurat tufayli, taftish, so‘zga chiqdi, infrastruktura, mehnat bitimi, ko‘chmas mulk, topshirig’ingizga binoan, tebranish, hosila, sug’urta, zimmasiga yuklatish, elektromagnit, modellashtirish.

4-topshiriq.

Inson miyasiga necha terabayt ma’lumot sig’adi?



Ko‘pchilikka ma’lumki, odamlar o‘z miyasi imkoniyatlaridan to‘liq foydalanmaydi. 10 foizli imkoniyatlar haqida gapirmaymiz, biroq shunisi aniqki, miyaning imkoniyatlari tasavvurga ham sig’ishi qiyin. «Hi-News» olimlar tomonidan miyaga qancha ma’lumot sig’ishi mumkinligi borasida olib borilgan tadqiqot natijalari bilan bo‘lishdi.

Solka biologik tadqiqotlar instituti olimlarining so‘nggi ma’lumotlariga ko‘ra, inson miyasi hajmi bunga qadar aniqlangan natijalardan 10 barobarga ko‘p ekan. Aniq raqamlarni keltiradigan bo‘lsak, gap bir petabayt (1000 terabayt) haqida ketmoqda. Bir-ikki yil oldin butun internet hajmi shunchaga teng deya baholangandi.

Inson miyasi hajmini aniqlash uchun olimlar kalamushning gippokamp to‘qimasini 3D tahlil yordamida o‘rgandi. Jarayonda ma’lum bo‘lishicha, miya sinapslari o‘z o‘lchamini o‘zgartirishi mumkin, bu esa xotira hajmiga ta’sir

ko‘rsatadi. Bundan tashqari barcha holatlarning 10 foizida sinapslardan nusxa ko‘chirilgan.


Matn yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. Matnni o‘qing. Matn bo‘yicha savollar tuzing.
2. Matndan ilmiy atamalarni ko‘chirib yozing.
3. Yana qanday qiziqarli ma’lumotlarni bilasiz, ta’riflab bering.

5-topshiriq. “T sxema” bo‘yicha ilmiy va publitsistik nutqning xususiyatlarini solishtiring.

Ilmiy nutq	Publitsistik nutq

10-mavzu. Publitsistik uslub va og’zaki uslublarning leksik-grammatik xususiyatlari



Nazariy ma’lumot.

Publitsistik uslub

Tashviqot-targ’ibot ishlarni olib borishda qo‘llanadigan uslub, ya’ni matbuot uslubi ommabop uslub hisoblanadi. Bu uslubda ijtimoiy-siyosiy so‘zlar ko‘p qo‘llanadi. Nutq ta’sirchan bo‘lishi uchun ta’sirchan so‘z va birikmalardan, maqol va hikmatli so‘zlardan ham foydalaniladi. Bunday uslubda gap bo‘laklari odatdagи tartibda bo‘ladi, kesimlar buyruq va xabar maylidagi fe’llar bilan ifodalanadi, darak, his-hayajon va ritorik so‘roq gaplardan, yoyiq undalmalardan,

takroriy so‘z va birikmalardan unumli foydalaniladi: Azamat fermerlarimiz mo‘l hosil yetishtirish uchun fidokorona mehnat qilishyapti. Bu uslub, avvalo, tashviqot va targ’ibot uslubi bo‘lganligi uchun ham unda siyosiy faollilik, hozirjavoblik, o‘tkir va ta’sirchan notiqlik, mantiqiy mulohaza va dalillar bilan tushuntirish, isbotlash kabi belgilar ustunlik qiladi.

Publitsistik nutq uslubi ijtimoiy-siyosiy faoliyat sohasi bilan bog’liq va ommaviy axborot vositalarining tilidir. Ushbu uslub maqolalar, ocherklar, esselar, reportajlar, intervyular, shuningdek og’zaki ommaviy nutqlarni yozishda ishlataladi. Publitsistik uslubning asosiy belgisi standart va ifodali nutq vositalarining kombinatsiyasi hisoblanadi. Axborotga boy, keng qo‘llaniladigan, emotSIONallikka ega so‘zlearning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Publitsistik uslubi ham ko‘plab neologizmlarga ega. Ushbu uslubda hamma narsa o‘quvchining e’tiborini jalb qilish va saqlashga qaratilgan.

Publitsistik uslubining leksik va grammatik xususiyatlari quyidagilardan iborat:

~ xarakterli so‘z birikmalarining mavjudligi: *yig’ilishlar, yuqori darajadagi uchrashuvlar, sammitlar, konsensus, sariq matbuot, bosim o’tkazish, biz bilan qoling, reklama pauzasi;*

~ hozirgi va o‘tgan zamon fe’llarining ustunligi: *Bir necha yillar davomida jonli televideniyeda "Eurovideniye" har yilgi tanlovi ishtirokchilarini tanlaydilar; Afg’onistonda mamlakat prezidenti saylovlarida ovoz berish boshlandi; Qaroqchilardan ozod qilingan quruq yuk ekipagi portga olib ketildi;*

~ ritorik savollardan, ya’ni javob talab qilmaydigan savollardan foydalanish: *O’zbekistonda Navoiyning nomini bilmagan odamni topish mumkinmi?*

~ inversiyaning mavjudligi (bevosita so‘zlar tartibi): *Bu haqida o‘tgan ko‘rsatuvda muhokama qilingan edi. Buning o‘rniga, bu haqida o‘tgan muhokamada ko‘rsatuv bo‘lgan edi;*

Og’zaki uslub

Keng qo‘llanadigan uslublardan biri so‘zlashuv uslubidir. Nutqning og’zaki uslubi barcha kitobiy uslublarga zid keladi, chunki u hayotiy, norasmiy muloqot

sohasiga xizmat qiladi. Ushbu uslubning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: tayyorgarlik ko‘rmaslik, vaziyatga qarash, suhbatdoshning albatta bo‘lishi, yuqori darajadagi hissiylik va ifodalanish, noan’anaviy til vositalaridan keng foydalanish, keng doirada qo‘llab-quvvatlash.

Og’zaki uslub nafaqat og’zaki (uning janrlari — suhbat, hikoya, iltifot, nizo), balki yozma ravishda (uning janrlari — yozishma, forum, sms-xabarlar, bloglar, shaxsiy xatlar) ham taqdim etilishi mumkin.

Bu uslubda ko‘pincha adabiy til me’yorlariga rioya qilinadi. So‘zlashuv uslubidagi nutq ko‘pincha dialogik shaklda bo‘ladi. Ikki yoki undan ortiq shaxsning luqmasi dan tuzilgan nutq dialogik nutq deyiladi.

So‘zlashuv uslubida ko‘pincha turli uslubiy bo‘yoqli so‘zlar, grammatik vositalar, tovushlarning tushib qolishi, orttirilishi mumkin: Obbo, hamma ishni do‘ndiribsiz-da. Mazza qildik. Ketaqo-o-ol!

So‘zlashuv uslubida gapdagi so‘zlar tartibi ancha erkin bo‘ladi. Ko‘proq sodda gaplar, to‘liqsiz gaplar, undalmali gaplardan foydalaniladi. Oilada, ko‘cha – ko‘yda kishilarining fikr almashish jarayonoda qo‘llanadigan nutq uslubi so‘zlashuv uslubi deyiladi. So‘zlashuv uslubiy adabiy va oddiy so‘zlashuv uslublarini o‘z ichiga oladi. Adabiy til me’yorlariga qat’iy amal qilingan so‘zlashuv uslubi adabiy so‘zlashuv uslubi, bunday xususiyatga ega bo‘lmagan so‘zlashuv uslubi esa oddiy so‘zlashuv uslubidir. So‘zlashuv uslubining har ikki turi ko‘pincha dialog shaklida ro‘yobga chiqadi. Bu uslubda so‘zlar odatda kinoya, piching, qochirmalarga boy bo‘ladi. So‘zlashuv uslubining yana bir o‘ziga xos xususiyati erkinligidir. Jumlalar qisqa va ta’sirli bo‘lib, ko‘pincha so‘z – daplar, to‘liqsiz gaplar, maqol va matallar hamda iboralardan keng foydalaniladi. Umumxalq tili ma’lum bir xalqning so‘zlashuv tilidir.

Adabiy til esa ma’lum bir til qoidalari asosida tuzilgan, ishlangan, sayqal berilgan tildir. Umumxalq tili kengroq hajmda bo‘lib, u sheva va lahjalar, kasb-hunarga oid so‘zlar, atamalar, jargonlar, ma’lum toifa (biror

ijtimoiy guruh) ga oid so‘zlarni ham o‘z ichiga oladi. Bu xil tilda nutq erkin bo‘lib, til qoidalariga asoslanilmaydi.

Faqat muayyan bir hududga xos ayrim belgilarni o‘zida namoyon qilgan til shakli sheva hisoblanadi. Bir qancha shevalar yig’indisi lahja deyiladi. Sheva va lahjalar ma’lum bir hududda yashovchi aholining mahalliy so‘zlashuv tilidir (masalan, Toshkent shevasi, Farg’ona shevasi kabi).

Nutqning og’zaki uslubining o‘ziga xos xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

~ so‘zlarning qisqarishiga olib keladigan nutq tezligi: [salom] = assalomu alaykum;

~ urg’uning noto‘g’ri qo‘yilishi;

~ og’zaki so‘zlashuv so‘zlaridan foydalanish: esemeska, zachotka,

~ frazeologik birliliklarning mavjudligi: boshiga ko‘tarmoq, kapalagi uchmoq, boshi ko‘kka etmoq;

~ gaplarni qo‘llash:

1) soodda (ko‘pincha tugallanmagan): Men hozir universitetga, kechqurun esa kinoga]

2) bog’lovchisiz: Yetib borganingda — darhol qo‘ng’iroq qiling]

3) so‘roq va undovlar: Mana bu kutilmagan voqe! Siz biz bilanmi? Kimga aytyapman!

4) kirish so‘zлari bilan: Vaholanki, u hech qachon turmushga chiqmagan, ammo bu yil u chiqadigan ko‘rinadi]

~ maxsus sintaktik tuzilishdan foydalanish, masalan: Ta’til - u dushanba kuni boshlanadi;

E’tibor bering, savodli til tashuvchilar og’zaki uslubda ham til me’yorlariga rioya qiladilar.

Mavzu yuzasidan mashq va topshiriqlar

1-topshiriq. Matnni o‘qing, unda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarni “Tushunchalar tahlili” metodidan foydalanib tahlil qiling.

Muso al- Xorazmiy



Buyuk matematik, astronom va geograf

Muhammad al-Xorazmiy VIII asrning oxiri va IX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan.

Xorazmiy dunyo faniga katta hissa qo'shdi.U-**algebra** fanining asoschisi. "Algebra" so'zi uning

"Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobala" nomli risolasidan olingan. Uning bu arifmetikaga oid risolasi **hind raqamlariga** asoslangan. Hozirgi kunda biz foydalanadigan **o'nlik pozitsion hisoblash sistemasi** va shu sistemadagi amallar Yevropada keng tarqalgan. Olimning "al-Xorazmiy" nomi esa "**algoritm**" shaklida fanda abadiy o'rashib, Xorazmiy asos solgan yangi fanning nomi bo'lib qoldi.

Xorazmiyning eng yirik **astronomik** asari uning "**Zij**"idir. Bunda shaharlar, tog'lar, dengizlar, orollar va daryolardagi 2402 ta geografik joyning **koordinatalari** keltirilgan. Uning bu asari o'rta asrdagi eng birinchi geografik asar bo'lib, keyingi davrlarda geografiya fanining rivojlanishida katta ahamiyat kasb etdi.

Xorazmiy asarlari dunyoning turli kutubxonalarida saqlanib, g'arb va sharq tillariga tarjima qilingan. Hozirda uning nomiga turli mamlakatlarda (Eron, Turkmaniston, O'zbekiston va boshqalar) mukofot va medallar ta'sis etilgan.

Tushunchalar	Tushunchalar tahlili
Algebra	
O'nlik pozitsion hisoblash	



sistemasi	
Algoritm	
Zij	
Koordinata	
Astronomik	
Hind raqamlari	
Kutubxona	

2-topshiriq. Konseptual jadvalni to‘ldiring.

Nutq uslublari	Terminlar	Yozma nuta	Dialektizmlar	Badiiy vositalar
Badiiy uslub				
Ilmiy uslub				
So‘zlashuv uslubi				
Rasmiy uslub				
Publitsistik uslub				

3-topshiriq. Gaplarni uslubiy shakliga ko‘ra guruhlarga ajratib ko‘chiring.

Nuqtalar o‘rniga nutq uslubiga xos so‘z yoki fe’l shaklini qo‘ying.

1. Men bu gapni faqat tarjima vajidan aytayotgan...yo‘q. Yozuvchi o‘z ona tilisi ustiga o‘z zamonasining boy, madaniy tilini bilmasdan qanot bog’lamaydi.Buning misolini adabiyotimiz tarixida, hozirgi adabiyotimizda... ko‘rishi... mumkin (A.Q.)
2. Bulardan birinchi..., nutq madaniyati sohasining vazifasi til va nutqdagi nuqson va kamchilliklarni aniq ..., to‘p..., uni o‘rgan... va bartaraf etishdan iborat..., deyilgan nuqtai nazar.

3. O'sha "masalang" o'rniga tushsa dashnom...ga qalqon bo'lishi, lovilla...asablarga suv purkab, seni ortiqcha dilsiyohliklar...asrashi ham mumkin!(O'.Usmonov)
4. Men, Rasulov Anvar, "Eng yaxshi kitobxon" ko'rik-tanlovini o'tkazish...litseyimiz kutubxonasidan 10 ta badiiy kitob ol...
5. Axir, talaba jamiyatning oldi qatlami sanaladi... .Shuni... kerakda, "o'qib uqmasa bekor".... .

4-topshiriq.

Said Ahmad



O'zbek adabiyotining yetuk yozuvchilaridan biri Said Ahmad Husanxo'jayev 1920 yili Toshkentning Samarqand darvoza mahallasida ziyoli oylada dunyoga keldi. Shu yerda o'rta maktabni (1939) bitirib, Oliy o'quv yurtida (1940—1941) ta'lif olgan. Adabiyot darslari va to'garaklarida ijodga bo'lgan havasi ortib, qo'lga qalam ushlagan, vaqtli matbuot uning ijod dorilfununi bo'lgan. Said Ahmad dastlab «Mushtum» oynomasida, Radio qo'mitasida (1942—1943), «Qizil O'zbekiston» ro'znomasi (1943—1947), «Sharq yulduzi» oynomasida (1948—1950) va so'nggi yillarda u O'zbekiston Yozuvchilari uyushmasi qoshidagi nasr bo'limiga boshchilik qiladi. Uning birinchi hikoyalar to'plami «Tortiq» 1940 yilda nashr etiladi.

Urush va urushdan so'nggi yillarda Said Ahmad ko'plab felyeton, ocherk va hikoyalar yozdi. «Er yurak» (1942), «Farg'ona hikoyalari» (1948), «Muhabbat» (1949) kabi to'plamlar nashr etildi. Ulug' Vagan urushi davri voqealariga bag'ishlangan «Xazina», «Hayqiriq», «Rahmat azizlarim» kabi hikoyalarida avtor

urushning dahshatli oqibatlarini hayajonli tasvirlaydi, urush qahramonlarini ulug'laydi.

Adibning hikoyalarida Oybekning psixologik tasvir mahorati, G'afur G'ulomning yumori, Abdulla Qahhorning bayondagi lakonizmi mujassamdir.

Said Ahmadning barcha hikoyalari zamonaviy mavzuda yozilgan. U hikoyalarida tasvirlaydigan har bir voqeadan falsafiy umumlashma chiqarishga, voqealarni lirik ta'sirchanlik bilan ifodalashga, badiiy usullarning xilma-xilligiga erishishga intildi. «Cho'l burguti», «O'rik domla», «Lochin», «Odam va bo'ri», «Bo'ston», «To'y boshi» kabi qator asarlari Said Ahmad ijodida ham, o'zbek nasrida ham yangilik bo'ldi, Adib hikoyalarining bosh qahramoni ichki dunyosi boy va pok bo'lgan zamondoshlarimizdir. Muallif «Tog' afsonasi», «Zumrad», «Muhabbatning tug'ilishi», «Ko'zlariningda o't bor edi», «Poyqadam», «Alla», «Iqbol chiroqlari» asarlarida hayotiy xarakterlar yaratdi.

Said Ahmad hajviy hikoyalarida taraqqiyotimizga to'siq bo'layotgan yaramas urf-odatlar ustidan kuladi, yangicha ma'naviy-axloqiy masalalarni o'rta ga qo'yadi. Aksincha, o'zbek psixologiyasiga singmaydigan, milliylikdan yiroq bevatan, bemillat, yangicha urf-odatlar, udumlar ustidan ham qahqaha otib kuladi. Uning «Xanka bilan Tanka» «Lampa shisha» kabi o'nlab hajviyalari shular jumlasidandir. Said Ahmad kichik hajviy asarlari bilan o'zbek radio va televideniyesida quvnoq miniatyuralar teatriga asos solgan.

Said Ahmad hikoyalaridan asta-sekin yirik asarlar yaratishga o'tdi. 1949 yilda chop etilgan «Qadrdon dalalar» va «Hukm» (1958) qissalari shular jumlasidandir.

«Ufq» romanida (1964) Ulug' Vatan urushining olovli yillarida o'zbek dehqonlarining front orqasida ko'rsatgan mehnat qahramonliklari atroflicha hikoya qilinadi. «Ufq» trioliya bo'lib, yozuvchi unda urushdan oldingi va undan keyingi davr hayotiy muammolari haqida bahs yuritadi.

Said Ahmad ham qatag'onlik zulmining ikkinchi to'lqiniga duchor bo'lgan, lager azoblarini tortgan ijodkordir. O'z talanti va ona xalqiga sadoqat, katta ishonch adibni so'z san'atkori darajasiga etkazgan.

Ijodkor tarjima ishlari bilan ham faol shug'ullangan. Jumladan, B. Polevoy, A. Musatov, O. Gonchar kabi yozuvchilar asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Ayni chog'da adibning ko'pgina hikoyalari qardosh va horijiy tillarga o'girildi. Said Ahmad o'zining quvnoq, orombahsh hikoyalari va salmoqli romanlari bilan o'zbek prozasi rivojlanishiga katta hissa qo'shib kelayotgan ilg'or yozuvchidir. U O'zbekiston xalq yozuvchisi, Hamza mukofoti sovrindori hamdir.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. *Matnni o'qing. Matnga reja tuzing.*
2. *Reja asosida matnni so'zlab bering.*
3. *Matn yuzasidan savollar tuzib, o'zaro suhbatlashing.*


5-topshiriq. Said Ahmad va Saida Zunnunova ijodiy faoliyati xronologik jadvalini tuzing.



Nazorat savollari

1. Nutq uslublari necha turga bo'linadi?
2. Badiiy uslubga xos bo'lgan xususiyatlarni aytib bering.
3. Badiiy tasvir vositalari – bu
4. Ilmiy uslubning boshqa uslublardan farqi.
5. Rasmiy-isoraviy uslubda nimalar yoziladi?
6. Publitsistik uslub deganda nimani tushunasiz?

11-mavzu. Annotatsiya yozish



Nazariy ma'lumot.

Annotatsiya - badiiy, ilmiy, metodik asarlarning muallifi, mavzusi, manbasi, unda ko'tarilgan asosiy masalani ko'rsatishga qaratilgan qisqa xabardir. Annotatsiya o'zining kamso'zligi, hajm jihatidan nihoyatda kichikligi bilan bayonning boshqa turlaridan ajralib turadi. Batafsil yozilgan annotatsiya quyidagi savollarga javob bera olishi lozim.

Annotatsiya - kitob, maqola, matn mazmunining yozma shaklda qisqacha bayoni. Annotatsiya - bu ikkinchi darajali matn bo'lib, uning o'rtacha hajmi bibliografik tavsifisiz 40-50 so'zlardan iborat. Annotatsiyaning har bir ma'noli qismi til klishelari yordamida amalga oshiriladi.


Annotatsiyaning mohiyati va maqsadi axborot manbaining qisqacha tavsifini beradi va ilmiy matnda aytilganidek, savolga javob beradi. Annotatsiyadagi nutqning asosiy turi - bu ta'rifdir. Annotatsiya ilmiy matnning mazmuni haqida eng umumiy fikrni beradi va shu bilan kerakli ma'lumotlarni topish va tanlashda yordam beradi.

Matn annotatsiyasining to'liq tuzilishi:

1. Asosiy matnning bibliografik tavsifi.
2. Asosiy matn mazmunining qisqacha bayoni.
3. Matn qabul qiluvchisi (adresati).

Annotatsiyaning birinchi tarkibiy komponenti - bibliografik tavsif - matn muallifining ko'rsatmasi bilan boshlanadi.

Annotatsiya turlari



Annotatsiya yozish

Annotatsiya maqola yoki adabiyotning kimga mo'ljallanganligi, shakli, mazmuni jihatidan qisqacha tavsifi. Annotatsiyada quyidagi savollarga javob beriladi: manbada nima haqida gapiriladi va u kimga mo'ljallangan.

Annotatsiyaning hajmi kichik bo'lib, 500 bosma belgi atrofida bo'ladi. Annotatsiyaning tili adabiy hamda hamma uchun tushunarli bo'lishi kerak. Uning kompozitsiyasi asar kompozitsiyasidan farq qiladi hamda u ikki qismdan iborat bo'ladi: bibliografik tavsif va annotatsiyaning o'zi.

Annotatsiya asosan alohida nashr hisoblanadigan o'quv qo'llanmalar, darsliklar va monografiyalarga yozilib, ularda asarning qisqacha mazmuni, ahamiyati, kimlarga mo'ljallab yozilgani o'z ifodasini topadi.

Annotatsiyaning to'liq matni quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:

- annotatsiya berilayotgan asarning turi va kimga mo'ljallanganligi (kitob, darslik, to'plam, maqola, monografiya – shu so'z bilan annotatsiya matni

- boshlanadi): *To ‘plamda taqdim etilgan. Maqoladabayon etiladi. Monografiyadahaqida so ‘z boradi;*
- muallif o‘z ishida qo‘ygan maqsad va vazifalar: *Muallif o ‘z oldiga ...maqsadni qo ‘ydi. Nashrning maqsadi....iborat. muallif..... vazifalarni hal etadi;*
 - asarning mavzusi (muammosi): *Maqolamavzusi/muammosiga bag ’ishlangan; Kitobdamuammolari tahlil qilingan; Maqola ...mavzusida yozilgan;*
 - asosiy mazmuni: *Maqoladamasalalari ko ‘rib chiqilgan/ tahlil qilingan/ tadqiq qilingan; Muallif tomonidan tahlil qilingan; Muallif tomonidan ...gipotezasi asoslangan; ishdahaqida gap boradi;*
 - annotatsiya yozilayotgan asarning tuzilmasi (strukturasi): *Monografiya besh bobdan iborat; To ‘plam ikki bo ‘limni o ‘z ichiga oladi; Darslik o ‘n paragrafdan iborat; Maqolada uch qismni ajratib ko ‘rsatish mumkin;*
 - illyustratsiya materiallari tavsifi: *Kitobdaillyustratsiyalar keltirilgan; Muallif o ‘z xulosalarini chizma va jadvallar yordamida keltirgan; Videoilova keltirilgan;*
 - asarning adresati: *Kitob mutaxassislarda qiziqish uyg ’otadi; Darslik universitetning yuqori kurs talabalari uchun mo ‘ljallangan; Monografiya nafaqat mutaxassislar uchun, balkiuchun ham qiziqarli bo ‘ladi; Maqola barcha uchun mo ‘ljallangan;*

Yodda tuting. Annotatsiya matnida ko‘rsatib o‘tilgan punktlar o‘rnini almashib kelishi mumkin, ba’zi ma’lumotlar umuman keltirilmasligi ham mumkin.

Annotatsiyada klishelashtirilgan so‘z birikmali:

Kitobda (nima?) tadqiq qilingan.

(nima?) ko‘rsatib o‘tilgan.

(nimani?).... ko‘rib chiqish ishda katta o‘rinni egallaydi.

Monografiyada (nimaning?)..... tavsifi berilgan.

Tadqiqotkabi muammolarni ko‘rib chiqish orqali olib borilgan.

Kitobda (nima?) tahlil qilingan.

Asosiy e’tiborga qaratilgan.

(nimani?).... qo‘llab, muallif bayon etgan.

.....ta’kidlab o‘tilgan.

..... belgilab berilgan.

Kitobda (nima?).... berilgan.

(nima?) ochib berilgan.

Asosiy e’tibor (nimaga?)masalalariga qaratilgan.

Ishda (qanday?) muammolarni, (qanday?) masalalarning hal qilinishi aks ettirilgan.

....(ijodiy) xarakteri ko‘rinib turibdi

.....mezonlari o‘rnatiladi

Kitobda..... aniq ochib berilgan

.....tavsiflanadi

..... ko‘rib chiqiladi

tahlil natijasida maqolada ko‘rsatiladi

..... haqida gapiriladi

Xotima qismidaqisqacha to‘xtalib o‘tadi.

Namuna

Annotation

*S.A.Karimovning A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyotida 2012-yilda chop
etilgan “Til ta’limi va me ’yor” nomli o ‘quv qo ‘llanmasiga yozilgan*

ANNOTATSIYA

*Mazkur o ‘quv qo ‘llanmasi V-220100 va 5-220100-filologiya(o ‘zbek tili va
adbiyoti) - bakalavr yo ‘nalishida tahsil olayotgan 3-kurs talabalariga
mo ‘ljallangan bo ‘lib, Davlat ta ’lim standartlariga muvofiq keladigan va*

tanlanma fan sifatida o'tiladigan "Hozirgi o'zbek tilining me'yoriy muammolari" kursi dasturi asosida yozilgan.

Qo'llanmani yaratishda va me'yoriy hodisaning lingvistik tushuncha ekanligi, uning predmeti, maqsad va vazifalari, me'yoriy masalasining o'zbek tilshunosligida o'rganilish tarixi, adabiy tilga munosabati, umumiy va xusuiy me'yorlar, me'yorlarning tildagi imlo, talaffuz, leksik-frazeologik, Grammatik va uslubiy ko'rinishlari, me'yor va lug'atchilik, me'yor va nutq madaniyati masalalarini yoritishda mustaqillik davrida o'zbek tili va uni tadqiq etishda yuz bergen o'zgarishlar hamda erishilgan yutuqlarga tayanilgan.

H.Umarovning "Adabiyot nazariyasi" (Toshkent: Sharq, 2002) darsligining

ANNOTATSIYASI

Respublika universitetlarining O'zbek filologiyasi yo'nalishi (fakultetlari)da "Adabiyot nazariyasi" bakalvriatining 4-kursida o'rganiladi. Unda adabiyot, badiiy asar, ijodiy jarayonning muhim qonuniyatlari, adabiy tur va janr, ijodiy metod va uslub muammolarining mohiyati, so'z va so'zshunoslikning sehr-u jozibasi haqida zarur nazariy ta'lilot beriladi.

Ushbu darslik Oliy o'quv yurtlarining filolog talaba-bakalavrlari, magistrleri, tadqiqotchilari, aspirantlari, doktorantlari va adabiyotga qiziquvchi barcha ijodkorlarga mo'ljallangan.

Annotatsiya

Maskur qo'llanma rus tilida so'zlashuvchi guruhlar uchun tuzilgan bo'lib, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tavsiya qilgan namunaviy dastur asosida tuzilgan. Qo'llanma o'quv yili davomida rejaga binoan olib boriladigan mavzularni o'z ichiga qamrab olgan. Qo'llanmada turli manbalardan foydalananligini, matnning mazmundor, o'ziga xos qaytarilmasligi ko'zga tashlanadi. Shuningdek, dasturiy injiniring, iqtisod, telekommunikatsiya, axborot texnologiyalari, aloqa sohasi bilan bevosita bog'liq matnlar ham o'rin olgan.

Qo'llanmada berilgan grammatik mavzular mashqlar bilan mustahkamlanadi. Leksik matnlar turli mavzularda yoritilgan. Qo'llanmadan o'rin

olgan matnlarning barchasi, bizningcha, har tomonlama yondoshilgan holda tanlangan. Ularni o‘qigan kishi nafaqat yangilik oladi, balki undan o‘ziga tegishli xulosalar chiqarib, mustaqil fikrlay boshlaydi. Ham ta’limiy, ham tarbiyaviy ahamiyati borligini alohida qayd qilish lozim.

NAMUNA

Mavzu: Oliy ta’lim muassasalarida “akademik yozuv” fanining o‘rnini maqsad va vazifalari haqida

Annotatsiya

Bu maqolada muallif hozirgi kunda OTM da o‘rganilayotgan “Akademik yozuv” fani haqida fikr yuritadi. Bu fanning asosiy vazifasi talabalarda ilmiy nutqni rivojlantirish, mutaxassislik tili, ixtisoslik terminologiyasi, ixtisoslik matnlari yaratish asoslarini shakllantirishdan iborat.

Kalit so‘zlar: akademik yozuv, mutaxassislik, terminologiya, matn, ilmiy uslub, maqola, fan va texnika, ixtisoslik, nutqiy ko‘nikma.

Maqola matni

Hozirgi kunda o‘zbek tilining ijtimoiy mavqeい tobora ortib borayotganligi, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi va imlo qoidalarining joriy etilganligi, ish yuritishda to‘liq davlat tiliga o‘tilganligi barcha mutaxassislarning millatidan qat’iy nazar, o‘zbek tilini puxta egallahshlarini taqozo etmoqda.

Ma’lumki, istiqlol yillarida o‘zbek tilining qo‘llanilish doirasi fanda nihoyatda kengaygani, uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o‘ziga xos xususiyatlariga bag’ishlangan ilmiy va ommabop risolalar, o‘quv qo‘llanmalari, yangi-yangi lug’atlarning chop etilayotgani jamiyat tafakkurini yuksaltirishga o‘z hissasini qo‘shmoqda. O‘zbek tilining kompyuter va internet, aniq fanlar, tibbiyot, iqtisodiyot, sport kabi maxsus atama va tushunchalarni talab qiladigan sohalarda ham keng qo‘llana boshlagani uning imkoniyatlari nechog’lik katta ekanini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishib, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurish yo‘lidan borayotgan bugungi kunda dunyo andozalari darajasidagi bilimdon, zukko, har tomonlama etuk mutaxassis kadrlarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur fan talabalarga matnlar, ularning turlari, har bir matnda aks etishi lozim bo‘lgan ma’lumotlar, axborotlar, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma’naviy hayotimizga oid hamda o‘rganayotgan mutaxassisliklariga doir terminlar, ularni tanlashdagi o‘ziga xos xususiyatlarni o‘rgatish uchun mo‘ljallangan.

Bu esa ta’lim andozalariga yangi, zamonaviy fanlarni kiritish orqali amalga oshiriladi. Endilikda respublikamizdagi barcha korxonalarda yuritiladigan hujjatlarni o‘zbek tili qonun-qoidalariga mos ravishda rasmiylashtirilishiga erishishdek ulkan vazifa hammamizning oldimizda turibdi.

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” va “Ta’lim to‘g’risida”gi qonun talablaridan kelib chiqqan holda Toshkent axborot texnologiyalari universiteti bakalavrlariga “Akademik yozuv” fani kiritildi.

Bu fanni o‘qitishdan maqsad ixtisosligi sohasida bilimli, zukko, og’zaki va yozma savodxonligi etuk mutaxassisni tayyorlash uchun talabalarda mutaxassislik tili bilimlarini – so‘z va terminlarni qo‘llash, gap va matnlarni to‘g’ri va mantiqli tuzish, nutqiy etiket va notiqlik mahorati bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakani shakllantirishdir.

Shunga ko‘ra universitet talabalari uchun “Akademik yozuv” kursining kiritilishi maqsadga muvofiq ish bo‘ldi.

Fanning muhim vazifalaridan biri bakalavrda mutaxassislik tili, ixtisoslik terminologiyasi, ixtisoslik matnlari yaratish, mutaxassislik nutqi asoslarini shakllantirishdan iboratdir.

“Akademik yozuv” fani nutq madaniyati va o‘zbek tilining boshqa sohalari bilan chambarchas bog’liqdir. Bakalavr o‘z mutaxassislik fanlari bilan bir qatorda mutaxassislik tili va uslubi, mutaxassislik terminologiyasi va atamashunoslik, ish yuritish va hujjatchilik to‘g’risida mukammal bilimga ega bo‘lmasdan turib, o‘z fikrini ixtisosligi sohasiga qo‘yiladigan talablar asosida aniq va ravshan ifoda eta olmaydi.

Shunga ko‘ra, bo‘lajak mutaxassislar fan va texnika tilining o‘ziga xos xususiyatlaridan puxta xabardor bo‘lmog’i lozim.

Bakalavrlar o‘z ixtisosligidan kelib chiqqan holda, respublikamiz iqtisodini yuksaltirishga, uni jahonda munosib o‘rin egallashiga hissa qo‘sadi, chet mamlakatlarda va yurtimizda davlatimiz manfaatini himoya qiladi, kuch-qudratini namoyish etadi. Shunga ko‘ra, bo‘lajak mutaxassislar davlat tili – o‘zbek tilini mukammal, aniq va ravshan egallashlari shart. Shuning uchun dasturda mutaxassislik tili bilimlariga alohida urg‘u berildi.

Hozirgi kunda o‘zbek tilining ijtimoiy mavqeい tobora ortib borayotganligi, lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi va imlo qoidalarining joriy etilganligi, ish yuritishda to‘liq davlat tiliga o‘tilganligi barcha mutaxassislarning millatidan qat’iy nazar, o‘zbek tilini puxta egallashlarini taqozo etmoqda.

Shu bois, mazkur o‘quv kursining o‘qitilishi muayyan amaliy yo‘nalishga ega bo‘lib, bakalavr mutaxassislik tili bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni, o‘z sohasiga oid so‘z va terminlarni, hujjatlarni to‘g’ri yozish malakasini hosil qilishni ko‘zda tutadi.

Bo‘lajak mutaxassisning kasbiy layoqati va mahorati hozirgi davrda o‘z kasbining madaniyati asoslari hamda notiqlik me’yorlarini ham bilishni taqozo etmoqda.

Fanni o‘qitish tamoyillari, mazmuni va uslubini o‘zgartirib, talabalarning yozma nutqiy ko‘nikmalarni takomillashtirish, o‘zbek tilining boy imkoniyatlaridan o‘z mutaxassisligi bo‘yicha foydalanish, fikrini to‘g’ri, aniq, mantiqli ifoda etishga o‘rganishni ko‘zda tutadi. Shularni nazarda tutib, fan bo‘yicha o‘quv dasturi ishlab chiqildi hamda bu dastur asosida o‘quv qo‘llanma yaratildi.

Shuni ta’kidlash joizki, ushbu qo‘llanma nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan kommunikativ tamoyilga asoslanib tuzildi. Nazariy bilimlar fikr ifodalash vositasi bo‘lib, asosiy maqsadning amalga oshishiga xizmat qiladi.

Qo‘llanmada nutq uslublariga, jumladan, ilmiy, publitsistik, ilmiy-ommabop va rasmiy-idoraviy uslublarga keng o‘rin ajratilib, talabaning o‘z mutaxassisligi sohasi bo‘yicha ulardan foydalanib, matn yaratish ko‘nikmasi hosil qilinadi.

Qo‘llanmada talaba oldiga ilmiy, publitsistik, badiiy adabiyotlarni o‘qib tahlil qilish, mutaxassislik sohasida matn yaratish, matnni tarjima qilish, uni shakl va mazmun jihatdan yangilash kabi talablar qo‘yildi.

Umuman olganda, “Akademik yozuv ” fani talabalarda yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirish, ya’ni, hujjat yuritish, tilning stilistik va imlo qoidalari, sohaviy terminologiya, mutaxassislik tili va nutq uslublari, sohaviy hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish, soha lug’atlarini o‘rganish, ular yordamida ilmiy, ommabop maqolalar tayyorlash kabi masalalarni qamrab oladi.

Adabiyotlar:

1. N. Jiyanova, O. Mo‘ydinova. Nutq madaniyati. – T.: “Ilm ziyo zakovat”, 2019. 221 b.
2. Xolmonova Z. Adabiy tildan ma’ruzalar umumlashmasi-T.: «O‘zbekiston», 2013, 250 b.
- 3.M. Aminov, A. Madvaliyev, N.Maxkamov, N Mahmudov. Ish yuritish (amaliy qo‘llanma). Toshkent, 2017 y . - 440 b.
- 4.X.S.Muhiddinova, N. A. Abdullayeva. Rasmiy uslubning diplomatik turlari.T; 1997 y.

Mavzu yuzasidan mashq va topshiriqlar

1-topshiriq. Berilgan namunalardan foydalanib, berilgan ilmiy maqolaga annotatsiya yozing.

O‘ZBEK TILINI O‘QITISHDA ERGASH GAPLARNING TASNIFI

Sodda gaplardagi sintaktik o‘rinlar ergash gapli qo‘shma gaplardagi sintaktak o‘rnlardan aslida farq qilmaydi, ular bir xil. Sintaktik o‘rin uchun ayni o‘rinni qanday birlik egallashi ahamiyatli emas. Bu munosabat bilan *Он слышит*

журавлиный крик va *Он слышит как кричат журавли* gaplarini qiyoslab, bu gaplarning tarkibiy sxemasida farq yo‘qligini, bu sxemalar bir xil ekanligini, farq faqat vositasiz ob’ekt ifodasi bilan berkiluvchi sintaktik o‘rinning qanday birlik bilan to‘ldirilayotganligidagini, bu o‘rin esa *слышат* fe’lining mazmuni bilan bog’liqligini aytadi. Birinchi gapda mazkur sintaktik o‘rin so‘z birikmasi bilan, ikkinchi gapda esa gap bilan berkilgan. Ana shunga ko‘ra u mazkur sodda gap va keyingi ergash gapli qo‘shma gap o‘rtasidagi funksional muqobililik bor deb hisoblaydi, hatto bu qo‘shma gapni sodda gapning o‘ziga xos analogi deb qaraydi.

Sintaktik o‘rin gapdagi predikatni ifodalagan so‘zning ma’nosi va demak, valentligiga ko‘ra yuzaga keladi. Boshqacha qilib aytganda, bosh gapning kesimi vazifasidagi so‘zning ma’nosi va valentligi ergash gapning mohiyatini va qo‘llanishini ta’minlaydi. Predikatning valentligiga ko‘ra yuzaga keladigan sintaktik o‘rin, agar predikatning mazmuniy imkoniyati yo‘l qo‘ysagina, tobe predikativ birlik tomonidan egallanishi mumkin. Aks holda, ergash gapli qo‘shma gap tarkib topmaydi. Shuning uchun ham ayrim tilshunoslar ergash gapli qo‘shma gap tarkibini tasvirlashda valentlik nazariyasidan foydalanadilar. Ergash gapli qo‘shma gaplarning mazmuniy sintaksisini o‘rganishda ham o‘rni bilan valentlik nazariyasiga murojaat qilish maqsadga muvofiq.

Aytilgan mulohazalardan shu narsa kelib chiqadiki, ergash gapli qo‘shma gaplarni o‘rganishda bari bir sodda gaplardagi bo‘laklarning vazifalaridan andaza olgan ma’qul. Chunki yaxlit sintaktik o‘rinlar tizimi pozitsion struktura sifatida ergash gapli qo‘shma gaplar sodda gaplardek deyarli farq qilmaydi. Ergash gapli qo‘shma gaplarda gapning grammatik «sinchi» (karkasi), asosini bevosita bosh gap tashkil qiladi. Ergash gap esa u yoki bu tarzda ana shu bosh gap tarkibiga muayyan bir bo‘lak sifatida kiradi. «Bosh gap tarkibidagi muayyan bo‘lakni izohlaydigan ergash gaplar» deb ajratilganda ham shu narsa nazarda tutilgan.

Endi «bosh gapni yaxlitligicha izohlaydigan ergash gaplar» degan «iboraga kelsak, u mantiqan to‘g’ri emas. Bunday gaplar ham bosh gap-dagi muayyan bir bo‘lak — xol vazifasida keladi. Ergash gaplarning bu tipini baholashda ko‘pincha ayrim tilshunoslar ularni hol ergash gaplar deyishdan o‘zlarini tiyadilar. Bu

munosabat bilan R. Sayfullaeva shunday yozadi: «Hol ergash gapli qo'shma gap bilan ikkinchi darajali bo'laklardan biri bo'lgan hol turlarining son jihatidan teng kelmasligidan cho'chiymizmi?! Hol predikativ birlik emas, balki u gap bo'lagidir. Hol ergash gap esa predikativ birlik bo'lib, diskursning bir elementi. Demak, hol bilan hol ergash gapni bir planda o'rganib bo'lmaydi, ular sintaktik turlarining son jihatidan teng bo'lishi shart emas». Lekin R. Sayfullaeva bari bir an'anadan chiqib ketolmaydi: «Ergash gap bosh gapning biror bo'lagini izohlaydi. Agar bosh gapdagi izohlanuvchi bo'lak ifodalanmasa, ergash gap bosh gapni butunicha izohlaydi», Aslida «butunicha izohlaydi», «bosh gapga butunicha aloqador bo'ladi» qabilidagi iboralarning o'zi aniq emas. Qanday qilib ergash gap yaxlit bosh gapni izohlashi mumkin? Har qanday gap bo'lagi (aniqlovchi bundan mustasno) funksional jihatdan faqat va faqat kesimga aloqador bo'ladi. Keng ma'nodagi hol sintaktik o'rnni egallagan predikativ birlik, ya'ni demak, ergash gap ham yaxlit bosh gapga emas, balki uning bir konstruktiv bo'lagi — kesimga aloqador bo'ladi. Masalan, *Bahor kelgach, o'lkamizning hamma erida gullar ochiladi* gapidagi ergash gap (*Bahor kelgach*) bosh gapning kesimi vazifasidagi *ochilmoq* fe'lining ma'nosи va valentligiga ko'ra mavjud bo'lgan va payt ifodasi bilan berilishi lozim bo'lgan sintaktik o'rinni berkitadi, ya'ni bosh gapdagi hol vazifasidagi predikativ bo'lak sifatida bevosita kesimga bog'lanadi.

Hatto ergash gapning o'rnni ham almashtirish mumkin: *Ulkamizning hamma erida gullar, bahor kelgach, ochiladi*. Bunday tip ergash gapli qo'shma gaplarda ergash va bosh gaplar bir qadar bir-biridan mustaqilday tuyuladi, «bosh gapdagi biror bo'lak bilan aloqalanadigan ergash gapli qo'shma gaplar»da esa bunday emas, ergash va bosh gaplar ancha zichroq bog'langan. Bu holat ham, ehtimol, oldingi tip gaplarda ergash gap yaxlit bosh gap bilan aloqalanadi, degan qarashga olib kelsa kerak. Ammo gapdagi sintaktik o'rinnar orasida hol sintaktik o'rni o'zining «nisbiy muxtorligi» (avtonomiyasi) bilan alohida ajralib turadi.

Boshqacha qilib aytganda, gapning hol bo'lagi, shubhasiz, kesimga tobe bo'lsada, kesim pozitsiyasidagi so'zning kuchli sintagmatik valentligini mutlaqo reallashtira olmaydi. Ta'kidlash lozimki, hol gapning asosiy mazmunini tashkil

qiluvchi voqeal bilan u yoki bu jihatdan bog’laigan voqeani ifodalovchi gap bo‘lagi bo‘lib, mazmun tomondan «gap ichida gap ifodalovchisi» sifatida kelishdek o‘ziga xoslik bilan xarakterlanadi. Bu, tayinki, predikativ birliklarni bu sintaktik o‘rinni egallab, ergash gap bo‘lib kelishlari uchun juda ham qulaydir. Shuning uchun ham bu hol sintaktik o‘rnini u sodda gapda bo‘lsa ham, ergash gapli qo‘shma gapda bo‘lsa ham, nisbatan erkin deb qarash mantiqiydir.

Ko‘rinadiki, ergash gaplarning har qanday turi ham u yoki bu tarzda bosh gapda muayyan bir bo‘lak bilan aloqalanadi. Tabiiyki, bu aloqalanish usullari xilma-xil. Lekin ergash gap yaxlit bosh gap bilan aloqalanadi, deb qarash bosh gapdagi kesimning mazmuniy-sintaktik maqomini kamsitishga olib keladi. Shuning uchun ham N. A. Baskakov hozirgi turk tilidagi ergash gaplarni quyidagicha guruhlarga ajratadi:

1.Bosh gapdagi substantiv bo‘laklar bilan aloqalanadigan ergash-gaplar. Bu guruhga ega va to‘ldiruvchi ergash gaplar kiradi.

2.Bosh gapdagi atributiv bo‘laklar bilan aloqalanadigan ergash gaplar. Bu guruhga kesim va aniqlovchi ergash gaplar kiradi.

3.Bosh gapdagi atributiv—hol bo‘laklar bilan aloqalanadigan ergash gaplar. Bu guruhga sabab-natija, shart, to‘siksiz, maqsad, payt, o‘xshatish va chog’ishtirish ergash gaplar kiradi.

O‘zbek tilshunosligida ergash gaplar (boshqa ko‘pgina tilshunos-liklardagi kabi) mazmuniy-shakliy jihatdan 14 turga ajratiladi: 1)ega, 2) kesim, 3) to‘ldiruvchi, 4) aniqlovchi, 5) ravish, 6) o‘lchov daraja, 7) chog’ishtirish-o‘xshatish, 8) sabab, 9) maqsad, 10) payt 11) o‘rin, 12) shart, 13) to‘siksiz, 14) natija ergash gaplar. Bunday tasnif, umuman, ma’qul bo‘lsa-da, aytish kerakki, ayni tasnidda bosh gap xususiyatlari u qadar aks etgan emas. Bu tasnif, aytilganiday, ergash gaplarning tasnifi, ergash gapli qo‘shma gaplarniki emas.

Bizningcha, bosh gaplarning o‘zini ham ikki turga ajratib olish maqsadga muvofiqqa o‘xshaydi: 1) havola bo‘lakli bosh gaplar va 2) havola bo‘laksiz bosh gaplar. «Havola bo‘lak» deganda umumiyl til-shunoslikdagi «deyksis belgilar»ni nazarda tutamiz. Deyksis belgi-larning mohiyati shundan iboratki, ular mazmunni

— voqea, belgi, narsalarni bevosita ifodalamaydi, balki ularga ishora, havola qiladi, shunga ko‘ra ularni mazmunan kuchsiz, bo‘sh so‘zlar sifatida qarash mumkin. Uzbek tilidagi olmosh va boshqa nisbiy so‘zlar ana shunday deyksis belgilar bo‘lib, ular qo‘shma gaplarda havola bo‘laklar sifatida ishtirok etish mumkin.

Havola bo‘lakning mavjud emasligi bilan bog’liq holatda, bosh gap ham, ergash gap ham muayyan mazmuniy va sintaktik xususiyatlar bilan xarakterlanadi. Quyidagi gaplarni qiyoslaylik: *Tolib aka shuni bilib ko‘ysinki, Akrom Saidning ham ocherki jurnalda chiqmaydi* (F. Musajonov). *Onasi kiyinib chiqquncha, otabola toychokni yaltiratib artib ko‘yishardi* (A. Ko‘chimov). Birinchi gapning bosh qismida *shuni* havola bo‘lagi bor, u to‘ldiruvchi vazifasida, ikkinchi gapda *otabola toychoqni yaltiratib artib qo‘yishardi* shaklidagi bosh gap tarkibida havola bo‘lak yo‘q.

Avvalo, havola bo‘lakning tabiatiga ko‘ra ayni bosh gapdagi to‘ldiruvchi sintaktik o‘rni fakat shaklan berkitilgan, CHUNKI havola bo‘lak mazmunan bo‘sh, SHUNING uchun bosh gap sintaktik to‘liq bo‘lsa ham, mazmunan noto‘liq. Ikkinchi gapdagi bosh gap esa ham mazmunan, ham sintaktik jihatdan to‘liq. Birinchi bosh gap mazkur havola bo‘lakning keyingi ergash gapga havola qilishiga ko‘ra mazmunan to‘liq bo‘ladi, ergash gap bosh gap predikatining kuchli sintagmatik valentligini berkituvchi to‘ldiruvchi o‘rniga qo‘yilib idrok qilinadi. Ikkinchi gapda esa ergash gapning o‘rni bosh gap sintaktik o‘rinlar tizimining bevosita ichida. 1-gapda ergash gap bosh gapning sintaktik o‘rinlar tizimidan tashkarida bo‘lib, u bu tizimga muayyan mantiqiy-mazmuniy operatsiyalar orqali olib kirilsa, ikkinchi gapda bunday operatsiyalarga zaruriyat yo‘q, chunki u ayni tizimning uzviy a’zosi. Ikkinchi gapdagi ergash gap bosh gap predikatining kuchsiz sintagmatik valentligini berkituvchi sintaktik o‘rinni egallagan, shuning uchun ergash gap ishtirok etmaganda ham, bosh gap mazmuniy-sintaktik ma’nosini yo‘kotmaydi.

Aytilgan mulohazalarga ko‘ra yana bir narsani ta’kidlash lozim. Xavola bo‘lakli bosh gaplar sinsemantik, ya’ni ergash gaplardan ajratib olinganda, mustaqil qo‘llana olmaydi. mazmunan chala bo‘lib koladi. Havola bo‘laksiz bosh

gaplar esa avtosemantik, ya’ni ergash gaplardan ajratib olinganda ham mazmunan nisbiy mustaqilligini saqlay oladi, mazmunan chala, noto‘liq bo‘lib kolmaydi.

Ergash gapli ko‘shma gaplarning ayrimlarida bosh gapdagi havola bo‘lakning o‘zi bilan chegaranilmaydi. BU xavola bo‘lak bilan muvofiq keluvchi boshqa bir havola bo‘lak ergash gap tarkibida ham mavjud bo‘ladi. Bosh va ergash gaplardagi 6U havola bo‘laklar savol-javob tarzidagi doimiy qarshilantirish (oppozitsiya)ni tashkil etadi: *kim—u, kim—o ‘sha, kimlar—ular, nima—o ‘sha, nima—shu, nima—u, kancha—shuncha, kanday—shunday, nechta—shuncha, kanchalik—shunchalik, qaer—shu er, qay tomon—shu tomon* kabi. Ana shu havola bo‘laklardagi qarshilantirishga ko‘ra bosh va ergash gaplar o‘rtasidagi aloqa tabiatida ham o‘ziga xoslik yuzaga keladi. Masalan: *Kim mehnat qilsa, u roxat ko‘radi. Qaerda intizom bo‘lsa, u yerda muvaffaqiyat bo‘ladi.*

Bu gaplardagi tobelilik aloqasi boshqa ergash gapli qo‘shma gaplardagidan farqli o‘laroq, ikki tomonlamadir, ya’ni «aloqa yo‘nalishi ergash gaplardan bosh gaplarga, ayni vaqtda bosh gaplardan ergash gaplar tomon harakat qiladi».

Tobe aloqaning o‘ziga xos bu turi turli tilshunoslar tomonidan turlicha nomlangan. O‘zaro tobelanishli ergash gapli qo‘shma gaplarda ergash gap oldin, bosh gap esa keyin keladi. Ergash gap tarkibidagi havola bo‘lak umumlashgan so‘roq ma’nosida (*kim, nima, qancha, kanday, qaer* kabi), bosh gap tarkibidagi havola bo‘lak esa shu so‘roqqa umumiyy javob ma’nosida (*u, o ‘sha, shuncha, shunday, o ‘sha er* kabi) bo‘ladi. Bunda ergash gapning kesimi shart ergash gapning kesimi kabi shart maylidagi fe’l (yoki ba’zan shart ma’nosiga ega bo‘lgan boshqa fe’l: masalan *-r ekan*) orqali ifodalangan bo‘ladi, lekin undagi shart ma’nosni kuchsizlangan bo‘lib, bu shakl mazkur havola bo‘laklar bilan birgalikda bosh va ergash gaplarni bog’lovchi vosita vazifasini bajaradi. Ayni havola bo‘laklar shart ma’nosini xiralashtiradi, shuning uchun ham o‘zaro tobelanishli, demak, har ikki qismida ham havola bo‘laklar mavjud bo‘lgan ergash gapli qo‘shma gaplar sirasida shart ergash gapli qo‘shma gaplar yo‘q. Agar imkon bor o‘rinlarda havola bo‘laklar tushirib qoldirilsa, gapdagi shart mazmuni iqqol yuzaga chiqadi va gap ergash gapli qo‘shma gapga aylanadi. Qiyoslang: *Kim mehnat qilsa,*

u rohat ko ‘radi (ega ergash gap) — *Mehnat qilsang, rohat ko ‘rasan* (shart ergash gap). *Qayerda intizom bo ‘lsa, u yerda muvaffaqiyat bo ‘ladi* (o‘rin ergash gap) — *Intizom bo ‘lsa, muvaffaqiyat bo ‘ladi* (shart ergash gap).

Ammo ta’kidlash lozimki, havola bo‘lak faqat bosh gapdagina mavjud bo‘lganda, havola bo‘lakning tushirib qoldirilishi ergash gap turiniig o‘zgarishiga olib kelmaydi. Qiyoslang: *Tolib aka shuni bilib qo ‘ysinki, Akrom Saidning ham ocherki jurnalda chiqmaydi.* — *Tolib aka bilib qo ‘ysinki, Akrom Saidning ham ocherki jurnalda chiqmaydi.* Har ikki holatda ham to‘ldiruvchi ergash gap mavjud. Ikkinchchi holatdagi, ya’ni bosh gapdagi havola bo‘lagi tushib qolgan gaplarni ham havola bo‘lakli bosh gap sifatida qarash maqsadga muvofiq, chunki havola bo‘lak bunday hollarda qo‘llanmaganda ham, uning sintaktik o‘rni ochiq ekanligi aniq sezilib turadi.

Odatda, bosh gapdagi havola bo‘lakning tushib qolishi, asosan, ega va to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gaplarda kuzatiladi. Gapdagi predikat ifodasining kuchli sintagmatik valentliklari ko‘pincha ana shu bo‘laklar — ega va to‘ldiruvchi bilan berkiladi. Ana shuning uchun ham bosh gapdagi ega va to‘ldiruvchi vazifasida kelgan havola bo‘laklar qo‘llanmaganda ham, bari bir, uning borligi anglanadi, istagan paytda uni tiklash mumkin.

Ega, kesim, aniqlovchi, to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gaplar havola bo‘lakli gaplar hisoblanadi, ularda ba’zan bosh gapda, ba’zan ham bosh, ham ergash gapda havola bo‘lak mavjud bo‘ladi. Ulchov-daraja, payt va o‘rin ergash gapli qo‘shma gaplarning ma’lum qismida ham ikki havola bo‘lak (ham bosh, ham ergash gapda) mavjud bo‘ladi. Natija ergash gapli qo‘shma gaplarda havola bo‘lak, asosan, bosh gapda bo‘ladi. Qolgan barcha ergash gapli qo‘shma gaplar havola bo‘laksiz gaplardir.

Xullas, ergash gapli qo‘shma gaplarning mazmuniy sintaksisi uchun bosh gaplardagi bunday xususiyatlar ham benihoya ahamiyatlidir.

2- topshiriq. FSMU jadvalini tuzing

Nima uchun o'qituvchilik eng mashaqqatli va sharaflı kasb hisoblanadi?




3-topshiriq. Quyida berilgan mavzulardan birini tanlab, 5 daqiqали axborot nutqi tayyorlang:

- a) mamlakatdagi yangiliklar haqida;
- b) xorijdagi yangiliklar;
- c) madaniy yangiliklar;
- d) badiiy adabiyot yangiliklari;
- e) ishlab chiqarishda kompyuterning roli.

4-topshiriq.

O'lmas Umarbekov



Poytaxtning Yakkasaroy tumanidagi Abdulla Qahhor mahallasi yuzlab oddiy mahallalardan biri — hovli joylar va yigirmadan ziyod ko‘p qavatli uylardan iborat, besh mingga yaqin aholisining ham el qatori tashvishu xursandchiliklari bor. Ular ertalab ishga, kechqurun esa uylariga oshiqadilar. Yo‘li mahallaning

Xumo tor ko‘chasidan o‘tadiganlar «**Bu uyda 1959-1994 yillar O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘lmas Umarbekov yashab, ijod qilgan» lavhasini ko‘rib, nurli xotiralarini yodga olsalar ajab emas. Tengdoshlari uning go‘zal suhbatlarini, yoshlar esa maslahatlarini, shu bilan birga amaliy yordamini esga olishadi.**

Hozir bu xonadonning chirog’ini yozuvchining rafiqasi yoqib o‘tiribdi. Filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiyi Zuhra Umarbekova bilan suhbatimiz ularning tanishuvi mavzusidan boshlandi.

Yaqindagina «O‘lmas Umarbekov zamondoshlari xotirasida» nomli to‘plam nashrdan chiqdi. Kitobni O‘lmas Umarbekovning qizi Umida chop ettirdi, yozuvchi Omon Muxtor materiallarni to‘plash va saralashda xolis xizmat qildi. O‘lmas «O‘zbekfilm» kinostudiyasi rahbari edi. Bir kuni oshxonamizdagi kran quvuri yorilib, suv toshib ketdi. Bosim juda kuchli edi. U kishiga qo‘ng’iroq qildim, darhol ishxonalaridan odam jo‘natdilar. Ustalar qaytib borgach, xodimlar ularni o‘rtaga olishibdi.

...O‘lmas Umarbekov Moskvada davolanayotgan kezlarida qiziga yozgan maktublaridan birida unga nasihat-maslahatlarini aytadi. Jumladan, «bu yog’i oying bilan bor imkoniyatga qarab yasha, sendan sharoiti yaxshi hech kimga rashk bilan qarama, birovni ko‘rolmaslik hech qachon odamga baxt keltirmagan» deb yozar ekan, oxirida qo‘shib qo‘yadi:

Nutq tugashi bilan boshlangan telefon qo‘ng’iroqlari hali ham davom etyapti. Qarindosh-urug’, tanish-bilishlar uni tabriklayapti. O‘lmas Umarbekovning umr yo‘li, insoniylik fazilatlari yana qayta-qayta tilga olinyapti.

Bittagina farzandidan o‘zini unutmasligini xokisorlik bilan so‘ragan bu buyuk insonga xalqning ehtiromi sababini qisqagina izohlash mumkinmikan? To‘g’ri, adib el ko‘nglidan joy olgan asarlar yaratdi, turli vazifalarda ishlaganda el koriga yaradi. El ehtiromining yana bir boshqa sababi ham bor. Buni yana «Qizimga maktublar» dagi mana bu oddiygina so‘zlardan ilg’ab olish qiyin emas


Matn yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. Matnni o‘qing. Matnga reja tuzing.

2. Matnni uslub jihatidan tahlil qiling.
3. Matn yuzasidan xronologik jadval tuzing.

5- topshiriq. "Nima uchun?" texnologiyasi


Nima uchun hozirgi kunda kitob o'qishga qiziqish kamayib bormoqda? Fikrlaringizni quyidagi sxemada aks ettiring.



Nazorat savollari

1. Annotatsiya – bu
2. Annotatsiya turlari.
3. Annotatsiyaning tuzilishi.
4. Annotatsiyada klishelangan so‘z birikmalari.

12-mavzu. Esse haqida tushuncha



Nazariy ma'lumot.

Bugungi kunda ko‘pchilik "esse" tushunchasini, "esse yozish" iborasini eshitishmoqda. Bu so‘z fransuz tilidan kelib chiqqan bo‘lib, "tajriba, eskiz, ocherk" degan ma’noni anglatadi. Esse bir nechta belgilar bilan belgilanadi:

- insho elementining mavjudligi;
- mavzuga bo‘lgan mualiflik munosabati;
- -muallifning ilm-fanning muayyan sohasidagi bilimlarga ega ekanligini ko‘rsatadigan asosiy tushunchalar, jumlalar - ta’riflarni kiritish;
- - bayonning qisqaligi, to‘liq javob talab qilinmaydi.

Esse - bu subyektiv munosabatlarni, uning to‘liq ochib berilishini talab qilmaydigan muayyan mavzudagi bilimlarni ifodalovchi erkin kompozitsiyaga ega bo‘lgan kichik hajmli insho-mulohazadir.

Esse yozish texnologiyasi. Ish bosqichlari

Shunday qilib, esselarni to‘g’ri yozish uchun umumiy qabul qilingan qoidalarga rioya qilish kerak, ya’ni:

- agar oldindan belgilanmagan bo‘lsa, esse mavzusini shakllantirish kerak;
- ushbu mavzuni o‘ylab ko‘rib, nima o‘rganilganligini, qanday ta’riflar va kalit so‘zlar uni ochib berishi mumkinligini eslash;
- essening asosiy qismi uchun ba’zi mulohazalarni yozish, chunki u muhimroq va bayonning mohiyatini aks ettiradi;
- avvaliga erkin shaklda qoralama varianti, ya’ni aqlga kelgan fikrlar yoziladi;
- xomaki ko‘rinishi qisqa tezislar, dalillar ko‘rinishida bo‘lishi kerak;
- mavzudan chetlashmaslik uchun, yozgan narsalarni bir necha marta o‘qib, qo‘shimcha kerak bo‘lgan joylarga savol belgilarini qo‘yish kerak;
- essening butun matnini savolni aniqlashtirish uchun punktlar va kichik punktlarga bo‘lish mumkin, dalillar va misollar kichik punkt bo‘lishi mumkin.

Esse uch qismdan iborat.

Kirish qismida mavzuning asosiy g’oyasi aniqlanadi yoki olim, siyosatchi, faylasuf va boshqalarning obro‘li so‘zлari beriladi. Mavzuga munosabat bildirishi kerak (men roziman/rozi emasman, mos keladi/mos kelmaydi).

Asosiy qismda muallif muhokama qilinayotgan mavzu bo‘yicha bilimga

tayanadi, ko'rib chiqilayotgan muammo bo'yicha nuqtai nazarlarni keltiradi. U tezisni tuzadi, uni dalillar, misollar bilan asoslaydi, bahsli yoki tasdiqlangan fikrlarga javob beradi. Agar muayyan vaziyatlardan misollar keltirmasa, esse mazmunan to'liq bo'lmaydi. U faqat nazariy jihatdan yozilmasligi kerak.

Essening **xulosa qismida** muallif tavtologiya bo'lmasligi uchun tasdiqlangan fikrni to'liq takrorlamasligi kerak. U bayonning asosiy g'oyasini (yoki g'oyasini) tasdiqlovchi boshqa iboralar, xulosalar yordamida ishonchli tarzda yozilishi kerak.

Dastlabki matn asosida esse yozish

Esse matnini yaratishni boshlashdan oldin unga nom berish kerak. Bu asl sarlavhani takrorlashi yoki matnning asosiy muammolarini ko'rsatuvchi shaxsiy bo'lishi mumkin. Misol uchun, muallifning matni "Texnika va bugungi ekologik vaziyat" deb ataladi, yaratilgan matn "Zamonaviy dunyoning ekologik va texnik muammolari"dir.

Essening barcha qismlari bir mavzuni ko'rib chiqishga qaratilgan, hajmi va mazmuni bilan bog'liq bo'lishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, esse matnida semantik yaxlitlik, kompozitsion uyg'unlik va mantiqiy bog'lanish kabi belgilari mavjud.

Semantik yaxlitlik butun ish davomida ko'rindi va muallifning rejasida amalga oshiriladi. Reja tuzish vositasi va matnni tashkil qilish vositasi kompozitsiyadir.

(1) *kirish, asosiy va xulosa* qismlarning mavjudligi (2) ularning mutanosibligiga rioya qilish (kirish va xulosa qismlar matnning umumiy hajmidan taxminan sakkizdan birini tashkil qiladi) va (3) ularning o'ylangan ketma-ketligini nazarda tutadi.

Mantiqiy bog'lanish matnning ikki yoki bir nechta elementlariga to'g'ri keladi: matnning turli qismlarida jumlalar va abzatslar; mikrotext; kirish va asosiy qism, asosiy qism va xulosa.

Mantiqiy bog'lanish turli xil til vositalaridan iborat — matn qismlari orasidagi jumlalardan jumlalar orasidagi alohida so'zlarga qadar. Esse yozishda tematik, mantiqiy va grammatik aloqa vositalari qo'llaniladi.

Kirish qismi muayyan hissiyotlarni keltirib chiqaradi va manba matnining muallifi tomonidan ko'rib chiqiladigan va keyinchalik tahlil qilinadigan muammoning ifodasini o'z ichiga oladi. Esselarni turli yo'llar bilan boshlash mumkin, masalan:

1. Muammoni bevosita aniqlash.

Madaniyat nima va insoniyat uchun qanday ahamiyatga ega? Madaniyatni uning antipodidan qanday ajratish mumkin? Bu yozuvchi Said Ahmad tomonidan uning nashrlarida aks ettirilgan.

Boshlang'ich matn muallifi haqidagi xabar

Manba matnining muallifi tomonidan ko'rib chiqilgan mavzu bo'yicha lirk mulohazalar. Durdoni asarlar nafaqat san'atda, balki tabiatda ham bo'lishi mumkin. Ehtimol, har birimiz kechqurun daryo bo'ylab qayiqda suzganmiz. Suv yuzasida aks ettirilgan ajoyib tabiat. Kechki quyosh botishi daraxtlar ortida kirib ketadi, qushlar jum bo'lib, gullar uxbab qolgandek. Yozuvchilar quyosh botishini shunday ta'riflaydi.

Esse muammosini hal qilishda, yaratilgan matnning muallifiga qanday ta'sir qilishini va umuman jamiyat uchun qanday ahamiyatga ega ekanligini ko'rib chiqish kerak. Shuning uchun, uning ifodalanishi xususiy holatlarga emas, balki shunga o'xshash vaziyatlarga ishora qilishi kerak. Masalan, agar manba matnining muallifi bir kishining rahm-shafqati haqida gapirsa, esse muammosi barcha odamlar uchun rahm-shafqat va uni tarbiyalash usullari bo'lishi mumkin.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, yaratilgan matnning barcha qismlari mantiqiy ravishda bir-biriga bog'langan bo'lishi kerak, shuning uchun kirish qismidan so'ng asosiy qismga mantiqiy-uslubiy "ko'priklar" (ibora-o'tish yoki

iboralar-o‘tishlar) kerak.

Masalan, matnning kirish qismi "Sivilizatsiya darajasi va ayolning hayoti" quyidagi iboralar bilan yakunlanishi mumkin: "Davlatning rivojlanish darajasi, uning madaniyatligi bu davlatning ayollari yashaydigan sharoitlar bilan belgilanadi. Yevropa, Osiyo, Shimoliy va Janubiy Amerikaning turli mamlakatlariga nisbatan bunday shartlarni ko‘rib chiqamiz.

Asosiy qismida manba matnining muallifi gapiradigan muammo sharhlanadi; ayni paytda uning nuqtai nazarini shakllantirish emas, balki muallifning fikrini iloji boricha to‘liq ifodalash kerak.

Boshlang’ich matnga asoslanib, savollarga javob berish kerak: nima uchun bunday muammo yuzaga kelishi mumkin va uning paydo bo‘lishining obektiv va subektiv sabablari nimada? Bundan tashqari, uning dalillari to‘plamini taqdim etish kerak (faktlar ham umume’tirof etilgan, ham alohida tanlangan bo‘lishi mumkin), bu muammoga o‘z qarashlarini bayon qilish va uni hal qilish yo‘llarini taklif qiling.

Asosiy qism odatda manba matnida muhokama qilingan muammoning uchta yoki to‘rtta eng muhim qoidalarini o‘z ichiga oladi. Ular mikromatnlar shaklida taqdim etilgan mikromavzular deb ataladi. Har bir mikromatnda maxsus mikroxulosalar mavjud, undan keyin ibora -o‘tishlar kuzatiladi.

Ushbu iboralarda ko‘rib chiqilgan mikrotema eslatib o‘tiladi va keyingisiga o‘tiladiladi. Misol uchun, "Madaniyat darajasi va ayolning hayoti" matnida mikrotemalar orasidagi o‘tish shunday bo‘lishi mumkin:

"Biz allaqachon bilamizki, bugungi kunda turli mamlakatlar aholisining qariyb qirq foizi elektr jihozlaridan foydalanadilar, bu esa asosan ayollar shug’ullanadigan uy ishlarini osonlashtiradi. Biroq, uy sharoitida mehnat hali-hanuzgacha qo‘lda bajarilishi saqlanib qolgan davlatlarda ayollar qanday ijtimoiy jihatdan himoyalangan? Keling, raqamlar va dalillarga murojaat qilaylik.

Tezis — muallif matnni yaratish jarayonida asoslaydigan, isbotlaydigan yoki rad etadigan asosiy g'oya. Tezis aniq ifodalanishi va isbotlash davomida o'zgarmasligi kerak.

Dalil — bu tezisni tasdiqlaydigan isbot (yoki isbotlar). Tezisdan dalilga "Nima uchun?" deb savol qo'ysa bo'ladi. Dalil bu savolga "Chunki" deb javob beradi.

Masalan, " Inson nomida — uning taqdiri " esse matnida shunday abzats bersa bo'ladi:

"Ism taqdirdir" degan hikmatli gapda inson so'z oldida bosh egishini ifoda etdi. Axir, qadimgi yunon faylasufi Gorgiy aytganidek, bu so'z odamlar ustidan buyuk kuchga ega. So'z qo'rquvni yo'q qilishi, g'amni yo'qotishi, umidni ilhomlantirishi mumkin. So'zga xos bo'lgan ishonch kuchi inson qalbini shakllantiradi. Shuning uchun so'z inson tomonidan munosib hurmat talab qiladi.

Ushbu abzats quyidagi sxema bo'yicha qurilgan:

~ tezis - "Ism taqdirdir" degan hikmatli gapda inson so'z oldida o'z ta'zimini bildirdi. - Nima uchun?

~ dalil - chunki:

so'z odamlar ustidan buyuk kuchga ega;

so'z qo'rquvni yo'q qiladi, g'amni yo'qotadi va umidni ilhomlantiradi;

so'z rujni qanday shakllantirishni biladi.

Dalillashtirishning muhim qoidasi shundaki, dalillar yozma nutq holati bilan belgilanadigan tizimda berilishi kerak. Bunday tizimlar kamida ikkita bo'lishi mumkin:

a) agar muallif o'zining haqqoniyligiga to'liq ishonch hosil qilsa, u eng zaif dalildan kuchliroqqa, keyin eng kuchliga borishi kerak, har birida ketma-ket ravishda to'xtab turishi kerak;

b) agar matn muallifining ixtiyorida mavjud bo‘lgan dalillar unga juda ishonarli tuyulmasa, ularni bir vaqtning o‘zida ko‘rib chiqish mumkin. Biroq oxirgi dalil oldingi ma’lumotlarga qaraganda yaxshiroq qabul qiluvchining xotirasida saqlanishini yodda tutish kerak, shuning uchun oxirgi dalil eng kuchli bo‘lishi kerak.

Tezisni isbotlash uchun siz kamida uchta dalilni tanlashingiz kerak, chunki "bir dalil shunchaki haqiqatdir, ikkita dalilga e’tiroz bildirish mumkin, uchta dalilda bu yanada qiyinlashadi va to‘rtta dalil qabul qiluvchi tomonidan unga bosim o‘tkazish usuli sifatida ko‘riladi".

~ *mantiqiy xulosa* — so‘z inson tomonidan muayyan hurmat talab qiladi.

Mikroxulosalardan keyin asosiy qismning oxirida o‘tish iborasi ishlatilishi kerak. "Inson nomi — uning taqdiri" matnida bu ibora shunday bo‘lishi mumkin: "*So‘z odamlar ustidan buyuk kuchga ega va biz bu ism ham so‘z ekanini unutmasligimiz kerak*". Shundan so‘ng essening oxirgi qismi- xulosa qismi keladi.

Xulosa qism muallifning matnda yozgan eng muhim narsani qisqacha takrorlashini va umumiyl xulosa chiqarishini ko‘rsatadi. Hech qanday qo‘sishimcha ma’lumot va yangi fikrlar mavjud bo‘lmasligi kerak.

Essening oxirgi qismi, hatto esse eng yoqimli bo‘limgan savollarni ko‘rib chiqishga bag’ishlangan bo‘lsa ham, hayotni tasdiqlovchi hamda o‘quvchi uchun umid va hayotga ishonchni ilhomlantirishi kerak. "Inson nomi — uning taqdiri" matnida yakuniy qism quyidagicha ifodalanishi mumkin: "Shunday qilib, biz ko‘rib chiqqan nomning insonning taqdiriga ta’siri haqidagi misollar, uning taqdiri inson nomi bilan bog’liq degan fikrni tasdiqlaydi".

Esse publitsistik janrlarga kiradi va uni yozganda publitsistik nutq uslubi qo‘llaniladi. Bundan tashqari, esseda boshqa uslublarning elementlari (masalan, ilmiy, rasmiy-idoraviy, og’zaki) uchrashi mumkin. Ishlatilgan so‘z birikmalari ko‘tarilgan savollarning tabiatiga bog’liq, ammo essening matnlarida so‘zlashuv va jargon so‘zlar ishlatilmaydi.

Mavzu yuzasidan mashq va topshiriqlar

1-topshiriq

G’afur G’ulom



O‘zbek adabiyotining mashhur namoyandalaridan biri, Ittifoq Davlat va Lenin mukofotlarining laureati G’afur G’ulom 1903 yil 1 mayda Toshkent shahrining Qo‘rgontegi mahallasida mehnatkash oilasida tug’ildi. To‘qqiz yoshida otasidan yetim qolgan G’afur avval eski maktabda, so‘ngra rus-tuzem maktabida ta’lim oldi.

U keyingi yillarda muallimlar tayyorlov kursini bitirib, yangi usuldagи maktablarda o‘qituvchilik qildi. 1923 yildan bolalar uyida mudir va tarbiyachi, so‘ng «Kambag’al dehqon», «Qizil O‘zbekiston», «Sharq haqiqati» gazeta muharririyatlarida ishladi. Gazeta uning uchun universitet rolini o‘ynadi, xalq hayotini o‘rganish, unda faol aralashish yo‘lida muhim vosita bo‘ldi.

Uning mamlakatni himoya qilish haqidagi tantanavor qasidalari, o‘tmish sarqitlarini qoralovchi hajviy she’rlari va xalqning kundalik ijodiy mehnatini olqishlovchi asarlaridan jamlangan «Dinamo» va «Tirik qo‘shiqlar» nomli dastlabki she’riy to‘plamlari 1931-1932 yillarda chop etildi.

Shoir liro-epik janrlarida (1930-1935) «Ko‘kan» poyemasini, «To‘y», «Ikki vasiqa» balladalarini yaratdi. Biroq, shoirning bir qator she’rlarida, xususan, biz ko‘p yillar kollektivlashtirish mavzuidagi eng yirik liroyepik janrdagi asar deb maqtal kelgan «Ko‘kan» poemasi hozirgi kun talablari darajasida emasligi sezilib qoldi. Jumladan, poemada boshdan oyoq maqtalgan kollektivlashtirish siyosati ma’lum ijobiy natijalari qatorida cheksiz zulm — fojealarga ham sabab bo‘lganligi bor bo‘yicha realistik ifodalanmagan edi.

Mustaqillik davri o‘tmish tarixiga yaqindan haqiqat ko‘zgusida boqishni taqozo etgach, bunday nuqsonlar ma’lum bo‘lib qoldi. Shu tufayli shoir ijodini zarracha kamsitmagan holda unga tanqidiy yondashishni taqozo etadi.

30-yillar G’afur G’ulom hikoya, ocherk, felyetonlar qatori «Netay», «Yodgor», «Tirilgan murda» kabi qissalarini ham o‘z kitobxoniga taqdim etdi. Ulug’ Vatan urushi yillarida shoir o‘z ijodining butun haroratini fashist bosqinchilariga qarshi kurashayotgan xalqqa, uning muqarrar g’alabasiga bag’ishladi. U «Sen yetim emassan», «Oltin medal», «Kuzatish», «Vaqt», «Sog’inish» kabi she’rlarini ijod qildi, publisistik ocherk va maqolalar yozib, xalqni jang va mehnat g’alabasiga otlantirdi. So‘nggi yillarda G’afur G’ulomning 20 ga yaqin she’riy to‘plamlari chop etildi. Ayniqsa, shoirpning «Kuzatish», «Sen yetim emassan», «Qish», «Bizning ko‘chada ham bayram bo‘lajak», «Vaqt», «Onalar» singari asarlarida dunyo xalqlarini fashizm vabosidan xalos etgan jangchilarimning mardona kurashlari tasvirlangan.

G’afur G’ulom urush yillarida yozilgan she’rlaridan jamlangan «Sharqdan kelayotirman» to‘plami uchun 1946 yili Ittifoq Davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi. G’afur G’ulom o‘z davrida «Hurmat belgisi» (1944), uch marta «Mehnat Qizil Bayroq» ordeni (1937, 1951, 1961), Lenin ordeni (1949), medallar va faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan. U O‘zbekiston Fanlar akademiyasining a’zosi (1943) edi. 60 yillik yubileyi munosabati bilan unga O‘zbekiston xalq shoiri faxriy unvoni berildi. Shoiring ko‘pgina asarlari qardosh xalqlar, Osiyo va Yevropa tillariga tarjima qilingan.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. *Matnni o‘qib gapirib bering.*
2. *Notanish so‘zlar lug’atini tuzing.*
3. *Matn yuzasidan esse yozing.*

2- topshiriq. “Esse” so‘ziga sinkveyn tuzing.

1. *Bir so‘z*
2. *Ikkita sifat*
3. *Uchta fe’l*

4. To 'rt so 'zdan iborat gap

5. Birinchi so 'zga sinonim

3-topshiriq. Essening kirishi, odatda, nimadan iborat bo'ladi?

1) Quyidagi ro'yxatga e'tibor bering va ulardan Essening kirish qismi uchun zaruriy punktlarni tanlang.

2) Quyidagilarning qaysi biri asosiy va qaysi biri ixtiyoriy bo'lishini tanlang.

Kirishning tarkibiy tuzilishi.

Tarkibiy qism	Ha/yo'q
Sarlavhadagi notanish so'zning ta'rifi	
Essening predmeti haqidagi fikringiz	
Mavzu bo'yicha o'qigan manbalaringizni keltirib o'tish	
Kitobxonni qiziqtirish uchun fikr yoki savol	
Buni yozishdan sizning maqsadingiz	
Sizning savolga javob berishga moslashgan uslubingiz	
Mavzu haqida qisqa holat	
O'zingiz o'rnatgan chegara	

4-topshiriq.

Qor haqida ma'lumot



Barcha faslning o‘ziga xos o‘rni va gashti bo‘lganidek, qish fasli ham garchi kunlar sovuq bo‘lsa-da o‘z ziynati oppoq qorlari bilan ajralib turadi. Qish fasli deganda kishi ko‘z oldiga hamma taraf oppoq qor bilan burkangan go‘zal va betakror manzara gavdalanadi. Qor donalariga etibor bersangiz ularni nihoyatda rang barang va xilma-xil ekanligiga guvoh bo‘lasiz. Go‘yoki ulkan iste’dod sohibi bo‘lgan mohir ustuning betakror san’at asaridek. Xo‘sish qor o‘zi qanday paydo bo‘ladi? Nima sababdan qor bo‘laklari bir birini takrorlamas geometrik shakllarga ega? Qor ham yomg‘ir do‘l va boshqa yog‘inlar singari atmosfera yog‘inlaridan biridir.

Qor ham xuddi yomg‘ir kabi atmosferaga bug‘lanib ko‘tarilgan suv tomchilaridan paydo bo‘ladi. Qorning yomg‘irdan farqli tomoni shundaki, qor havo harorati $0\text{ }^{\circ}\text{C}$ dan past bo‘lganida yog‘adi. Atmosferaga ko‘tarilgan suv bug‘lari atmosferada sovib o‘ta kichik suv kristallchalariga aylanadi. Kristallchalar hajmi bulut ularni tuta olmaydigan darajaga yetganidan so‘ng yerga yog‘a boshlaydi, yer yuzasidagi harorat $0\text{ }^{\circ}\text{C}$ yoki undan past bo‘lganida kichik kristallchalar muzlab bir biriga urilib yopishib kattalashib boradi. Muzlagan kristallchalar yig‘ilib qor donalarini hosil qiladi. Qor donalarining hajmi millimetrnинг ma’lum bir ulushidan santimetrgacha yetadi. Qorning hajmi yomg‘irga nisbatan yengil shuning uchun ham qor yomg‘ir singari shiddat bilan yog‘maydi. Bazan shamol oqimi bo‘ylab havoda uchib yuradi.

Qor donalari yumaloq yassi ignasimon ko‘rinishga ega, ammo har qanday holatda ularning qirralari olti burchakdan oshmaydi. Qor donalari hamisha go‘yoki bir xildek tuyuladi ammo ayni bir xil ko‘rinishga ega qor donalarini topish amri mahol. Qor donalari nafis geometrik shakllarni o‘zida namoyon etadi, aslida muz kristallchalari bulutda paydo bo‘lgan vaqtida bunday ko‘rinishga ega bo‘lmaydi. Muz kristallchalari yerga tushgunga qadar bir biriga urilib yopishib shunday betakror shakllarni mujassamlashtiradi.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. Matnni o‘qib gapirib bering.
2. Notanish so‘zlar lug’atini tuzing.
3. Matn yuzasidan esse yozing.

5-topshiriq. T-sxema bo‘yicha tabiat hodisalarining salbiy va ijobjiy tomonlarini yoriting.

Tabiat hodisalar

Salbiy tomonlari	Ijobiy tomonlari

13-mavzu. Esse turlari



Nazariy ma'lumot

Shaxsiy esse

Esse faqat boshlang‘ich matn asosida emas, balki mustaqil ravishda ham yozilishi mumkin. Ushbu turdagи matnni yozishni boshlashdan oldin siz quyidagilarni bajarish kerak:

- nima haqida gapirish kerakligini aniq tasavvur qilish: mavzuni aniqlash, mavzu haqida o‘ylash va muallifning nuqtai nazarini asoslashga va o‘quvchini ishontirishga yordam beradigan illyustratsiyalarni (voqealar, faktlar, sanalar, takliflar) tanlash;
- ~ keyin muallifning yozmoqchi bo‘lgan barcha narsalari jamlangan shaklda aks etadigan nom berish kerak;
- ~ erkin mavzudagi esseda sarlavha va matn o‘rtasidagi varaqning o‘ng burchagiga joylashtirilgan epigraf-iqtibos keltiriladi va unda muallif o‘z ishining

g‘oyasini tushuntiradi. Qavslar ichida epigrafdan keyin so‘z muallifi yoki iqtibos manbai keltirilaladi. Misol uchun, "Biz va moda" mavzusidagi essegga epigraf: "Insonda hamma narsa chiroyli bo‘lishi kerak: yuzi ham, kiyimi ham, ruhi va fikrlari ham" (A.P. Chexov);

~ keyin mazmunni taqdim etishda yordam beradigan matn tuzilishini o‘ylab ko‘rish tavsiya etiladi. Matn quyidagi komponentlarni o‘z ichiga olishi kerak:

- 1) **kirish qismi**, keyin asosiy qismga o‘tish iborasi keladi;
- 2) uch yoki to‘rtta mikroteksni o‘z ichiga olgan **asosiy qism**, ularning har biri mikroxulosalar bilan tugaydi va keyingi ibora-o‘tish keladi;
- 3) umumiy xulosani o‘z ichiga olgan **yakuniy qism**.

Esse yozishda turli xil rejalarни qo‘llash mumkin: nominativ, savolli, tezisli.

Essening ko‘p turlari mavjud. Ular falsafiy, tarixiy, diniy, adabiy-tanqidiy, axloqiy va ma’naviy masalalar, jamiyat rivojlanishining iqtisodiy muammolari va boshqa mini-insholarni yozadilar. Shakli bo‘yicha ular eslatmalar, xatlar, lirik miniatyuralar, falsafiy fikrlash ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Bayon etish uslubiga ko‘ra-erkin, deyarli og‘zaki, analitik, tavsiflovchi va boshqalar.

Mavzuning eng oddiy bayonini biz esse-tavsifda uchratamiz. Aslida hiss tuyg‘ular va kechinmalar prizmasi orqali (sevgi essesi, izhor-xat) obyekt yoki subyektga munosabat tasvirlangan. Tanqidga o‘rin yo‘q, aksincha, muallif o‘z e’tiborini ta’riflangan obyektga/subyektga bo‘lgan munosabatga qaratishga harakat qiladi, epitet, metaforadan foydalanadi. Masalan, ertalab tongning barcha jozibasi yoki ovning vaqt va h. k. ta’rifi. Esse - ta’rif nafaqat tarixiy (etnografiya, arxeologiya va h. k.), balki geografik, biologik va boshqa fanlarlarni o‘rganishda urf-odat, marosim, hodisani aniqlash usuli sifatida qo‘llaniladi.

Esse-hikoya. Bu yerda hodisa, vaqt va harakatga e’tibor qaratiladi. Xulosa

qismida hodisaning ahamiyati va unda ishtirokchining roli ko'rsatilishi shart.

Esse-ta'rif ta'rifi berilgan tushunchani tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi.

Esse -taqqoslash tahlil qilinayotgan tushunchalar taqqoslanganda yoziladi, ular o'rtasida paralleliliklar o'tkaziladi, o'xshashliklar va farqlar qayd etiladi. Bunda muallif misollarga o'z munosabatini ifodalashi kerak. Agar bu hikoya bo'lsa, u illyustratsiyalar (test misollar) bilan mustahkamlanadi, u holda esse-illyustratsiyaga o'tadi.

Essening har qanday shakli prinsiplarga asoslangan bo'lishi kerak:

- bayon qilish erkinligi;
- to'g'ri yozish qoidasiga rioya qilish;
- ta'riflangan yoki tahlil qilinadigan mavzularning sabab-natija munosabatlarini hisobga olish;
- qoidalarning dalillarga asoslanishi;
- yozma nutq qoidalariiga rioya qilishning aniqligi;
- bayonning qisqaligi va aniqligi;
- obyekt-subyekt munosabatlaridagi aloqa.

Mavzu yuzasidan mashq va topshiriqlar

1-topshiriq.

Erkin Vohidov



Taniqli o'zbek shoiri va jamoat arbobi. 1936 yilning 28 dekabrida Oltiariq tumanida o'qituvchi oilasida tug'ilgan. To'qqiz yoshida otasidan, bir yildan so'ng onasidan ajralgan. Toshkentlik tog'asi Karimboy Sohiboyev qo'lida tarbiyalangan. ToshDU (hozirgi O'zMU)ning o'zbek filologiyasi fakultetida (1955-1960) tahsil olgan. So'ng turli nashriyot va gazeta-jurnallarda ishladi. Respublikamiz yosolarining birinchi jurnali «Yoshlik»ning asoschisi (1982). U I va II chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy

Majlisi deputati, qo‘mita raisi vazifasida ishlagan. Uning birinchi kitobi «Tong nafasi» 1961 yilda chop etildi. Shundan so‘ng uning “Qo‘shiqlarim sizga” (1962), «Yurak va aql» (1963), «Mening yulduzim» (1964), «Nido‘ (1964), «Lirika’ (1965), «Palatkada yozilgan doston» (1966), «Yoshlik devoni»(1969), «Charog’bon» (1970), «Quyosh maskani» (1972), «Tirik sayyoralar» (1978), «Sharqiy qirg’oq» (1981), «Kelajakka maktub’ (1983), «Muhabbat» (1984), «Hozirgi yoshlar» (1986), «Iztirob’ (1991), «Yaxshidir achchiq haqiqat» (1992) kabi she’riy to‘plamlari nashr qilindi. «Nido‘ (1964), «Palatkada yozilgan doston» (1966), «Charog’bon» (1970), «Ruhlar isyoni» (1980), «Ko‘hinur» (1982) kabi dostonlar yozgan.

«Oltin devor», «Istambul fojeasi», «Ikkinchi tumor» kabi dramalar muallifi. S. Esenin, A. Tvardovskiy, M. Iqbol, G. Emin she’rlarini, Gyotening «Faust», R. Hamzatovning «Dog’istonim» asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan. 1999 yilda O‘zbekiston Qahramoni unvoniga sazovor bo‘ldi.


Erkin Vohidov menga oq yo‘l tilagan inson va ustoz sifatida azizdir. Uztozning oq yo‘li bilan 1976 yilda o‘sha davrning eng obro‘li jurnali «Guliston»da ilk she’riy turkumum bosilgan edi.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. *Matnni o‘qib gapirib bering.*
2. *Notanish so‘zlar lug’atini tuzing.*
3. *Matn yuzasidan esse yozing.*

2- topshiriq. “Qanday ?” sxemasini to‘ldiring.

Davrimizning qanday global muammolari bor ? Ularni qanday bartaraf qilish mumkin?



3-topshiriq. Berilgan matnda tushirib qoldirilgan abzatsni yozib, maqolani tiklang.

Pifagor teoremasi

Pifagor teoremasi — tomonlari haqidagi teorema. Unga ko‘ra, agar to‘g’ri burchakli uchburchak tomonlari bir xil masshtabda o‘lchangan bo‘lsa, katetlar uzunliklari kvadratlari yig’indisi gipotenuza uzunligi kvadratiga teng:

Pifagor teoremasiga asosan, Pifagor teoremasiga Qadimgi Misr va Bobilda ma’lum °VD shakl bo‘lgan, lekin birinchi isboti Pifagorga tegishli deb hisoblanadi. Hozir Pifagor teoremasining o‘ndan ortiq isboti ma’lum. Yuqorida keltirilgan Pifagor teoremasi ta’rifi o‘rinli, lekin noyevklid geometriyalarda Pifagor teoremasi boshqacha ifodalanadi.

Qaysi universitet eng yaxshi?



Oxirgi yillarda xalqaro miqyosda oliy o‘quv yurtlari darajasini aniqlovchi tadqiqotlar o‘tkazish ommalashhyapti. O‘tkazilayotgan reytinglarda sayyoramizdagi universitet va institutlarga turli mezonlardan kelib chiqib baho berilmoxda.

Xitoyning Szyao Tun universiteti 2003 yildan buyon dunyoning eng yaxshi oliy o‘quv yurtlari ro‘yxatini tuzib chiqadi. Garchi reytinglar uyushtirish G’arbda keng tarqalgan va Xitoy davlatiga xos bo‘limgan hodisa sanalsa-da, Szyao Tun o‘tkazilayotgan tadqiqot natijalari ilmiy doiralarda jiddiy qabul qilinadi. Jumladan, 2007 yilgi tadqiqot ham ko‘pchilikning diqqatini tortmoqda.

Garvard universiteti xitoylik tadqiqotchilar tomonidan 2007 yilda sayyoramizning eng yaxshi oliygohi deb topilgan. 500 ta oliy o‘quv yurti nomi zikr qilingan reytingning kuchli beshligidan Stenford, Kaliforniya, Kembrij universitetlari hamda Massachusetts texnologiya instituti o‘rin olgan. Szyao Tun

tuzgan ro‘yxatga Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi oliygochlardan Moskva davlat universiteti kirgan.Lomonosov nomidagi universitet reytingda 76-o‘rinni band etgan. Xitoylik tadqiqotchilar xulosasiga ko‘ra, Amerika, Buyuk Britaniya, Yaponiya va Germaniya eng nufuzli oliygohlarga ega bo‘lgan davlatlar sanaladi.

Ayrim tashkilotlar uchun o‘ziga xos mezon vazifasini ham bajarayotgan ushbu ro‘yxat qanday asosda tuzilishi o‘quvchini qiziqtirishi tabiiy. Xitoy universiteti oliygohlarni o‘rinlarga taqsimlashda ta’lim sifati (10 foiz), pedagog xodimlar kasbiy darajasi (40 foiz), ilmiy tadqiqot ko‘rsatkichlari (40 foiz) va umumiy raqamlar (10 foiz) ga e’tibor qaratadi.

“Vebometriks” guruhi tomonidan tuziladigan yillik reyting ham katta ilmiy doiralarda alohida e’tiborga olinadi.Ushbu ro‘yxatning o‘ziga xos xususiyati shundaki, u oliy o‘quv yurtlarining xalqaro kompyuter tarmog’idagi faoliyatiga asoslanadi. Ya’ni, oliygohlarning veb-saytlari, elektron kutubxonalar bazasi, xalqaro tarmoqqa kiritilayotgan darslik, qo’llanma va boshqa ilmiy nashrlar asosida 4000 ta ilm maskaniga baho beriladi. “Vebometriks”ning yaqindagina e’lon qilingan 2007 yilgi reytingida birinchi o‘rin Stendford universitetiga berilgan.Ikkinci o‘rinni esa Massachusetts texnologiya instituti egallagan. Shu tariqa Kaliforniya, Garvard, Pensilvaniya kabi nomdor universitetlar nufuzli reytingning old o‘rinlarini band etgan.

Shuningdek, «Times» gazetasining THES loyihasi asosida ham jahonning nufuzli oliygohlari ro‘yxatini e’lon qilish an’anaga aylangan. Ushbu ro‘yxatda nisbatan kam-roq — 200 ga yaqin oliy o‘quv yurti nomi kiritiladi.Bu esa tanlov nufuzini yanada oshiradi.THES ro‘yxati dunyo miqyosida mutaxassislar o‘rtasida o‘tkaziladigan ijtimoiy so‘rov natijalariga asoslanadi.Masalan, ushbu loyiha asosida o‘tgan yilgi reytingni tuzish uchun 5000 ga yaqin mutaxassis fikri o‘rganib chiqilgan. To‘g’ri, THESning 2007 yilgi reytingi hozircha e’lon qilinganicha yo‘q. Lekin eslatma sifatida o‘tgan yili ro‘yxatda Garvard, Kembrij, Oksford, Massachusetts va Yel kabi oliy o‘quv yurtlari yuqori o‘rinlarda qayd etilganini aytish mumkin.

Aytish kerakki, yuqorida zikr qilingan barcha reytinglar ham mavjud voqelikni to‘la va haqqoniy ifodalaydi deb bo‘lmaydi. Deylik, Szyao Tun universiteti o‘tkazadigan tadqiqotlarda gumanitar fanlarga kam e’tibor beriladi.“Vebometriks” guruhi esa faqatgina internet resurslariga asoslanadi.THES esa ro‘yxatni shakllantirishda faqat ekspertlar xulosalari bilan cheklanadi.

Shundan ham bilish mumkinki, o‘tkazilayotgan tadqiqotlar dunyo mamlakatlaridagi oliy o‘quv yurtlari faoliyatiga u yoki bu nuqtai nazardan baho beradi.Aslida e’lon qilinayotgan turli nomdagi reytinglarning foydali jihatni ham shunda.

Matn yuzasidan topshiriqlar.

1. *Matnni o‘qing va undagi termin va iboralarning ma’nosini izohlang.*
2. *Matnga reja tuzing va uni reja asosida so‘zlab bering.*
3. *Turli mamlakatlarning ta’lim tizimlari haqida esse tayyorlang.*
4. *Matndan ta’lim sohasiga oid terminlarni ko‘chirib yozing.*

5-topshiriq.


Jahon sivilizatsiyasiga katta hissa qo‘sghan o‘zbek allomalaridan birining hayoti va faoliyati haqida esse yozing.



Nazorat savollari

1. Esse – bu
2. Esse yozish texnologiyasini aytib bering.
3. Esse necha qismdan iborat?
4. Dastlabki esse yozish qoidalari.
5. Essening nechta turi bor?

14-mavzu. Referat. Referat turlari



Nazariy ma'lumot.

Referat. Biror ilmiy, metodik, pedagogik mavzudagi asarning qisqacha mazmuni haqidagi bayon (yozma ma'ruza) referat hisoblanadi. Referat muallifning o'z asari haqida bo'lsa avtoreferat deyiladi. Avtoreferatda asarning qisqacha mazmuni, yangiliklari, metodik usullari, ilmiy qurilishi, foydalanilgan adabiyotlari ustida fikr yuritiladi. Amalda ilmiy va obzor referatlari ko'proq uchraydi. Ilmiy referatlarga fanda, metodikaga, tarbiyaga va texnikaga oid ishlarning qayerda amaliyotda sinab ko'riganligi haqida ham xabar beriladi.

Referatlar quyidagi mezonlar bo'yicha ajratiladi:

- bayon qilish mazmuniga ko'ra - reproduktiv va produktiv; birinchisi, o'z navbatida, referat -rezyume va referat-konspektga; ikkinchisi-doklad, sharhlarga bo'linadi;
- manbani tahlil qilish bo'yicha - qismli, monografik, aspektli, birlashtirilgan;
- yo'nalishiga ko'ra – maqsadli va umumiyl;
- bayonning to'liqligini hisobga olganda – indikativ va axborot beruvchi;
- tayyorlash usuliga ko'ra - ijodiy, xizmat, nazorat, o'quv.

Matn, maqolaga yozilgan referatning tuzilishi va tarkibiy qismlari.

Matn, maqolaga yozilgan referatning tuzilishi va tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

kirish qismi; asosiy referat qismi; yakuniy qism.

I. Kirish qismi — manbaning bibliografik tavsifi (matn, maqola, kitob va h.k.).

P. Asosiy referat qismi.

1. Kirish qismi-nutq klishelaridan foydalanib, manbani bibliografik tavsiflash.
2. Asosiy qism:

a) mavzu; b) muammo; c) kompozitsiya; D) asosiy mazmunning tavsifi; l) tasviriy materialning mavjudligi va maqsadini ko'rsatish.

3. Xulosa qismi - manba muallifining xulosalari.

III. Yakuniy qism.

1. Ma'lumotnoma qurilmasi.

1. Referat muallifi (referent) tomonidan axborotlarning yangiligi, ahamiyati, dolzarbligini baholash, xulosa qilish, ko'rib chiqish obyektidan foydalanish imkoniyati va ko'laming ko'rsatkichi (samarali turdag'i referatlar uchun).

Manba matnini referat shakli bilan solishtiring.

Manba matni	Referat shakli
Keling, ko'mirdan quruq muzni olishni ko'rib chiqaylik. Bu har kuni sanoat korxonalarida amalga oshiriladi.	Matnning boshida sanoat korxonalarida ko'mirdan quruq muz olish haqida gapiriladi.
Ko'mir qozonlarda yoqiladi va olingan tutun tozalanadi.	Muallif suyuq karbonat angidridni olish jarayonini batafsil bayon qiladi: ko'mirni yoqish, undan keyin isitish, sovutish, siqish, suyuq holatga o'
E'tibor bering, bu karbonat angidrid suyuqligi ballonlarda zavodlarga yetkazib beriladi va sanoat maqsadlari uchun ishlatiladi	Muallif sanoatda suyuq karbonat angidrididan foydalanish sohasini qayd etadi
Bu juda sovuq, hatto tuproqni muzlatishi mumkin.	Muallif suyuq karbonat angidrid modda sifatida tuproqni muzlatish mumkin ekanligiga ta'rif beradi.

Ma'lumki, bu Moskva metrosini qurishda amalga oshirilgan	Muallif Moskva metrosini qurishda suyu karbonat angidriddan foydalanilganini eslaydi.
Biroq, ko'pchilik maqsadlar uchun quruq muz deb ataluvchi qattiq shakldagi karbonat angidrid talab qilinadi.	Muallif karbonat angidridni qattiq shakl quruq muz olishning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi.
"Quruq muz" nomi ushbu muzning asosiy fizik xususiyatini ko'rsatadi.	Muallif quruq muzning asosiy fizik xususiyatini qayd etadi.
Shuning uchun quruq muz kerakli sovutish moddasi hisoblanadi. Misol uchun, ushbu muz yordamida saqlanadigan mahsulotlar zararlanishdan himoyalangan. Nihoyat, karbonat angidrid Ishonchli yong'inga qarshi vosita.	Muallif kundalik hayotda sovutish vosita sifatida quruq muzdan foydalanishning muhimligi va yong'inga qarshi ishonchli vositalar ekanligiga misollar keltiradi.
Bularning barchasi nima uchun quruq muz sanoat va maishiy texnikada keng foydalanilishini tushuntirish imkonini beradi .	Xulosa qismida muallif sanoat va maishi texnikada quruq muzdan keng foydalani ishonch bildiradi.

Mavzu yuzasidan mashq va topshiriqlar

1-topshiriq.

Abror Hidoyatov



Buyuk o‘zbek aktyori Abror Hidoyatov 1900 yilda Toshkentda tug’ilgan. Yoshligidan san’atga mehr qo‘ygan Abror Hidoyatov eski mакtabda savodini chiqazdi. 1918 yilda Mannon Uyg’ur O‘zbek Davlat drama teatrini tashkil qiladi va unga Obid Jalilov, Sayfi qori Alimov, Abror Hidoyatov kabi yoshlarni jalgan etadi.

G.Zafariyning «Halima» sidagi Ne’mat, U.Hojibekovning «Arshin mololon» idagi Asker, Shillerning «Makr va muhabbat» idagi Vurmlar A. Hidoyatovning teatr sahnasida yaratgan ilk obrazlari bo‘ldi.

O‘ziga ham, o‘zgalarga ham talabchan bo‘lgan Abror Hidoyatov bu yaratgan obrazlaridan har doim ham ko‘ngli to‘lavermas, haqiqiy aktyor bo‘lish uchun mukammal bilim va katta malaka zarurligini chuqur his etib, Moskavadagi o‘zbek teatr studiyasiga o‘qishga kirib, V. Kansel, R. Simonov, I. Tolchanov, O. Basov, M. Sverdlin kabi san’atkorlardan ta’lim olib, realistik sahna san’ati sirlari haqida chuqur nazariy va amaliy bilimga ega bo‘ladi.

O‘zbek teatr studiyasida sahnalashtirilgan Molyerning «Xasis»ida Gorgagon, Gogolning «Revizor»ida Skvoznik Dmuxanovskiy obrazlarini yaratadi. Umuman, Moskva studiyasida o‘qish A. Hidoyatovning kelgusidagi ijodiy parvozida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

1927—1935 yillarda A. Hidoyatov Q. Yashinining «Yondiramiz» idagi Sarimsoq, U. Ismoilovning «Rustam» idagi Rustam, Xurshidning «Farhod va Shirin» idagi Shopur, Lope de Veganing «Qo‘zibuloq qishlog’i» dagi Frandosa kabi rollarni ijro etib, ijod pillapoyasi sari asta-sekin ko‘tarila bordi va yetuk obrazlarini yaratish yo‘lida jiddiy tayyorgarlik ko‘rdi.

1935 yilda Hamza teatrida V. Shekspirning «Hamlet» tragediyasining premerasi bo‘ldi. Rejissyor Mannon Uyg’ur sahnalashtirgan bu asarda aktyor

Hamlet rolini ijro etdiki, bu spektakl xalq orasida katta muvaffaqiyat qozondi. «Hamlet» spektakli, ayniqsa, Hamlet obrazi o‘zbek teatr san’ati tarixida katta voqeа bo‘ldi, desak mubolag’a bo‘lmаs.

Asar tomoshabinlarning muhabbatini qozonganligi sababli, ketma-ket 21 kun ko‘rsatildi. Teatr jamoatchiligi, chet ellik san’at muxlislari spektaklga va Hamlet obraziga qoyil qoldilar. Chindan ham A. Hidoyatov yaratgan Hamlet obrazi nafaqat o‘zbek teatri sahnasida, balki jahon teatr san’atida ham erishilgan katta yutuq bo‘ldi.

1939 yilda rejissyor Y.Bobojonov Hamzaning «Boy ila xizmatchi» asarini sahnalashtirdi va asardagi G’ofur roli A. Hidoyatovga topshirildi. G’ofur Hamletdan keyin aktyor yaratgan eng yorqin xarakterli obraz bo‘lib qoldi. San’atkorning Hamza teatri sahnasida yaratgan eng yorqin obrazlaridan yana biri va aktyorga katta shuhrat keltirgani, 1941 yilda N. V. Ladigin va M. Uyg’ur sahnalashtirgan V.Shekspirning «Otello» tragediyasidagi Otello obrazi bo‘ldi.

Vatanimiz va chet ellardan kelgan san’at muxlislari spektaklga aktyorlar talantiga, ularning ijrosiga yuksak baho berdilar. 1945 yilda ingliz Parlamenti delegatsiyasi teatrning taassurotlar daftariga shunday deb yozgan edi: «Biz pyesaning bunday yaxshi qo‘yilganini hech qachon, hech qayerda, hatto Londonda ham ko‘rmagan edik.

Biz, ayniqsa, Otello bilan Dezdemona rolini o‘ynagan artistlar mahoratiga qoyil qoldik». Otello rolini aktyor 18 yil davomida 500 marta o‘ynadi. Umuman, V.Shekspir ijodini o‘zbek xalqiga manzur qilishda Abror Hidoyatovning xizmatlari benihoyat katta bo‘ldi. Keyinchalik Hamza nomidagi O‘zbek Davlat akademik drama teatrida va A. Hidoyatov nomli drama teatrida Shekspirniing «Otello» tragediyasi sahnalashtirildi.

Ushbu spektakllarni kamsitmagan holda aytish kerakki, ulardagi Otello bilan A.Hidoyatov Otellosini tenglashtirib bo‘lmaydi. Chunki A.Hidoyatov Otellosi betakror san’atning o‘lmаs namunasidir.

A.Hidoyatovning o‘zbek tarixiy dramalarida yaratgan H.Olimjonning «Muqanna»sidagi (1943) Muqanna, M.Shayxzodaning «Jaloliddin»nidagi (1943)

Temur Malik, Uyg'un va Izzat Sultonning «Alisher Navoiy»sidagi (1945) Alisher Navoiy obrazlari ham katta e'tiborga sazovor obrazlar sirasiga kiradi.

«Abror Hidoyatov o'z tomoshabiniga ega zabardast aktyor edi,—deb hikoya qiladi O'zbekiston xalq artisti Mahmudjon G'ofurov,— Abror akani G'ofur, Hamlet, Alisher Navoiy, Otello rollarida ko'rganman. Keyinchalik u Hamlet va Alisher Navoiy rollarini Olim Xo'jayevga, G'ofurni Shukur Burxonovga berib, o'zi faqat Otelloni o'ynadi.

Abror aka haqiqiy Otello edi. Men Abror akadan boshqa aktyorni Otello rolida qabul qila olmayman. Abror Hidoyatov vafotidan keyin Otello rolini Shukur Burhonov o'ynashi mumkin edi. Ammo, u o'ynamadi. Chunki Otello Abror Hidoyatov ijrosida tomoshabinlar qalbidan chuqur joy olgan edi. Abror Hidoyatov fojiaviy rollarning mohir ustasi edi».

Abror Hidoyatovning o'zbek kino san'atida yaratgan yorqin obrazlaridan biri 1945 yilda suratga olingan «Tohir va Zuhra» filmidagi Sardor obrazi bo'ldi. Abror Hidoyatov umr yo'ldoshi, taniqli san'at ustasi Sora Eshonto'rayeva bilan ko'p yillar birga yashashdi, birga ijod etishdi, o'lmas obrazlar yaratishdi, havas qilsa arziydigan oqil va fozil farzandlarni tarbiyalab voyaga yetkazishdi, munosib shogirdlar yetishtirishdi.

Xalqmizning sevimli farzandi Abror Hidoyatoz 1958 yilda Toshkentda vafot etdi. Toshkentdagi markaziy ko'chalarining biri uning nomi bilan ataladi. Poytaxtimizda A. Hidoyatov nomli drama teatri ishlab turibdi. Rejissyor Bobo Xo'jayev Abror Hidoyatov to'g'risida film yaratgan.

Mashhur o'zbek san'atkoring o'lmas xotirasi xalqimiz qalbida abadiy yashamoqda. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 9 yilligi munosabati bilan o'zbek milliy madaniyati rivojiga qo'shgan ulkan hissasi uchun Abror Hidoyatov «Buyuk xizmatlar uchun» ordeni bilan mukofotlandi. Respublikamiz madaniy jamoatchiligi 2000 yilda san'atkorning 100 yillik tavallud sanasini nishonladi.

Matn yuzasidan topshiriqlar

1. *Matnni o'qing va asosiy qismlarini tezis ko'rinishida yozib oling.*
2. *Matnga reja tuzing va uni reja asosida so'zlab bering.*

2-topshiriq. *Quyidagi referat tarkibiy qismlarini ketma-ket tartibda joylashtiring.*

Kirish, asosiy qism, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar, titul varag'i, reja,



3-topshiriq. *Matnni o‘qing va yozma nutqning mohiyatini ochuvchi so‘z, atamalarni aniqlab, ma’nolarini izohlang.*

Tilning ijtimoiy vazifasi nutqiy faoliyatda, ya’ni nutq sifatida kishilar o‘rtasida aloqa, fikrlashish, so‘zlashishni amalga oshirishda yaqqol ko‘rinadi. Nutq faoliyati kishilarning bir-birlariga tushunarli bo‘lgan til vositasida o‘zaro fikr almashishlari, nutqiy aloqaga kirishishlaridir. Bu jarayon ikki shaklda amalga oshadi: og’zaki tarzda va yozma tarzda.

Yozma nutq og’zaki nutqdan so‘ng yozuv ta’sirida paydo bo‘lgan bolib, adabiy tilning imloviy, punktuatsion, uslubiy qonun-qoidalariga bo‘ysunuvchi grafik shakldagi nutqdir. Yozma nutqning mazmuniy bo‘laklari, gaplar, ularning qismlari turli xil tinish belgilari orqali ajratib ko‘rsatiladi. Yozma nutq og’zaki nutq kabi kishilar o‘rtasidagi bevosita aloqa vositasi emas, balki u boshqa joyda va zamonda (kelgusi davrda) yashovchi kishilar bilan aloqa bog’lash vositasidir. Yozma manbalar orqali biz o‘tmish tariximizni o‘rganamiz va bundan kelajak avlod foydalanishini ta’minlaymiz. Yozma nutq doirasiga ilmiy nutq, badiiy nutq, shuningdek, hujjatlar, ommaviy axborot vositalari uchun tuzilgan yozma matnlar kiradi. Yozma nutq savodxonligi har bir kishidan o‘z fikr-qarashlarini tilning

imloviy-grammatik qoidalariga, adabiy til meyorlariga rioya qilgan tarzda ifodalashni talab qiladi.

4-topshiriq.

Internet va undan foydalanish madaniyati



Internet bu - hozirgi zamон talabidagi yagona ommabop kompyuter tarmog‘i hisoblanib, bizga barcha sohalarga oid noaniqlik ya’ni ongimizga mavhum bo‘lgan tushunchalar haqida ochiq, oddiy va ravon ma’lumot beruvchi axborot manbaidir.

Tabiiyki, hozirgi kunda ushbu omilga bo‘lgan ehtiyojmandlar soni kundan kunga ortib bormoqda. Mazkur tarmoq butun dunyo miqyosida global tarmoqdir. Zero unda mavjud yangiliklardan xabardor etuvchi matnlar, tasvir hamda ovoz xizmatlari va bir qator imkoniyatlar barcha jabhada katta yengilliklarni yuzaga keltirayotgan bo‘lsa-da, ammo ikkinchi tomondan insoniyatni beixtiyor virtual olamga jalb etib bormoqda.

Ayniqsa, bu ta’sir doirasidan o‘smir yoshlar ham yo‘q emas. Bu borada mutaxassislarning so‘zlari quyidagi natijalarni isbotlamoqda: internet tarmog‘idagi ijobiliylik insonning fan, soha va faoliyatiga bog’liq muhim aniq dalillarga ega bo‘lishida har tomonlama qulay va tegishli vaqt miqdorining tejalishiga olib keladi. Lekin qiziquvchanlik sababli Internet axborotlaridagi ortiqcha ma’lumotlarga haddan ziyod berilib ketishlari mumkin. Bu esa izlanuvchanlik, fikriy rivojlanish, mushohada, tahlil qilish qobiliyati va xotiraning o‘tkirlik darajasini susaytirishga sabab bo‘lmoqda.

Ma'lumki, Internet vositasidan foydalanish hech kimga majburiy bo'lmagan va insonning o'z tafakkuridan kelib chiqqan qonun-qoidalar asosida bo'lishi kerakligi hamda undagi me'yor talablari, ya'ni Internet tarmog'idan axborotlarni to'g'ri tanlash har jihatdan o'rinnidir. Bundan ko'rinib turibdiki, ushbu tarmoq vositasining o'z ichiga qamrab olgan axborotlar miqyosi shu qadar keng va ko'p ekanligi gohida o'zimizga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni ajratib olishimizda ham qiyinchilik tug'dirmoqda. Barchamizga ma'lumki, Internetda ishlashimiz uchun qidiruv tizimining o'rni beqiyos. Internet tarmog'ida: Yahoo, Google, Ref.uz singari yana boshqa nomlar bilan ataluvchi qidiruv tizimlari mavjud. Yuqoridaq qidiruv dasturlari haqida batafsil va umumiyligi ta'rif berishda ularni biror bir tizim orqali masalan, Google tizimini tushuntirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Darhaqiqat, hozirda nafaqat Internet tarmog'i vujudga kelganligi, bundan tashqari shu kabi jahonaro rivojlanib kelayotgan turli-tuman axborot texnologiyalar yosh avlodga ijobiy ta'sir kuchini o'tkazayotganligi bir tomonidan quvonarli bo'lsa-da, ikkinchi tomonidan ularni turli salbiy saboqlardan asrash maqsadida tarbiyaviy muhitni kuchaytirishga undaydi.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar


1. Matnni o'qing va undagi termin va iboralarning ma'nosini izohlang.
2. Matnda bayon etilgan fikrlarga o'z munosabatingizni bildiring.
3. Ta'lim jarayonida eng ko'p foydalaniladigan internet saytlari ro'yxatini tuzing.

5-topshiriq. T-sxema bo'yicha internetdan foydalanishning salbiy va ijobiy tomonlarini yoriting.

Internet

Salbiy tomonlari	Ijobiy tomonlari

15-mavzu. Referat tarkibidagi klishelangan jumlalar



Nazariy ma'lumot.

Referatlar yozish uchun til klishelari jadvali

Referatning strukturaviy komponentlari (kirish qismisiz)	Referat yozishda ishlataladigan til klishelari
Kirish qismi – nutq klishesidan foydalanilgan manbaning bibliografik tavsifi.	Maqola (matn)muallifi – mashhur olim..... Maqola (matn) deb ataladi/nomi), maqola (matn) deyiladi / sarlavha qo‘yilgan, maqola chop etildi (matn nashr etilgan)...; yil ichida...; maqola (matn)...sahifalarini o‘z ichiga oladi.
Asosiy qism - mavzu.	Maqola mavzusi (matn)-....Maqola (matn) mavzusiga bag’ishlangan.... Mavzuni tanlash..... tabiiydir
Asosiy qism - muammo	Maqolada (matnda) haqida gapiriladi, ko‘rib chiqiladi, baho beriladi, tahlil qilinadi.
Asosiy qism -kompozitsiya	Maqola (matn) ga bo‘linadi (... qismlaridan iborat,bilan boshlanadi (bilan tugaydi).
Asosiy qism - asosiy mazmunining ta’rifi	Kirish qismida (matn boshida) ta’rifi shakllantiriladi,

	<p>(maqsad va vazifalar) aniqlanadi.</p> <p>Maqolaning (matn) boshida maqsad (vazifa) ni belgilaydi.</p> <p>Muallif ma'lum dalilni eslatadi (eslaydi). Keyin muammoning umumiyl xususiyatlari (savol, tadqiqot) beriladi.</p> <p>Maqolada (matnda) muallif savol qo'yadi (yoritadi, ta'sir qiladi), quyidagi savollarga (muammolarga) to'xtaydi, keyingi savollarga (muammolarga) murojaat qiladi, adolatni isbotlaydi (da'volarni rad etadi).</p> <p>Maqolaning asosiy qismida (matn) tahlil, umumlashma.... beriladi.</p> <p>Batafsil tavsif (ilmiy asoslangan ta'rif) beriladi, muallif batafsil ma'lumot beradi (eslatmalar, xarakteristikalar, ta'kidlaydi, aytadi)....</p> <p>Yuqorida aytib o'tilganlarga qo'shimcha ravishda muallif ...</p> <p>Maqola, shuningdek, .. kabi masalalar bilan shug'ullanadi.</p> <p>Muallif..... isbotlovchi misollar, Illyustratsiyalar, ma'lumotlar, dalillar, faktlar (haqiqiy moddiy) keltiradi.</p>
<p>Asosiy qism - bu tasviriy-illyustrativ material mavjudligi va maqsadiga ko'rsatma .</p>	

	<p>O‘z fikrini tasdiqlab, muallif ... keltiradi.</p> <p>O‘z nuqtai nazarini tasdiqlash uchun muallif misollar keltiradi (so‘zlar, tasvirlar, ma’lumotlar, dalillar) isbotlovchi... / haqiqiy materiallar (tasviriy material).</p>
Xotima qismi - manba muallifining xulosalari.	<p>Muallifhaqida xulosa chiqaradi...</p> <p>Xotima qismida bu haqida yozadi (bu da’vo, ishonch/shubha bildiradi, deb)</p> <p>Maqola (matn) oxirida....yakun yasaladi.</p>
<p>Yakuniy qism –</p> <p>1. ma’lumot apparati;</p> <p>2. xulosa, referat muallifining yangilik, ahamiyat, axborotning dolzarbligi, nuqtai nazaridan baholashi, ishning afzalliklari/kamchiliklari nuqtai nazaridan baholash, ko‘rib chiqish obyektidan foydalanish imkoniyati va ko‘lamini ko‘rsatish (samarali turdagি referatlar uchun)</p>	<p>Natijada quyidagilarni amalga oshirishingiz mumkin</p> <p>Xulosa (quyidagi xulosaga kelish)...</p> <p>Shunday qilib, bu haqida xulosa chiqarish mumkin ...</p> <p>Muallif eng muhim xulosalar sifatida quyidagilarni taqdim etadi ...</p> <p>Eng dolzarb axborot .. haqida taqdim etiladi.</p> <p>Muallifning xulosalari yangiliklari bilan ajralib turadi va...da qo‘llanishi mumkin.</p> <p>Taqdim etilgan ma’lumotlar yangiligi bilan farq qiladi va ... foydalanish mumkin.</p> <p>Muallif ishonchli tarzda tasdiqlaydi ...</p> <p>Ishning (maqolaning) afzalliklari (kamchiliklari) quyidagilarni o‘z ichiga oladi...</p>

Referat shaklidagi gaplarda matn belgilarining o‘zgarishiga e’tibor bering.

Manba matn	Referativ shakli
Ma’lumki, moddalar: qattiq jismlar, suyuqliklar, gazlar — atomlardan iborat.	Muallif o‘quvchiga barcha moddalarining ning atom tuzilishi haqidagi yaxshi ma’lum bo‘lgan haqiqatini eslatadi
Bunda ancha vaqtdan beri ma’lum bo‘lgan elektronning ichki qurilishi haqida bir nima deyish qiyin. Gap shundaki, hisob-kitoblarga ko‘ra elektron radiusi proton radiusidan bir necha ming barobar kichik bo‘lishi kerak.	Muallif o‘quvchiga yaxshi ma’lum bo‘lgan haqiqati - atomning barcha moddalarining tuzilishini eslatadi
Bunda ancha vaqtdan beri ma’lum bo‘lgan elektronning ichki qurilishi haqida bir nima deyish qiyin. Gap shundaki, hisob-kitoblarga ko‘ra elektron radiusi proton radiusidan bir necha ming barobar kichik bo‘lishi kerak.	O‘z fikrini aniqlashtirib, muallif “atrofdagi olamni qurish mumkin bo‘lgan” elementar zarralarning katta ahamiyatiga e’tibor qaratadi.
Xususan, ular yuqori elementar deyish mumkin bo‘lgan zarrachalarni topdilar.	Misol sifatida muallif yangi turdagи zarrachalarni—yuqori elementarlarni ochishni keltiradi.
Elektronidan farqli o‘laroq, ularni mezonlar emas, balki og’ir elektronlar deyish to‘g’riroq bo‘lar edi.	Mezonni og’ir elektron deyish To‘g’riroq degan fikrini tasdiqlash maqsadida muallif bu ikki zarralarni qiyoslaydi va ular


	faqat og'irligiga ko'ra farqlanishini ko'rsatadi.
Neytrino va boshqa sust o'zaro ta'sirlanuvchi zarralar alohida i ajralgan guruhni tashkil qiladi.	Muallif yana bir bor o'zaro ta'sir qiluvchi zarralarning alohida guruhi haqida o'z fikrini ifodalaydi.
Bu nihoyat vaznsiz zarralar deb nomlanuvchi oxirgi guruh: glyuon, foton va graviton	Xotima qismida muallif vaznsiz zarralar deb nomlanuvchi guruhni nomlaydi.

Mavzu yuzasidan mashq va topshiriqlar

1-topshiriq.

Abu Rayhon Beruniy

(973-1048)



O'rta asrning buyuk qomusiy olimi Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy zamonasining qator fanlari: astronomiya, fizika, matematika, geodeziya, mineralogiya, geologiya, tarix kabilarni chuqur o'rgandi. U Xorazmning qadimgi poytaxti Kot shahrida tug'ildi va yoshligidanoq ilm-fanga qiziqishi orta bordi. Beruniy keyinchalik mashhur olim Abu Nasr Mansur ibn Iroq ko'lida ta'lrim oldi. Ibn Iroq astronomiya, geometriya, matematikaga oid bir qancha asarlar yozib, shulardan 12 tasini Beruniyga bag'ishlaydi. Beruniy ona tilidan tashqari yana bir qancha tillarni: arab, sug'diy, fors, suryoniy, yunon va qadimgi yaxudiy tillarini, keyinchalik Hindistonda sanskrit tilini o'rganadi.

U 22 yoshida vatanini tashlab chiqib ketishga majbur bo‘ldi va bir qancha vaqt Kaspiy dengizining janubi-sharqiy sohilidagi Jurjon shahrida muhojirlikda yashadi. So‘ng qadimgi Ray shahriga bordi, 998 yildan keyin yana Jurjonga keldi va bu yerda o‘zining ikkinchi ustozи tabib, astronom, faylasuf Abu Sahl Iso al-Masihiy bilan tanishib, undan ta’lim oldi. Beruniy “Osor al-boqiya an alqurun al-xoliya” (“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”) asarini Jurjonda muhojirlik davrida yoza boshlagan va 1000 yilda tamomlagan. “Osor al-boqiya” Beruniyga juda katta shuhrat keltirdi, uni fanning hamma sohasiga qiziquvchi buyuk olim ekanini ko‘rsatdi. Bundan tashqari Beruniy Jurjonda astronomiya, netrologiya tarixiga oid 10 dan ortiq asar yozdi.

Beruniy shoh Mahmud G’aznaviy II ning eng yaqin maslahatchisi sifatida mamlakatning siyosiy ishlarida ham faol qatnashdi.

Xorazmning Mahmud G’aznaviy tomonidan bosib olinishi Beruniy hayotini xavf ostiga qo‘ydi. U Xorazmshoh saroyidagi barcha olimlar bilan birga G’azna shahriga asr qilib olib ketiladi. Beruniyning 1017 – 1048 yillarda G’aznada kechirgan hayoti, bir tomondan nihoyat og‘ir kechgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, uning ilmiy faoliyati uchun eng mahsuldor davr bo‘ldi. Beruniyning “Xorazmning mashhur kishilari” asari ham shu davrda yaratilgan. Uning muhim astronomik-geografik asari “Tahdid nihoyot al-amoniya li tasxidi masofat al-masokin” (“Turar joylar orasidagi masofani tekshirish uchun joylarning oxirgi chegaralarini aniqlash” – “Geodeziya”) 1025 yilda yozib tugatilgan.

Beruniy o‘z asarlari ro‘yxatini tuzgandan keyin yana ikkita muhim kitobini yozgan. Bularidan biri “Mineralogiya”dir. Bu risola o‘z ma’nosini uchun Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq, hatto Ovro‘pada ham mineralogiya sohasida eng yaxshi, tengi yo‘q asar hisoblanadi. Beruniyning oxirgi asari – “Dorivor o‘simliklar haqida kitob”ining qo‘lyozmasi XX asrning 30-yillarida Turkiyada topildi. Asar “Saydona” nomi bilan mashhur, unda Beruniy Sharq, ayniqsa Markaziy Osiyoda o‘sadigan dorivor o‘simliklarning to‘la tavsifini beradi.

Beruniy shogirdi Abu-l Fadl as-Seraxsiy ma’lumoti bo‘yicha 11 dekabr 1048 yilda vafot etgan.

Beruniy so‘nggi avlodlarga katta ilmiy meros qoldirdi. Beruniyning o‘z davri ilm-fanining turli sohalariga oid 160 dan ortiq tarjimalari, turli hajmdagi asarlari, yozishmalari qolganligi bizga ma’lum. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan katta hajmdagi asarlaridan tashqari astronomiya, astrologiya, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya, geografiya, arifmetika, tibbiyat, farmakologiya, tarix, filologiya masalalariga oid qator risolalar yaratdi va sanskrit tilidan arabchaga, arab tilidan sanskrit tiliga tarjimalar qildi, badiiy ijod bilan ham shug’ullanib she’rlar yozdi. “Astrologiyaga kirish”, “Astronomiya kaliti”, “Jonne davolovchi quyosh kitobi”, “Ikki xil harakatning zarurligi haqida”, “Ko‘paytirish asoslari”, Ptolemy “Almagesti”ning sanskritchaga tarjimasi, “Foydali savollar va to‘g’ri javoblar”, “Farg’oniy “Elementlar”iga tuzatishlar”, “Turklar tomonidan ehtiyyotkorlik”, “Oq kiyimlilar” haqida ma’lumotlar”, “She’rlar to‘plami”, “Al-Muqanna haqidagi ma’lumotlar tarjimasi”, “Ibn Sino bilan yozishmalar” shular jumlasidandir.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1. Matnni o‘qing. Matnga reja tuzing.
2. Reja asosida matn mazmunini qisqartirib so‘zlab bering.
3. Matndan tayanch so‘zlarni aniqlab, ko‘chirib yozing.
4. Olim fanning qaysi sohalariga oid asarlar yaratganligini yozib bering.

2-topshiriq. Tushunchalar tahlili metodi jadvalini to‘ldiring.

Tushunchalar	Tushunchalar tahlili
Taqriz	
Annotatsiya	
Esse	
Matn	
Uslug	
Referat	

3- topshiriq. *Quyida keltirilgan klishelangan iboralarni davom ettirib, gaplar tuzing.*

- 1) Maqola (matn) muallifi – mashhur olim.....
- 2) Maqola (matn)mavzusiga bag’ishlangan.
- 3) Kirish qismida (matn boshida)ta’rifi shakllantiriladi.
- 4) Muallifhaqida xulosa chiqaradi.
- 5) Shunday qilib, haqida xulosa chiqarish mumkin.
- 6) Taqdim etilgan ma’lumotlar yangiligi bilan farq qiladi va ... foydalanish mumkin.
- 7) Ishning (maqolaning) afzallikkleri (kamchiliklari) quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

4- topshiriq.

“Jonli kutubxona”



“Jonli kutubxona”lar (ing.Human Library) aynan shunday imkoniyatni beruvchi noodatiy kutubxonalaridan biridir. Bu kutubxonalarning boshqalardan yagona farqi shundaki, unda siz kitoblar o‘rniga jonli insonlarni tanlaysiz, mutolaa esa tanlangan insonlarni tinglash hamda ularning hikoyalari bo‘yicha turli savol-javoblar o‘tkazishdan iborat.

“Jonli kutubxona” tashkil etish g‘oyasi 2000-yili Daniyaning Kopengagen shahrida Ronni Abbergel va uning jamoasi tomonidan yoshlar o‘rtasida zo‘ravonlikni kamaytirish maqsadida to‘rt kun davomida o‘tkazilgan festivaldan so‘ng paydo bo‘lgan. Ijobiy natijalarga boy ushbu festival birozdan so‘ng “Jonli kutubxona” uyishmasini tashkil etishga turtki bo‘ldi. Dastlab Daniyada muvaffaqiyatga erishgan bu turdagি kutubxonalar tashabbuskorlar va Yevropa

kengashi kabi jamoat kutubxonalarini institutlari tomonidan qo'llab-quvvatlanishi natijasida dunyo bo'ylab keng miqyosda tarqalmoqda.

Bugungi kunda 70dan ortiq davlatlarda "Jonli kutubxona" kutubxonalarini tashkil etilgan bo'lib, bu harakatlar butun dunyoning ijtimoiy hayotiga sezilarli darajada ta'sir etmoqda. Dastlab o'quv dargohlari, san'at ko'rgazmalari hamda yoshlar kongresslarida inson huquqlariga bag'ishlagan festival sifatida tashkil etilgan bu tadbir, keyinchalik alohida kutubxona sifatida faoliyat yuritishga o'tdi. 2006-yili esa Avstraliyaning Lismore shahrida birinchi doimiy faoliyat ko'rsatish uchun jonli kutubxona binosi qurib foydalanishga topshirildi.

"Jonli kutubxona"larda kutubxonachilar ko'ngilli ravishda ishlab, ularning asosiy vazifasi jonli kutubxonalarini kitobxonlarning qiziqishiga ko'ra tanlashga ko'maklashish, ularga yo'l-yo'riq ko'rsatish, yangi kitobxonlarga bu kutubxona haqida ma'lumot berishdan iboratdir. Kitob bo'lib xizmat qiluvchi insonlar ham ko'ngilli sifatida o'z hayot tajribalari bilan o'rtoqlashadi, kitobxonlarning savollariga ochiq-oydin javob berishadi.

Yaqinda o'tqazilgan tadqiqot natijalari ushbu kutubxonalarining yaratilishi oliy o'quv yurtlari talabalari uchun ijobiyligi ta'sir o'tkazib, ulardagagi noto'g'ri tushunchalarining kamayishi, o'qish real aloqalarni rivojlantirish, insonlarga ko'maklashish kabi insoniy fazilatlari ortib borayotganini ko'rsatadi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar rivoji hayotimizni tubdan o'zgartirdi, telefon, kompyuter va ijtimoiy tarmoqlarning paydo bo'lishi insonlarni real hayotdan virtual olam tomon yetaklab borayotgani ayni haqiqat. Buning natijasida insonlar o'rtasida yuzma-yuz muloqot keskin kamayib, o'zimiz yaratgan aqlii qurilmalar go'yoki bizlarni boshqaruvchi kuchga aylanadi. Insonlar endi bilimlarni kitobdan emas, balki turli qidiruv tizimlari yoki boshqa internet saytlaridan izlashmoqda. Bu esa, kitob o'qish madaniyatiga ta'sir etibgina qolmay, kitoblarga bo'lgan talabning kamayishiga olib keldi. Kitob mutolaasiga talab qanchalik pasaygani sari, kutubxonalaridan kitobxonlarni jalg etishning yangi-yangi yo'llarini topish taqozo etiladi. "Jonli kutubxona"lar yuqorida keltirilgan muammolarga yechim bo'lsa ajab emas.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar:

1. Matnni o‘qing. Matnga reja tuzing.
2. Reja asosida matn mazmunini so‘zlab bering.
3. Matndan klishelangan so‘zlarni aniqlab, ko‘chirib yozing.
4. Dunyodagi mashhur kutubxonalar haqida taqdimot tayyorlang.


5- topshiriq. Fan rivojiga katta hissa qo‘sghan taniqli o‘zbek olimlari haqida referat tayyorlang.



Nazorat savollari

1. Referat – bu
2. Referatning tuzilishi va tarkibiy qismlari.
3. Referatdagi klishelarga misollar keltiring.

16 - mavzu. Ilmiy uslub janrlari. Ilmiy sharh



Nazariy ma’lumot.

Nutqning ilmiy uslubi ilmiy muloqot sohasida amalga oshiriladi. U bir nechta turlarga ega: sof ilmiy (mutaxassislar bilan muloqot qilish uchun), ilmiy-o‘quv (kelajakdagi mutaxassislar bilan muloqot qilish uchun), ilmiy-ommabop (mutaxassis bo‘lmaganlar orasida ilmiy bilimlarni ommalashtirish uchun).

Ilmiy uslubning og‘zaki shakldagi janrlariga ma’ruza, doklad, ilmiy muhokamalar kirsa, yozma shakliga — referat, taqriz, maqola, monografiya, dissertatsiya kiradi.

Nutqning ilmiy uslubi muayyan belgilar bilan ajralib turadi: puxta dastlabki tayyorgarlik, so‘zning monologik tabiat, matn qismlari o‘rtasidagi aniq aloqa tizimi, ilmiy tushunchalarning aniq tavsifi, ifodalarning qisqaligi va

bir ma'noliligi. Ilmiy uslubining o'ziga xos xususiyati bu atamalarning — ilmiy tushunchalarni ifodalovchi maxsus so'zlarning mavjudligi.

Ilmiy uslubning grammatik xususiyatlari quyidagilardir:


- *qaratqich kelishigini qo'llash* (Ferma teoremasi, Mendeleyev jadvali, butundunyo tortishish qonuni),
- ravishdosh va sifatdoshlarning mavjudligi: Hikoya xronologik ketma-ketlikda rivojlanayotgan harakatlar haqida ma'lumot berish uchun ishlatiladi; tashqaridan aralashuvda ekotizim yangi sharoitlarga moslashish orqali qayta tiklanadi yoki ishdan chiqadi;
- ~ passiv konstruksiyalardan foydalanish, unda predikat fe'l bilan ifodalanishi mumkin: *Shifokorlar bolalar orasida shamollashning ko'payishini qayd yetadilar; Qish faslidagi kasalliklarning yuqori darajasi tana immunitet tizimining zaiflashishiga bog'liq;*
- *ilmiy tushunchalarni tavsiflashning qulay usuli bo'lgan murakkab jumlalar mavjudligi. Bunday gaplarda ko'pincha murakkab bog'lovchilar ishlatiladi, ular faqat kitob nutqiga xosdir:* buning sababi shundaki, aslida, bunga qaramasdan, holbuki: miloddan avvalgi uchinchi asrda yunon tilida ilmiy terminologiya yaratilganligi sababli, ilmiy uslubni badiiy uslubdan ajratish yuz berdi.



Ilmiy sharh ma'lum bir vaqt mobaynida muayyan mavzu bo'yicha ko'plab asosiy manbalardan tanlash, tahlil qilish, tizimlashtirish va mantiqiy umumlashtirishdan olingan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan matndir.


- **sharh** - muayyan davr uchun axborotni umumlashtirish va baholash asosida muayyan mavzudagi eng muhim ma'lumotlarni izchil bayon etish;
- **sharh** - ma'lum bir vaqt ichida asosiy manbalardan olingan ma'lumotlardan foydalanishga asoslangan ma'lum bir savol yoki muammo bo'yicha umumlashtirilgan axborotlarni o'z ichiga olgan sintezlangan matn ;
- **sharh** –muayyan vaqt ichida nashr etilgan ushbu maqsad uchun tanlangan ilk ilmiy manbalardan olingan ma'lum bir savol yoki bir qator masalalar bo'yicha sintezlangan ma'lumotlarini o'z ichiga olgan matn.

Sharh tuzilishi bo'yicha bir nechta qoidalarni esda saqlaylik:



1-topshiriq.

Inson ko‘zi necha megapikseldan iborat?




Ko‘pincha, “pixsel” so‘zini yeshitishimiz bilan xayolga smartfon, raqamli kameralar, shuningdek, kundan-kunga rivojlanib borayotgan texnika kelishi tabiiy. Lekin bu moslamalar tuzilishi jihatidan ko‘proq nimaga o‘xshaydi? Ya’ni, bajaradigan vazifasi insonning ko‘ziga o‘xshashmi? U holda insonning ko‘zi necha pixsel bo‘lishi mumkin?

Dastlab, buning uchun pixsel nima o‘zi, degan savolga javob berish kerak. Pixsel – bu nuqta, ya’ni displaydagi nuqta. Aynan shu nuqtalar hisobiga rasmlar tashkil etiladi. Raqamli formatda tayyorlangan birgina kadr o‘z ichiga millionlab nuqtalarni olishi mumkin. Pixsel atamasi so‘zma-so‘z tarjima qilinganda, “picture’s element” – “rasm elementi”, degan ma’noni anglatadi. “Pixel” so‘zi keyinchalik ‘Pic’s Yel’ qisqartmasidan kelib chiqqan, degan qarashlar ham mavjud.

Ko‘z tuzilishi

Ko‘zning vazifasi tasvirni ongga yetkazishdir. U har biri juda muhim bo‘lgan ko‘plab tarkibiy qismlardan iborat bo‘lib, ko‘z soqqasi va uni o‘rab turgan apparatdan, ya’ni ko‘z soqqasini harakatga keltiruvchi muskullar, qovoq, kipriklar, ko‘z yoshi bezlari va qon tomirlardan tashkil topgan.



Ko‘z – tashqi (oqsil parda-sklera, o‘rta tomirlı parda, ichki-to‘r parda), ichki (ko‘z ichi suyuqligi, gavhar, shishasimon tana) qismlarga bo‘linadi. Sklera yoki oq pardaning bir qismi qovoqlar ostidan ko‘rinib turadi. Orqa qismidan esa teshikcha bo‘lib, undan asab tolalari o‘tadi. Sklera ham shox pardaga, ham oqsil pardaga chegaradosh. Shox pardada qon tomirlar bo‘lmaydi, lekin u “optika”ning eng zarur elementlaridan biridir. Shox parda hamda rangdor pardaning o‘rtasida kichkina bo‘shliq mavjud bo‘lib, bunga ko‘zning oldi kamerasi deyiladi. Rangdor parda bilan gavharning o‘rtasidagi bo‘shliqqa orqa kamera deyiladi. Har bir ko‘ruv nervida bir millionga yaqin asab tolalari bor.

Rangdor pardada radial va halqa shaklidagi muskullar joylashgan bo‘lib, halqasimon muskullar qisqarganda ko‘z qorachig’i torayadi, radial muskullar qisqarganda esa qorachiq kengayadi. Ko‘z soqqasining ichki, ya’ni to‘rsimon pardasi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uning orqa qismida yorug’likni, ranglarni qabul qiluvchi retseptorlar joylashgan. Ular maxsus nerv hujayralari bo‘lib, tayoqcha va kolbacha shaklidadir. Ko‘z soqqasining to‘rsimon pardasida 100 milliondan ortiq tayoqchasimon retseptorlar bo‘lib, ular yorug’lik kamayganda yoki tun vaqtida qo‘zg’aladi.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Matnni o‘qing. Matnga reja tuzing.
2. Reja asosida matn mazmunini qisqartirib so‘zlab bering.
3. Matndan terminlarni aniqlab, ko‘chirib yozing.

2- topshiriq. “Termin” so‘zi namunasiga ko‘ra “Uslub” so‘ziga sinkveyn tuzing va umumlashtiruvchi xulosa chiqaring.

“Sinkveyn” (5-qator) texnikasi:

1-qator - tushuncha - ot

2-qator - 2 so‘zdan iborat sifat

3-qator - 3 so‘zdan iborat fe’l

4-qator - 4 so‘zdan iborat munosabat

5-qator - 1 so‘zdan iborat sinonim

Namuna:

1.Termin

2.Iqtisodiy, sohaviy

3.Anglatadi, ishlataladi, aniqlaydi

4.Birgina ma’noga ega bo‘lgan so‘z.

5.Atama.

3- topshiriq. *Gaplarni o‘qing, ularni til va yozuv taraqqiyoti nuqtai nazaridan tartib bilan ko‘chiring.*

1. VIII asrda O‘rta Osiyoda islom dini bilan birga arab yozushi ham tarqaldi. O‘zbek xalqi bu yozuvdagi 28 harfga yana qo‘sishimcha to‘rtta harf kiritib, o‘z tiliga moslashtirdi.


2. 1940- yil 8- mayda O‘zbekiston Respublikasi hukumatining qarori bilan kirill yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosi qabul qilindi. Ushbu alifbo asosida «O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari» 1956- yil 4- aprelda tasdiqlangan edi.

3. 1993- yil 2- sentabrda «Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g’risida» Qonun qabul qilinishi mustaqil Vatanimizning ma’naviy-madaniy hayotida jahonshumul ahamiyat kasb etdi. Yangi alifboga kiritilgan o‘zgarishlar asosida «O‘zbek tilining asosiy imlo qoidalari» ishlab chiqildi va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1995- yil 24- avgustda tasdiqlandi.

4. O‘zbek yozuvi dastlab 1929- yilda lotin grafikasiga asoslangan alifboga ko‘chirilgan edi.
5. Turkiy xalqlarning ko‘plab bebaho yodgorliklari qadimgi turk va uyg’ur yozuvlarida bitilgan. O‘rxun-Enasoy yozuvi harf (tovush) yozuvining ancha mukammal shakli bo‘lib, har bir tovush uchun maxsus shakl qo‘llangan.
6. O‘rta Osiyo xalqlari eng qadimdan o‘z yozuv madaniyatlariga ega bo‘lganlar, harf (tovush) yozuvining eng qadimgi shakllari hisoblangan so‘g‘d va Xorazm yozuvlaridan foydalanganlar. Bu yozuvlar oromiy alifbosi asosida yuzaga kelgan.

4- topshiriq.

Abu Ali ibn Sino



Agar biror xorijlik Markaziy Osiyo madaniyati va ilm-fani bilan qiziqib, tarixiga murojaat qilsa, albatta, Ibn Sino degan nomni uchratadi. Kim tibbiyot bilan shug‘ullansa, u albatta, Avitsena degan nomni biladi.

Buyuk daho Abu Ali al-Husayn ibn Abdulloh ibn al-Hasan ibn Ali ibn Sino hijriy 370 (milodiy 980) yilda Buxoroning Afshona, hozirgi Isfana qishlog’ida tug‘ilgan. U yoshligidanoq o‘tkir zehni va ilmga qiziqishi bilan hammani lol qoldirardi. Ibn Sino An-Notiliy qo‘lida tarbiya oladi. U astronomiya, falsafa, matematika, fizika, kimyo, tibbiyot, mantiq, adabiyot, mineralogiya va boshqa fanlar bilan shug‘ullangan. 10 yoshida Qur’onni yod olgan, 16 yoshdayoq atoqli tabib bo‘lgan. U Buxoro amiri Nuh ibn Mansurni davolab, saroyning boy kutubxonasidan foydalanish huquqini qo‘lga kiritgan.

Ibn Sino 1002 yilda Buxorodan chiqib ketadi, Urganch, Obivard, Naso, Nishopur, Jurjon, Ray, Isfahon, Hamadon kabi shaharlarda bo‘ladi. U 1037 yilda (hijriy 428) 57 yoshida Hamadon shahrida vafot etadi.

Agar buyuk tabibning ijodiy merosini ko‘zdan kechirsak, uning naqadar serqirra iste’dod egasi ekanligining guvohi bo‘lamiz. Mutafakkirning turli fanlarga oid 450 dan ortiq ilmiy asarlar yaratganligi ma’lum. Biroq bizgacha Ibn Sinoning 242 ta asari yetib kelgan. Shulardan 4 tasi adabiyotga, 5 tasi musiqaga, o‘ndan ortig‘i astronomiyaga oid asarlardir va h.k.


Ibn Sino Sharqda «Shayxur-Rais», G’arbda esa «Avitsenna» nomi bilan mashhur. Lekin u agar buyuk tabib bo‘lmanida edi, adabiyot va san’atga oid ishlari bilan ham madaniyatimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan bo‘lar edi. «Yusuf qissasi» Qur’on syujeti asosida yozilgan birinchi asar bo‘lib, ramziy-majoziy usuldadir. «Rasolat - at tayr» («Qush risolasi»), «Uyg‘oq o‘g‘li Tirik» («Hayy ibn Yaqzon») kabi asarlari ham ramziy-majoziy uslubda, «Salomon va Ibsol» yesa ishqiy-sarguzasht asardir. Ibn Sino shoir sifatida doston, qasida, g’azal, ruboiy, fardlar yaratgan. Uning she’rlari ilm-ma’rifatga da’vat qiladi; shoir dunyo sirlarini bilishga intiladi, yaxshi axloqiy xislatlarni yegallashga chaqiradi. She’riyatning nazariy masalalari uning «Musiqa ilmida katta to‘plam» asarida ham tadqiq yetilgan. U tibbiy yo‘l-yo‘riqlarni, ko‘rsatmalarni she’riy yo‘l bilan bayon yetgan. Bular urjuzalar deb atalgan. Bunga sabab ularning rajaz vaznida yozilganidir.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar

1. *Matnni o‘qing.*
2. *Matndan ilmiy uslubga xos atamalarni ko‘chirib yozing.*
3. *Ushbu matnga ilmiy sharh yozing.*

5- topshiriq. O‘zingiz bilim olayotgan fan yo‘nalishini yoki yoqtirgan mutaxasisligingizni ta’riflab matn yarating. Unda asoslar, dalillar keltirishni unutmang.

17-mavzu. Ilmiy uslub janrlari. Kurs ishi



Nazariy ma'lumot.



Kurs ishi - olyiy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari talabalari tomonidan amalga oshiriladigan vazifa, odatda ikkinchi yoki uchinchi kurslarda referatlar shaklida, katta kurslarda—tadqiqot ishi shaklida bajariladi. Ko'pincha kurs ishlari mutaxassislik bo'yicha asosiy bo'lgan fanlardan amalga oshiriladi.

Kurs ishi quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin:

1. titul sahifasi;
2. mundarija;
3. kirish;
4. asosiy qism;
5. amaliy qism;
6. xulosa;
7. adabiyotlar ro'yxati;
8. ilovalar.

Kirish. Kirish qismida ilmiy tadqiqot metodologik apparati aks ettirilgan. Bu kurs ishini himoya qilish uchun tayyorlangan kengaytirilgan annotatsiya shaklida tuzilgan kirishning asosini tashkil yetadi.

Kirish matni odatda mavzuni tanlash va uning ahamiyatini asoslash bilan boshlanadi. Mavzuning dolzarbligi hozirgi vaqtda va ushbu vaziyatda ushbu muammoni hal qilish uchun uning ahamiyati (vazifa, savol) darajasidir. Mavzuni tanlash va uning dolzarbligi isbotlanishi kerak.

Tanlangan mavzuning **dolzarbligi** asosida tadqiqotning maqsadi va uning muammolari, obyekti va mavzusi shakllantiriladi.


Tadqiqotning maqsadi, muallif tadqiqot davomida erishmoqchi bo‘lgan narsadir.

Tadqiqotning vazifasi - tadqiqotning maqsadiga erishish va gipotezani sinovdan o‘tkazish (ishning asosiy maqsadiga erishish uchun nima qilish kerak) muammosini hal qilishning aniq ketma-ket bosqichlari.

Tadqiqot obyekti muammoli vaziyatni keltirib chiqaradigan va o‘rganish uchun tanlangan jarayon yoki hodisadir.

Tadqiqot predmeti, muayyan jihatdan o‘rganish obyekti chegaralarida bo‘lgan barcha narsadir. Keyin kurs ishi rejasi masalalarini ko‘rib chiqishingiz kerak. Har bir savol kamida 3 sahifadan kam va 5-6 sahifadan oshmasligi kerak. Misollar va statistik ma’lumotlar berish tavsiya etiladi. Xorijiy tajriba va statistika-ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlardan qiyoslash uchun foydalanish mumkin.

Xulosa qismida kurs ishi bo‘yicha umumlashtirilgan xulosalar taqdim etilishi kerak.



1-topshiriq.

Insonning paydo bo‘lishi haqida klassik tasavvurlar



Olimlarning fikriga ko‘ra, birinchi maymunga o‘xshash mavjudotlar 38 million yil oldin paydo bo‘lgan. Bundan tashqari, evolyutsiya jarayonida inson bo‘lishga olib kelgan yo‘l 25-5 million yil oldin paydo bo‘lgan va taxminan 2 million yil oldin insondan mohirlik qobiliyatiga ega bo‘lgan odamga aylangan. O‘z navbatida, mohir odam 1,5 million yil oldin sodir bo‘lgan tik turgan odamga aylandi. U Afrika, Osiyo va Yevropada yashab, 200 ming yil oldin yo‘qolgan deb hisoblashadi.

Paleoantropologlarning nuqtai nazari bo‘yicha, zamonaviy anatomik tuzilishga ega bo‘lgan (*homo sapiens*) odam evolyutsion tarzda rivojlanib, birinchi, eng qadimgi odamlarning yoshi esa 300-400 ming yillikda aniqlanadi. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, ular zamonaviy avlodlaridan juda oz farq qildilar va deyarli bir xil bosh suyagiga, ichiga kirgan peshona, kuchli jag’lar va tishlarga ega edilar. Ilmiy dunyoda "aqli odam" turi 40 ming yil avval paydo bo‘lgan, ammo Janubiy Afrikada va dunyoning boshqa qismlarida keyingi olib borilgan kashfiyotlar odamning yoshi 40 dan 100 ming yilgacha bo‘lgan degan fikr paydo bo‘lishiga olib keldi.

"Insonning kelib chiqishi" kitobida Darvin insonning maxsus maqomga ega bo‘lish huquqini inkor etib, insonning "daraxtlarda yashagan to‘rt oyoqli mavjudotning avlodi" ekanini ta’kidladi. O‘sha paytlarda bu jasur bayonotda eng kuchli dalillar yo‘q edi — eng qadimgi maymunlar va zamonaviy odamlar

o‘rtasidagi aloqalar sifatida e’tirof etilishi mumkin bo‘lgan mavjudotlarning qazilma qoldiqlari topilmadi. Bugungi kunda deyarli barcha paleoantropologlar, kamdan-kam istisnolardan tashqari, so‘nggi o‘n yilliklarda Afrika, Osiyo va dunyoning boshqa qismlarida inson ajdodlarining qazilma qoldiqlari Darvinning nuqtai nazarini to‘liq tasdiqlagan.

Matn yuzasidan topshiriq.

1. *Matnga savollar tuzing.*

2. *Uning mazmunini kengaytirib so‘zlab bering.*

2-topshiriq. Yuqoridagi matn bo‘yicha grafik- sxema tuzing.

1- fikr

2-fikr

Turli fikrlar

3-topshiriq. “**Tushunchalar asosida matn tuzish**” metodi bo‘yicha matn tuzish.

“O‘rta Osiyoning buyuk siymolari” mavzusi bo‘yicha quyida berilgan tayanch so‘z va birikmalardan foydalanib mustaqil tarzda mikromatnlar tuzing.

- 1) Xorazm, Bog’dod akademiyasi, rasadxona, o‘nlik tizim, to‘rt amal, algoritm, algebra;
- 2) Samarqand, sakkizta asar, «Samoviy jismlarning harakati va yulduzlar ilmi», astronomiyadan qo‘llanma;
- 3) Forob, Damashq, Misr, 160dan ortiq asar;
- 4) Kat shahri, Ma’mun akademiyasi, xorijiy tillar, 200ga yaqin ilmiy asar, globus, «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», G’azna;
- 5) Sayram, Yassi, 23 yosh, «Hikmatlar».

4-topshiriq.

Xorazm Ma’mun akademiyasi



Ma'mun akademiyasi 1004- 1005 yillarda Xorazmda yaratilgan bo'lib, O'rta Osiyo tarixida birinchi akademiyadir. Akademianing "Ma'mun" deyilishining sababi Ma'muniy xorazmshohlar davrida (997-1017) ularning homiyligida tashkil qilingan va ilmiy ish olib borgan. Akademiya faoliyatining 1017 yilda to'xtatilish sababi Xorazmshoh Ma'mun ibn Ma'munning isyonchilar tomonidan o'ldirilishi bo'ldi. Shundan so'ng akademiya homiysiz va qarovsiz qolib, akademiya olimlari ilmiy ish uchun tinch sharoit qidirib, birin-ketin tarqalib ketdilar.

1004 yildan boshlab Gurganjda "Darul Hikma va maorif" ilmiy tashkiloti faoliyat ko'rsata boshlagan. Bu ilmiy tashkilot ko'p jihatdan Platonning Afinadagi Akademiyasini va Bog'doddagi "Bayt -ul hikma" akademiyasiga o'xshagan Xorazm Ma'mun akademiyasida o'sha davrning eng ko'zga ko'ringan ensiklopedist olimlari va mutafakkirlari xizmat qilganlar. Ular qatorida quyidagi yirik tadqiqotchilarni sanab o'tish mumkin: Abulhayr ibn Hammar, Jurjoniy, Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Muhammad ibn Muhammad as-Sahiy, Xorazmiy va boshqalar. Bular o'sha davr sharoitida haqiqiy ilmu-fanlarning mashhur kamyogarlari, tabiatshunoslari, tibbiyotchilari, matematiklari, astronomlari, muhandis olimlari, mantiqshunoslar, faylasuflar, tarixchilar, geograflar va boshqa sohalarning atoqli vakillari yig'ilgan edilar.

BMT ning Yunesko tashkiloti O'zbekiston Respublikasining taklifi bilan 2005 yilda Ma'mun akademiyasining 1000 yilligi anjumanini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildi. O'zbekiston ushbu tantanalar doirasida Xorazm Ma'mun akademiyasini O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining

Xorazm-Amudaryo mintaqasi filiali sifatida qaytadan tikladi. 1997 yil 11 noyabrdan boshlab, O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “Xorazm Ma’mun akademiyasini tiklash to‘g‘risida”gi Farmoniga binoan bu akademiya o‘z tarkibida arxeologik, til va adabiyot, biologiya bo‘limlarini tashkil qildi hamda o‘z ajdodlarining nomi va ruhiga loyiq ish olib borishga intilmoqda.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. *Matnni o‘qing. Matnga reja tuzing.*
2. *Ularning asosida ilmiy sharh yozing.*
3. *Ma’mun akademiyasida xizmat qilgan yirik olimlar haqida ma’lumot tayyorlang.*

5-topshiriq. Tushunchalar tahlili metodi. Jadvalni to‘ldiring.


Tushunchalar	Tushunchalar tahlili
Akademiya	
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi	
Ma’mun akademiyasi	
Arxeologiya	
Ensiklopedist olim	
BMT	
Yunesko tashkiloti	



Nazorat savollari

1. Ilmiy tadqiqotlar nima?
2. Ilmiy tadqiqotlar qanday amalga oshiriladi?
3. Kurs ishi nima?
4. Tadqiqot obyekti nimani anglatadi?
5. Kurs ishi qaysi qismlardan iborat?

18-mavzu. Doklad. Doklad tizilmasi



Nazariy ma'lumot.

Doklad mustaqil ilmiy tadqiqot ishining bir turi bo'lib, unda muallif o'rganilayotgan muammoning mohiyatini ochib beradi; turli nuqtai nazarlarni, shuningdek, o'z nuqtai nazarini keltiradi. Og'zaki va yozma doklad turlari mavjud (mazmuniga ko'ra referatga yaqin).

Dokladda tadqiqotchining uchta fazilati birlashadi: tadqiqot o'tkazish qobiliyati, tinglovchilarga natijalarni taqdim etish qobiliyati va savollarga malakali javob berish qobiliyati.

Dokladni tayyorlash va shakllantirish jarayonida siz vazifaning bayonini, muammoning holatini, siz olgan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyatini tushunishga kirishasiz. Ilmiy konferensiyada ma'ruza Sizning kasbiy mahoratingizni rivojlantirish dinamikasini tezlashtiradigan va rag'batlantiradigan oraliq mezondir. Doklad matni, asosan, *ilmiy maqola loyihasidan* boshqa narsa emas.

Eslatib o'tamiz, "reja" so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, "sayyora", "plankton", ya'ni "adashgan" (fikrlar) degan ma'noni anglatadi.

Doklad rejasi

1. **Muammoni** (vazifani) **shakllantirish** va uning **dolzarbli** (ilmiy va amaliy ahamiyati).
2. **Muammoning hozirgi holati** (sizning muayyan mavzuizingizga taalluqli qism) va umumiyl muammo bo'yicha muayyan mavzuni joylashtirish.
3. **Ishning maqsadi.**
4. Maqsadga erishish uchun hal qilinishi kerak bo'lgan **vazifalar**.
5. Ishni bajarish uchun jalb qilingan **dastlabki materiallar** (geologik-

geofizik ma'lumotlar, petrofizik to'plamlar, dasturiy-algoritmik ta'minot, texnik vositalar va boshqalar)

6. Ishda qo'llaniladigan tadqiqot **usullari** (ilgari ma'lum bo'lган, muallif tomonidan takomillashtirilgan yoki original);

7. Olingan **natijalar va ularning tahlili** (dissertatsiyalarda - himoya qilinayotgan ilmiy natijalar va ilmiy nizomlar)

8. Xotima va xulosalar. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy **ahamiyati**.

9. Muallif(lar) ning **shaxsiy hissasi**.

10. Ishda yordam bergenlarga minnatdorchilik.

11. Adabiyotlar ro'yxati.

Mulohaza tinglovchiga **tushunarli** bo'lishi uchun uning ma'noviy tarkibiy qismlari matn qismlariga mos keladigan hajmga ega bo'lishi kerak, ularning har biri 4-8 soniya ichida o'qilishi mumkin. Og'zaki nutqda ushbu shartlarga rioya qilmaslik bunday fikrning tinglovchi uchun "qulqodan o'tishi"ga olib keladi. Dokladning sarlavhasi (maqola) iloji boricha qisqa bo'lishi kerak (8-10 so'zdan oshmasligi kerak). Agar doklad yozma bayonni nazarda tutsa, u to'g'ri rasmiylashtirilishi va quyidagilardan iborat bo'lishi kerak:

titul sahifasi - har qanday jiddiy o'quv ishini shakllantishda boshlang'ich jihat;

mundarija - matnning qulayligi va tuzilishi uchun yaratilgan bo'lib, har bir bo'limning nomi va boshlanish sahifalarini ko'rsatadi;

kirish qismi – o'r ganilayotgan muammoning mohiyati ko'rsatiladi, mavzuning ahamiyati aniqlanadi hamda dokladning vazifalari va maqsadlari ko'rsatiladi, foydalanilgan adabiyotning tavsifi beriladi;

asosiy qism – bir nechta punktlardan iborat: o'r ganish usullari, olingan natijalar va buning uchun qilingan harakatlar;

yakuniy qism - tadqiqotning natijalarini umumlashtiradi, mavzuning asosiy muammolari xulosalashtiriladi;

foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati – tayyorgarlik jarayonida siz murojaat qilgan manbalar ro'yxati.

Og‘zaki chiqishning asosiy tamoyillari (ilmiy konferensiyada ma’ruza qilish)

MAQOLA

Matnni yozishda eng qiyin tomoni maqolaning eng muhim qismi - uning boshlanishi hisoblanadi. Odatda, dastlabki iboralar sodda, mazmunan siqiq, oddiy va beo‘xshov tuyuladi. Ruhan tushkunlikka tushmang, xavotir olmang va davom eting. Kerakli birinchi ibora beshinchi yoki o‘ninchি marotabasida paydo bo‘ladi va avvalgi barcha narsalarni yo‘q qilishingizni osonlashtiradi. Hech qachon maqolani "Ma’lumki,...." so‘zlari bilan boshlamang. Hech qachon "Bu bilan bog’liq"("Bu bilan izohlanadi") kabi birikmalardan foydalanmang.

Maqolani boshidan yozishni boshlash shart emas. *Oxiridan boshlang* - xulosa qismidan boshlash, ishning asosiy natijalari va xulosalarini tavsiflash juda oson. Rasm osti yozuvlar va adabiyotlar ro‘yxatini tuzish ham oson emas. Maqolaning boshqa bo‘limlarini yozing va uni boshidan qayta ko‘rib chiqing. Qiyinchiliklar yana paydo bo‘ladi, lekin ularni yengish osonroq bo‘ladi.

Maqolaning birinchi sahifasi quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

1. Maqolaning to‘liq nomi.
2. Qisqartirilgan nomi (kolontitullar uchun).
3. To‘liq elektron pochta manzili(lari) bo‘lgan muallifning(lar) ismi-sharifi. Jamoaviy ishlar uchun - muallifning ismi, uning manzili bo‘yicha o‘quvchilar bilan yozishmalar ochiladi.
4. Maqlolar uchun 80 so‘zdan ko‘p bo‘lmagan hajmdagi referat yoki texnik eslatma uchun qisqa annotatsiya.
5. Grafika va jadvallar (alohida varaqlarda) matndan keyin joylashtiriladi, ularning matndagi o‘rni chetdagи maydonlarda belgilanadi.

Adabiy iqtiboslar birinchi muallif bo‘yicha (jamoaviy ish uchun) va nashr etilgan yili bo‘yicha alifbo tartibida beriladi.

Ikki nusxadagi matn chizmalarini bilan qog‘oz ko‘rinishida va fayllar shaklida - diskda tahririyatga topshiriladi.

O‘quvchi ishning darajasi va sifatini deyarli bir zumda kirish, xulosa va adabiyotlar ro‘yxati orqali aniqlashi mumkin. Tabiat chiroyli va uyg‘undir.

Tadqiqotchi tabiiy qonuniyat va jarayonlarni tushunishga qanchalik yaqin bo'lsa, uning ishi shunchalik chiroyli bo'ladi.

Maqolada ushbu go'zallik ishni tushunishga yordam beruvchi o'zining tuzilishi (qurilishi), fikrlash mantig'i, tilning ravshanligi va shakllanishi, chizma va jadvallardan foydalanishda namoyon bo'ladi. O'rganilayotgan muammo qanchalik muhim va jiddiy bo'lsa, ishning dolzarbligini asoslash shunchalik qisqa bo'ladi: bilim hajmi qanchalik ko'p bo'lsa, kamroq miqdordagi ramziy vositalar uni ifoda eta oladi.

Maqola aniq tuzilishga, ichki bo'limlarga (kichik bo'limlar) ega bo'lishi kerak. Shunday qilib, birinchi navbatda ishning **mavzusi** aniqlanadi va uning **dolzarbli** asoslanadi. Bundan tashqari, belgilangan maqsadga erishish uchun hal qilinishi kerak bo'lgan ishning **maqsadi va vazifalari** (uslubiy, konstruktorlik, eksperimental, nazariy, dasturiy-algoritmik va boshqalar) aniqlanadi.

Sizning yondashuvningizning **yangiligi va o'ziga xosligi** (muammoning bayoni, tadqiqot obyekti, eksperimental yoki nazariy usul, texnik qurilma va boshqalar) nimadan iborat ekanligini ta'kidlash muhimdir. Bunda maqolaning tashkiliy qismi tugallanadi va siz uning mantiqiy bloklarini aniqladingiz (obyektning tavsifi, muammoni ifodalash, oraliq vazifalar, tadqiqot usullari, olingan natijalar, ularning muhokamasi, xulosalari va yakuniy qism). Har bir bunday blok o'z sarlavhasiga ega maqolaning bir bo'limidir.

Bayonning maksimal soddaligi va ravshanligiga intiling. Ilm-fan murakkab bo'lib tuyulganlarni oddiy qilib ko'rsatishdan iborat, aksincha emas. Maqolani telegraf xabariga aylantirmang. Funksional tahlil tilida muayyan amaliy vazifani berishga hojat yo'q. "Agar ahmoq-o'quvchi maqolani tushunmasa, u uchun yomonroq" degan tamoyilga amal qilmang.

Quyidagi qoidalarni keltirib, umumlashtiramiz: "Maqola gazetadagi kabi bir xil tarzda qurilishi kerak: axborot sarlavhasi; birinchi abzatsda keltirilgan mohiyat; keyingi abzatsda keltirilgan asosiy dalillar; ayrim, kamroq ahamiyatga ega tafsilotlarga bag'ishlangan kichik boblar; boblar va maqolalardan aniq xulosalar; "keyingi ishlar uchun konspekt" qilish yo'q.

Agar siz aytmoqchi bo‘lgan bir nechta savolningiz bo‘lsa, unda siz bir nechta maqola yozishingiz kerak, chunki asosiy qoida bunday bo‘ladi: bir maqola bitta fikr; agar maqolada uchta fikr bo‘lsa, unda uchchalasi yo‘qoladi”.

Annotatsiya qismidanoq (referatda) o‘quvchini maqolani o‘qishi kerakligiga ishontirish kerak. Xulosani shunday bayon qilish kerakki, u darhol ularni o‘zlashtirib, ularning yuqori amaliy (bilim) qimmatini qadrlashi kerak.

Har bir bo‘lim yoki paragraf shunday qurilishi kerakki, o‘qishning boshlanishi asosiy ma’lumotlarni berishi lozim. Eksperimentga (daliliy ma’lumotlarga) alohida ye’tibor bering. Nazariy natijalar eksperimental ma’lumotlar bilan tasdiqlangan bo‘lsa, ayniqsa ishonchli.

Maqolaning oxirgi qismi - barcha ishlarning aralashmasi. U ikkita kichik bo‘limdan iborat (ular maxsus sarlavhalar bilan ajralib turmaydi). Birinchi kichik bo‘lim – bu tasdiqlovchi - maqolaning tuzilish qismini yakunlashga xizmat qiladi. Unda siz belgilangan vazifalar hal etilganligini va ishning maqsadiga erishilganligini ko‘rsatasiz.

Bu yerda siz muvaffaqiyatni ta’minlaydigan va yangi natijalarga erishishga imkon beradigan o‘z tadqiqotingizning qo‘yilishi, metodikasi yoki texnologiyasining o‘ziga xosligini ta’kidlaysiz. Ikkinchi kichik bo‘lim – natijaviy - analitik. Unda siz ish natijalarini, ularning ilmiy va amaliy ahamiyatini aytib o‘tasiz va sharhlaysiz. Maqolaning avvalgi bo‘limlaridan olingan alohida iboralar so‘zma-so‘z takrorlanishi mumkin.

Nihoyat, agar iloji bo‘lsa (buni har doim ham imkoni bo‘lmaydi), ilmiy mazmunni yoki olingan natijalardan kelib chiqadigan mazmunni shakllantirishga harakat qiling. Ilmiy mazmun - ma’lum bir hodisa yoki qonuniyatning mohiyatini (mexanizmini, jarayonini, tabiatini) ijobiy ochib beruvchi batafsil ibora.

Agar siz o‘z natijalaringizni umumlashtirish darajasiga ko‘tarilmasangiz va daraxtlar ortida o‘rmonni ko‘rmasangiz,- ilmiy mazmun sizning o‘rningizga boshqa birov tomonidan shakllantiriladi. Bu siz muallif bo‘lмаган boshqa maqola bo‘ladi.

Matn ustida ishslashning **yakuniy bosqichi** barcha qo‘shimcha so‘zlarni,

takrorlashni, uzun gaplarni soddalashtirishni, tinish belgilarini qo‘yishni, "ortiqcha so‘zlarni" olib tashlashdan iborat. M. Gorkiy adabiy asarning ushbu bosqichini "burgalarni tutish"deb atadi.

Ilmiy konferensiya nima?

Atamalar bilan aytganda, **ilmiy konferensiya** tadqiqotchilar o‘zlarining yangi ishlarini muhokama qilish maqsadida namoyish yetadigan, tushuntiradigan va e’lon qilgan ilmiy faoliyatni tashkil yetishning yeng keng tarqalgan shakllaridan biridir.

Agar osonroq qilib aytadigan bo‘lsak, ilmiy konferensiya kongress va seminar o‘rtasidagi bir narsadir. Bunday tadbirlar universitetlarda o‘tkaziladi, ko‘pincha magistr yoki aspirant o‘quv rejasining muhim tarkibiy qismiga aylanadi.

Kelajak hayotini va karyerasini ilm-fan bilan bog’lashni istaganlar uchun bu nafaqat o‘zlarini e’lon qilish, balki foydali tanishlar orttirish, ularni o‘z analitik fikrlash va ilm-fanga bo‘lgan intilishlari bilan ajablantirishning noyob imkoniyatidir. Umuman olganda, bitta muvaffaqiyatli va istiqbolli kashfiyot - va siz diqqat markazida bo‘lasiz!

Qanday ma’ruzalar haqida gapirayapmiz?

Ilmiy konferensiyada e’lon qilingan ishlar orasidan bir necha kunlar davomida tayyorlangan o‘qituvchilarning ishlari; nafaqat ko‘rgazmali, balki yozma ravishda taqdim etilgan aspirantlarning kashfiyotlari; shuningdek, muhokamalar uchun oldindan tayyorlangan mavzular qatnashadi.

Tayyorgarlik ko‘rmagan odamning atamalar va ta’riflarga moslashishi juda qiyin bo‘ladi, ya’ni ilmiy suhbat juda tez orada "yo‘q" bo‘ladi.

Buning oldini olish uchun suhbat mavzusi va do‘stona muhitda davom yetadigan mavzu oldindan tayyorlanishi va ye’lon qilingan doklad mavzularini diqqat bilan o‘qib chiqishi kerak.

Bu muhokama qilinayotgan masala bo‘yicha o‘z kompetentligiini his qilish imkonini beradi va umuman bo‘sh vaqtinigizni yoqimli va foydali sarflaysiz.

Aytgancha, aspirantlar bunday tadbirlarda ishtirot yetishlari shart, chunki ularning dissertatsiyasi ham jamoatchilik muhokamasiga va yuqori darajali munozaralarga

uchraydi.

Tashkiliy tadbirlar va ilmiy konferensiya tuzilmasi

Agar ilmiy konferentsiya haqida batafsilroq gapiradigan bo‘lsak, bu oldindan rejalarshirilgan va yuqori darajada tashkil etilgan madaniy tadbirdir. Hech qanday hodisalar yuzaga kelmasligi uchun, ushbu tadbirni o‘tkazish bosqichma-bosqich amalga oshirilayotganini bilish muhimdir.

Birinchidan, ilmiy anjumanga tashrif buyurishni istagan har bir ishtirokchi oldindan ro‘yxatdan o‘tishlari kerak. Bundan tashqari, ro‘yxatga olish paytida unga tartib uchun tadbirdagi navbatni raqami, ya’ni gapirish uchun dastur beriladi.

Ikkinchidan, har qanday konferensiya tashkilotchilar, homiy larning chiqishlari bilan boshlanadi. Umuman olganda, bu bosqichda faqat bir oz zerikish va ko‘zlar bilan o‘ynash, an’anaviy qiziqarli va g’ayratli ko‘rinish hosil qilish mumkin.

Uchinchidan, taklif yetilganlarning hammasi stollarga taqsimlanadi. Bu "bo‘limlar" deb ataladi, unda o‘xhash fikrlovchi va qiziqishlari bo‘yicha ittifoqchilar yig‘iladi. Odatda, bir yoki ikkita kishi doklad bilan chiqishadi, qolganlari yesa o‘zlashtiradi va muhokamada bevosa ishtirok etadi.

To‘rtinchidan, og‘zaki munozaralar va ilmiy muhokamadan so‘ng, kayfiyatni o‘zgartirishingiz, yangi tanishlar orttirishingiz va o‘zingizni yoqimli va yaxshi o‘qigan suhbattosh sifatida namoyish qilishingiz mumkin.

Beshinchidan, konferensianing boshqa shahardan kelgan ishtirokchilariga madaniy dastur taklif yetiladi. Va oxirgi qadam ilmiy ishlar to‘plamini nashr etishdir, lekin ba’zan bu nashr delegatlarni ro‘yxatga olish vaqtida qo‘llariga berilishi mumkin.

Umuman olganda, ortiqcha narsa yo‘q, yeng muhimi, hamma narsa cheklangan, rasmiy va juda ilmiy. Bunday madaniy tadbirda shunchaki oddiy odam uchun qiziq emas va u oq qarg‘a kabi ko‘rinadi.

Shuning uchun, hatto o‘yin-kulgi uchun ham, noqulay vaziyatga tushmaslik uchun, hech bo‘lma ganda nima sodir bo‘lishidan yuzaki ravishda xabardor bo‘lish tavsiya etiladi.

Ilmiy konferensiyalarning turlari

Ilmiy konferensiya - bu aniq tasnifga ega bo‘lgan mavzuli tadbir.

Bu quyidagilar:

- * Ilmiy-amaliy konferensiya;
- * Ilmiy-nazariy konferensiya;
- * Ilmiy-texnik konferensiya.

Ilmiy-amaliy konferensiyada ma’ruzachilar o‘z ishlarini o‘qib, uni hisob-kitoblar, teoremlar, aksiyomalar, ko‘plab formulalar, jadvallar, grafikalar va chizmalar bilan asoslashadi.

Ilmiy-nazariy konferensiyaga tadqiqotning nazariy qismi olib chiqiladi.

Ilmiy-texnik konferensiya ko‘rish mumkin bo‘lgan yangi kashfiyotlar, noyob yutuqlar va yeng kutilmagan yangiliklardan iborat.

O‘qituvchilar va mustaqil izlanuvchilar barcha konferensiyalarda ishtirok yetishlari, o‘zlarining har tomonlama bilimlarini namoyish etishlari kerak.

Talabalar va ilmiy konferensiya

Bugungi kunga kelib, ko‘plab talabalar o‘zlarining keyingi hayotini ilm-fan bilan bog’lashiga aniq ishonch hosil qilishdi.

Doktoranturaga zamin yaratish uchun ular, odatda, uchinchi bosqichdan boshlab o‘qituvchilarga muayyan fan bo‘yicha qiziqishlarini namoyon qilishadi.

Yuqori bosqichlarda ular doktorant bo‘lish istagini bildiradilar va o‘qituvchining tavsiyasiga ko‘ra ular ilmiy konferensiyalarda faol ishtirok yetishni boshlaydilar, keyinchalik ular bevosa qatnashadilar.

Bu nafaqat boshqalarning ishini tahlil qilish va "xatolar ustida ishslash" ni amalga oshirish, balki ilmiy xodimlar bilan to‘g’ri muloqot qilishni o‘rganish, dokladingizni to‘g’ri yetkazish va ichki xotirjamlik uchun noyob imkoniyatdir.

Asosiy savol tug’iladi, talaba ilmiy konferensiyaga qanday tayyorgarlik ko‘rish kerak? Bu yerda asosiy narsa shoshqaloqlik qilish emas, balki aniq belgilangan rejaga amal qilishdir.

Ilmiy konferensiyaga qanday tayyorgarlik ko‘rish kerak?

Kutubxona va Internet sizga yordam beradi. Haqiqatan ham, dokladni tayyorlash yaxshi, lekin uni to‘g’ri yetkazib berish va taqdim etish butunlay boshqa. Ma’ruzachi o‘z tadqiqot usulini iloji boricha tushunarli tilda tushuntirishi kerak, chunki ilm-fan bilan mutlaqo tanish bo‘lмаган kishi kamida o‘n foiz nimani anglatishini tushunishi kerak.

Ishingizni rasmiylashtirish bo‘yicha hech qanday muammo bo‘lmasligi kerak: agar siz universitetda o‘qigan bo‘lsangiz, barcha talablar va qoidalar bilan yaxshi tanishsiz. Qiyinchiliklar nutqning oxirida, munozaralarga gal kelganda boshlanadi.

Hamma sizning ishingizdan zavqlanadi deb o‘ylamang, chunki ishtirokchilarning aksariyati tanqidiy va shubha bilan qarashadi, shuning uchun qo‘srimcha savollar va shubhalarning oldini olish mumkin yemas.

Ma’ruzachining vazifasi - o‘z ishini munosib himoya qilish, ayni paytda barcha ishtirokchilarda eng ijobiy taassurot qoldirish va yeshitilgan mavzu bo‘yicha hech qanday savol bo‘lmasligi.

Buni amalga oshirish oson emas, chunki ilmiy konferensiyada tasdiqlangan dalillar, aksiomalar va buzilmaydigan qonunlar bilan ishlashga odatlangan insonlar yig’iladi.

Shu sababli, ushbu muhim tadbir arafasida turli mualliflarning ishi haqida fikrlarni o‘rganish bilan birga, ko‘plab ma’lumotnomalarini to‘plash talab yetiladi.

Bundan tashqari, Internet sahifalarini "varraqlab chiqish" va mavzu bo‘yicha barcha yangiliklarni va so‘nggi kashfiyotlarni aniqlab olish hamda kutubxonada mavjud bo‘lмаган nashrlarni yuklab olish zarar qilmaydi.

Tayyorgarlik to‘liq bo‘lishi kerak, shundagina g’alaba butunlay yangi bilim darajasiga ko‘tarilish va qisman o‘zini to‘liq ilmiy xodim deb hisoblashga inkoniyat yaratadi.

Mavzu yuzasidan mashq va topshiriqlar

1-topshiriq.

Dunyoning yetti mo‘jizasi haqida



Odamlar qadimda o‘zlari dunyoning yetti mo‘jizasi deya nom bergan inshootlarning qachonlardir yo‘q bo‘lib ketishiga ishonishi, albatta, qiyin bo‘lgan. Aslida esa ularning barisi, faqat bittasini istisno qilganda, bu dunyodan ko‘chishini ko‘targaniga ancha bo‘ldi!

Bizning zamonomzga qadar etib kelgan mo‘jizalardan yagonasi va ular orasida oldin tilga olinadigani Misrdagi **Xeops ehromidir**. Bundan qariyb 5000 yil muqaddam qurilgan bu inshoot fir’avn va uning zavjasini dafn yetilgan joy salanadi.

Hozirgi Iroq o‘rnida bo‘lgan **Bobil devorlari** dunyoning ikinchi mo‘jizasi hisoblanadi . Ularni miloddan qarib 600 yil avval mashhur podsho Navuxodonsorning hukmiga binoan bunoan bunyod yetilgan . balandligi 100 m bo‘lgan, g‘ishtdan terilgan ushbu devorlar hozirda vayronalar uyimiga aylanib qolgan.

Yunon haykaltaroshi Fidiy tomonidan Olimpiya (Yunoniston) shahrida yaratilgan **Zebs haykali** dunyoning uchinchi Mo‘jizasi deb e’tirof etilgan . U oltin libosga burkangan 12 metr balandlikka ega bo‘lib, Zebsning tanasi fil suyagidan tarashlangan, ko‘zlar esa qimmatbaho toshlardan tarkib topgan edi .

Haykal bizga qadar yetib kelmagan.

Hozirgi Turkiya hududiga joylashgan Yefesdagi iloha **Diana ibodatxonasi**-to‘rtinchi mo‘jiza. Qoyatoshlardan ishlangan 18 metrli ustunlar tommi suyab turar, butxona ichida esa yunon musavvirlarning eng a’lo asarlari joylashtirilgan yedi. Millordan avvalgi 262-yilda bostirib kelgan gotlar unga o‘t qo‘yishgan.

Hozirgi Turkiya hududiga Galikarnas shahrida miloddan avvalgi 353-yilda vafot etgan **podshoh Mavzolning xilxonasi** dunyoning beshinchi mo‘jizasi bo‘lib qoldi. Inshoot shu qadar dabdabali bo‘lgan va hashamatiga yarasha qimmatga tushgan ediki , biz bugun dabdabali bezatilgan xilxonalarni mavzoley deb ataymiz.


Quyosh ilohi **Geliosning bronzadan ishlangan Kollos Roddoskiy** degan haykali dunyoning oltinchi mo‘jizasi edi. Bo‘yi 32 m. bo‘lgan bu haykal Rodoss orolida o‘rnatilgan. Miloddan avvalgi 224-yilda zilzila uni buzub yuborgandi.

Forosdagi mayoq dunyoning yettinchi mo‘jizasi sanaladi. Uning qurilishi taxminan miloddan avvalgi 283-yilda Misr sohillaridan uzoq bo‘lmagan Foros orolida boshlanadi. Mayoq deyarli 180 metr balandlikda bo‘lgan, tepasida esa kemalarga bandargoh yo‘lini ko‘rsatib turuvchi mash’ala lang‘illab turgan deb hisoblanadi. Mayoq shu’lasi, u zilzila oqibatida vayron bo‘lguniga qadar, 1500 yildan ortiq xizmat qilgan.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1. *Matnni o‘qing. Matnga reja tuzing.*
2. *Reja asosida matn mazmunini qisqartirib so‘zlab bering.*
3. *Matndan tayanch so‘zlarni aniqlab, ko‘chirib yozing.*
4. *Ushbu mavzu yuzasidan doklad tayyorlang .*

2-topshiriq. Ilmiy uslub janrlari bo‘yicha klaster tuzing.



3-topshiriq. Matnga tinish belgilarini qo‘ying.

O‘rta Osiyoda axloqiy tarbiya o‘z an’analariga ega bu boradagi fikrlar qadimgi turkiy yodnomalar buyuk allomalarining asarlari va boshqa yozma yodgorliklar orqali bizgacha yetib kelgan inson odobi eng avvalo uning nutqida namoyon bo‘ladi.

Zero nutq odobi insonning ahloqini belgilovchi mezondir ahloq fan sifatida o‘rta asrlarda yuzaga keldi nutq odobi haqidagi fan ritorika esa eramizdan avvalgi asrlarda rivojlangan bunga misol qilib Ciceronning “Ritorika haqida” asarini keltirishimiz mumkin.

4-topshiriq.

Axborot texnologiyalari va ularning turlari



Texnologiya so‘zi grekchadan tarjima qilinganda san’at, ustalik, malaka ma’nosini anglatadi. Texnikada texnologiya deganda ma’lum kerakli material mahsulotni hosil qilish uchun usullar, metodlar va vositalar yig’indisidan foydalanadigan jarayon tushuniladi. Texnologiya obyektining dastlabki, boshlang‘ich holatini o‘zgartirib, yangi, oldindan belgilangan talabga javob beradigan holatga keltiradi. Misol uchun sutdan turli texnologiyalar orqali qatiq, tvorog, smetana, yog‘ va boshqa sut mahsulotlarini olish mumkin. Agar boshlang‘ich xom ashyo sifatida axborot olinsa, ushbu axborotga ishlov berish natijasida axborot mahsulotinigina olish mumkin. Ushbu holda ham "texnologiya" tushunchasining ma’nosni saqlanib qolinadi. Faqat unga "axborot" so‘zini qo‘sish mumkin. Bu narsa axborotni qayta ishslash natijasida moddiy mahsulotni emas, balki axborotnigina olish mumkinligini aniqlab turadi.

Texnologiyani quyidagicha ta’riflash mumkin.

Texnologiya - bu sun’iy obyektlarni yaratishga yo‘naltirilgan jarayonlarni boshqarishdir. Kerakli jarayonlarni kerakli yo‘nalishda borishini ta’minalash uchun yaratilgan shart-sharoitlar qanchalik yaxshi tashkil etilganligi texnologiyaning samaradorligini bildiradi. Bu yerda tabiiy jarayonlar nafaqat moddaning tarkibi, tuzilishi va shaklini o‘zgartirish maqsadida, balki axborotni qayta ishslash va yangi axborot hosil qilish maqsadida ham boshqariladi. Shuning uchun axborot texnologiyasini quyidagicha ta’riflash mumkin.

Axborot texnologiyasi - bu axboriy ma’lumotni bir ko‘rinishdan ikkinchi, sifat jihatidan yangi ko‘rinishga keltirish, axborotni yig’ish, qayta ishslash va uzatishning usul va vositalari majmuasidan foydalanish jarayonidir.

Moddiy ishlab chiqarish texnologiyasining maqsadi insonning talabini qondiradigan yangi mahsulot ishlab chiqarishdan iborat. Axborot texnologiyasining maqsadi esa insonning biror-bir ishni bajarishi uchun zarur bo‘lgan, uni tahlil etish va u asosida qaror qabul qilishi kerak bo‘lgan yangi axborotni ishlab chiqarishdan iborat. Turli texnologiyalarni qo‘llab, bitta moddiy resurslardan turli mahsulotlar olish mumkin. Xuddi shu narsani axborot texnologiyalariga nisbatan ham aytish mumkin. Misol: matematikadan nazorat

ishini bajarganda har bir o‘quvchi boshlang‘ich axborotni qayta ishlash uchun o‘zining bilimini qo‘llaydi. Masalaning yechimi bo‘lgan yangi axborot mahsuloti, o‘quvchi tanlay olgan masalani yechish texnologiyasi, usuliga bog’liq.

Moddiy ishlab chiqarishda turli maxsus jihozlar, stanoklar, uskunalar va boshqalar ishlatiladi. Axborot texnologiyalari uchun ham o‘zining "uskunalari", vositalari mavjud. Bular kseroks, telefaks, faks, skaner va boshka vositalardir. Bu vositalar orkali axborotga ishlov berilib, o‘zgartiriladi. Hozirgi paytda axborotga ishlov berish uchun kompyuterlar va kompyuter tarmoqlari keng qo‘llanilmoqda. Axborot texnologiyasida kompyuterlar va kompyuter tarmoqlarining qo‘llanishiga urg‘u berish maqsadida ko‘pincha kompyuter va kommunikatsion texnologiya haqida gapirishadi.

Axborot texnologiyasi o‘zi uchun asosiy muhit bo‘lgan axborot tizimlari bilan bevosita bog’liqdir. Chunki axborot texnologiyasi axborot tizimlarida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar ustida bajariladigan turli xil murakkablikdagi operatsiyalar, amallar va algoritmlarni bajarishdan iborat bo‘lgan tartiblashtirilgan jarayondir.

Axborot texnologiyasining vujudga kelishi va rivojlanishini belgilovchi ichki va tashqi omillar mavjud.

Ichki omillar – bu axborotning paydo bo‘lishi (yaratilishi), turlari, xossalari, axborotlar bilan turli amallarni bajarish, ularni jamlash, uzatish, saqlash va h.k.

Tashqi omillar - bu axborot texnologiyasining texnik – uskunaviy vositalar orqali axborotlar bilan turli vazifalarni amalgam oshirishni bildiradi.

Axborot texnologiyasining mazmunini quyidagi oddiy bir misol bilan tushuntirishga harakat qilamiz. Siz biror ma’lumot haqida boshqa bir viloyat, (respublika, qit’a)da yashovchi o‘rtog‘ingiz bilan fakir almashmoqchisiz. Buni turli yo‘llar orqali yetkazishingiz mumkin:

- 1) aloqa bo‘limi orqali (yozma);
- 2) telefon tarmoqlari orqali (og’zaki);
- 3) zamonaviy telekommunikatsiya vositalari orqali.

O‘zingiz uchun iqtisodiy jihatdan eng arzon va sifati yuqori bo‘lgan usulni belgilab olasiz.


Matn yuzasidan topshiriqlar:

1. Matnni o‘qing. Matn yuzasidan savollar tuzing.
2. Matnga reja tuzing.
3. Reja asosida matn mazmunini qisqartirib so‘zlab bering.
4. Matndan tayanch so‘zlarni aniqlab, ko‘chirib yozing.

5-topshiriq. Muqobil variantni toping. Jadvaldagи terminlarni ikkinchi ustunda berilgan izohlari bilan juftlang.

Termin	Izoh
1. Tarmoq	Raqamli ma’lumotlarni qattiq tashuvchiga (qog‘ozga) chop etish qurilmasi
2. Printer	Tugun va ularni birlashtiruvchi shoxchalar chizmasi
3. Protsessor	Internetdan foydalanish va ofis dasturlari bilan ishlash uchun mo‘ljallangan kichik noutbuk
4. Netbuk	Kompyutering buyruqlarini tahlil qiluvchi va bajaruvchi funksional qurilma
5. Multimedia	Dastur yaratish jarayoni
6. Bayt	Axborotni turli shakldagi tashuvchilar bo‘lmish tovush, tasvir va matnlar birlashmasi
7. Dasturlash	Kompyuter tarmog‘i yoki mobil aloqa tarmog‘i yordamida voqeiy vaqtdagi muloqot
8. Chat	Sakkiz bitga teng bo‘lgan axborot miqdorining asosiy o‘lchov birligi

19-20-mavzu. Loyiha. Loyiha tavsifi



Nazariy ma'lumot

Loyiha

Loyiha noyob mahsulotni yaratishga qaratilgan va bir martalik, takrorlanmaydigan xarakterga ega bo‘lgan shaxsning ma'lum bir ongli faoliyati (kelishilgan harakatlar to‘plami). Loyiha tushunchasi asosiy resurslar (vaqt, moliyaviy, mehnat, moddiy) cheklanganligi sharoitida muayyan vaqt uchun aniq maqsadga erishishni o‘z ichiga oladi.

- **loyihaning boshlanishi aniq muddatga ega;**
- **tugallanishi sana yoki yakuniy natija bo‘yicha belgilanadi;**
- **aniq belgilangan maqsadga ega bo‘lish;**
- **tayyor mahsulotning o‘ziga xosligi;**
- **asosiy manbalarda cheklov;**
- **bir martalik.**

Loyihaning fan sohasi - loyihaning mohiyati : loyihaning maqsadi, vazifalari, ularga erishish uchun zarur bo‘lgan ishlar va resurslar hajmi.

- *Loyihaning maqsadi* - belgilangan vaqt oraliq‘ida erishilgan faoliyatning istalgan natijasi.
- *Loyiha strategiyasi* - tayyorlash va loyihani baholash, shuningdek tegishli marketing strategiyasini qurish markaziy bo‘g‘ini. Loyiha strategiyasi - loyihani rejalashtirish davrini ifodalovchi vaqt davomida zarur resurslarni taqsimlash imkonini beradigan maqsad va tamoyillar majmui.

Loyiha xususiyatlari / belgilari

- **Yangilik** - bu shaklda ilgari vazifa shakllantirilmagan.
- **Bir martalik** — bunday vazifani yaqin kelajakda hal qilish ko‘zda tutilmagan.

- **Vaqtni cheklash** — loyihaning maqsadiga muayyan vaqtda erishish kerak.
- **Interintizomlilik** - vazifalarni bajarish uchun bir sohadagi mutaxassis yetarli emas.
- **Murakkab rejalashtirish va rahbarlik** — ilgari bunday shartlar bilan vazifa taqdim etilmaganining natijasi.
- **Xavflarning ko‘pligi** - xatarlar va xususiyatlar soni loyihaning hajmiga va to‘liqligiga bog’liq.

Tadqiqot loyihasi namunasi

Tadqiqot loyihasi

1-shakl

1.1. Loyihaning nomi: “Harbiy atamalarning o‘zbekcha-ruscha-inglizcha izohli lug‘ati”ni tayyorlash va chop etish.

1.2. Tanlov turi: amaliy, ilmiy-texnik

1.3. Dastur nomi: ITD -1 Jamiyatni ma’naviy –axloqiy va madaniy rivojlanishi, ma’naviy qadriyatlar, milliy g‘oya, madaniy meros, o‘zbek xalqi va davlatchilik tarixini hamda ta’limning uzviylik va uzlusizligini, barkamol avlod tarbiyasini tadqiq etish.

1.4. Ilm-fan sohasi: Demokratik va huquqiy jamiyatni ahloqiy-ma’naviy, madaniy-ahloqiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodni shakllantirish.

1.5. Annotatsiya: O‘z Qurolli Kuchlarini qurayotgan va uning kuch-qudratini oshirishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan har qaysi davlat harbiy tuzilmalarini eng zamonaviy, mutlavo yangi tamoyillar asosida yaratilgan texnika va harbiy uskunalar, qurol-yarog’ bilan ta’minlashi darkor.

Ammo bunday vazifani hisobga olgan holda Qurolli Kuchlarimizning harbiy mahoratini oshirish, har qanday vaziyatda ham har qanday mashaqqatlari sinovdan sharaf bilan chiqish, avvalo, bugun xizmat qilayotgan harbiylardan nafaqat jismoniy tayyorgarlikni, balki yuksak aql-idrok, intellektual salohiyat, alohida ruhiy-ma’naviy xususiyat va fazilatlarga ega bo‘lishni, eng zamonaviy qurol-yarog’larning sir-asrorini, harbiy aloqa qurilmalarini puxta egallashni taqozo

etadi. Bularning barchasi bugun nafaqat dolzarb vazifa, balki davlatimiz va jamiyatimizning, mamlakatimiz taqdiri va kelajagi uchun befarq bo‘lmagan har bir insonning muqaddas burchidir. Ayni paytda davlatimizda harbiy xizmatchilarning kasbiy malakasini oshirishga, harbiy bilim yurtlari va serjantlar tayyorlash maktablaridagi o‘quv-tarbiya ishlarini tubdan yaxshilashga, ularni zamonaviy texnika va jihozlar, o‘quv qo‘llanmalari va ta’lim texnologiyalari bilan ta’minlashga bиринчи darajali e’tibor qaratilishi, kursantlar bilim yurtlari va serjantlar tayyorlash maktablari bitiruvchilarining intellektual tayyorgarlik darajasiga alohida ahamiyat berilishi davr talabiga aylandi.

Shu talablar asosida harbiy bilim yurtlarida mutaxassislikka doir zarur o‘quv qo‘llanmalar, darsliklar, lug’atlar yaratilmoqda, ammo harbiy atamalarning o‘zbek, rus, ingliz tillaridagi qiyosiy muqobillarining jamlanmasi va izohlari keltirilgan adabiyotlar yaratilmaganligi soha vakillarining o‘qish va ish jarayonida bir muncha qiyinchilik tug‘diradi. Shuning uchun ingliz, rus va o‘zbek tillarida harbiy atamalarning lug‘atini tayyorlanishi va nashr qilinishi bu muammoning hal etilishiga katta hissa qo‘sishi tabiiy. Bunday lug‘at hozirgacha deyarli to‘liq yaratilmagan.

Ushbu lug‘at harbiy murojaat so‘zлари, vatanparvarlik, harbiy taktika, harbiy unvonlar, harbiy aloqa texnikasi ishlab chiqarish, fan va texnika sohasida muntazam ishlataladigan atamalar, so‘z va so‘z birikmalarining tarjimasini o‘z ichiga olgan bo‘lib, harbiy soha mutaxassislarining qo‘llanmasiga aylanadi.

1.6. Loyihada ishtirok etuvchilar soni: 5 ta

1.7. Loyihani bajarish muddati: 2015-2017 yillar

1.8. Loyihani bajarish uchun bиринчи yilda sarflanadigan umumiy moliyaviy mablag‘ hajmi: 75 000 000.

1.9. Loyerha bajarish uchun sarflanadigan umumiy moliyaviy mablag‘ hajmi: 225 000 000.

Mavzu yuzasidan mashq va topshiriqlar

1-topshiriq.

Masofaviy ta’lim va uning kelajagi



Rivojlangan davlatlar amaliyotida masofaviy ta’lim (MT) turli xil modellar, metodlar va texnologiyalarni o‘z ichiga olib, unda pedagog va o‘quvchi ma’lum masofa bilan chegaralangan bo‘lib, turli joylarda (hududlar; shaharlar va hattoki mamlakatlar) orasida olib boriladi. Bu holda talaba va pedagog orasidagi o‘zaro aloqa turli xil vositalar yordamida amalga oshiriladi.

- odatdagi pochta va aloqa yordamida uzatiladigan pechatli va yozma materiallar;
- telefon tarmoqlari;
- audio va video yozmalar, o‘quv radiosи va televideniyesi;
- interaktiv dasturli o‘qitish vositalari;
- kompyuterli o‘rgatuvchi dasturlar;
- lokal va global kompyuter tarmoqlari;

Tabiiyki, u yoki bu o‘zaro aloqaning o‘ziga xos xususiyatlari pedagog bilan tinglovchi orasidagi mavjud holatlar o‘qitish metodikasi va taktikasi hamda strategiyasi bilan ajralib turadi.

Hozirgi vaqtida MT ning pedagogik va tashkiliy asoslari telekommunikatsion servislar: elektron pochta, mavzuga bog‘liq jo‘natmalar, elektron jurnallar, USENT konferensiyalar, ICQ, veb—konferensiyalar, e’lon doskalari va boshqalar. Hozirgi paytda turli xil servislar orasida MT ning eng samaralisi bo‘lib, elektron pochta hisoblanadi.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1. Matnni o‘qing, kalit so‘zlarni yozib oling.
2. Kalit so‘zlar ishtirokida murakkab klaster tuzing

2- topshiriq. “T-sxema”si bo‘yicha masofaviy ta’limning ijobjiy va salbiy tomonlarini yozing

Ijobiy tomonlar	Salbiy tomonlar

3- topshiriq. Matnni uning asosiy mazmunini saqlagan holda qisqartiring. Matnni qisqartishda qanday usullarni qo‘llaganingizni sharhlang.

Har qanday qilmishning aksi, qaytarma oqibati mavjud: shunday ekan, faqat o‘z prinsipimni himoya qilaman deb, bir kun borib ko‘pchilikni dog’da qoldirmaylik tag‘in?! Axir mavjud nazariyalar qolipiga tushmaydigan faktlar, fan uchun qimmatli emasmi? Chunki shu noma’lum faktlarni ishlab chiqish bilan yaqin oralarda fanning yangi yo‘nalishlariga yo‘l olib berish mumkinku? Fan tarixida bunday misollar to‘lib-toshib yotibdi. Faktni tan olmaslik, aslida hazm qilinmagan nazariyaning oqibati-ku!.. Men nasihatgo‘ylik qilishni o‘ylamagandim, ammo o‘rni kelib qoldi. Koinot azaldan insonni zulmat bilan o‘ragan. Fan esa – odamzot qo‘lidagi mangu mash’ala! Zero, fan – cheksizlikni o‘rganar ekan, ayni paytda, o‘zining ham had-chegarasi yo‘q. Inson bilimi tugamaydi, u abadiy yaratiladi, abadiy harakatda... Modomiki shunday ekan, men ochgan kashfiyot uslubiga boshqa bir uslub qarama-qarshi chiqib qolsa, nima uchun endi men unga, albatta, tosh otishim kerak? Nima uchun?! Yo‘q, aqlimiz bo‘lsa, istiqbolimizga chinakam qayg‘ursak, orzuni bo‘g‘maylik. Orzu har qanday faktdan ham qudratl! Orzu bamisoli hayot ko‘ksidagi mildirab turgan buloq, gurkirab o‘suvchi nihol...

4- topshiriq.

Kompyuter lingvistikasi



“Kompyuter lingvistikasi” fani tabiiy tillarning matematik modellarini qurish, lingvistik muammolarni hal qiluvchi kompyuter dasturlarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan. “Kompyuter lingvistikasi” fani oldida turgan asosiy masalalar esa umumiy tilshunoslikning formal va aksiomatik modellarni qurish va konkret tillarning matematik modellarini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Bu modellar asosida matnlarni tahrirlash, kompyuter tarjimasi, kompyuter lug‘atlari, ona tili va chet tillarga o‘rgatish hamda bilimlarni baholash bo‘yicha kompyuter dasturlarini yaratish mumkin bo‘ladi.

Til qoidalaring matematik modeli matematik mantiqning formal va aksiomatik nazariyalari asosida quriladi. Shuning uchun bu fan matematik mantiq asoslарini bayon qilish bilan boshlanadi. Bu yerda mulohazalarni hisob-kitob qilishning usullari hamda ularning formal va aksiomatik nazariyalari bayon qilinadi. Keyin o‘zbek tilining formal va aksiomatik modellari beriladi hamda lingvistik masalalarning matematik algoritmlari va kompyuter dasturlari keltiriladi.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1. Matnni o‘qing. Reja asosida matn mazmunini qisqartirib so‘zlab bering.
2. Matn ma’lumotlarini asosiy va ikkinchi darajali qismlarga bo‘ling.

Asosiy axborot

Ikkinchi darajali axborot

5- topshiriq. Quyidagi mavzular bo‘yicha loyiha rejasini tuzing.

- «Elektron hukumat»
- «Kelajakdagи universitet»
- «Ekologiya va inson»



Nazorat savollari

1. Doklad – bu
2. Doklad tuzilishini tavsiflab bering.
3. Dokladning asosiy qismiga nimalar kiradi?
4. Ilmiy konferensiya nima?
5. Ilmiy konferensiya turlari.

21- 22-mavzu. Tezislar. Tezis turlari. Tezislar yozish uslubi




Nazariy ma'lumot

Tezis – (yunoncha “thesis”) qoida, isbot degan ma’noni anglatadi. 1) keng ma’noda – bahsda yoki biror nazariyani bayon qilishda aytilgan har qanday fikr; 2) tor ma’noda – asosiy fikr, prinsip; 3) mantiqda isbot qilishni talab etuvchi fikr, mulohaza; 4) ma’ruza, ma'lumot, xabarning asosiy mazmunini qisqacha aks ettirish.

Tezis yozishda manbaning asosiy qoidalari yoki eng muhim fikrlari ajratib olinadi. Tezis, odatda, ilmiy maqolalar, ma’ruzalarning qisqacha, siqiq mazmunidir. U yozilishi jihatidan tezisli konspekt bilan mos keladi. Tezisda muallif maqoladagi fikrlarni aynan keltirish bilan birga, ko‘pincha o‘z munosabatini ham bildiradi. Tezisning hajmi eng ko‘p deganda 1-4 varaqdan oshmaydi. Lekin bu qat’iy chegara emas. Ba’zi ilmiy-tadqiqot masalalariga bag‘ishlangan ma’ruzalarning tezisi kattaroq hajmda ham bo‘lishi mumkin.

Tezislар qisqa shakllantirilgan asosiy qoidalar, muallif yoki ma'ruzachi o'z ishida yoki nutqida rivojlantirishi, isbotlashi, himoya qilishi yoki rad etishi mumkin bo'lgan fikrlaridir.

Tezislар oddiy, asosiy va murakkab bo'ladi.



Asosiy - bu muhim, asosiy qoidalar, manba mazmunini umumlashtiruvchi, ba'zan xulosa xarakteriga ega bo'ladi. Iqtiboslardan tuzilishi mumkin, oddiy tezislardan farqli o'laroq, ko'pincha mustaqil ravishda shakllantiriladi.

Sodda - bu asosiy fikrlar, ba'zan konspekt, referatning ajralmas qismi hisoblanadi. Sodda tezislар har qanday asarda, uning biron bir qismida juda ko'p bo'ladi, asosiylarini esa bir nechta sanash mumkin, bundan tashqari, asarning har bir qismidan ham ularni ajratib olish mumkin emas. Oddiy tezislarni asarning barcha qismlaridan, uning umumiyo yo'nalishidan qat'iy nazar, hatto u bilan dastlabki tanishishda ham ajratish mumkin. Aksincha, asosiy tezislarni butun asar bilan tanishishdan keyin muvaffaqiyatli tuzish mumkin. Har bir asosiy tezisga bir nechta (ba'zan juda ko'p) asosiy tezisni ochuvchi va tushuntiruvchi oddiy tezislар tuzish mumkin.

Murakkab - ikki turdag'i tezisni (sodda va asosiy) o'z ichiga olgan yozuv. Murakkab rejada asosiy punktlardan keyin kichik punktlar kelgani kabi, murakkab tezislarda asosiy tezislardan keyin mazmunini ochib beruvchi, tushuntirib beruvchi oddiy tezislар keladi.

Tezisni qanday tuzish kerak

O‘qishdan keyin qayta o‘qish kerak. Shu bilan birga, matnni (reja yordamida yoki pastki chiziq yordamida) bir qator qismlarga bo‘linadi.

Keyinchalik, tanlangan matnning har bir qismida uning dastlabki qismlarga bo‘linganini aniqlagan narsa topiladi; kitobning matnida bu asosiy narsani yozib qo‘yiladi yoki belgilanadi.

Keyin tanlangan narsalarni yaxshi o‘ylab, uning mohiyatini tushunib, alohida holatlarni shakllantiradi. Bu tezislar bo‘ladi. Ularni yozib olish mumkin.

To‘g‘ri tuzilgan tezislar bir-biridan kelib chiqadi. Tezislardan biri (birinchi yoki oxirgisi) umumiy bo‘lib, qolganlarning mazmunini belgilaydi yoki avvalgilarini umumlashtiradi. Bir qator qoidalarni albatta kitobdagagi tartibi bo‘yicha umumlashtirish shart emas, balki ularni yozuvchi uchun muhim bo‘lgan mantiqiy aloqalarida birlashtirilishi kerak.

Kitobda kerakli joylarni yozib olishni murakkablashtirmaslik uchun alohida tezislarni manbara havola qilingan sahifalarni, shriftlar va qo‘srimcha varraqlarni asl matn bilan bog‘lash foydali bo‘ladi (hatto kerakli abzatsga, alohida satrga).

Tezislarni boshqa turdagи yozuvlar orasida alohida ahamiyati nimadan iborat?

Tezislar, boshqa yozuv shakllariga nisbatan, materialni umumlashtirish, uning mohiyatini qisqa matnlarda berish imkonini beradi. Reja konsekt kabi o‘quvchini maqola (kitob) muallifini eshitishga majbur qiladi, ko‘pincha bu ijodiy fikrlashni cheklaydi. Tezislar, aksincha, kitobning (maqolaning) mazmunini ochib berish, ketma-ketligiga qaramasdan, hatto uning alohida holatlariga qaramay, uni tushunish imkonini beradi. Hech qanday yozuv doklad yozishga, materialning asosiy mazmunini ochib berishga yordam bermaydi. Tezislar qimmatga ega va ko‘pincha kitob, maqola yoki dokladni tanqidiy tahlil qilish uchun zarurdir. Masalaning mohiyati ular bilan ta’kidlanadi, keskinlashadi. Tezislar o‘z fikrlarini boshqalarning fikrlari va e’tiqodlariga qarshi turish imkoniyatini juda osonlashtiradi.

Doklad tezislari qanday yozish mumkin?

Dokladning tezislari matnning mazmunini yetkazish, maqsadlar, vazifalar, metodlar, tadqiqot natijalari va muallif tomonidan tuzilgan xulosalar haqida qisqacha (1-2 sahifada) shakllantirilgan asosiy qoidalardir. Doklad tezislari bilan tanishgandan so‘ng, o‘quvchi taqdim etilgan ishning mohiyatini, uning yangiligi va dolzarbligini tushunishi kerak. Ma’ruzaning tezisli bayonini talabalarning ilmiy-amaliy konferensiyalari, forumlari, simpoziumlari, seminarlari tashkilotchilariga oldindan taqdim etiladi yoki bunday tadbirlardan so‘ng ularning natijalari haqida hisobot berish uchun foydalaniлади.

Tezis turlari

Matnni tayyorlash uchun ishlataladigan materialning o‘ziga xosligi, to‘liqligi va tarkibiga qarab, doklad tezislari ikki turga bo‘linadi:

- Asosiy (sodda) - tushuntirishsiz asosiy g‘oyalarni ifodalaydi.
- Dalilli (batafsil, murakkab) - asosiy tezisni tushuntirish uchun ishlataladigan dalillar bazasini o‘z ichiga oladi: faktlar, qonunlar, aksiomalar, umumiyligini qabul qilingan ta’riflar.

Doklad tezislari tarkibi

Mavzu (sarlavha). Dokladning mohiyatini yetkazadigan oddiy va qisqacha gap. Ikki qatordan ortiq bo'lmasligi kerak.

Asosiy matn. Ushbu qism ilgari surilgan nazariyalarning misollari va dalillarini o‘z ichiga oladi yoki bajarilgan ishlarning mohiyatini ochishga bag‘ishlangan

Xulosa. Xabarni jamlaydi. Oxirida yana bir bor amalga oshirilgan ishlarning yangiligi va o‘ziga xosligini ta’kidlab, keyingi tadqiqotlar

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati

Tezislarni rasmiylashtirish uchun talablar:

Ma’ruza qilinadigan konferensiya tashkilotchilari yoki xabar nashr etiladigan ilmiy nashrlar tahririylatlari, odatda, doklad tezislarini qanday yozishni misol qilib keltiradi va formatlashning texnik standartlarini belgilaydi. Ushbu talablarga rioya qilmaslik ishtirok etish uchun berilgan arizani yoki bosma nashrlar, broshyuralar yoki elektron bazalarga ishni kiritish uchun rad etishga sabab bo‘lishi mumkin. Agar maxsus talablar bo‘lmasa, u holda rasmiylashtirishning umumiy qoidalariga tayanish kerak:

Hajmi – Times New Roman 14-kegl shrifti bilan yozilgan bittadan beshtagacha A4 formatli varaqlardan bir yarim qatorlararo interval bilan.

Sahifa chegarasi – 2,5 sm o‘ng va chapdan, yuqoridan va pastdan-2 sm, abzats - 1,2 sm

Boshlanishida dokladning nomi, muallif haqidagi ma’lumotlar (F.I.Sh., o‘qish joyi, ish joyi, shahar, aloqa uchun ma’lumot) ko‘rsatilishi shart.

Kalit so‘zlar ro‘yxati bilan **annotatsiya** (fakultativ).

Mavzu yuzasidan mashq va topshiriqlar

1-topshiriq.

Multimedia



Multimedia (multimedia) atamasi, “ko‘p qavatli muhit” ma’nosini bildiradi, multimediali texnologiya esa bu dasturli va texnik moddiy ta’midot asosida kompyuterda bir vaqtning o‘zida matnli tasviriy axborotlarni tovushli-ovozli, rangli, harakatga keltirilgan holda ifodalash imkoniyati demakdir. Hozirgi kunda tilshunoslik fanlarini o‘rganishda birgina darslik, o‘quv qo‘llanma va

ma’ruza matnlari bilan cheklanmasdan, shu fan sohalariga oid multimediali yoki animatsiyali o‘quv ko‘rsatuvarlar va elektron darsliklar yaratish tilshunoslik sohalarini chuqurroq o‘rganish uchun aniq imkoniyatlarni vujudga keltiradi.

Bu esa talabalarning tilshunoslik fanlariga bo‘lgan ilmiy salohiyatini, fanga bo‘lgan qiziqishini oshirishga katta yordam beradi. Shuning uchun “Tilning kelib chiqishi”, “Tillarning genealogik tasnifi”, “Tillarning morfologik tasnifi”, “Turkiy xalqlar va turkiy tillar” singari tilshunoslikka doir qator mavzularni pishiq-puxta o‘rganib, ana shu mavzularni o‘tishga doir elektron yoki multimediali darsliklar yaratish lozim bo‘ladi.

Tilshunoslik fanlarini o‘tish bo‘yicha to‘plangan ilg‘or tajriba va kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, tilshunoslik sohalariga doir yaratiladigan elektron darsliklar sodda, tushunarli va eng muhimi, ilmiy-ommabop xarakterda bo‘lishi kerak. Shu o‘rinda kompyuter texnologiyasi yordamida izchil va muntazam ravishda ishlangan elektron darsliklar tilshunoslik sohalari bo‘yicha talabalarning bilim doirasini kengaytirishda yaxshi natija beradi. Ayniqsa talabalarimiz “Turkiy filologiyaga kirish” fanidan “Turkiy tillarning tasnifi”, “Turkiy tillarning Rossiyada o‘rganilishi”, “Moskva, Qozon, Peterburg turkiyshunoslik maktablari”, “Turkiy tillarning Yevropada o‘rganilishi” kabi mavzularga oid bilim va ko‘nikmalarni egallashda kafedrada shu fan bo‘yicha yaratilgan elektron darslik materiallariga tez-tez murojaat qilmoqdalar.


Tilshunoslik bo‘yicha yaratilayotgan elektron va multimediali darsliklarda til birliklari (nutq tovushi, o‘zak, morfema, so‘z, so‘z birikmasi va gap kabi) ning asosiy ko‘rinishlari obrazli qilib ekranga chiqarilishi, ularning mohiyat va mazmuni muammoli bo‘lishi lozim. Tilshunoslikka oid har qanday elektron darslikning asosiy maqsadi talabalarda lingvistik tushunchalarni shakllantirish va to‘ldirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur. Shu o‘rinda, bizningcha, tilshunoslik bo‘yicha ma’ruza darslarini o‘tish bilan birgalikda til bo‘yicha amaliyat darslarini ko‘proq kompyuter texnologiyalari yordamida o‘tish maqsadga muvofiq bo‘lardi. Chunki “Tillar tasnifi”, “Tillar va xalqlar” singari mavzular bo‘yicha amaliyat darslarini o‘tish vaqtida Autocad, Fotoshop, Yexcel va boshqa dasturlar yordamida

tilshunoslik, tillarning sotsiolingvistik tasvifiga oid olingan yangi ma'lumotlarni tahlil qilish va qayta yaratish imkoniyatlaridan keng foydalanish mumkin bo'ladi. Buning natijasida talabalar jahonda tillarning geografik tarqalishi, ayrim tillarning ikki yoki undan ortiq mamlakatlar uchun rasmiy davlat tili (ingliz tili, nemis tili, fransuz tili, ispan tili kabilari) va Kuba, Avstriya, Avstraliya, AQSh, Kanada kabi mamlakatlarda boshqa xalqlarning tillari milliy til sifatida xizmat qilayotganligi kabi muhim ma'lumotlarni kompyuter orqali topib aniqlaydilar, shu asosda jahonda slavyan, eron, roman, german, turkiy, oltoy tillarining tarqalishi, bu tillarda gaplashuvchi aholi soni to'g'risidagi ma'lumotlarni Excel dasturi orqali diagramma shaklida yaratish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1. *Manba matnlarining asosiy ma'lumotlarini siqilgan shaklda taqdim eting.*
2. *Matndan tayanch so'zlarni aniqlab, ko'chirib yozing.*
3. *Matndagi terminlarni aniqlang, ularni sohalari bo'yicha guruhlarga ajrating.*

2-topshiriq. Venn diagrammasidan foydalanib oddiy, asosiy va murakkab tezis turlarini taqqoslang hamda tahlil qiling.




3-topshiriq. *Quyidagi qurilmalar asosida gaplar tuzing va shu gaplar asosida matn yarating.*

Kim?	xabar yetkazadi
Kimga?	
Kim?	qabul qiladi
Kimdan?	
Qachon?	yig'ilishi bo'ladi (o'tkaziladi)
Nima?	
Kim?	qatnashishi shart (tayyorgarlik ko'rishi)
Nima uchun?	

4-topshiriq.

EDISON TOMAS ALVA



Tomas Alva Edison bolalikdan kitob o'qishga juda qiziqardi. Ayniqsa, kimyo va fizikaga oid kitoblarni sevardi.

Ilmiy jurnallardan birining muharriri xonasiga baland bo'yli kishi kirib, yozuv stoli ustiga mo"jazgina apparatni qo'ydi:

— Janob, yangi ixtiro bilan tanishishni istaysizmi?

Ixtirochi shunday deb apparatning dastasini aylantira boshlagan edi, apparatdan yoqimli bolalar qo'shig'i eshitila boshladi. Muharrir hayratdan orqaga tisarildi. Bu ixtirochi – Tomas Edison edi. Ertasi kuni gazetalar «Menloparklik sehrgar»ning yangi g'alati ixtirosi haqida xabar qildi. Ixtirochining Nyu-York (AQSh) yaqinidagi — Menloparkdagi laboratoriyasiga odamlar to'da-to'da bo'lib kela boshladi. Tovushni yozib olish va uni qayta eshittirish uchun Edison ixtiro etgan apparat yaratilgan davrda insonning ovozini yozib olib, qayta eshittirish hali hech kimning xayoliga ham kelmagan edi. Bu apparat barcha grammonfonlar,

patefonlarning ajdodi, magnitofon va ovozli kinoning «bobosi» edi. Tovushni yozib olish hayotga ana shu yo‘sinda kirib keldi. Bu voqealarda sodir bo‘lgan edi.

Tomas Alva Edison bolalikdan kitob o‘qishga juda qiziqardi. Ayniqsa, kimyo va fizikaga oid kitoblarni sevardi. U kitoblarni shunchaki o‘qib qo‘ya qolmas, balki kitobdan olgan bilimlarini tajribada tekshirib ko‘rishga harakat qilardi. Tajriba o‘tkazish uchun mablag‘ kerak edi, shu boisdan yosh Edison poyezdlarda gazeta sotuvchi bo‘lib ishladi. Poyezdnинг bagaj vagonida laboratoriya jihozlab, u yerda tajribalar o‘tkazdi.

Keyinchalik Edison telegraf ishini o‘rganib, telegrafchi bo‘lib oldi. Yigitcha bo‘sh vaqtini va pulini asosan kitob, asbob-uskunalar, kimyo preparatlari uchun sarfladi. Tez orada Edison AQSh Kongressidagi ovozlarning avtomatik hisoblagichini ixtiro etdi. Bu aqli va murakkab mashina hech kimni qiziqtirmadi. Ikkinchi ixtiro muvaffaqiyatliroq bo‘lib chiqdi. Bu birjadagi aksiyalar kursini uzoqqa uzatishga mo‘ljallangan telegraf apparati edi. Edison bu apparat uchun katta pul oldi. Tez orada u Menloparkdan yer sotib olib, u yerda laboratoriya tashkil etdi va o‘zini butunlay ixtirochilikka bag‘ishladi.



Edison rus ixtirochisi A.N.Lodiginning cho‘g‘lanma lampasini takomillashtirdi, unga patron o‘ylab topdi, yoqib-o‘chirgichni, elektr energiya hisoblagichni, o‘tkazgichlar tizimini yaratdi. Ajoyib ixtirochi elektr stansiyalar uchun o‘sha davrning eng kuchli generatorlarini yasadi.

Edison telegrafni ham takomillashtirdi. U bir juft sim orqali bir yo‘la ikkita yoki hatto to‘rtta telegramma yuborish usulini ixtiro qildi. Edison telefonni ham takomillashtirib, gaplashish chog‘ida ovozning baland, aniq va tiniq bo‘lishiga erishdi. Edison qamrovi keng ixtirochi edi. U dunyoda birinchi elektr temir yo‘lni qurdi, ishqorli akkumulyatorni ixtiro qildi, temir rudalarini boyitish usulini ishlab chiqdi.

Edison 1882-yili dunyoda birinchi marta ko‘pchilik foydalanadigan elektr stansiyasini ishga tushirdi. Shu davrda Tomas Edison temir yo‘llarni elektrlashtirish tajribalarini oxiriga yetkazdi.

Edison AQSh va Yevropada o‘zi tomonidan qurilgan elektr stansiyalarini ishlatish, turli elektr asboblari, apparatlar va mashinalarni ishlab chiqarish va sotish, cho‘g‘lanma lampa tayyorlash va sotish bo‘yicha ulkan savdo operatsiyalarini amalga oshirdi. 1887-yildan umrining oxirigacha Edison Uest-Oranj shahrida yashadi. Bu paytda u yirik korxonalar egasi edi. Edison temir yo‘l tormozi hamda kinetoskopni ixtiro qildi (1887), fonografni (1889) hamda kinoga olish kamerasini takomillashtirdi, quyma beton uylarni qurish, sement ishlab chiqarish usullarini ishlab chiqdi. Tomas Edison jahonga Amerikaning buyuk elektrotexnigi, ixtirochisi, shuningdek bir qancha yirik elektrotexnika korxonalari va kompaniyalari asoschisi sifatida tanildi. Endi uning asarlari butun insoniyat mulkiga aylangan.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1. Reja asosida matn mazmunini qisqartirib so‘zlab bering.
2. 5-6 ta sodda gaplarni ko‘chiring, ularni qo‘shma gapga aylantiring.
3. Matnga tayangan holda jadvalni to‘ldiring.

Faoliyat ta’rifi	Muammo	Yangilik
------------------	--------	----------


5-topshiriq. Mutaxassisligingiz bo‘yicha ilmiy maqolaga tezis yozing.

Nazorat savollari



1. Tezislар – bu....
2. Qanday tezislар bo‘ldи?
3. Asosiy tezislар nima?
4. Tezislар qanday tuziladi?
5. Doklad tezislари nima uchun kerak?

23-24- mavzu. Taqriz matni. Taqriz turlari



Nazariy ma'lumot.

Taqriz (arab. — ijobiy baho) — adabiy tanqid janri; yangi badiiy, ilmiy yoki ilmiy-ommabop asar tahlili. Taqrizda asarning bibliografik tavsifi, shuningdek, mazmuni, unda ko'tarilgan muammolar, asarning g'oyaviy badiiy xususiyatlari, muallif ijodida, adabiyotda tutgan o'rni haqida ma'lumot bo'ladi; asarga baho beriladi, uning asosiy fazilatlari va nuqsonlari qayd qilinadi. Taqriz asosan keng kitobxonlar ommasi uchun mo'ljallanadi, ularni yangi asarlardan ogoh qiladi, zarurini tanlab olishga ko'maklashadi. Ichki taqriz ham bo'ladi. Masalan, nashriyotga kelgan badiiy, tanqidiy va ilmiy-ommabop asar ichki taqrizga beriladi, biroq bu taqriz matbuotda e'lon qilinmaydi.


Taqriz - saylanma bayonning bir turi.U badiiy, ilmiy, metodik va boshqa asarlarga berilgan bahodir.Taqrizda asar tanqidiy tahlil etiladi, shu nuqtai nazardan baholanadi. Asarning yutuqlari ham, nuqsonlari ham ko'rsatiladi. Taqrizchi o'zining da'volarini turli dalillar asosida isbotlay oladi, asarga ilmiy izohlar beradi.

Taqriz yozish odobi xolislikni, haqiqatdan chetlashmaslikni talab etadi. Taqriz qilinayotgan asarning yutuq va kamchiliklari, nazariy va amaliy ahamiyati haqqoniy ko'rsatilishi lozim. Asarga baho berishda muallifning shaxsiyati, obro'si emas, balki uning (asarning) xususiyatlari, ahamiyati ko'zda tutiladi.

Taqriz - (lotin. – "sharh"," xabar"," qayta ko'rib chiqish"," baholash") - ilmiy janr yoki jurnalistikaning janri, uning maqsadi mahsulotni tahlil qilish.

Kompyuter dasturlari, o'yinlariga taqrizlar (bu turi so'nggi yillarda juda tez mashhur bo'lmoqda).

Ilmiy taqrizlar (ilmiy daraja olish uchun dissertatsiyalar, magistrlik dissertatsiyalari, monografiyalar, nashr uchun maqolalar va boshqa ilmiy ishlar tahlili faqat malakali kadrlar bilan amalga oshiriladi).



Ilmiy taqriz namunasi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti “O’zbek va rus tillari” kafedrasi o’qituvchilari tomonidan tayyorlangan “O’zbek tili fanidan uslubiy qo’llanma”ga

TA Q R I Z

Ushbu qo’llanma rus tilida so‘zlashuvchi guruuhlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tavsiya qilgan namunaviy dastur asosida tuzilgan. Qo’llanma o‘quv yili davomida rejaga binoan olib boriladigan mavzularni o‘z ichiga qamrab olgan. Qo’llanmada turli manbalardan foydalanilganligi, matnlarning mazmundor, o‘ziga xos qaytarilmasligi ko‘zga tashlanadi. Shuningdek, telekommunikatsiya, aloqa sohasi bilan bevosita bog’liq matnlar ham o‘rin olgan.

Qo’llanmada berilgan grammatik mavzular mashqlar va topshiriqlar bilan mustahkamlanadi. Leksik matnlar turli mavzularda yoritilgan. Qo’llanmadan o‘rin olgan matnlar barchasi, bizningcha har tomonlama yondoshilgan holda tanlangan. Ularni o‘qigan kishi nafaqat yangilik oladi, balki undan o‘ziga tegishli xulosalar chiqarib, boshqacha fikrlay boshlaydi. Matnlarning ham ta’limiy, ham tarbiyaviy ahamiyati borligini alohida qayd qilish lozim. Talabalar uchun

mo 'ljallangan qo 'llanma ta 'lim olishda, qo 'shimcha shug 'ullanishda talablarga bemalol javob beradi. Uni nashr qilish maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

Xulosa qilib aytish mumkinki, qo 'llanma hozirgi talablarga to 'la javob beradi va o 'zbek tili mashg 'ulotlarida qo 'llanilishi mumkin.

O 'zDJTU dotsenti,p.f.n.

M.X. Axmedova

Mavzu yuzasidan mashq va topshiriqlar

1-topshiriq.

Til va nutq

Biz o 'z nutqimizda SO 'Z (so 'zlash), GAP (gapishtish), TIL va NUTQ atamalarini ko 'p qollaymiz, ba 'zan ular orasidagi farqni sinchiklab ham o 'tirmaymiz. Ular vositasida bilganlarimizni, ko 'rganlarimizni, mashq va mashg 'ulotlarimizning borishi-yu natijalarini, atrofdagilarga, ayniqsa, oila a 'zolariga munosabatlarimizni ifoda yetamiz. Til ham, fikr ham hayotning ongimizdagi ko 'rinishi va nutq yordamida boshqalarga ma 'lum qilinishidir.

Lekin lingvistik nuqtai nazardan til va nutq farqlanadi. Jumladan, tilni xalq yaratadi, umumxalq bahosi va xususiyatiga yega bo 'ladi; nutq yesa shaxsiy boylik sanaladi. Har kim o 'z qobiliyati, so 'z boyligi, savodi hamda so 'zlash a 'zolariga qarab gap tuzadi.



Til – aloqa quroli, u vosita. Nutq esa ana shu aloqa jarayonini amalga oshirishga xizmat qiladi. Tilning umri uni yaratgan xalqning o 'zidek uzoq bo 'ladi. Nutqning umri esa qisqa bo 'ladi. Og 'zidan so 'z yo gap chiqdimi – uchadi ketadi. Shuning uchun nutq oldiga nihoyatda ulug ' bir talab qo 'yiladi: o 'ynab gapirsang

ham, o‘ylab gapir. A. Navoiy aytganidek, so‘zingni buyuk etsang, o‘zinga buyuklik keltirasan.

Tilning xizmati doirasi juda keng, hajmi o‘lchovsiz bo‘ladi. Nutq esa aniq hajmli, shaklli bo‘ladi. Nutq yakka shaxs (monolog), juft shaxs orasida(dialog) yuz beradi. Nutq she’r, hikoya, roman, qissa kabi ko‘rinishlarda turli janrlarga bo‘linadi. Nutq yozma va og‘zaki bo‘ladi.

Tilning qonun-qoidalari uzoq yillar davomida saqlanib qoladi, silliqlashadi va boyib boradi. Nutq esa doim o‘zgarishda bo‘ladi; vaziyatga yoki nutq a’zolari faoliyatiga qarab so‘zning tovush tomoni o‘zgaradi, qo‘shimchalar turli fonetik hodisalarga uchraydi. Nutq hajmi so‘zlovchilarga saviyasiga, uslubga, o‘rin va joyga qarab, turli shakl va hajmlarda bo‘ladi.

Nutq oldiga qo‘yilgan talablar (tovush tanlash, so‘z topish) uning mohiyatidan, tildek “ajab” mo‘jiza dahosidan, uning ijtimoiy kuch-qudratidan kelib chiqadi. Chinakam go‘zallik, deydi A.Gorkiy, so‘zlarning aniqligi, ravshanligi va ohangdorligi bilan yuzaga keladi.


So‘zni to‘g‘ri qo‘llash, undagi tovushlarni to‘g‘ri va aniq talaffuz qilish (hol – hol, yod-yot, sof-sop, sher-she’r va b.), so‘zlarni tartib bilan joylash kabilar vositasida fikrning tushunarli bo‘lishiga erishamiz. G‘o‘za va paxta o‘zaro juda yaqin tushunchani bildiradi, shunga qaramay “g‘o‘za teriladi”, “paxta gulladi” deyish xatodir.

Aniqlik, to‘g‘rilik, raxonlik, soddalik, tozalik, joziba (ta’sirli so‘zlash) kuchi har qanday nutqning eng muhim belgilaridir. Qo‘shimchalardan to‘g‘ri foydalanish (g‘ishtin polli, kibernetikaviy...), (dadam va onam keldi...); so‘zlarni to‘g‘ri bog‘lash (qaror yozildi – qarorni emas), takror (turgan joyida turib qoldi...) va keraksiz ifodadan qochish, qo‘shma gapni meyori bilan tuzish, chet so‘zlarni zo‘raki – ehtiyojsiz ishlatish nutqni g‘aliz va nursiz qiladi.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1. *Matnni o‘qing. Matnga reja tuzing.*
2. *Reja asosida matn mazmunini qisqartirib so‘zlab bering.*
3. *Matnga taqriz yozing.*

2-topshiriq. *Venn diagrammasi yordamida til va nutq tushunchalarini taqqoslang.*



3-topshiriq. *Matnning tushirib qoldirilgan o'rinalarini o'z so'zlarining bilan to'ldiring.*

Hayot go'zal, yashash maroqli. Biroq inson uchun.... .

Shu bois bo'lsa kerak, inson borki, hamma vaqt imkon qadar bu dunyoning go'zalliklaridan ko'proq bahra olishga, ... intilib yashaydi. Bu istak esa ba'zida odamzodga baxt keltirsa, Insoniyatning eng zaif tomoni ham shunda, menimcha U amal qilayotgan ko'plab zararli odatlarning oxir-oqibatini bilsada, Bugun yoshlar orasida ommalashib borayotgan chekish odati ham ayni yuqoridagi fikrimizga dalil. E'tibor bergan bo'lsangiz, yoshlarimiz ruju qo'yayotgan sigareta tutunlari ... singari tobora farzandlarimizning katta qatlamini o'z isjankasiga olmoqda. Yurtimizda ... e'tibor berilayotgan bir paytda kelajagimiz vorislari bo'lgan o'g'il-qizlarimizning bu qadar o'zlarini zaharlashlariga nima sabab bo'lmoqdi? Aytish joizki, farzandlarimizning har qanday illatga ruju qo'yishlarida, avvalo ... bosh omil bo'lib xizmat qiladi.

4-topshiriq.

AKT ning rivojlanish tarixi



XIX asrning ikkinchi yarmigacha “qo‘l” axborot texnologiyasi rivojlangan bo‘lib, uning asosini pero, siyohdon va buxgalteriya daftari tashkil etgan. Kommunikatsiya (aloqa) paket (rasmiy hujjatlar solingan konvert) yuborish orqali amalga oshirilar edi.

“Qo‘l” axborot texnologiyasi o‘rniga XIX asr oxirida “mexanik” texnologiya kirib keldi. Yozuv mashinasi, telefon, diktafonning kashf etilishi, jamoa pochtasi tizimining takomillashuvi – bular bari avvaliga axborotni qayta ishslash texnologiyasida, so‘ng ish mahsulorligida sezilarli o‘zgarishlar yuz berishiga zamin bo‘ldi.

XX asrning 40 - 60-yillarida “elektr” texnologiyasi paydo bo‘lib, u yechib almashtiriladigan elementlarga ega elektr yozuv mashinkalari, oddiy qog‘ozdan foydalanuvchi nusxa ko‘chirish mashinasi, portativ diktafonlardan iborat edi.

60-yillarning ikkinchi yarmidan esa “elektron (yoki kompyuter)” texnologiyasi yuzaga kela boshladi va axborotning shaklini emas, mazmunini o‘zgartirishga urg‘u berila boshlandi.

Axborot texnologiyasining keyingi taraqqiyoti asosan kommunikatsiya vositalari bilan bog’liq.

Xorijiy mutaxassislar axborot texnologiyalari rivojlanishiing beshta asosiy tendensiyasini ajratib ko‘rsatadi:

1. Axborot mahsulotlarining murakkablashuvi. Axborot vositasi ko‘rinishidagi axborot mahsuloti, ekspert ta’minoti xizmatining ma’lumotlar bazasi strategik ahamiyat kasb eta boradi. Turli shakldagi (nutq, ma’lumot, tasvir) axborot mahsulotlari eshitish, ko‘rish va anglash uchun foydalanuvchining talabiga ko‘ra ishlab chiqiladi hamda unga qulay vaqtida va shaklda mahsulotni yetkazib berish vositasi mavjud bo‘ladi.

2. Birgalikda harakat qilish qobiliyati. Axborot mahsulotining ahamiyati oshib borishi bilan mazkur mahsulotlarni kompyuter va inson yoki axborot tizimlari o‘rtasida ideal tarzda almashuvini o‘tkazish imkoniyati ilg‘or texnologik muammo kasb etadi.

3. Oraliq bo‘g‘inlarni tugatish. Birgalikda harakatlanish qobiliyatining rivojlanishi axborot mahsulotlari almashish jarayonining takomillashuviga, so‘ngra, axborot manbai yo‘lidan iste’molchiga qarab oraliq bo‘g‘inlar tugatiladi.

4. Globallashtirish. Tashkilot yo‘ldosh aloqa va Internet tarmog‘ida foydalanim axborot texnologiyalari yordamida xohlagan joyda va xohlagan paytda ish olib borish mumkin.

5. Konvergensiya (uyg‘unlashish). Konvergensiya AATning zamonaviy rivojlanish jarayonining oxirgi bosqichi sifatida ko‘rib chiqiladi. Bunda mahsulotlar va xizmatlar, axborot va dam olish, shuningdek, ovozli, raqamli hamda videosignalarni uzatish kabi ish rejimlari o‘rtisidagi farq yo‘qoladi.


Matn yuzasidan topshiriqlar:

1. *Matnni o‘qing.*
2. *Matndan tayanch so‘zlarni aniqlab, ko‘chirib yozing.*
3. *Matnga taqriz yozing.*

5-topshiriq. BBB texnologiyasi. Matn mazmuni bo‘yicha jadvalni to‘ldiring.

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

25- mavzu. Taqrizning tuzilishi



Nazariy ma’lumot.

Taqriz tuzilmasi

Taqriz matnining mazmuni bo‘yicha tuzilmasida quyidagi tarkibiy qismlar bo‘lishi kerak:

Tahlil predmeti

Taqriz berilayotgan ish nima ekanligi aytildi: diplom loyihasi, maqola, dissertatsiya, monografiya va b.; chiqish ma’lumotlari keltiriladi. Taqriz yozuvchi uchun taqriz matni qaysi janrga taalluqli ekanligini bilish zarur, chunki ishning ahamiyati haqidagi xulosalar va umumiy baho shunga bog’liq bo‘ladi.

Mavzuning dolzarbligi

Ishda ko‘tarilgan masalalarning muhimligi, bilim va madaniyatning u yoki bu sohalarida zamonaviy muammolarni yechish uchun ahamiyati ko‘rsatib o‘tiladi.

Qisqacha mazmuni

O‘qib chiqilgan matnning mazmunini anglay olish, avval olingan bilimlar bilan bog‘lay olish zarur, chunki ishning qisqacha mazmuni taqrizda uning tanqidiy tahlili va bahosi bilan mutanosib bo‘lishi kerak.

Baholash qismi

Odatda dastlab taqriz berilayotgan ish u yoki bu janrga beriladigan umumiyl talablarga mos kelishi nuqtai nazaridan baho beriladi. Uning yutuqlari keltiriladi: yangiligi, mavzuni ochib berilganligi, xulosalarning dalillar bilan berilishi, misollar, illyustratsiyalar, chizmalarning berilishi; bayon etilgan mavzu bo‘yicha adabiyotlar bilan tanish ekanligi; muammoli masalalar bo‘yicha turli qarashlarni taqqoslash va tahlil qilish qobiliyati, bayon qilish uslubi va h.k. So‘ng taqriz beruvchi tanqidiy fikrlarga o‘tadi, kamchiliklarni ko‘rsatadi.

Ularni ko‘rsatib o‘tish taqrizni faqat salbiy qilib ko‘rsatishi kerak emas. Retsenzentning tahlil qilinayotgan ish va muallifga do‘stona munosabati ko‘rinib turishi kerak, shuning uchun barcha kamchiliklar taklif va tavsiyalar ko‘rinishida beriladi.

Xulosalar

Taqriz qilinayotgan ish janriga muvofiq shakllantiriladi.

Ishning ahamiyati, ushbu muammo bo‘yicha mavjud boshqa ishlar qatoridagi o‘rni, amaliy ahamiyati, tadqiqot davomida olingan natijalarning qo‘llanilishi qayd etiladi.

Taqriz yozishda quyidagi sxemaga amal qilinadi:

1. Tezis (umumiylholati) va uni ochib berish.

2. Kitob (film, teatr, maqola)ning baholanishi.

Taqrizning boshlang‘ich qismida quyidagi konstruksiyalardan foydalilaniladi:

Kitob (film, teatr, maqola)da ... hikoya qilinadi.

Kitob (film, teatr, maqola)da ... muammolar ko‘tariladi.

Taqrizni baholash qismida quyidagi konstruksiyalardan foydalilaniladi:

Men ... hisoblayman.

Mening fikrimcha ...

Mening nazarimda ...

... menga yoqdi.

... menda katta taassurot uyg’otdi.

Kitob (film, teatr, maqola) ...o ‘rgatadi.

Taqriz va sharhlarni yozish uchun namunaviy reja

Tahlil predmeti. (*muallifning ishida.... Taqriz berilayotgan ishda.....Tahlil predmetida...*)

Mavzuning dolzarbliji. (*Ish dolzarb mavzu.....ga bag ‘ishlangan. Ishning dolzarbliji.....asoslangan. Mavzuning dolzarbliji qo‘shimcha dalillarni talab qilmaydi.*)

Asosiy tezisni shakllantirish. (*muallif asosiy (muhim, sezilarli)natijalarga erishgan ishning markaziy (muhim)masalasi.... Maqolada birinchi planga asoslangan masalalar chiqarilgan.*)

Ishning qisqacha mazmuni

Umumiyl baho. (*ishni umumiyl baholaganda..... Alovida boblarning natijalarini umumlashtirganda.... Shunday qilib, ko‘rib chiqilayotgan ish.... Muallif ushbu....*

tahlil qila olishini namoyon qildi, materiallarni tizimlashtirdi va ularni umumlashtirdi. Yangi metodik yondashuvlarni qo'llashi muallifning yutug'i hisoblanadi (taklif etilgan klassifikatsiya, mavjud tushunchalar aniqlashtirish). Muallif tadqiq etilayotgan hodisa haqidagi bizning fikrimizni chuqurlashtirib, uning yangi tomonlarini ochib beradi).

Kamchiliklar. (*Shu bilan birga tezis ba'zi.... haqida gumonlarni keltirib chiqaradi. Ishning kamchilik tomonlariga muallif tomonidan yo'l qo'yilganlarni ko'rsatish mumkin(bayon qilinganida aniqliq yetishmasligi). Ishni..... qisqartirilsa maqsadga muvofiq bo'lar yedi. Ishning asosiy kamchiliklari....dan iborat. Ko'rsatib o'tilgan kamchiliklar lokal xarakterga ega bo'lib, ishning natijasiga ta'sir ko'rsatmaydi. Ishning ko'rsatib o'tilgan kamchiliklari uning yuqori darajada bajarilganligini inkor qilmaydi, ularni muallifning keyingi ishlarga taklif sifatida qabul qilsa bo'ladi. Ko'rsatib o'tilgan kamchiliklar faqat ... bilan bog'liq emas.)*

Mavzu yuzasidan mashq va topshiriqlar

1-topshiriq.

Oliy ta'lim



“Oliy ta’lim” atamasi zaminida iqtisod, fan, texnika va madaniyat sohasida faoliyat olib boruvchi, ish mobaynida ilm-fan, madaniyat, texnika yangiliklarini qo’llagan va o‘z ustida ishlagan holda nazariy hamda amaliy muammolarni bartaraf etuvchi yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash tushuniladi.

Oliy ta’lim muassasalari yuridik maqomga ega. Respublikamizda oliy ta’lim muassasalarining quyidagi ko‘rinishlari bor:

-*Universitet*- oliy ta’lim dasturini bajarishda talabalarga tanlayotgan sohasi bo‘yicha yoki keyinchalik o‘qishlarini davom ettirishlari uchun keng qamrovli bilim berishga e’tibor qaratiladi;

-*Akademiya*- oliy ta’lim dasturini bajarishda oliy ta’lim berish bilan bir qatorda keyinchalik o‘qishlarini davom ettirishlari uchun aniq bir yo‘nalishga tayyorlaydi;

-*Institut*- barcha oliy ta’lim muassasalari kabi oliy ta’lim dasturini bajaradi, bilim berishda bir yo‘nalishga qaratilgan bilim beriladi.

Masofaviy ta’lim- asosiy faoliyatdan uzilmagan holda ta’lim muassasasidan uzoqda o‘quv dasturidagi mavjud bilimlarni o‘zlashtirish. U zamonaviy axborot texnologiyalari va telekommunikatsiyaning texnik vositalaridan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Kunduzgi o‘qish bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlashning yo‘nalishlari ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Universitet:

- Oliy va undan keyingi ta’lim uchun ta’limni bir necha yo‘nalishda beradi;
- Turli sohalardagi mutaxassislarning malakasini oshiradi va qayta tayyorlaydi;
- Fanning turli yo‘nalishlarida fundamental va amaliy tadqiqotlarni olib boradi;
- Ilm sohasi bilan chambarchas bog‘liq ilmiy va metodik markaz hisoblanadi.

Akademiya:

- Ta’lim sohasida ma’lum belgilangan oliy va oliy ta’limdan so‘nggi ta’lim berishga mo‘ljallangan o‘quv dasturini bajaradi;
- Mutaxassislarning bilimlarini belgilangan tartibda malakasini oshiradi va qayta tayyorlaydi;

- Fan, madaniyat, san'at sohasida fundamental va amaliy ilmiy tadqiqot ishlarini olib boradi;

- O‘z faoliyati doirasida yetakchi ilmiy, metodik markazi hisoblanadi.

Institut :

- Oliy va oliy ta’limdan keyingi o‘quv dasturlarini bajarishni ta’lim va fanning ma’lum bir me’yorida amalga oshiradi;

- Mutaxassislarni ma’lum bir sohada qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan shug’ullanadi;

- Fundamental va amaliy tadqiqot ishlarini olib boradi.

Oliy ta’lim ikki bosqichdan iborat: bakalavriat va magistratura.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar.

1. Matnni o‘qing va undagi termin hamda iboralarni izohlang.

2. Matnga reja tuzing va tuzgan rejangiz asosida mazmunini so‘zlab bering.

3. Oliy ta’lim terminlari lug’atini tuzing.

4. O‘zbekistondagi oliy ta’lim muassasalarining qisqartma otlarini yozing.

2-topshiriq. Tushunchalar tahlili metodi jadvalini to‘ldiring.

Tushunchalar	Tushunchalar tahlili
Oliy ta’lim	
Universitet	
Akademiya	
Institut	
Masofaviy ta’lim	
Bakalavriat	
Magistratura	

3-topshiriq. Quyidagi klishelar yordamida gaplar tuzing.

Men ... hisoblayman.

Mening fikrimcha...

Mening nazarimda...

... menga yoqdi.

... menda katta taassurot uyg'otdi.

Kitob (film, teatr, maqola) ...o'rgatadi.

4-topshiriq.

Uyali radiotelefon aloqa tizimlari



1991- yilda uyali radiotelefon aloqa tarmog'i xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha birinchi reklama e'lolnari paydo bo'ldi. 2000 dollarga og'irligi besh kilogramm, unchalik katta bo'limgan chemodancha (abonent radiotelefoni) sotib olish va yana shuncha pul tarmoqqa ulash uchun to'lash taklif etildi. Hozir ana shu taklifga talablar topilganiga ishonish qiyin, negaki zamonaviy abonent radiotelefonlari cho'ntakka erkin joylashadi, og'irligi 200gr keladi, ularni narxi bir necha yuz dollar atrofida, tarmoqqa ulash taxminan 100 dollar bo'ladi, ba'zida esa umuman tekin.

Radiotelefon aloqaning uyali tizimi unchalik katta bo'limgan ko'p zonalarga — uyalarga (sot—cell—mumkatak) bo'lingan hududga xizmat ko'rsatadi, ularning har biriga o'zining radiojihozlar komplekti xizmat ko'rsatadi. Bu zonalar

shahar rejasida asalari uyasi yacheykalariga o‘xshash strukturani shakllantiradi, ana shu narsadan bu turdag'i radiotelefon aloqaning nomi kelib chiqqan.

Uyaning chegarasi radioaloqaning turg‘unlik zonasini bilan aniqlanadi va qabul qiluvchi-uzatuvchi radioqurilmaning quvvati, joy topologiyasi va tizim ishining chastotali diapazoniga bog’liq bo‘ladi. Tizim ishining chastota polosasi qanchalik yuqori bo‘lsa, uyaning radiusi shunchalik kichik, lekin signalning devorlar orqali va boshqa to‘siqlardan o‘tish qobiliyati shunchalik yaxshi bo‘ladi va yana muhimmi radioapparatura juda ixcham va katta miqdordagi abonentlik radiokanalarni tashkil etish imkoniyati yaratiladi. Zamonaviy uyali tizimlar 450, 800, 900 va 1800 MGc chastotalarda ishlaydi.

Uyali radiojihozlar komplekti o‘z ichiga retranslyator (qabul qiluvchi-uzatuvchi radioqurilma), bazaviy stansiya, radioantenna va shu uya bilan xizmat ko‘rsatiladigan abonentlarning ixcham radiotelefonlarini oladi. Abonent radiotelefonlari soni uyada doimiy bo‘lmaydi, negaki abonentlar harakatda bo‘lib ko‘chib yurishlarida bir uyadan boshqa uyaga o‘tadi. Bunda uyalar orasidagi chegarani kesib o‘tganda radiotelefon apparat boshqa uyaga avtomatik ravishda o‘tadi (yaqin oradagi retranslyatorga ulanadi). Uyali aloqa abonenti o‘zini qiziqtirgan hamsuhbat bilan so‘zlashish uchun o‘zining radiotelefoni klaviaturasida mos telefon nomerini teradi va bazaviy stansiya vositasida hamsuhbat bilan bog‘lanadi.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Matnni o‘qing. Ma’nosi bilan tanishing.

2. Undagi terminlarni ko‘chirib yozing va ma’nosini izohlang. Bu atamalar qaysi uslubga xosligini aniqlang.

3. Respublikamizda qanday uyali aloqa kompaniyalari bor? Ular haqida qanday ma’lumotga egasiz?

5-topshiriq. Yuqoridagi matnga taqriz yozing.



Nazorat savollari

1. Taqriz – bu....
2. Qanday turdag'i taqrizlarni bilasiz?
3. Taqrizning tuzilishini tavsiflang.
4. Taqriz xulosalariga nimalar kiradi?
5. Mavzuning dolzarbligi nimani anglatadi?

26-27-mavzu. Taqdimot nutqi. Taqdimotning tarkibi



Nazariy ma'lumot.

o'lib, adabiy so'zlashuv nutqi hisoblanadi. Bunday nutq adabiy

- og'zaki nutqda yozma nutqdagi kabi o'ylab olish imkonini kam bo'ladi, chunki og'zaki nutq tezkor va jadallahgan (avtomatik) jarayondir;
- og'zaki nutqning o'ziga xos grammatik tuzilishi, qurilish tartibi mavjud. Ya'ni gap bo'laklarining tushib qolishi, o'rin almashishi, qisqarishi va b.
- og'zaki nutqda talaffuz, ohang, imo-ishora vositalari asosiy rol o'ynaydi;
- og'zaki nutqning yuzaga chiqishi so'zlovchining kayfiyatiga, nutqning vaziyatiga, so'zlovchining nutqiy a'zolari normal va sog'lom bo'lishiga bog'liq;
 - kishi so'zlaganda o'z nutqiga xuddi yozayotgandagi kabi yetarli e'tibor beravermaydi va b.

"Taqdimot" so'zi hayotimizga mustahkam kirib keldi. Yangi turdag'i mahsulotlarni o'zlashtirish, kompaniya, bank, ularning filiali yoki firmani ochish bugungi kunda taqdimotsiz (lot. praesentatio-vakillik) o'tmaydi. Bu tashkilotning shaxsiy imidjini, uning rivojlanish istiqbollarini namoyish etish uchun

mo‘ljallangan original janr (voqea). Matn ko‘rinishidagi taqdimot reklama varaqlari, xatlar yoki bukletlar shaklida yuboriladi.

Taqdimot - har qanday ma’lumotni muayyan shaxslar doirasiga yetkazish vazifasini hal qiluvchi maqsadli aloqa jarayoni. Taqdimot quyidagicha amalga oshirilishi mumkin:

- inson tomonidan yordamchi vositalarsiz;
- inson ishtirokisiz texnik vositalar yordamida (masalan, videoko‘rsatuv);
- inson tomonidan yordamchi texnik vositalardan foydalangan holda.

Slayd – bu mantiqiy avtonom axborot tuzilishi (visual materiallar birligi – maxsus rasm), monitor ekranida, qog’oz varag’ida yoki bitta kompozitsiya shaklidagi rangli plynka varag’ida taqdim etiladigan turli xil obyektlarni o‘z ichiga oladi. Slayd tarkibida turli obyektlar bo’lishi mumkin.

Og‘zaki taqdimot — tashkilotchilarining chiqishlaridan (ko‘pincha slaydlar, jadvallar, tovarlar namoyishi bilan birga) iborat rasmiy va yig‘ilganlarning erkin muloqotini ifodalovchi norasmiy qismlarni o‘z ichiga olgan.

Ba’zan taqdimotlar ko‘plab jurnalistlarni taklif qilgan holda matbuot anjumani shaklida o‘tkaziladi. Tashkilotchilarining nutqi yoki matbuot anjumani taqdimotning rasmiy qismini ifodalaydi, norasmiy qismiga san’atkorlarning chiqishlari, furshet yoki ziyofat kiradi.

Taqdimot nutqi oldindan tayyorlanadi, lekin jamoatchilik oldida o‘qilmaydi. "Agar xohlasangiz, nutqingizni yozishingiz mumkin, ammo yozuvlarni faqat iqtibos keltirish uchun ishlatishga harakat qiling, garchi ular matnda darhol topilmasa ham. Agar nutqingiz albatta ko‘zingiz oldida bo‘lishi kerak bo‘lsa, uni deyarli yodda qolishi uchun ko‘p marta o‘qing"*, - deb yozadi Ye. Post o‘zining

mashhur "Etiket" kitobida.

Kurs ishi yoki diplom ishini himoya qilishdan maqsad - imtihon komissiyasini talabaning kerakli bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lganligiga, malakaga ega bo'lishni talab qiladigan sohada atamalar, usullar va uslublarni egallaganligiga ishonch hosil qilish. Umuman aytganda, g'oyalar, odamlar, mahsulotlar, materiallar va xizmatlarni taqdim etish har doim taqdimotdir.

Taqdimot nutqi - ommaviy nutqning bir turi. Har qanday ommaviy nutq kabi, u muayyan tamoyillarga asoslanadi. Ushbu tamoyillar quyidagilar:

***Qisqalik tamoyili.* Odatda taqdimot nutqi 10-15 daqiqa ma'ruza qilish uchun tuziladi. Boshqa tomondan, nutqning asosiy mavzusini ochib berish uchun nutqning hajmi yetarli bo'lishi kerak.**

***Ketma-ketlik tamoyili.* Nutqning barcha mikromavzulari asosiy mavzuga bo'ysunishi kerak. Nutqning barcha qismlari o'zaro bog'liq bo'lishi kerak.**

***Maqsadga erishish tamoyili.* Nutq aniq mantiqqa bo'ysunishi kerak. Ma'ruzachining o'zi va uning ortida tinglovchilar nutqning yo'nalishini, uning mantiqiy strukturasini keyingi zanjirga mos kelishini tushunishlari kerak: Muammo - > mavzu - > tezis - > dalillar.**

***Kuchayish tamoyili.* Nutqning ta'siri boshidan oxirigacha kuchayishi kerak.**

***Natijaviylik tamoyili.* Nutq tinglovchilarga taklif qilingan xulosani, harakatga chaqiruvni, tavsiyalarni o'z ichiga olishi kerak. Xulosa yoki chaqiriq kuchli, unutilmas og'zaki ta'rif bilan shakllantirilishi kerak.**

Kompyuterda taqdimotlar uslubiga qarab, ularning **turlari** farqlanadi:

- **ssenariy asosida;**

- *interfaol*;
- *avtomatik*.

Ssenariy bo'yicha taqdimot slaydlar bilan berilgan an'anaviy taqdimot bo'lib, u rangli grafikalar va animatsiyalarni namoyish qilish vositasi bilan to'ldirilib, videoni katta ekranga yoki monitorga olib chiqadi. Unda namoyish paytida namoyish jarayonida o'zgarishlar kiritish imkoniyati mavjud.

Interfaol taqdimot foydalanuvchi bilan kompyuter muloqotidir.
Foydalanuvchi o'zi uchun muhim bo'lgan materialni qabul qiladi va sichqonchani yoki tugmachalarni bosib, kerakli obyektni ekranda tanlaydi. Bunday holda so'ralgan ma'lumot beriladi.
Barcha interfaol taqdimot dasturlari hodisalarini nazorat qiladi, ya'ni muayyan voqeа sodir bo'lganda (tugmani bosib, kursorni ekran obyektiga joylashtirish va h. k.), dastur tegishli harakatni amalga oshiradi.

Avtomatik taqdimot videotayyorlana, disketa, kompakt-diskga ko'chirilishi va muayyan iste'molchilarga yuborilishi mumkin bo'lgan tugallangan ma'lumot mahsulotidir.

TAQDIMOT TURLARI

Savdo taqdimotlari shartnomalar tuzish vaqtida savdo agentlari tomonidan qo'llaniladi. Ular imkon qadar qisqa vaqt ichida mahsulot haqidagi barcha ma'lumotlarni taqdim etishga imkon beradi.


Marketing taqdimotlar kelajakdagi savdo taqdimotlari uchun shart-sharoitlarni tayyorlash maqsadida ishlatiladi. Ular keng auditoriyaga (ko'rgazma-yarmarkalarda yoki xaridorning ofisida o'tkaziladi), sotish bo'yicha agentlarni tayyorlash uchun ishlatiladi.

O'quv taqdimotlari o'qituvchiga o'quv materiallarining qulay va ko'rgazmali namoyish qilish uchun mo'ljallangan.

Korporativ taqdimotlar korporatsiya aksiyadorlariga ma'lumot yetkazish uchun mo'ljallangan. Korporativ uyushmalar Internet tarmog'inining imkoniyatlaridan foydalanishi mumkin, bu World Wide Web (WWW) gipermatnli tizimiga kirish imkonini beradi.

Ommaviy nutqning tuzilishi.

Uch qismli kompozitsiya:



Kirish qismida:

boshlanish (taqdimot nutqida tinglovchilarga murojaat qilish va uchrashuvning maqsadi haqida xabar berish) va tugun (xabarning maqsadini tushuntirish);

asosiy qism (asosiy qismda korxona, taqdim etilgan mahsulot haqida asosiy ma'lumotlar: maqom, umumiyo'nalish, korxona faoliyatining o'ziga xosligi, iste'molchining ko'rsatmasi, mavjudlikning tabiat, joylashgan joyi va boshqalar beriladi);

xulosa (taqdimot nutqida xulosa yig'ilishning maqsadini eslatish, aytigan so'zlarni umumlashtirish va birgalikda ishlashga chaqirishni o'z ichiga oladi).

Muvaffaqiyatning eng muhim sharti - bu nutqning tuzilishi (mantiq) tinglovchilar uchun ochiq, tushunarli bo'lishi kerak.

Tinglovchilarning e'tiborini faollashtirishga quyidagicha erishiladi:

a) ijro etuvchi vositalar yordamida nutq strukturasini ajratish: ... *bilan boshlayman ...; endi ... haqida; va nihoyat ...; natijada, shuni ta'kidlayman...*

Korxonamizning kelib chiqish tarixi bilan boshlashimga ruxsat bering ...

Agar ruxsat bersangiz, men investitsiya kompaniyamizni yaratish loyihasidan boshlayman.

Keling, rejalarimizni amalga oshirish haqida gapiraylik.

Bugungi vaziyat haqida ...

Rejalarimiz haqida bir necha so'z ...

Xulosa qilib aytganda, deb umid bildirishga ijozat bergaysiz.

....ishonch bildirishga ruxsat bering;

b) monologni dialoglashtirish, bunda dialog shakli ochiq va yashirin bo'lishi mumkin. Ochiq dialog – auditoriya bilan muloqot qilishning savol-javob tizimi. Bu ommaviy nutqning bu turiga kamroq xosdir.

Ommaviy nutqning eng o'ziga xos xususiyati - dialogning yashirin shakllari: o'zingiz uchun savollar, yashirin va bilvosita savollar.

Siz allaqachon bilganingizdek...

Yangi aloqa turlarining mashhurligi haqida nima deyish mumkin — ular kelajagimiz, ular tezda aloqa bozorini egallaydi;

c) muhim yoki qiziqarli fikr, g‘oyalar, tinglovchilarni qiziqtiradigan ba’zi tafsilotlar haqidagi xabarni kechiktirishni anglatadi. Bunday holda, ma’ruzachi birinchi navbatda bu yoki boshqa haqiqatni eslatib o‘tadi va keyin aytadi:

Lekin bu haqida birozdan keyin...

Bu haqida keyinchalik bat afsil gapirib beraman...

Bu haqida keyin to ‘xtalamiz...;

d) juda muhim axborotlarni ta’kidlash. Xabarning tezligi, nutq ritmi, pauza, intonatsiya o‘zgarishi bilan ta’kidlanishi mumkin.

Monoton, ehtirossiz bayon qilganda diqqat ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yomonlashadi.

Ommaviy nutq paytida nutqning oxiriga qadar bayonning ovoz balandligi va temperamentligini bosqichma-bosqich oshirib borish mumkin;

e) mahsulotlar, tovarlar, bukletlar namunalarini namoyish qilish. Odatda taqdimotlarda mehmonlarga kichik sovg‘alar beriladi: bukletlar, otkritkalar, reklama uchun mahsulot namunalari;

f) hazilni ishlatish. Tantanali nutqlarda hazil-mutoyiba qabul qilinmaydi, ammo kichik hazil-mutoyibalar umumiylaytga zarar bermaydi va tinglovchilarning e’tiborini va xayrixohligini ma’ruzachiga jalb qilishga yordam beradi.

Nutqning matnini tuzayotganda, nutqning ikkinchi yarmi tinglovchilarga birinchiga nisbatan ikki barobar ko‘proq ko‘rinishini esda tutish kerak. O.Ernst ta’kidlaganidek, tantanali nutqning oxirgi o‘n daqiqasi birinchi o‘n daqiqaga qaraganda uch barobar ko‘p davom etadi. Shuning uchun, nutqning ikkinchi yarmi, nutq qanchalik uzoq bo‘lishidan qat’iy nazar, yanada jonli, xilma- xil va osonlik qabul qilinadigan bo‘lishi kerak.

Biznes taqdimoti

Ommaviy taqdimot (lotin tilidan.praesentatio – “taqdim qilish”) – bu ma’ruzachi yoki uning vakili uchun foydali bo‘lgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita tinglovchilarga ishonchli ta’sir ko‘rsatish va ularni harakatlarga undash

maqsadida loyihalar, tovarlar, dasturlarning ommaviy axborot vositalari orqali shaxsiy yoki vositachilar orqali taqdim etilishi.

Taqdimotlar zamonaviy vaqtning kundalik biznes hayotining bir qismidir. Ular o‘z kompaniyasini muayyan mijozlarga taqdim etish, raqobatchilarni mijozlarga taqdim etish (mijozlar raqobatchilarni tanlamasliklarini ta’minlash uchun), notanish auditoriyaga tasodifiy narsani taqdim etish, ma’lum bir joyga ishga joylash, sheriklarga o‘zlarini taqdim etish, boshqalarni tanishtirish uchun ishlatiladi.

Bundan tashqari, taqdimot quyidagilar uchun ishlatiladi:

- saylovchilarga saylovda nomzodingiz uchun ovoz berishga ishonch hosil qilish;
- sizning loyihangizga pul ajratish uchun ekspert jamoasida ishonch hosil qilish;
- qayta tashkil etish rejangizning afzallikkleri haqida rahbariyatni ishontirish;
- iste’molchilar sizning mahsulot yoki xizmatning afzallikklarini tanlashlariga ishontirish.

Taqdimot reklama kabi funksiyalarni bajarishi mumkin, ya’ni sotish maqsadida mahsulot yoki xizmatlarning eng foydali taqdimoti deyish mumkin. Biroq, qisqartirish va hissiyotga intilayotgan reklama turlaridan farqli o‘laroq, taqdimot, aksincha, ma’lum bir kompaniya bilan hamkorlikning afzallikkleri va foydasini, ushbu mahsulot yoki xizmatning afzallikklarini, ularni grafikalar, tadqiqotlar, statistika, nazariy hisob-kitoblar va amaliy natijalar bilan tasdiqlaydi.

Biznes suhbatи uchun asos sifatida taqdimot samaralidir, u allaqachon o‘tkazilgan biznes suhbatiga qo’shimcha sifatida xizmat qilishi mumkin, shaxsan uchrashish imkonи bo‘lmagan muayyan mijozga batafsil “axborot maktubi” sifatida mos keladi. Bundan tashqari, taqdimot turli ko‘rgazmalar, seminarlar va korporativ treninglar doirasida axborotni taqdim etish shakli sifatida juda qulaydir: barcha manfaatdor shaxslar to‘liq ma’lumot olishadi, xodimlar yoki vakillar asosiy ishdan chalg‘ishmaydi.

Biznes taqdimoti - bu omma oldida nutq so‘zlashning alohida holatidir, shuning uchun jamoatchilik nutqida amaldagi qonunlar qo’llaniladi.

Taqdimot samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar quyidagilardan iborat: maqsad omili (nima uchun?), auditoriya omili (kim?), joy omili (qayerda?), usul omili (qanday qilib?).

Maqsad omili.

Biznes taqdimotining maqsadlari turlicha. Eng oddiy maqsad tinglovchilarni xabardor qilishdir. Bunday holda, ishonch hosil qilishning hojati yo'q, mavjud ma'lumotni ko'rsatish kifoya. Yana bir maqsad - mahsulot yoki xizmatga e'tibor berish, kompaniyaning holatini mustahkamlash.

Bu yerda ishonch va ta'sir elementlari allaqachon mavjud. Eng qiyin maqsad tinglovchilar fikrini o'zgartirishdir. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, bu savdoga teng, faqat taqdimot natijasi shartnomaga tuzish emas, balki tinglovchilarning taqdim etilayotgan obyektga bo'lgan munosabatini o'zgartirishdir.

Auditoriya omili.

Tayyorgarlikni savollarga javoblar berish bilan boshlash kerak: taqdimotda kim ishtirok etadi, kutilgan tinglovchilarning bilim darajasi va uning ehtiyojlari qanday.

Eng tipik bo'lgan xato – auditoriyani noto'g'ri baholash, natijada tomoshabinlarning ortiqcha umidlari oqlanmaydi yoki bayon qilish yetarli darajada emas. Ikkala holatda ham nutq o'z maqsadiga erishmaydi.

Joy omili.

Makon qanchalik katta bo'lsa, tinglovchilarning muhokamada ishtirok etish ehtimoli kamroq bo'ladi. Demak, teskari prinsip ham amal qiladi: agar taqdimotning maqsadi tomoshabinlarning chiqishlarini nazarda tutmasa, tomoshabinlar soni maksimal darajagacha ko'payishi mumkin.

Xonaning xususiyatlari va uning texnik jihozlari (yorug'lik, eshitish, mikrofon, ekran, proyektor mavjudligi va boshqalar) muhim rol o'ynaydi.

Usul omili.

Birinchi navbatda bu axborotni to'g'ri tashkil etish jarayonidir. Keyin dalillarni tanlab olish, aks ettirish vositalarini va tashuvchilarni tanlash kerak.

So‘ng vizual yechimlar hamda undan keyin – grafik timsol va bezaklar shakllantiriladi.

Taqdimot tarkibi

Agar taqdimotni uchta komponent shaklida taqdim etsangiz - kirish, asosiy qism va xulosa – uni ishlab chiqishni asosiy qismdan boshlash kerak.

Bu yerda asosiy fikrlarni ta’kidlash va ularni rasmiylashtirish kerak. Keling, o‘zingizni loyiha rahbari sifatida tasavvur qilaylik. Ushbu vaziyatda keltira oladigan asosiy g‘oya quyidagicha ifodalanishi mumkin: loyihani o‘z vaqtida bajarish uchun biz aniq qadamlar qo‘yishimiz kerak.

Butun taqdimotning diqqat-e’tibori bu bosqichlarda amalga oshirilishi kerak. Taqdimotning asosiy qismini ishlab chiqqandan so‘ng, siz kirishga o‘tishingiz mumkin. Ushbu qismda odatda to‘rtta maqsad bor: diqqatni jalb qilish, ishonch darajasini ko‘tarish, kelgusi taqdimot haqida ma’lumot berish, nutq mavzusi bo‘yicha o‘z vaziyatini shakllantirish.

Ma’lum bo‘lмаган faktlarni taqdim etish bilan kirishni boshlash mumkin. Juda mashhur va samarali boshlanish – bu provokatsion yoki noaniq bayonot berish, haqiqiy yoki ritorik savol berish. Tomoshabinlar e’tiborini jalb qilgandan so‘ng, taqdimotning asosiy qismiga o‘tish kerak. Bu yerda mavzu batafsil muhokama qilinadi.

Agar maqsad xabardor qilish bo‘lsa, unda taqdimotning asosiy qismi mavzuni tasvirlab, tomoshabinlarga qanday munosabatda bo‘lishini namoyish qilishi kerak. Agar maqsad ishonch hosil qilish bo‘lsa, unda taqdimotning asosiy qismi muammoni aniqlash va yechimlarni taklif qilish uchun ishlatiladi.

Taqdimot vaqtin cheklanganligi sababli, taqdimotda ko‘rsatilgan asosiy g‘oyalar soni kamaytirilishi kerak (ikkitanan beshtagacha band tavsiya etiladi). Shuning uchun taqdimotda kamroq bandlarni kiritish yaxshiroqdir, chunki mohiyatini ochib berishda har bir bandning dalillarini taqdim etish kerak.

Taqdimotning majburiy tarkibiy qismi barcha raqamlar, tushuntirishlar va sharhlar bilan bosma shaklda taqdim etilgan barcha materiallarning mavjudligidir.

Yaxshi taqdimot hamda materiallarning bosma shaklda mavjudligi ishonch va hurmatga sabab bo‘ladi.

Xulosa qismida taqdimotning asosiy maqsadini yana bir bor ta’kidlash kerak. Nutqning bu qismi visual vositalar yordamida yorqin va esda qolarli bo‘lishi kerak. Nutqni o‘rinli iqtibos yoki noodatiy fikr bilan yakunlash mumkin. Tinglovchida tugallanganlik hissi qolishi kerak.

Taqdimotning tarkibiy turlari:

1) tematik tuzilish

- mavzuga oid bir nechta g’oyalar mavjud bo‘lganda ishlatiladi va har bir alohida g‘oya asosiy bandga aylanadi; bunday tuzilma axborot beruvchi nutqlar uchun foydalidir;

2) xronologik tuzilish

- fon ma’lumotlarini taqdim etishni talab qiluvchi axborot beruvchi va ishontiruvchi nutqlar uchun ishlatiladi;

3) makon tuzilishi

- materialni fizik makonga muvofiq tashkil qiladi; tuzilma axborot beruvchi nutqlar uchun foydalidir;

4) tizimlashtirilgan tuzilma

- materiallarni mezonlar bo‘yicha tashkil qiladi; tuzilma axborot beruvchi va ishontiruvchi nutqlar uchun foydalidir;

5) muammo / yechim

- ushbu tuzilma muammolarni tavsiflab, keyin yechimlarni taqdim etadigan materiallarni tashkil qiladi; bunday tuzilma ishontiruvchi nutq uchun foydalidir;

6) sabab / oqibat

- muammo/vaziyatning paydo bo‘lish sababini tavsiflaydi va keyinchalik oqibatlarni keltirib chiqaradi; bunday tuzilma ishontiruvchi taqdimotlar uchun foydalidir.

Taqdimot jarayonida ko‘rgazmali vositalardan foydalanish.

Multimediali taqdimot- bugungi kunda axborot taqdim etishning yagona va eng zamonaviy shakli hisoblanadi. Bu matnli ma'lumotlar, rasmlar, slayd-shou, direktor jo'rлигидаги овоз билан boyitilgan, videoparcha va animatsiya, uch o'lchamli grafika tarzidagi dasturiy ta'minot bo'lishi mumkin. Taqdimotning ma'lumot taqdim etishning boshqa shakllaridan asosiy farqi ularning mazmunan boyitilganligi va interfaolligidir, ya'ni belgilangan shaklda o'zgarishga moyilligi va foydalanuvchi faoliyatiga munosabatini bildirishidir.

Ma'lumki, inson ma'lumotning ko‘p qismini ko‘rish (-80%) va eshitish (-15%) organlari orqali qabul qiladi.

Taqdimotni tuzish jarayoni quyidagi harakatlardan iborat:

- 1.Taqdimotni umumiyliz bezash usulini tanlash;*
- 2.Slaydlarning mazmuniy o'lchamlarini tanlash;*
- 3.Yangi slaydni va uning tarkibiy qismlarini qo'shish;*
- 4.Slayd hajmi vao'lchamlarinitanlash;*
- 5.Slaydlarga bezashda zarur bo'lgan o'zgarishlar kiritish;*
- 6.Slaydlarni ko'rsatishda tovushli animatsiya jihatlarini yaratish.*

Taqdimotni tayyorlash jarayonida Microsoft Power Pointda ko'rsatilayotgan ma'lumotlar taqdim etilayotgan ishning mazmuni va mohiyatini, natijalari va xulosalarini, takliflarini aks ettirishi lozim. Taqdimot quyidagi tavsiflarga ega bo'lishi kerak:

- a) slaydlar soni (7 – 10 ta);
- b) slaydlarning mazmuniy o'lchamlari;
- c) birinchi slayd ishning mavzusi, obyekti, bajaruvchi to'g'risida to'liq ma'lumot berishi zarur;
- d) oxirgi slayd ma'lumotlar manbalari tavsifiga bag'ishlangan bo'lishi kerak.

Taqdimot tili

Slayd matni tayyorlashda va taqdimotda nutq so‘zlashda tavsiya etiladi:

- murakkab sintaktik qurilmalardan qochish, xususan qadrlamasdan va vaziyatni baholaganimizda); qoidaga rioya qiling – bir fikr-bir ibora;
- shaxsi bo‘lmagan, shaxsi noaniq va passiv shakllar o‘rniga shaxsiy shakllardan foydalaning (sezilmadi, lekin biz sezdik);
- og‘zaki nutq uslubi elementlarini matnga kiritish;
- tez-tez tinglovchilarga murojaat qilish, ularni mulohaza yuritishga jalb qilish (endi savol, diqqat qiling, o‘zingiz ko‘rib turganingizdek, ishoning, ko‘proq misollar keltira olaman);
- ijobiy hissiy bo‘yoqqa ega so‘z birikmalaridan foydalanish (ajoyib, juda yaxshi, chiroyli, go‘zal, barakalla);
- shubhali taqqoslashlar, noaniq ifodalar, talqinlardan qochish;
- iqtiboslar, allomalarga murojaat qilish, frazeologik birliklar, maqollar va matallar ko‘rinishida qo‘srimcha materiallarni jalb qilish,;
- uzun matnni bir nechta slaydlarda joylashtirish;
- slaydning matnini o‘qimang, balki undagi asosiy fikrga izoh bering.

Mavzu yuzasidan mashq va topshiriqlar

1-topshiriq.

TATU



Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti (sobiq Toshkent elektrotexnika aloqa instituti) 1955- yilda tashkil topgan. 2002 yil 30 may kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti PF-3080 Farmoniga binoan Toshkent axborot texnologiyalari universitetiga aylantirildi. 2005 yil 2 iyun kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti PQ-91 sonli Qaroriga TATUning Qarshi, Samarqand, Urganch va Farg’ona shaharlarida mintaqaviy filiallar tashkil etilgan.

Universitet va uning mintaqaviy filiallari tarkibida 13 ta fakultet, 62 ta kafedra mavjud bo‘lib, ta’limning 23 yo‘nalishi bo‘yicha, jumladan bakalavriatning 8 yangi yo‘nalishi va magistraturaning 9 yangi mutaxassisligi bo‘yicha kadrlar tayyorlanadi.

Universitet va uning mintaqaviy filiallarida 10242 talaba tahsil oladi, jumladan 9858 bakalavriat talabalari va 384 nafar magistrantlar tashkil etadi. So‘nggi yil ichida Universitet 1 nafar talabasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasi, 5 nafar talaba Davlat nomli stipendiyasi, 32 nafar talaba aloqa sohasi stipendiyasi hamda 44 talaba respublika fan olimpiadalari va tanlovlardan sovrinli o‘rinnarni egallashdi. Universitetda 780 ta professor-o‘qituvchilar ishlaydi, shulardan 204 ta fan nomzodlari va dotsentlar. Ilmiy darajaga ega o‘qituvchilar umumiy sonidan 31% tashkil etadi.

Universitet va filiallarining umumiy maydoni 54,4 ming kv.km. ni tashkil etib, unda 380 o‘quv auditoriyalari, 113 nafar o‘quv laboratoriyalari, 10 ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari, 9 sport majmualari va maydonchalar, 7 ta talabalar turar joylari va 11 oshxona binolari faoliyat yuritadi.

Universitet 26 nafar xorijiy davlatlarning (Janubiy Koreya, Yaponiya, Germaniya, Frantsiya, Xindiston va x.k.) 42 universitet, 8 ilmiy-tadqiqot markazlar, 12 korxonalar va tashkilotlar bilan hamkorlik o‘rnatdi.

Xalqaro hamkorlik natijasida so‘nggi yillarda 16 ta o‘quv laboratoriylar, 9 kompyuter sinfi, 4 markaz – O‘zbek-Hind axborot texnologiyalari markazi,

O‘zbek-Koreya axborot texnologiyalari markazi, "Internet Plaza" nomli O‘zbek-Koreya markazi, "CISCO" mintaqaviy akademiya o‘quv markazi tashkil etildi.

ViewSonic interaktiv proyektori va zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlangan multimedia sinfi yaratilgan.

Universitetning hududiy ikkita filiallari direktorlaridan tashkil topgan delegatsiya va xalqaro aloqalar bo‘limi boshlig‘i 2015 yil 14-22 dekabr kunlari Koreyaning Seul Milliy universitetiga tashrif buyurishdi. Tashrifning asosiy maqsadi, CMU va TATU o‘rtasidagi hamkorlikning 10 yilligini nishonlashga bag‘ishlangan xalqaro konferentsiya va tadbirlarda ishtirok etishgan. Konferensiya jarayonida TATU delegatsiyasi hamda SMU ning magistratura va doktoranturasida tahsil oladigan talabalar, TATU va uning filiallarining hozirgi paytdagi faoliyati, dissertatsiya mavzulari haqida taqdimot qilishdi. Bundan tashqari TATUning ikki professori o‘zlarining tadqiqot projektlarini internet orqali videokonferensiya shaklida namoyish qildilar.

2013-2014 o‘quv yilidan TATU ga qabul qilish test sinovlari blokiga ingliz tili fani kiritildi, shuningdek maxsus fanlarni 2015-2016 o‘quv yilida 31 tadan 60 tagacha oshirib, ingliz tilida o‘qitila boshladi.

Universitet axborot resurs markazi umumiy fondining 322 mingdan ortiq adabiyotni o‘z ichiga oladi, undan 194 ming o‘quv adabiyoti, 100859 – ilmiy fondi, 13 mingdan ortig‘i esa elektron adabiyotni tashkil etadi. Ingliz tilidagi chet el o‘quv adabiyotlari fondi 16 mingni tashkil qiladi. ARM ikkita dastur IRBIS va ARMAT da ishlaydi. ARM barcha fondi bu ikki dasturga kiritilgan. Bibliografik yozuvchilarining umumiy soni 42752 taga etdi. ARM fondida 58 ta doktorlik dissertatsiyasi mavjud. TATU o‘quvchilari www.dilib.uz va www.natlib.uz saytlaridan foydalanishlari mumkin.



Turli axborot tizimlari yaratilib, ta’lim jarayoniga va universitet boshqaruvi jarayoniga tatbiq etildi: jumladan, "Dekanat" elektron dasturi www.decanat.tuit.uz, ijro intizomi va hujjat almashinuvi elektron

tizimi www.dcs.tuit.uz, kabilar yaratilgan bo‘lib, ular ijro intizomi va hujjat almashinushi jarayonini, hamda talabalar va o‘qituvchilarining yo‘qlama va o‘zlashtirishi, talabalarning o‘qish uchun to‘lovlarini ro‘yxatga olinishi nazorat qilinadi.

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va uning 5 ta mintaqaviy filiallarida, shuningdek, 19 ta oliy o‘quv yurtlari va mamlakatimizdagi 59 ta kasb-hunar kollejlarida malaka oshirish kurslari hamda Vazirlar Mahkamasi bazaviy o‘quv markazlari samarali tashkil qilingan.

TATU qoshidagi “Elektron hukumat” o‘quv markaziga Koreya Respublikasidan 1 yil muddatga xorijiy mutaxassis taklif qilingan. Unga “Elektron hukumat” loyihalari doirasida yangi o‘quv dasturlari ishlab chiqish vazifasi yuklatilgan.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar

1. Matnni o‘qing va mazmunini o‘zgartirib gapirib bering.
2. Universitetingiz haqida taqdimot tayyorlang.

2-topshiriq. “Universitet” so‘ziga sinkveyn tuzing.

“Sinkveyn” (5-qator) texnikasi:

- 1-qator - tushuncha - ot
- 2-qator - 2 so‘zdan iborat sifat
- 3-qator - 3 so‘zdan iborat fe’l
- 4-qator -4 so‘zdan iborat munosabat
- 5-qator - 1 so‘zdan iborat sinonim

3-topshiriq. Sharqning buyuk allomalari qalamiga mansub asarlarni jadvalga yozing.

Allomalar	Asarlari nomi
Muhammad al-Xorazmiy	
Ahmad al-Farg'oniy	
Ahmad Yugnakiy	
Imom al—Buxoriy	
Muhammad at-Termiziy	
Abu Ali ibn Sino	
Abu Rayhon Beruniy	
Yusuf Xos Hojib	
Mahmud Qoshg'ariy	
Mahmud az-Zamaxshariy	

4-topshiriq.

Sharqning buyuk allomalari

IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda Evropadan bir necha asr ilgari madaniy yuksalish – Uyg'onish davri yuz bergan. Bu davrni Sharq Renessansi deb ataydilar (Evropada bunday davr bundan bir necha asr kech, ya'ni XV-XVII asrlarda ro'y berdi).



Markaziy Osiyoning madaniy yuksalish –Uyg'onish davrida bu hududda Muso al-Xorazmiy (783-850), Ahmad al-Farg'oniy (797-865), Ahmad Yugnakiy,

Imom al—Buxoriy (810-870), Muhammad at-Termiziy (873-950), Abu Ali ibn Sino (980-1037), Abu Rayhon Beruniy (973-1048), Abu Abdulloh Rudakiy (860-941), Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg’ariy, Mahmud az-Zamaxshariy (1075-1144), Burhoniddin al-Marginoniy (1123-1197), Ahmad Yassaviy (1041-1167) kabi jahonshumul olimlar dunyoga keldi, ijod qildi va insoniyat uchun juda katta ilmiy meros qoldirib ketdi.

Qizig’i shundaki, yuqorida tilga olingan daholarning har biri haqiqiy ensiklopedik olim bo‘lib, insoniyat ilmining turli sohalariga oid bebaho asarlar yozib qoldirganlar. Bu asarlar keyinchalik, XV-XVII asrlarda ro‘y bergen Evropa Renessansi – Uyg’onish davri olimlariga dasturi amal bo‘lgan. Ular hozirgi davrgacha jahonning barcha yirik kutubxonalarida saqlanib qolgan bo‘lib, ko‘p sohalar bo‘yicha hozirgi davrgacha darslik sifatida qo‘llanib kelinadi. Abu Ali ibn Sinoning tibbiyat sohasidagi, Al – Farg‘oniyning astronomiya sohasidagi, Beruniyning falsafa ilmi bo‘yicha qoldirgan asarlari shular jumlasidandir.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1. *Matnni o‘qing. Matnga reja tuzing.*
2. *Reja asosida matn mazmunini so‘zlab bering.*
3. *Matndan tayanch so‘zlarni aniqlab, ko‘chirib yozing.*


5-topshiriq. *Jahon sivilizatsiyasiga o‘z hissasini qo‘sigan buyuk olimlar haqida taqdimot tayyorlang.*

Nazorat savollari

1. Taqdimot - bu
2. Taqdimot tuzilishini tavsiflang.
3. Biznes taqdimoti nimani anglatadi?
4. Taqdimot turlarini sanab o‘ting.
5. Taqdimotning maqsadi nimadan iborat?

28-29-mavzu. Ilmiy -tadqiqot matnini yaratish.

Iqtibos keltirish. Parafraza



Nazariy ma'lumot.

Ilmiy ishni yozish haqida

Mavzuning ilmiy-metodik adabiyoti o'rganilib, ishlab chiqiladi, mavzu bo'yicha faktik material to'planib, dastlabki tasnif amalga oshiriladi. Shu bilan ilmiy ish olib borishga tayyorgarlik bosqichi asosan tugab, bevosita ilmiy ishning o'zini yozish bosqichi boshlanadi.

Ma'lumki, ilmiy tadqiqot mavzusi tanlanganidan keyin ilmiy ishning xomaki rejasi tuziladi. Mavzuning ilmiy-metodik adabiyoti sinchiklab o'rganilganidan keyin, bu xomaki rejaga turli-tuman o'zgarishlar kiritiladi. Mavzu bo'yicha to'plangan faktik materialning dastlabki tasnifi ham ish rejasiga o'zgartirish kiritish lozimligini ko'rsatishi mumkin. Ana shunday o'zgarishlardan keyin bajariladigan ilmiy ishning mazmun-mundarijasi ancha oydinlashadi.

Ilmiy-tadqiqot ishi, odatda, kirish, asosiy qism, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, mundarija qismlaridan iborat bo'ladi; mavzuning tabiatiga qarab ilova qismi ham beriladi.

Ilmiy ishni yozish odatda "Kirish" qismini yozish bilan boshlanadi. Ilmiy ishning "Kirish" qismi ikki bo'limdan tarkib topadi:

1. Ishning umumiyl tavsifi. 2. Mavzuning o'rganilish darajasi (ilmiy -metodik adabiyotlarga tavsif). Ishning umumiyl tavsifi bo'limida mavzuning dolzarblii asoslanadi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari kabi bir qancha masalalar qisqa tarzda bayon qilinadi.

"Kirish" qismining ikkinchi bo'limida dissertatsiya mavzusi bo'yicha o'rganib chiqilgan ilmiy-metodik adabiyotlarga tavsif beriladi, ularning yutuq va kamchiliklari tahlil qilinadi. Adabiyotlarga munosabat xronologiyani saqlab bildiriladi, shunda mavzuning o'rganilish darajasi bosqichma-bosqich ochiq

ko‘rinadi. Adabiyotlarda aytilgan fikr-mulohazalarga xolisona yondashib baho berish kerak.

Tadqiqot ishining asosiy qismi mavzuning tabiatiga qarab turlicha bo‘ladi. Bu qismning boshlanishida ilmiy ish qanday boblarga bo‘lingani qisqa izohlanadi, so‘ngra sarlavhalar ostida har bir bobning matni boshlanadi. Mavzuning tabiatini talab qilsa, dissertatsiya avval yirik bo‘limlarga ajratilib, keyin bu bo‘limlar boblarga ajratiladi. Boblar o‘z navbatida turli sarlavhalar bilan qismlarga ajratiladi, bular o‘z navbatida yana kichik sarlavhalar bilan ajratilishi mumkin. Shundan keyingi bo‘linishlar raqamlash orqali amalga oshiriladi.

Ilmiy ishning asosiy qismi oldiga qo‘yiladigan talablardan biri - ajratiladigan bo‘limlar, boblar, sarlavhalar mazmunan asosli bo‘lishi, izchil joylanishi, hajman ham mumkin qadar mutanosib bo‘lishi kerak.

Xulosalar ikki turli bo‘ladi: 1) Ilmiy ishning har bir bobi o‘z xulosalari bilan yakunlanadi; 2) Ilmiy ishning oxiriga umumiy xulosalar chiqariladi. Shuni hisobga olib, muhim xulosalarni boblar oxirida bermay, dissertatsiya oxiridagi xulosalarda berish lozim. Xulosalar lo‘nda, aniq va ishonarli bayon qilinishi zarur; bu yerda ortiqcha so‘zga o‘rin yo‘q. Xulosalar odatda raqamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatini tuzish alifbo tartibida amalga oshiriladi: avval birinchi harfi asosida, birinchi harfi bir xil bo‘lsa, ikkinchi harfi asosida, bular ham bir xil bo‘lsa, uchinchi harfi asosida va hokazo joylanadi. Bir avtorning bir necha asari ham odatda alifbo tartibida joylanadi.

"Foydalanilgan adabiyotlar" qismidan keyin (agar "Ilova" qismi bo‘lmasa) "Mundarija" joylanadi. "Mundarija"ni ilmiy ishning boshlanishida (sarlavhasidan keyin) joylash ham uchraydi. Mundarija dastlab tuzilgan ish rejasini hisobga olgan holda ilmiy ishning amalda ajratilgan bo‘lim, bob, sarlavhalari asosida tuziladi. Mundarijada eng yirik bo‘limlarning nomi katta harflar bilan, ikkinchi darajali sarlavhalar kichik qora harflar bilan, uchinchi darajali sarlavhalar och kichik harflar bilan hoshiyadan boshlab yoziladi. Mundarijada qo‘yilgan sahifa raqamlari ishning shu sarlavhalar aks etgan sahifalariga mos bo‘lishi lozim.

Mavzuning tabiatiga qarab ilmiy-tadqiqot ishida "Ilova" qismi ham berilishi mumkin. Bunday qism mundarijadan oldin joylashadi. Masalan, dissertatsiya leksik polisemiyani yoritishga bag'ishlangan bo'lsa, ishda tahlil qilingan ko'p ma'noli leksemalarning sememalar tizimini aks ettiruvchi izohlar jamlanib, turli chizmalar tarzida ilova qilinishi mumkin.

Ilmiy tadqiqotning barcha qismlari yozib bo'linganidan keyin ilmiy ish matni bir butun holda maxsus kuzatilib, yo'l qo'yilgan nuqsonlar bartaraf qilinadi. Agar zid fikrlar aks etib qolgan bo'lsa, shulardan to'g'risi saqlanib, noto'g'risi o'chirilishi va matnning boshqa zarur o'rinaliga ham bir vaqtning o'zida o'zgartirishlar kiritilishi lozim. Zarur o'zgarishlar birvarakayiga kiritilmasa, keyin xotiradan ko'tarilib, natijada zid fikrlarning izlari saqlanib qoladi va bu holat ilmiy ishning mazmun-mohiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ilmiy ish matnini uslubiy jihatdan ham sinchiklab kuzatish kerak: fikr bildirishda, so'z ishlatalishda, qo'shimcha ishlatalishda voqe bo'lgan qaytariqlarni, uslubiy g'alizliklarni bartaraf qilish lozim. Ilmiy ishning matni barcha kamchilik-nuqsonlardan holi qilinganidan keyingina, uni taqriz uchun topshiriladi.

Mavzu (tavsif predmeti) – (grek. thema- asosiga qo'yilgan)

- 1) tavsifning predmeti, tasvirlar, tadqiqotlar, nutqlar, munozaralar.
- 2) badiiy tasvirning obyekti, yozuvchi yoki rassom tomonidan ko'rsatiladigan hayotiy hodisalar doirasi.

Gipoteza - har qanday hodisalarni tushuntirish uchun taqdim etilgan ilmiy taxmindir; bu tadqiqot olib kelishi mumkin bo'lgan umumiy qoidalar, asosiy g'oyalarning aqliy ifodasidir. Muallif tanlangan mavzu bo'yicha faktlarni oldindan o'rganib chiqqandan so'ng, tadqiqot natijalari bo'yicha taxminni shakllantiradi. Fikrlash bunda oqibatdan sababga qarab boradi. Gipoteza asoslangan va ichki tomonidan ziddiyatsiz bo'lishi kerak.

Ilmiy matnlar birlamchi va ikkilamchi bo'ladi. Birlamchi - asosiy manbalar, asl nusxalar. Bunga, masalan, ilmiy maqola, monografiya kiradi. Ilmiy maqola - muallif o'z tadqiqotining natijalarini bayon etgan yozma ish. Monografiya - bir

mavzuni o‘rganishga bag‘ishlangan ilmiy ish.

Ikkilamchi matnlar boshqa muallifga tegishli bo‘lgan birlamchi matnlar asosida yaratiladi.

Ilmiy matnda (birlamchi va ikkilamchi) quyidagi qismlar ajratiladi: sarlavha, kirish qismi (ishning maqsadi shakllantiriladi va tadqiqot mavzusini tanlash asoslab beriladi, tadqiqot usullari tavsiflanadi). Asosiy qism ish vazifalariga muvofiq bo‘limlarga bo‘linadi. Har bir yangi fikr yangi abzatsdan yoziladi. Xulosa qismi xotimalar yoki qisqacha yakun shakliga ega.

Matn ustida ishslash kirish bilan boshlanadi. Bu ishning bir qismi emas, balki ishni tavsiflovchi hujjat hamdir. U tanlangan mavzuning dolzarbligini asoslash bilan boshlanadi.

Muallifning mavjud manbalar bilan tanish ekanligini, uning o‘tmishdoshlari tomonidan berilgan baholarga nisbatan tanqidiy fikrlash qobiliyatini ko‘rsatish kerak. Bundan belgilangan ishning maqsadi mantiqan kelib chiqadi.

Ishning keyingi bosqichi muammoni o‘rganish usuli haqida hikoya qiladi. Tadqiqot maqsadlari va vazifalarini shakllantirish aniq va qisqa, mantiqiy to‘g‘ri bo‘lishi kerak. Agar maqsad bitta bo‘lishi mumkin bo‘lsa, u holda bir nechta vazifalar bo‘lishi kerak, ular maqsadni amalga oshirishning yo‘llarini ifodalaydi. Ko‘pincha vazifalarni ta’riflash asosiy qismning boblari va paragraflarining nomlari bilan mos keladi. Vazifalar ro‘yxat shaklida beriladi.

Asosiy qismning mazmuni mavzuga bog‘liq. Paragraflarning nomlari bobning nomi bilan belgilangan chegaradan tashqariga chiqmasdan shakllantirilishi kerak. Asosiy qismning umumiy mazmuni tadqiqot mavzusiga mos kelishi va uni ochib berishiga xizmat qilishi kerak.

Xulosa muhim vazifani bajaradi. Unda tadqiqotning barcha yo‘llarini aks etadi. Undan mantiqiy xulosa chiqarish kerak. Xulosalar boshida belgilangan vazifalar bilan mos bo‘lishi kerak.

Xulosa – bu aniq yutuqlar ko‘rsatilgan, kerak bo‘lganda amaliy foydasi

aks ettirilgan o‘ziga xos hisobot. Bibliografiya va ilovalar han muhim elementlar hisoblanadi.

Universitet amaliyotida talabalar ikkilamchi matndan keng foydalanadilar. Bu siqilish natijasida hosil bo‘ladi. Siqish yordamida matn hajm jihatidan kichikroq bo‘ladi, unda asosiy holatlarni va eng muhim joylarni ajratib ko‘rsatish osonroq. Siquvdagi harakatlar ketma-ketligi quyidagicha:

1. *Matnni o‘qish va kalit so‘zlarni aniqlash.*
2. *Tegishli nutq klishelaridan foydalanib, ikkilamchi matn yozish.*

Iqtibos (arab. — ziyo olmoq) — biror asardan so‘zma-so‘z olingan parcha. Iqtibos bayon qilinayotgan fikrni ishonchli fikr bilan quvvatlash, muayyan fikrni tanqid qilish uchun hamda muhim faktik material — misol sifatida qo‘llaniladi. Iqtibos, asosan, ilmiy (ko‘pincha gumanitar) va rasmiy nutqda ishlatiladi hamda qo‘shtirnoq bilan belgilanadi yoki alohida harf bilan yoziladi, shuningdek, manbaga havola qilinadi. Bunday ko‘chirmalar foydalanuvchining fikri bilan qiyoslanganda uning mohiyatini to‘g‘ri tushunish imkonini beradi. Masalan, badiiy adabiyotning, so‘zning g‘oyaviy-estetik ta’sir kuchi, ahamiyatini quroldan ham kuchliroq ekanligi to‘g‘risidagi fikrni mustahkamlash maqsadida P.Tursunning «Adabiyot zambarakdan zo‘r» yoki A. Qahhorning «Adabiyot atomdan kuchli» degan so‘zlarini yoki bo‘lmasa, «tig‘ yarasi bitar, ammo til yarasi bitmas» maqolini iqtibos sifatida qo‘llash mumkin. Iqtibosdan ko‘p hollarda epigraf va shior o‘rnida ham qo‘llaniladi. Agar muallif fikriga zarar yetmasa, iqtibosda orfografiya va punktuatsiyani o‘zlashtirish, so‘z (so‘zlar)ni tushirib qoldirish mumkin (bunda ko‘p nuqta bilan belgi qo‘yiladi).

Qisqacha mazmuni, parafraza va iqtiboslar

“O‘zingizning so‘zlarining bilan yozilgan xulosa yozuvchining asosiy fikrlarini qisqacha takrorlaydi. **Parafrasa**, sizning so‘zlarining bilan yozilgan bo‘lsa-da, sizning manbangizdagi tafsilotlarni yoki g‘oyaning rivojlanishini bog‘lash uchun ishlatiladi. Kam ishlatilgan kotirovka sizning ishingizga ishonch bag‘ishlashi yoki

unutilmas parchani qo‘lga kiritishi mumkin. "(L. Behrens, *Akademik yozish uchun ketma-ketlik*. Longman, 2009 yil

Stiv Jobsning parafrazalashi

"Stiv [Jobs] Apple kompaniyasining mahsulotlari nega shunchalik yaxshi ko‘rinishini yoki juda yaxshi ishlashini" shou-mashina "latifasini aytib berish bilan izohlaganini tez-tez eshitganman. "Siz shou-avtomashinani ko‘rasiz", -der edi u (men **parafrazalash** bu yerda, lekin bu uning so‘zlariga juda yaqin) va siz shunday deb o‘ylaysiz: "Bu ajoyib dizayn, ajoyib chiziqlar bor." To‘rt-besh yil o‘tgach, mashina ko‘rgazma zalida va televizion reklamalarda. Va nima bo‘lganiga hayron bo‘lasiz. Ularda bor edi, keyin uni yo‘qotib qo‘yishdi". (Jey Elliot Uilyam Simon bilan, *Stiv Jobs yo‘li: Yangi avlod uchun iLiderlik*. Vanguard, 2011 yil

Parafrazani ishlatish sababları

Parafraza sizning o‘quvchilaringizga sizning manbalaringiz haqida bat afsil ma’lumot olishlariga va bilvosita sizning tezisingizni haqiqiy deb qabul qilishlariga yordam beradi. Insholarda parafrazani ishlatishning ikkita asosiy sababi bor.

Mavzu yuzasidan mashq va topshiriqlar

1-topshiriq.

Ta’lim sohasida internet texnologiyalari



Bugungi kunda internet bizning hayotimizga tobora kirib bormoqda. Internetda pochta, telefoniya, biznes (savdo, bank, auksion) ishlari ko‘proq amalga

oshirilmoqda. Kundan-kunga tarmoqda axborot manbalari ko‘paymoqda. Yildan -yilga Internetdan foydalanuvchilar soni ortib bormoqda. Internet deyarli ta’lim jarayoni uchun ideal muhit vazifasini o‘taydi. Bunga Internet foydalanuvchilarining dunyoning istalgan nuqtasidan tarmoq resurslaridan foydalana olishligi muhim omillardan biri sifatida ko‘rsatilmoqda.

Tarmoq foydalanuvchilari va axborot sahifalari soni uzliksiz tarzda o‘sib borib, ko‘pchilik yoshlar uchun ermak va qulay vositaga aylanmoqda. AQSh da o‘tkazilgan statistik tadqiqotlarga ko‘ra Oliy o‘quv yurtlarining yuqori kurs va kollejlari talabalarining 100%i Internetdan foydalanadilar. Talabalar Internetning faol foydalanuvchilari sifatida haftasiga o‘rtacha 11 soatni onlaynga sarflaydilar. Har 10 talabadan 9 tasi kuniga yelektron pochtasidan foydalanadilar. Internetdan yangilik, axborot va ish qidiradilar. Amerikalik 5 dan 17 yoshgacha bo‘lgan bolalarning deyarli 90% i kompyuterdan foydalanadilar, bu foydalanuvchilarning 59%i Internetdan foydalanuvchilardir. 15 yoshli amerikaliklarning har to‘rtinchisi Internetdan foydalanadilar, 10 yoshlilar guruhida bo‘lsa 60% ni, 16 va undan kattalarda bu ko‘rsatkichlar 80% ni tashkil etadi (bu ko‘rsatkichlar ham vaqt o‘tishi bilan ortib bormoqda).

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1. *Matnni o‘qing.*
2. *Matnni yangi ma’lumotlar bilan to‘ldiring.*
3. *Matnni kirish va asosiy qismga ajrating.*
4. *Xulosa qismini mustaqil yozing.*

2-topshiriq. T-sxema bo‘yicha internetdan foydalanishning salbiy va ijobjiy tomonlarini yoriting.

Internet


Salbiy tomonlari	Ijobiy tomonlari

3-topshiriq. *Darslik va jurnaldan yoqtirgan fanningizga oid matnni tanlab, ixchamlashtiring. So ‘ng matnni qisqa tarkibiy qismlarga ajrating va har biriga mos ravihda sarlavha toping. Iqtibos keltiring.*

4-topshiriq.

Kitob haqida qiziqarli faktlar

- Imam al-Buxoriy 600000 hadis to‘plab, shundan 100000 sahih, 200000 zaif hadisni yodlagan. Bu hadislarni to‘plashda 90000 dan oshiq kishining huzurida bo‘lib chiqqan.
- Ayollar erkaklarga qaraganda ko‘p (68 %) kitob sotib oladilar.
- Dunyoda sotiladigan kitoblarning yarmidan ko‘pini 45 yoshdan oshgan kishilar sotib oladilar.



- Bitta roman yozish uchun 500 soat ketadi.
- Jamoa bilan kitobni ovoz chiqarib o‘qish bo‘yicha eng uzoq davom etgan marafon 224 soat kechgan.
- Dunyodagi eng katta lug‘at «Nemis lug‘ati» («Deutsches Wörterbuch») bo‘lib, u 1854 yili Yakob va Vilgelm Grimm tomonidan boshlangan. Bu ishga keyinchalik turli olimlar hissa qo‘shib, 1971 yili yakunlangan. 33 jiddli ushbu lug‘at 34519 betdan iborat.

— Barcha zamon va xalqlarning eng mashhur yozuvchisi Agata Kristidir. Uning detektiv hikoyalari 50 dan ortiq tilda hamon chop etilmoqda. Kristining nashr etilgan kitoblari nusxasi 2 milliarddan oshadi.

— Dunyodagi eng og‘ir kitob Britaniya muzeyida saqlanuvchi XVII asrga oid geografik atlasdir. Uning bo‘yi 1,9 metr, og‘irligi 320 kilogrammdir.

— Google dunyoda chop etilgan barcha badiiy, publitsistik, ilmiy asarlar sonini hisoblab chiqqan. Ularning soni 130 milliondan oshadi.

— Ma’lumki, qadimda kitob juda qimmat bo‘lgan. 18-asrgacha ba’zi kutubxonalarda kitoblar o‘g‘irlanmasligi uchun zanjirga bog‘lab qo‘yilgan.

— Kitobni sekin o‘qilganda 100 foiz matn tushunilmaydi, faqatgina 60 foiz anglanadi, aksincha, tez o‘qilganda matnning 80 foizi tushuniladi.

— Aksariyat o‘quvchilar kitobning 18-betidayoq unga qiziqishni yo‘qotadilar.

— Bolani o‘qishga o‘rgatish uchun eng qulay payt — 4-6 yoshlik paytidir. Bolani 7 yoshdan o‘qishga o‘rgatish biroz qiyin kechadi.

— Dunyodagi eng qimmat badiiy asar Leonardo da Vinci tomonidan ko‘chirilgan «Leychester kodeksi» kitobidir. Uni «Maykrosoft» asoschisi Bill Geyts 1994-yili Nyu-Yorkdagi «Sotbis» auksionidan 30,8 million dollarga sotib olgan.

— Dunyodagi eng katta kitob holida chop etilgan majmua Irlandiya universiteti tomonidan 1968-1972 yillarda chiqarilgan 1112 jildli «Britaniya parlamenti hujjatlari»dir. To‘liq majmua 3,3 tonnani tashkil etadi. Uni to‘liq o‘qib chiqish uchun 6 yil ketadi.


— Dunyodagi eng qadimiy kitob Priss papirusidir. U eramizdan avvalgi 3350 yili yozilgan.Ushbu qo‘lyozma uni 1839 yili Fivadan topgan Yemil Priss sharafiga shunday nomlangan.Qo‘lyozma muallifi — fir‘avnning vaziri Pta-Gotep. U yoshlarning tarbiyasizligi, dangasa va axloqsizligidan noligan.

— Hozirgi paytda dunyodagi eng katta kitob — «Bu — Muhammad (s.a.v.)» deb nomlangan bo‘lib, og‘irligi 1,5 tonadir. Kitob 429 sahifadan iborat. Uni 9 oy davomida 50 kishi tayyorlagan. 2,7 million dollar sarflangan. Kitob Dubaydagi savdo markazida saqlanadi.


Matn yuzasidan topshiriqlar:

1. Matni o 'qing. Kalit so 'zlarni aniqlang.
 2. Matndagi sizni qiziqtirgan yangi ma 'lumotlarni daftaringizga yozing.
 3. Matndagi ma 'lumotlar yuzasidan munozara qiling.

5-topshiriq. Nima uchun? texnologiyasi



30-mavzu. Ilmiy matnda dalillar, obyektlar, jarayonlar va xulosalarning berilishi



Nazariy ma'lumot.

Dalillarni taqdim etish o‘quvchiga har qanday haqiqiy voqealar, hodisalar haqida ma’lumot berishni maqsad qilib qo‘ygan. Matndagi fikrlarda taniqli ilmiy

kashfiyotlar, nazariyalar, tadqiqot natijalari, o‘tmishdagi olimlar va zamonaviy olimlar tomonidan olib borilgan tajribalar jarayoni, turli qurilmalar, asboblar, apparatlardan amaliy foydalanish haqida ma’lumotlar ularning batafsil tavsifisiz bo‘lishi mumkin, yaqinda bo‘lib o‘tgan va tarixiy voqealar, ilm-fan va texnologiyaning hozirgi holati, yutuqlar, kashfiyotlar, muammolar va istiqbollar beriladi. Ushbu ma’lumot tahlil qilinmaydi, faqat aytiladi.

Obyektlarni taqdim etish – bu tahlil elementlari bilan keng qamrovli taqdim etish. Ushbu turdagি matn o‘quvchida obyektlar va tarkibiy qismlar haqida aniq tushunchani hosil qiladi, ularning holati va makondagi joylashuvi haqida tasavvur beradi.

Bu yerda obyektlarning tarkibiy, sifatli, miqdoriy xususiyatlarini uchratamiz: tuzilishi, tarkibi, shakli, o‘lchami, kattaligi, vazni, o‘ziga xos xususiyatlari. Bu moddalarning fizik va kimyoviy xususiyatlari haqida ma’lumotni o‘z ichiga olishi kerak. Bundan tashqari, tushunchalar va hodisalar taqdim etish obyektlari sifatida xizmat qilishi mumkin.

Jarayonlarni taqdim etish turli jarayonlarning mohiyati, harakatdagи hodisalar, ularning paydo bo‘lish dinamikasining tashqi va ichki sabablari, jarayonlar mexanizmi, ularning bosqichlari va davrlari haqida ma’lumot beradi. Ushbu turdagи matnlar obyektlar, asboblar, qurilmalar, moddalarning harakatini tasvirlaydi.

Usullarni taqdim etish kabi turdagи matn yordamida o‘quvchi tadqiqot usullari haqida ma’lumot oladi. Ushbu turdagи matnlarning mazmuni mohiyat, xususiyatlar, maqsadlar, usulni qo‘llash sohasi, uning tarkibiy elementlari va ulardan foydalanish tartibi, afzalliklari va kamchiliklari haqida ma’lumot beradi. Ma’lumotlar ushbu usulni qo‘llashning umumiyo sxemasiga, uning baholanishiga, unga qo‘yiladigan talablarga taalluqli bo‘lishi mumkin.

Xulosalarни taqdim etish yakuniy ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. U dalillarni, obyektlarni, usullarni, jarayonlarni, tadqiqotlarni yakuniy baholashni, shuningdek ularning kelajakdagi imkoniyatlari va rivojlanish istiqbollarini tavsiflashi mumkin.

Mavzu yuzasidan mashq va topshiriqlar

1-topshiriq.

Aloqa tarixi muzeyi



Har yilning 18- mayi Xalqaro muzeylar kuni sifatida dunyo miqyosida nishonlanishi muzeylarning hayotimizda o‘ziga xos o‘rni, ahamiyati borligidan dalolatdir. Haqiqatdan ham, muzeylar o‘tmishni hozirgi kun va kelajak bilan bog‘lovchi o‘ziga xos ko‘prik sifatida muhim o‘rin tutadi. Muzeyga yig‘ilgan osori atiqalarni tomosha qilar ekan, har bir inson ajdodlarimiz qay tarzda hayot kechirganlari, taraqqiyot qay holatda rivojlanib borgani, bu yo‘lda kimlar o‘zining munosib hissasini qo‘sghanligiga guvoh bo‘ladi.

Shuning uchun ham muzeylarga odamlar, ayniqsa, yoshlar qalbida vatanparvarlik tuyg’usini kuchaytiruvchi vosita sifatida qaraladi va katta ahamiyat beriladi. O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi rahbarlarida sohaga oid muzey tashkil etish fikrining paydo bo‘lishida ham ana shu maqsad mujassam edi.



Muzey qurilishi O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi tashabbusi bilan aloqa sohasi korxonalarini hisobiga qurildi. Bir yil muddat ichida zamonaviy uch qavatli bino bunyod etildi, unda milliy axborot-telekommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi yutuqlar va rivojlanish bosqichlari keng ekspozitsiyasi joylashtirildi.

Muzey kolleksiyasini to‘plashda o‘zi uchun qimmatli tarixiy buyumlarni xolisona taqdim etib jamoatchilik ham o‘z hissasini qo‘shdi.

Shunday qilib, Toshkent shahrida mamlakatimizda telekommunikatsiya sohasi tashkil etilishi va rivojlanishi yo‘lini namoyish etuvchi, 400 dan ortiq turli eksponatlardan jamlangan Aloqa tarixi muzeyi o‘z faoliyatini boshladi.

Uch qavatli muzey turli ekspozitsiyalarga boy: misol uchun yuqorida tasvirlangan, bir necha yuz yillar davomida foydalanilgan pochta aravasi

maketi birinchi qavatda joylashtirilgan.



Maket doimo o‘z ishining ustalari deb hisoblangan Qo‘qonlik hunarmandlar tomonidan haqiqiy kattaligida tayyorlangan. Bundan tashqari, muzeyning shu qavatida mutaxassislar, olimlar, tashrif buyuruvchilar o‘rtasida muloqot va norasmiy uchrashuvlar hamda munozaralar o‘tkazish joyi tashkil etilgan.

Matn yuzasidan savol va topshiriqlar

1. *Matndagi aloqa tarixiga doir termin va iboralarni ko‘chirib yozing va ularning ma’nosini izohlang.*
2. *Nima uchun muzeylarni o‘tmish va kelajak orasidagi ko‘prikka qiyoslanadi?*
3. *O‘z shahringiz (viloyatingiz)da qanday muzeylar bor?*
4. *Muzeydagi biror eksponat haqida so‘zlab bering.*

2- topshiriq. Rasmli aqliy hujum (muzeylar bo‘yicha)

Quyidagi O‘zbekiston muzeylari nomlarini yozing



3-topshiriq. Nostandart test (muzeylar va shaharlarni birlashtiring).

Ermitaj Nyu York (AQSh)

Luvr Sankt-Peterburg (Rossiya)


Metropolitan Madrid (Ispaniya)

Prado London (Angliya)

Britaniya muzeyi Parij (Fransiya)

4-topshiriq.

Leksikologiya



Leksikologiyada so‘zlar, ularning kelib chiqishi (etimologiyasi), ma’nosi va ma’no taraqqiyoti (so‘zlarning o‘z va ko‘chma ma’nolari, shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra turlari), turg’un birikmalar (frazeologik birikmalar) va bo‘shqa shu kabi masalalar o‘rganiladi.

Tilning leksik qatlami

Bizga ma’lumki, so‘z va uning ma’nolarini o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limiga *leksikologiya* deyiladi. So‘zning grammatik ma’no bildiruvchi qo‘sishimchalarsiz qismi *leksema* sanaladi. So‘z lug’aviy ma’no (masalan: qalam-o‘quv quroli), va grammatik ma’noga ega bo‘ladi (masalan: qalam- ot, turdosh ot, birlikda, turlanmagan). Mustaqil so‘zlar ham lug’aviy, ham grammatik ma’no ifodalaydi; yordamchi so‘zlar esa faqat grammatik ma’noni bildiradi. Lug’aviy ma’no anglatuvchi til birliklari lug’aviy birliklar deyiladi. Lug’aviy birliklar quyidagilar: 1) so‘z; 2) ibora; 3) termin (atama); 4) qo‘shma so‘z; 5) tasviriy ifoda.

So‘zlar bir ma’noli (monosemantik) va ko‘p ma’noli (polisemantik) bo‘ladi. Atoqli otlar va terminlar odatda bir ma’noli bo‘ladi. Masalan: termometr, affiks, prefiks, Andijon, Samarqand, Toshkent. So‘zlarning ko‘p ma’noliligi kontekstda aniqlanadi. Demak, polisemantik so‘zda so‘z bitta, ma’no ko‘p bo‘ladi.

So‘zning o‘z ma’no va ko‘chma ma’nolari. So‘z ma’nosi ko‘chishi natijasida o‘z va ko‘chma ma’no hosil bo‘ladi.

So‘zlarning nutq jarayoniga bog’liq bo‘limgan atash ma’nosi o‘z ma’no (denotativ, bosh, atash ma’no)si sanaladi.

So‘zning nutqdagi boshqa so‘zlarga bog’lanib hosil qilinadigan yondosh ma’nosi ko‘chma ma’no (konnotativ ma’no) hisoblanadi. Masalan: odamning qulog’i o‘z ma’noda, qozonning qulog’i ko‘chma ma’noda.

Tasviriyl ifodalar. Biror narsa, hodisani boshqa bir narsa va hodisaga o‘xshatish orqali tasvirlab ifodalashga tasviriyl ifoda deyiladi. Tasviriyl ifodalar nutqimiz ta’sirchanligini ta’minkaydi: osmon-moviy gumbaz; qora oltin -neft

Iboralar (turg’un birikmalar) – ma’noviy butunlik uchun birlashgan yaxlitlangan bo‘lib, bir leksik ma’noni anglatadi. Iboralarga bir so‘z sifatida qaraladi, lug‘atlarda so‘zlar qatorida beriladi, chunki ular ham so‘zlar kabi ma’no ifodalaydi. Masalan, ko‘zini yog‘ bosgan iborasi- “mag’rurlangan”, yog‘ tushsa yalagudek iborasi – “toza” ma’nosini beradi, ammo bu ma’nolarni obrazli tarzda ifodalaydi.

Termin (atama). Fikrni maqsadni yaqqol aniq qilib berishda ma’nosi aniqlashgan, ishlatilish doirasiga nihoyatda cheklangan, aynan bir tushunchanigina ifodalab kelgan so‘zlar termin (atama) deyiladi. (lotinchadan *chegara belgisi*, *chek* ma’nosini anglatadi).

Sohaviy terminlar va ularning qo‘llanishi

Har bir tilda o‘zining ishlatilishi doirasiga ko‘ra cheklangan, asosan birgina ma’noga ega bo‘lgan, birgina tushunchani ifodalaydigan so‘zlar ham bo‘ladi. Bunday so‘zlar, xususan fan-texnika, san’at, siyosat, til va adabiyot, hunarmandchilik kabi turli sohalarda uchraydi.

Terminlarning muhim xususiyati shundaki, ular ko‘p ma’noli bo‘lmaydi, ko‘chma ma’noda ishlatilishi nihoyatda kam uchraydi. Lekin amaliyotda ba’zi bir terminlar, masalan, hozirgi zamon rus va o‘zbek tillarida operatsiya so‘zi termin sifatida:

- 1) meditsina sohasida yorish, kesish, kesib olib tashlash, yangisini solish va shu yo‘llar bilan kasallikni tuzatish, davolash ma’nosida;
- 2) harbiy sohada biror vazifa va maqsadni amalga oshirishga qaratilgan urush harakatlari ma’nosida;

3) davlat idolarida rasmiy muomala (masalan, bank operatsiyasi, pochta operatsiyasi kabi) ma'nolarda qo'llaniladi.


Ijtimoiy-siyosiy leksika

Bizga ma'lum-ki, ommabop uslub - matbuot, radio, teleko'rsatuvga xos bo'lgan tildir. Bu uslub rasmiy va dolzarb xabarlar, axborotlar, e'lonlar, reportaj, bosh maqolalardan iborat bo'ladi. Ularda fikr kichik hajmdagi ommabop jumlalar orqali ifodalanadi. Har bir xabarga ta'sirli, xabarning asosiy mohiyatini ifodalovchi sarlavhalar qo'yiladi-ki, bu hol o'quvchining diqqatini jalb qiladi.

Matn yuzasidan topshiriqlar:

1. *Ilmiy matnni o'qing.*
2. *Matnda dalillar, obyektlar, jarayonlar va xulosalarning berilishiga e'tibor bering.*
3. *Gipoteza bo'lishi mumkin bo'lgan ma'lumotni ajrating.*

5-topshiriq. *Matnni axborot qismlarga ajrating.*



Nazorat savollari

1. Ilmiy matnda dalillar taqdim etishni qanday tushunasiz?
2. Ilmiy matn mavzusini qanday aniqlash mumkin?
3. Ilmiy matndagi obyektlarni taqdim etish - bu...
4. Matn qanday axborot qismlariga bo'linadi?
5. Ilmiy-tadqiqot matni – bu ...

GLOSSARIY

Abzats – bu mazmun jihatidan birlashgan bir yoki bir nechta jumlalardan iborat matnning bir qismidir.

Adresat (qabul qiluvchi) – axborot yuborilgan shaxs yoki tashkilot.

Akademik yozuv - bu o‘z fikrlarini qisqa, ammo ishonchli ilmiy matn orqali ifodalash va asoslash qobiliyati.

Algoritm - muayyan vazifani hal qilish uchun ijrochining xatti-harakatlari tartibini tasvirlaydigan ko‘rsatmalar to‘plami yoki tasodifiy vazifalar sinfini aniq belgilagan qoidalar majmui.

Analogiya - o‘xshashlik, munosabatlarning tengligi; har qanday xususiyatlar bo‘yicha predmetlar, hodisalar, jarayonlar, kattaliklar va hokazolarning o‘xshashligi, shuningdek taqqoslash yo‘li bilan bilish.

Annotatsiya - kitob, maqola, matn mazmunining yozma shakldagi qisqacha bayoni.

Argument - bu tezisni tasdiqlaydigan dalil (yoki dalillar). Tezisdan argumentga "nima uchun?", - deb savol qo‘yadi. Argument bu savolga "chunki", – deb javob beradi.

Atama (lotin. terminus-chevara)- ilm-fan, texnologiya, san’at va boshqa sohalarning ayrim tushunchasining nomi bo‘lgan so‘z yoki ibora.

Aspekt (lotin tilidan. aspectus -ko‘rinish, qarash, nuqtai nazar) – bu ko‘rib chiqilayotgan obyektning tomonlaridan biri, u muayyan nuqtai nazardan qanday ko‘rinishi.

Axborot annotatsiyasi - matnning ta’rifi va tavsifi (kitoblar, maqolalar va boshqalar)

Axborot - lot. Information so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, tarjimada ma’lumot, tushuntirish, tanishish degan ma’noni anglatadi.

Axborot resurslari - bu insoniyat g’oyalari va ularni amalga oshirish bo‘yicha ko‘rsatmalar, ularning ko‘payishiga imkon beruvchi shaklda to‘plangan.

Avtomatik taqdimot - videotasma, disket, kompakt-diskga ko‘chirilishi va

iste'molchilarga yuborilishi mumkin bo'lgan to'liq axborot mahsuloti.

Badiiy adabiyot tili -og'zaki, kundalik til yozma turiga mos kelmaydigan madaniyatlarda mavjud bo'lgan badiiy asarlarni yaratishga xizmat qiladigan yozma til.

Bayonot - matematik mantiqda hukmni ifodalovchi jumla. Agar ba'zi bir bayonotning mazmunini (ma'nosini) tashkil etuvchi hukm haqiqat bo'lsa, unda bu bayonot haqiqat deb aytildi.

Bayonnoma (grek. πρωτόκολλον; πρττος "birinchi" + κόλλα "elim") dastlab — har qanday voqeа, dalil yoki kelishuvni belgilovchi hujjat.

Belgililik - biror narsaning belgili tavsifi, belgili xususiyatlar, belgili tizimning mavjudligi.

Birlamchi matn - asl manbalar, asl nusxalardir. Bunga, masalan, ilmiy maqola, monografiya kiradi.

Biznes protokoli ish dunyosidagi munosabatlarning muayyan ssenariysi. Butun biznes protokoli biznes dunyosida qabul qilingan qoidalar va konvensiyalar to'plamidir.

Boshlang'ich matn-hamma narsadan oldingi, birinchi.

Boshqacha ifodalash – so'zlovchiga o'zini so'zini yetkazish, ammo boshqa shaklda, u to'g'ri tushunilganligini baholashiga imkon beradi.

Dalillarni taqdim etish - o'quvchiga qandaydir haqiqiy voqealar, hodisalar haqida ma'lumot berishdir.

Davomiylik - rivojlanish jarayonidagi hodisalar o'rtasidagi bog'liqlik, yangi, eskisini olib tashlash, uning ba'zi elementlarini saqlab qoladi.

Dialog (grek. Διάλογος - "suhbat") - ikki yoki undan ortiq kishi o'rtasida og'zaki yoki yozma so'zlar (replikalar, savollar va javoblar) almashinuvining adabiy yoki teatr shaklidir, shuningdek matn yozish vositasida ikki yoki undan ortiq kishi o'rtasida yozma dialog mavjud.

Dialekt - bir hudud bilan bog'liq bo'lgan odamlar o'rtasida muloqot vositasi sifatida ishlataladigan tilning bir turi.

Dinamika (yunon tilidan. динамиқ" kuch, kuch"): dinamika - tashqi yoki ichki omillar ("harakatlantiruvchi kuchlar") ta'siri ostida har qanday hodisaning o'zgarishi.

Dissertatsiya - magistrning ilmiy yoki akademik darajasi va malakasi (darajasi) ni berish bo'yicha malaka ishi.

Differensiatsiya - ajratish, tarkibiy qismlarga ajratish, shakllar, bosqichlar va boshqalar.

Doklad - mustaqil ilmiy-tadqiqot ishining bir turi bo'lib, unda muallif o'rganilayotgan muammoning mohiyatini ochib beradi; turli nuqtai nazarlarni, shuningdek, o'z nuqtai nazarini keltiradi. Og'zaki va yozma doklad mavjud (mazmun bo'yicha referatga yaqin).

Esse - subyektiv munosabatlarni, ma'lum bir mavzu bo'yicha bilimlarni ifodalovchi, uni to'liq ochishni talab qilmaydigan erkin tarkibga ega bo'lgan kichik hajmli mulohaza.

Esse -ta'rif. Ta'rifi berilgan tushunchani tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi.

Esse -insho. Bu yerda voqeа, vaqt va harakatga e'tibor qaratiladi. Natijada, hodisaning ahamiyati va unda ishtirokchining roli ko'rsatilishi shart.

Esse-taqqoslash. Tahlil qilingan tushunchalar taqqoslanganda yoziladi, ular o'rtasida paralleliliklar o'tkaziladi, o'xshashliklar va farqlar qayd etiladi. Shu bilan birga, muallif misollarga o'z munosabatini ko'rsatishi kerak. Agar bu hikoya illyustratsiyalar (test misollar) bilan mustahkamlansa, u esse-illyustratsiyaga o'tadi.

Erkin konspekt - bayonotlar, iqtibos, ba'zan tezislardan iborat; matnning bir qismi reja bilan ta'minlanishi mumkin.

Eslatma - jurnalistikaning axborot janri bo'lib, u haqiqatni ifodalaydigan yoki muayyan savol beradigan qisqa xabarni bildiradi.

Faoliyat - obyekt (atrofdagi haqiqat) bilan subyektning (oqilona mavjudotning) ongli faol o'zaro harakatlanish jarayoni (jarayonlari), uning davomida subyekt obyektga maqsadli ta'sir ko'rsatadi, maqsadga erishish yo'lida har qanday ehtiyojlarini qondiradi.

Fikrlash - insonning bilim faoliyati. Bu haqiqatni aks ettirishning vositachilik va umumlashtirilgan usulidir. Fikrlash natijasi - bu fikr (tushuncha, ma’no, g’oya).

Fikrlash - mantiqiy izchil shaklda bayon etilgan bir qator fikrlar, qarorlar, xulosalar.

Gap - xabar, savol yoki his-hayajon mavjud bo‘lgan til birligi. Gapning asosiy xususiyatlari uning ma’noviy tuzilishi va tugallanganligi. So‘zlardan farqli o‘laroq, gaplar kommunikativ funksiyani bajaradi.

Gipoteza - har qanday hodisalarni tushuntirish uchun taqdim etilgan ilmiy taxmindir; bu tadqiqot olib kelishi mumkin bo‘lgan umumiyligini qoidalar, asosiy g‘oyalarning aqliy ifodasidir.

Guruhi annotatsiyasi- oddiy matnlarning (kitoblar, maqolalar) umumlashtirilgan tavsifi.

Hikoya yoki novella (Ital. novella-yangilik) - kichik hikoya nasrinining asosiy janri. Hikoyalar muallifi odatda novelist va hikoyalar to‘plami-novellistika deb ataladi.

Hikoya - vaqt va makonda muntazam ravishda joylashtirilgan hamda miqdoriy va sifat jihatidan o‘zgarib turadigan harakatlar va voqealar haqidagi ma’lumotlarni uzatishdir.

Iboralararo aloqa - matnning qismlari orasidagi "mazmun va tarkib birligini tashkil etuvchi" aloqadir.

Ilm-fan - borliq haqida obyektiv bilimlarni ishlab chiqish va tizimlashtirishga qaratilgan inson faoliyati sohasi. Ushbu faoliyat faktlarni to‘plash, ularni muntazam yangilash, tizimlashtirish va tanqidiy tahlil qilish orqali amalga oshiriladi.

Ilmiy konferensiya - tadqiqotchilar o‘z ishlarini taqdim etadigan va muhokama qiladigan ilmiy faoliyatni tashkil etish shakli.

Ilmiy taqriz - bu ilmiy daraja, magistrlik dissertatsiyalar, monografiyalar, nashr etish uchun maqolalar va boshqa ilmiy ishlar uchun dissertatsiyalarning tahlili bo‘lib, u faqat ma’lum bir sohada mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi.

Ilmiy maqola ilmiy metodlardan foydalangan holda olib borilgan tadqiqotning asosiy natijalarini o‘z ichiga olgan ishdir.

Ilmiy sharh - ma'lum bir vaqt mobaynida ma'lum bir mavzu bo'yicha ko'plab manbalarni tanlash, tahlil qilish, tizimlashtirish va mantiqiy umumlashtirishdan olingen umumlashgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan matndir.

Ilmiy uslub - adabiy tilning funksional uslubi bo'lib, unda bir qator xususiyatlar mavjud: bayonotni oldindan o'ylash, monologik xarakter, til vositalarini qat'iy tanlash, normalashgan nutqqa tortish.

Ikkilamchi matn - boshqa muallifga tegishli birlamchi matnlar asosida yaratilgan matn.

Interaktiv taqdimot - bu kompyuter bilan foydalanuvchi muloqotidir.

Inversiya - (lot. inversio – qayta o'rnatish) – jumla a'zolarining odatiy – to'g'ridan-to'g'ri tartibni buzadigan maxsus tartibda joylashtirish, nutqning ifodasini kuchaytirish.

Janr (fr. genre, lot. generis — "jins, tur, qabila, avlod") - "badiiy faoliyatning gnoseologik (bilish) va aksiologik (baholash) funksiyalarining o'zaro ta'siri natijasida o'z taqdirini o'zi belgilash asosida san'atning tarixiy rivojlanishi jarayonida shakllanadigan badiiy asarlarning umumiyligi".

Jarayonlarni taqdim etish - bu turli jarayonlarning mohiyati, harakatdagi hodisalar, ularning tashqi va ichki sabablari, ularning dinamikasi, jarayonlar mexanizmi, ularning bosqichlari va davrlari haqida ma'lumot.

Kinestetika - imo-ishoralar, pozalar, ko'z ifodalari va yuz ifodalarini o'rganadigan fan.

Klishe (fr.cliché): Nutq klishesi – so'zdan foydalanishning standart namunalari, iboralar va sintaktik inshootlarning odatiy sxemalari, shuningdek muayyan vaziyatdarda nutq xatti-harakatlarining umumiyligi modellari.

Kommunikatsiya - harbiy ishlarda, aloqa yo'li, aloqa liniyasi, ta'minot. Kommunikatsiya (kommunikatsiya nazariyasi asoslari) — samarali sinxron va diaxron ta'sir o'tkazish, uning maqsadi axborotni bir subyektdan boshqasiga o'tkazishdir.

Komponent - biror narsaning ajralmas qismi.

Kommunikativ maqsad - muloqot qilish uchun nima qilish kerakligini anglatadi.

Konspekt - kerakli ma'lumotni xotirada saqlab qolishga imkon beruvchi yozma ravishda mavzuning qisqacha mazmuni.

Kontekst (lotin tilidan. contextus - "ulanish", "aloqa") - yozma yoki og'zaki nutq (matn) ning to'liq parchasi, uning umumiyligi ma'nosi unga kiritilgan alohida so'zlar yoki jumlalarning ma'nosini aniqlashtirishga imkon beradi.

Kurs ishi - oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari talabalari tomonidan amalga oshiriladigan vazifa, odatda ikkinchi yoki uchinchi kurslarda referatlar shaklida, katta kursda - tadqiqot ishi shaklida bajariladi. Ko'pincha kurs ishlari mutaxassislik bo'yicha asosiy bo'lgan mavzularda amalga oshiriladi.

Ko'nikma - takrorlash va avtomatizatsiyaga olib keladigan faoliyat qobiliyati.

Leksika - bu tildagi, tilning bir qismidagi so'zlarning yig'indisi. Leksika tilning markaziy qismidir, u qandaydir obyekt, hodisalar haqida bilimni nomlaydi, shakllantiradi va yetkazadi.

Loyiha - noyob mahsulotni yaratishga qaratilgan va bir martalik, takrorlanmaydigan xarakterga ega bo'lgan izchil insoniy harakatlar to'plamidir.

Mantiq - mantiqiy qonunlar va intellektual (aqliy) bilish faoliyatining metodlari to'g'risidagi normativ fan.

Matn (lot. textus-mato; pleksus, kombinatsiya)- har qanday moddiy vositada qayd etilgan inson fikri; umuman, ramzlarining izchil va to'liq ketma-ketligi.

Matnli konspekt - asosan, asl nusxadan-iqtiboslardan yaratilgan xulosa.

Matnni qismlarga bo'lish - mantiqiy ravishda mustaqil tarkibiy qismlarga bo'lish.

Mavzu (ta'rif predmeti) - 1) tavsif, rasm, tadqiqot, nutq, muhokamaning mavzusi. 2) badiiy tasvirning obyekti, yozuvchi yoki rassom tomonidan ko'rsatiladigan hayotiy hodisalar doirasi.

Monolog (yunon. μόνος — bir va λόγος-nutq) - aktyorning nutqi, asosan dramatik asarlarda, dialogdan farqli o'laroq, personajlarning suhbatlashuvi bo'lmaydi va to'g'ridan-to'g'ri javob bermaydi.

Marketing taqdimoti - kelajakdagi savdo taqdimotlar uchun shart-sharoitlar tayyorlash maqsadida ishlataladi. U keng auditoriyaga (ko'rgazma-yarmarkalarda yoki xaridorning ofisida o'tkaziladi), sotish bo'yicha agentlarni tayyorlash uchun

ishlatiladi.

Markirovkalash - lingvistik, shuningdek, Praga lingvistik maktabida birinchi marta ishlab chiqilgan umumiy semiotik tushuncha.

Mikromavzu - matnning umumiy mavzusining ajralmas qismi. Shartli ravishda abzatsning asosiy g‘oyasi deb atash mumkin.

Monografiya - bir mavzu yoki bir nechta o‘zaro bog‘liq mavzularni chuqr o‘rganuvchi kitob shaklidagi ilmiy ish. Monografiya ilmiy nasrning janrlariga kiradi.

Muloqot - odamlar (shaxslararo muloqot) va guruqlar (guruqlararo muloqot) o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatish va rivojlantirishning murakkab ko‘p qirrali jarayoni, birqalikdagi faoliyat ehtiyojlari bilan yaratilgan va kamida uch xil jarayonni o‘z ichiga oladi: kommunikatsiya (axborot almashish), interaksiya (harakat almashish) va ijtimoiy hislar (sherikni anglash va tushunish).

Nutqning ta’sirchanligi uning kommunikativ sifati bo‘lib, so‘zlovchining o‘zi va auditoriya oldiga qo‘ygan vazifani hal qilish imkoniyatidan iborat.

Nutqning mantiqiyligi - kommunikativ sifat bo‘lib, ifoda etilayotgan mazmunni ketma-ket, izchil va dalillar bilan berishni nazarda tutadi.

Nutq madaniyati - adabiy til normalari tizimini o‘zlashtirish va egallash; bilim sifati va muloqot uchun tilni maqsadli ishlatish qobiliyati.

No verbal vositalar – so‘z orqali berilmagan muloqot vositalari.

Neytral leksika - hissiy jihatdan neytral, ifodali bo‘yoqsiz so‘zlar: suv, yer, yoz, shamol, momaqaldiroq, uzoq, o‘ynash, chopish.

Nutq shtamplari - bu kontekstni hisobga olmagan holda tez-tez ishlatib turadigan ma’nolari yo‘qolgan tasvirlar, hissiy jihatdan zerikarli bo‘lgan so‘zlar va iboralar.

Obyekt (lot. objectum - "predmet"): obyekt — subyektning (kuzatuvchining) amaliy yoki bilish faoliyatiga yo‘naltirilgan biror narsani ifodalovchi falsafiy kategoriya.

Oratoriya – auditoriyaga kerakli ta’sirni ta’minlash maqsadida ommaviy nutqni tayyorlash va talaffuz qilish qonunlari haqidagi fan.

Ocherk - epik adabiyotning- hikoyaning kichik shakllaridan biri, boshqa shakldan farqli, yagona, o'tkir va tezkor hal qiluvchi mojaroning yo'qligi va tavsiflovchi tasvirning yanada rivojlanishi.

Obyektlarni taqdim yetish - tahlil elementlari bilan keng qamrovli taqdim etish.

Og'zaki nutq uslubi - norasmiy muloqot uchun ishlatiladigan nutqning funksional uslubi, xususan, norasmiy sharoitda maishiy masalalarni muhokama qilish.

O'quv taqdimoti - o'qituvchiga o'quv materiallarining qulay va aniq taqdim etilishini ta'minlashga yordam berish uchun mo'ljallangan.

O'zaro aloqalar - moddiy olamni o'zgartirish jarayonida barcha predmetlar va hodisalar bir-biri bilan son-sanoqsiz aloqalarda bo'lishini ifodalovchi kategoriya.

Paradoks - keng ma'noda, umumiy qabul qilingan fikrdan ajralib turadigan va mantiqsiz yoki aql-idrokka zid bo'lgan (ko'pincha yuzaki tushunish bilan) nutq, fikr, mulohaza yuritish.

Povest - bu roman va hikoya o'rtaqidagi oraliq joyni egallagan nasriy janr bo'lib, u hayotning tabiiy oqimini aks ettiradigan xronikali syujetga qaratilgan.

Pragmatizm - XIX asrning oxirida amerikalik faylasuflar Charlz Pirs, Uilyam Jeyms va D. Dyui tomonidan ishlab chiqilgan falsafiy ta'limot. Ularning nuqtai nazari bo'yicha, ma'lum bir g'oya yoki nazariyaning haqiqati ularning haqiqiy holatiga emas, balki amaliy muammolarni hal qilish uchun foydasidadir.

Professionalism - cheklangan foydalanish leksikasining bir turi: bu kasb egalari orasida kasb haqida norasmiy muloqotga xos bo'lgan so'zlar va iboralar.

Publitsistik nutq uslubi - gazetalar, ijtimoiy-siyosiy jurnallar, tashviqot radio va teleko'rsatuvlari, hujjatli filmlarga sharhlar, yig'ilishlar, mitinglar, bayramlar va hokazolar tili.

Reja – ma'lum bir ketma-ketlikda asosiy fikrlar, ushbu matnda ko'rib chiqilgan qoidalar ro'yxatidir.

Rasmiy-idoraviy uslubi - bu hujjatlar uslubi: xalqaro shartnomalar, davlat hujjatlari, huquqiy qonunlar, qarorlar, nizomlar, ko'rsatmalar, xizmat yozishmalari, ish qog'ozlari va boshqalar.

Rasmiy yoki biznes suhbati - professional yoki biznes manfaatlari bilan bog‘liq sheriklar o‘rtasida og‘zaki muloqotdir.

Raport (fr. rapport, reporter — xabar berish, hisobot berish) — boshliqlarga (qo‘mondonlarga) murojaat qilganda, asosan, harbiy ishlarda, yuqori lavozimli amaldorlardan og‘zaki yoki yozma hisobot (xabar).

Ro‘yxatga olish - tilning funksional turi, semantik tushuncha, maydonning, modusning va tonallikning muayyan vaziyat yig‘indisiga xos bo‘lgan qiymatlarning konfiguratsiyasini bildiradi.

Reglament - belgilangan qoidalar va cheklov larga bo‘ysunish.

Rezyumelashtirish - so‘zlovchining asosiy g‘oyalari va his-tuyg‘ularini jamlaydigan usul.

Replika - sheriklardan birining muallifi bo‘lgan har qanday uzunlikdagi matnning doimiy qismi.

Reportaj - voqeа joyidan xabar. Jurnalistikaning janri, operativlik uning o‘ziga xosligi hisoblanadi.

Referat (lotin. reffere-hisobot berish, xabar berish) - bu mavzuni ochib beruvchi turli adabiy manbalardan (kitoblar, maqolalar, ilmiy to‘plamlar va boshqalar) yozma ravishda kichik hajmdagi bayon.

Referativ o‘qish - asosiy ma’lumotni olish va uni ikkilamchi matn (annotatsiya, referat, tezislар) shaklida amalga oshirish uchun o‘qilgan narsalarni to‘liq tushunishga qaratilgan o‘qish.

Savdo taqdimoti - shartnomalar tuzish vaqtida savdo agentlari tomonidan foydalaniadi. Bu imkon qadar qisqa vaqt ichida mahsulot haqidagi barcha ma’lumotlarni taqdim etish imkonini beradi.

Slayd - mantiqiy ravishda avtonom axborot tuzilishi (vizual materiallar birligi – maxsus rasm), monitor ekranida, qog‘oz varag‘ida yoki bitta kompozitsiya shaklida rangli tasma varag‘ida taqdim etiladigan turli xil narsalarni o‘z ichiga oladi. Slayd tarkibida turli xil obyektlar bo‘lishi mumkin

Stilistika - filologiya fani, tilshunoslikning bir qismi, til muloqotining turli shartlari uchun bir xil bo‘lmagan til birliklarini yagona ma’no va kompozitsion

butunlikka (matn) birlashtirish tamoyillari va usullari, shuningdek, ushbu tamoyillar va til (uslublar) va ularning tizimidan foydalanishning turli xil usullari bilan belgilanadigan farqlar.

Ta’rif - borliqning statistik tasvirini beruvchi nutqdir.

Tavsiya annotatsiyasi - axborotni ishlatish uchun ta’rif, tavsif, obyektiv baholash, tavsiyalar.

Taqdimot - (lot.praesentatio–taqdim qilish) – bir kishi tomonidan yordamchi texnik vositalardan foydalangan holda muayyan doiradagi shaxslarga biron-bir ma'lumotni yetkazish vazifalarini hal qiluvchi maqsadli aloqa jarayoni.

Taqriz - (lotin. – "sharh"," xabar"," qayta ko‘rib chiqish"," baholash") - mahsulotni tahlil qilish va baholash (adabiy asar, badiiy matn, film, kompyuter dasturi, ilmiy ish va boshqalar) uchun mo‘ljallangan jurnalistikaning janri yoki ilmiy janr.

Tezaurus (yun. θησαυρός" treasure"), umumiylar ma'noda - maxsus terminologiya.

Tezislar - muallif matnni yaratish jarayonida isbotlaydigan yoki rad etadigan asosiy g'oya. Tezis aniq ifodalanishi va dalil davomida o‘zgarmasligi kerak.

Tematik konspekt - mavzu bo'yicha ko‘proq yoki kamroq to‘liq javob beradi (jalb qilingan manbalar soniga va boshqa materiallarga, masalan, o‘z yozuvlariga qarab).

Terminologiya - ma'lum bir sohada ishlatiladigan atamalar to‘plami. Har bir bilim sohasi terminologiyasi kasbiy bilimlarning kontseptual aloqlari asosida qurilgan.

Vokal spirali - nutqning oxiriga qadar bayonning ovoz balandligi va temperamentini bosqichma-bosqich oshirish.

Xabar - bu tadbirda ishtirok etgan, qayerda va nima sodir bo‘lganligi, qayd etilgan voqealari xarakteridagi ma'lumotlarning uzatilishi.

Xat (yozish) — yozma bayonotni yaratishga qaratilgan samarali nutq faoliyati.

Xulosalarni taqdim etish - dalillarni, obyektlarni, usullarni, jarayonlarni, tadqiqotlarni baholashni, shuningdek, ularning kelajakdagagi imkoniyatlarini va rivojlanish istiqbollarini tavsiflashni o‘z ichiga olgan yakuniy ma'lumotdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. N. Jiyanova, O. Mo‘ydinova. Nutq madaniyati. – T.: “Ilm ziyo zakovat”, 2019. 221 b.
2. Xolmonova Z. Adabiy tildan ma’ruzalar umumlashmasi-T.: «O‘zbekiston», 2013, 250 b.
3. Qo‘ng’urov R., Begmatov Ye., Tojiyev Yo. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari, - T.: “Fan”, 1992, 254b.
4. Husanov.N., Rasulov, Mo‘ydinov Q. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati .-T.: “IQTISOD-MOLIYa”, 2006.
5. D.A. Babaxonova. Ofitsialnyy delovoy stil sovremennoogo uzbekskogo literaturnogoazyka. AKD, T.,1987 g.
6. M.Abdurahmanova. O‘zbek tili fanidan uslubiy qo‘llanma. Ish yuritish tili va uslubi. T., 2018.
- 7.Mahmudov N.O‘qituvchi nutqi madaniyati. T.: «O‘zbekiston milliy kutubxonasi», 2009,188b.
8. Jumaniyozov R., Nutqiy mahorat .-T.: “Adolat”, 2005, 90 b.
9. M.X.Axmedova, K.A.Gayubova. “O‘zbek tili”. T. TATU, “Aloqachi”, 2019.
10. Mahmudov N.O‘qituvchi nutqi madaniyati. T.: «O‘zbekiston milliy kutubxonasi», 2009,188b.
11. Husanov N., Mirahmedova Z. Mutaxassislik tili. T.: TMI, 2003.
12. S.V.Usmanov va .b. O‘zbek tilida ish yuritish amaliyoti. T. 1999 y.
13. Ruscha - o‘zbekcha lug’at (2 jildli). - Toshkent: O‘zbekiston milliy yensiklopediyasi, 2013.
14. Abdullaeva S.X., Dospanova D.U. Akademicheskoe pismo Metodicheskie rekomendatsii, 2020 g. Tashkent
15. Akademicheskoe pismo. Ot issledovaniya k tekstu : uchebnik i prak- tikum dlya akademicheskogo bakalavriata / Yu. M. Kuvshinskaya, N. A. Zevaxina, Ya. E. Axapkina, Ye. I. Gordienko; pod red. Yu. M. Kuvshinskoy. – Moskva: Izdatelstvo «Yurayt», 2019. – 284 s. – (Seriya: Bakalavr. Akademicheskiy kurs). – ISBN: 978-5-534-08297-5

16. Korotkina, I. B. Akademicheskoe pismo: uchebno-metodicheskoe posobie dlya rukovoditeley shkol i spesialistov obrazovaniya / I. B. Korotkina. Saarbruecken : LAP LAMBERT Academic Publishing GmbH&Co. KG, 2011. – 175 s. – ISBN 978-3-8465-0296-9.
17. Korotkina I.B. Modeli obucheniya akademicheskому pismu. Uchebnoe posobie, 2019 «Yurayt».
18. Kuvshinskaya Yu. M., Zevaxina N. A., Axapkina Ya. E., Gordienko Ye. I. ; Pod red. Kuvshinskoy Yu.M. - AKADEMICHESKOE PISMO. OT ISSLEDOVANIYa K TEKSTU. Uchebnik i praktikum dlya akademicheskogo bakalavriata - M.:Izdatelstvo Yurayt - 2019 - 284s. - ISBN: 978-5-534-08297-5 - Tekst elektronnyiy // EBS YuRAYT - URL: <https://urait.ru/book/akademicheskoe-pismo-ot-issledovaniya-k-tekstu-424762>
19. Perfileva N.P. - Podgotovka i redaktirovanie nauchnogo teksta - Izdatelstvo "FLINTA" - 2015 - 116s. - ISBN: 978-5-9765-2127-8 - Tekst elektronnyiy // EBS LAN - URL: <https://e.lanbook.com/book/74632>
20. Buzan, T. Mind Map Mastery : The Complete Guide to Learning and Using the Most Powerful Thinking Tool in the Universe / Tony Buzan. – London : Watkins Publishing, 2018. – 244 p. – ISBN 978-1786781413.
21. Jerald Alred, Charles Brusaw, Walter Oliu. Hahdbook of technical writing. New York, Copyright 2003.
22. Stephen Bailey. Akademic writing. Handbook for international student's. London, 2015
23. Beaufort A. College writing and beyond: A new framework for university writing instruction. Logan, Utah: Utah State University Press, 2007.
24. Irvin L. What Is “Academic” Writing? // <http://wac.colostate.edu/books/writingspaces1/irvin--what-is-academic-writing>.
25. Charmaz K. Constructing Grounded Theory: A Practical Guide through Qualitative Analysis. L.: Sage Publications, 2006. 7. Volpato G.L. The Logic of Scientific Writing // Revista de Sistemas de Informação da FSMA n. 7. 2011.

26. Hartley, J. Academic Writing and Publishing : A practical handbook / James Hartley. – London : New York : Routledge, 2008. – 196 p. – ISBN 0-203-92798-2.

Axborot manbalari

- 1..<http://solver.uz/translate.php> - Russko-uzbekskiy perevodchik.
- 2.http://sahifa.tj/uzbeksko_russkij.aspx- Uzbeksko-russkiy perevodchik.
- 3.<http://teachyourselfuzbek.com/resources/coursebooks/> -Самоучитель узбекского языка.
4. <http://library.ziyonet.uz/> - ta'lim portali.

“Akademik yozuv” o‘quv qo‘llanma

“O‘zbek va rus tillari” kafedrasining
2022 yil “ 1 ” 02 (23- sonli bayonnomma) majlisda
ko ‘rib chiqildi va chop yetishga tavsiya qilindi.

TATU BDIRU QAT fakultetining
ilmiy- uslubiy kengashida ko‘rib chiqildi va
chop etishga tavsiya qilindi
2022 yil “ 02 fevral ”, navbatdan tashqari
bayonnomasi.

TATU ilmiy-uslubiy Kengashida
ko ‘rib chiqildi va chop etishga tavsiya qilindi
2022 yil “23” fevral, 7(153)- sonli bayonnomma.

Tuzuvchilar: K.A.Gayubova

N.D.Yulanova

Taqrizchilar: p.f.d., prof. R.X.Niyozmetova

f.f.n., dots. G.A. Narimova

PhD, dots. S.X.Abdullayeva

Mas’ul muharrir: S.X.Abdullayeva